M. Gorkiy

FOMA GORDEYEV

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

Ilgarigi berilmalar miqdori _____	

СП

821
G 75

5.0.

Rus adabiyoti durdonalari

MAKSIM GORKIY

FOMA GORDEYEV

T 35

Roman

TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2021

UO'K 821.161.1-31
KBK 84(2Ros=Rus)
G 75

Rus tilidan
Ma'ruf Hakim tarjimasi

Maksim Gorkiy T35

G 75 Foma Gordeyev [Matn] : roman / M. Gorkiy. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 304 b.

ISBN 978-9943-7331-3-8 **UO'K 821.161.1-31**
KBK 84(2Ros=Rus)

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

Aleksey Maksimovich Gorkiy

FOMA GORDEYEV

Roman

Tarjimon **M. Hakim**

Nashr uchun mas'ul ***A. Boboniyozov***

To'plab nashrga tayyorlovchi ***N. Abdurahmonova***

Muharrir *Nilufar Abdurahmonova,* Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*
Texnik muharrir *Tatyana Xaritonova,* Musahhih *Shohida Xojiyeva*
Kichik muharrir *Matluba Salimova,* Kompyuterda sahifalovchi *Saodat Aziztoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009.
Bosishga 2021-yil 30-iyunda ruxsat etildi. Bichimi $60\times90^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. «Times New Roman» garniturasida
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 19,0.
Nashr tabog'i 18,36. Adadi 10000 nusxa.
Buyurtma № 21-194.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20 Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz www.iptd-uzbekistan.uz

ISBN 978-9943-7331-3-8

TOSHKENT SHAHAR YASHNOBOD TUMANI
№ 2022/N2-28

© Maksim Gorkiy, 2021
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021

I

ANTON PAVLOVICH CHEXOVGA
bag'ishlayman.
M. Gorkiy

Bundan oltmish yilcha burun, Volgada afsonaviy sur'atlar bilan million-million boyliklar vujudga kelayotgan bir paytda, Zayev degan savdogar boyning barjalaridan birida Ignat Gordeyev suv to'kuvchi bo'lib ishlardi.

Baquvvat, kelishgan va aqli raso bo'lgan bu odam – hamma vaqt va har bir ishda omadi yurishgan odamlardan biri edi – bunday odamlarning omadli bo'lishiga sabab ularning qobiliyatli va mehnatsevar bo'lganliklarigina emas, balki, ular nihoyatda g'ayratli bo'lganliklari uchun ham o'z maqsadlariga erishish yo'lida qanday vositalardan foydalanish ustida o'ylab o'tirmaydilar (hatto o'ylay olmaydilar ham) va o'z istaklaridan boshqa qonunni ham bilmaydilar. Goho ular vijdon azobida vahimaga tushadilar, ba'zan esa vijdon bilan kurashda qattiq azoblanadilar, ammo ruhan zaif odamlar uchungina vijdon yengilmaydi, zo'ravonlar esa, uni darhol qo'lga olib o'z maqsadlariga bo'ysundiradilar. Ular vijdon uchun bir necha uyqusiz tunlarini qurbon qiladilar, agar bordi-yu, vijdon ularning ko'ngillarini yumshata olsa, u choqda, undan yengilsalar ham baribir, mahv bo'lmaydilar va vijdonsiz qanday yashagan bo'lsalar, vijdon bilan ham xuddi shunday kuchli bo'lib yashayveradilar...

Ignat Gordeyev qirq yoshga kirganda o'zi ham uch paroxod va o'nlab barjalarga ega bo'ldi. Volgada hamma uni boy va aqlli odam deb hurmat qilardi, biroq unga «Dovdir» degan laqab berilgandi, chunki uning hayoti boshqa odamlarniki singari bir maromda oqmasdi, goho birdan quturib, qaynab, izdan chalg'ib, yashashning asosiy maqsadi bo'lgan boylik orttirishdan chetga chi-

qib ketardi. Go'yo uchta Gordeyev bordek, Ignatning tanasida uchta jon yashar edi. Bulardan eng kuchlisi nihoyatda ochko'z edi. Ignat uning amriga bo'ysungan choqlarda, faqat tinmay ishlash dardiga mubtalo bo'lgan odamga o'xshardi. Unda bu dard kecha-yu kunduz yonar, Ignatni butunlay qamrab olardi, duch kelgan joydan yuzlab va minglab so'mlarni o'marib tursa hamki, go'yo pulning shaldirashi bilan jiringlashiga hech qachon to'ymagandek edi. U Volganing dam yuqori qismiga qarab, dam quyi tomoniga qarab, oltin ovlaydigan to'rlarni tashlar va mustahkamlar, qishloqlardan g'alla sotib olib o'z barjalarida Ribinskka tashib borar, odamlarni aldar, goho buni o'zi ham sezmas, ba'zan sezganda ham aldanganlarni masxara qilib oshkora kular va pulga shu qadar shaydo bo'lgandiki, bu narsa hatto, she'riyat darajasiga yetgandi. Biroq pul topishga bu qadar o'ch bo'lgani bilan u juda ham xasis emasdi va, hatto, ba'zan, o'z mol-mulkiga chindan ham beparvo qarardi.

Bir kuni, Volgada muz ko'chgan choqda, u sohilda turganida muz uning o'ttiz besh sarjinlik yangi barjasini o'pirilgan qirg'oqqa qisib majaqlayotganini ko'rib, g'ijinib shunday degan edi.

– Bopla!.. Qani, yana... qis, ez... Majaqla!..

– Ignat, – deb so'radi uning otaxoni Mayakin, – hamyoningdan muz o'n mingingni shilib ketyaptimi deyman-a?

– Hechqisi yo'q! Yana yuzlab topamiz!.. Seni qara-yu, Volganing g'ayratini tomosha qil! Qoyilmisan?.. Xuddi suzmani pichoq tilganday, u ham butun yerni ostin-ustun qilib ag'darib tashlashi mumkin, uni qara! Mana senga «Boyarinya» sho'rligim! Atigi bir yoz suv kezdi, xolos... Xo'sh, uni eslab ichamizmi?

Barjani muz majaqlab tashladi. Ignat otaxoni bilan qirg'oqdagi mayxonada aroq ichib «Boyarinya»ning parchalari muz bilan oqib o'tayotganini derazadan tomosha qildi.

– Barjaga achinyapsanmi deyman, Ignat? – deb so'radi Mayakin.

– Nimasiga achinaman?! Volga berdi va o'zi qaytarib oldi... Qo'limni uzib olgani yo'q-ku...

– Har qalay...

– Har qalaying nimasi? Mayli, nima bo'lganini o'z ko'zim bilan ko'rib turdim, bundan keyin saboq bo'ladi!

Lekin «Volgar» degan kemam yonib ketganini ko'rolmay qoldim, shunisi alam qiladi. Qorong'i tunda, suvda azamat gulxanning suzib yurgani juda g'alati bo'lsa kerak, a? Juda zo'r paroxod edida...

– Unga ham achinmadim demoqchi bo'larsan?

– Paroxodgami? Paroxodga achindim, rost... Hamma narsaga ham achinaverish ahmoqlik-ku, nima foyda? Yig'laganing bilan ko'z yoshing o'tni o'chira olmaydi. Mayli, paroxodlar yonaversin, menga desa hammasi yonib ketsin, pisand emas! Faqat yuragimda ishga havas bo'lsa bas... shunday emasmi?

– Shunday, – dedi Mayakin kulimsirab. – Bu gaping juda ma'qul... Shunday degan odamni qip-yalang'och qilib shilib olsang ham baribir, u boyib ketadi...

Ignat minglar nobud bo'lishiga faylasufona munosabatda bo'lsa ham, lekin har bir tiyinning qadrini bilardi, u gadoga ham kamdan kam xayr qilar, xayr qilganda ham mutlaqo ishga yaramaydiganlarigagina berar edi. Bordi-yu, sog'lomroq biron odam xayr so'rab qolgudek bo'lsa, Ignat uni jerkib tashlardi:

– Jo'na, jo'na! Hali qo'lingdan ish keladi, bor, huv anavi xizmatkorimga go'ng tashishga qarash, ikki tiyin beraman, – derdi.

Ignat ishga berilib ketgan choqlarida odamlarga qattiq va shafqatsiz muomala qilar, pul orqasidan quvganda, hatto o'z jonini ham ayamas edi. Odatda shunday hol bahorda, olamdagi barcha mavjud narsa nihoyatda jozibador va go'zal bo'lgan choqda va tiniq osmondan kishining qalbiga qandaydir ta'naomuz yoqimli allanarsa esgan choqda yuz berardi, shunda Ignat Gordeyev o'z ishiga xo'jayin emas, balki uning past bir quli ekanini sezganday bo'lardi. U o'yga tolar va nimanidir o'zidan o'zi jimgina so'rar va go'yo ovozini chiqarib so'rashga qo'rqayotganday, qalin qoshlarini chimirib, atrofiga sinchiklab nazar tashlar, kuni bo'yi xo'mrayib va jahli chiqib yurar edi. Shunday choqda uning ikkinchi joni – ochlikdan g'azabga kelgan yirtqichga o'xshash shahvoniy hirsi uyg'onadi. U hammaga dag'allik va behayolik qilar, ichar, buzuqchilik qilar va boshqalarni ham ichirar, o'zini butunlay unutar va go'yo uning ichi iflosliklar vulqonday qaynab toshar edi. Go'yo u o'zini o'zi kishanlab qo'ygan kishiday zanjirni zo'r berib uzmoqchi bo'lardi-yu, biroq uzib tash-

lashga ojizlik qilar edi. Badmastlik va uyqusizlik orqasida yuzi shishgan, ko'zlari olaygan, sochlari to'zigan, kir-chir, barvasta Ignat xirillagan ovoz bilan o'kirib, shaharda zir yugurib bir fohishaxonadan ikkinchisiga qatnar, pulni orqa-o'ngiga qaramay sovurar, mungli ashulalar eshitganda yig'lar, o'yinga tushar va biror kimsani savalar, biroq ko'ngli hech qayerda va hech narsadan taskin topa olmas edi.

U qilgan aysh-ishratlar to'g'risida shaharda mish-mishlar paydo bo'lar, uni qattiq koyishar, lekin hech kim hech qachon kayf-u safosiga qo'shilishdan bosh tortmasdi. U haftalab shu ko'yda yashar edi. Keyin, butun vujudidan mayxona hidi anqigan holda muloyimlashib va mung'ayib, qo'qqisdan uyiga qaytib kelardi. U endi uyalganidan ko'zlarini yerga tikkanicha xotinining dashnomlariga jimgina quloq solib turar, qo'ydek yuvosh bo'lib, o'z xonasiga kirib bekinib olardi. U bir necha soatlab boshini xam qilib, ikonalar oldida cho'kkalab, go'yo ibodat qilishga botina olmayotgandek, qo'llari shalvirab jimgina o'tirardi. Xotini oyoq uchida eshik oldiga kelib quloq solardi. Ichkaridan charchagan va kasal bo'lgan otning xo'rsinishiga o'xshash og'ir nafas olgani eshitilardi.

Ignat, kaftlarini keng ko'ksiga mahkam bosarkan, bo'g'iq ovoz bilan pichirlardi:

– Yo xudo, o'zingga ayon!..

U tavba qilgan kunlari quruq suv ichar va javdar non yerdi. Xotini ertalab u yotgan xonaning eshigi oldiga katta bir grafinda suv, bir yarim qadoqcha non bilan tuz qo'yib ketardi. Ignat eshikni ochib, ozuqani olardi-da, eshikni yana berkitib qo'yar edi. Bunday paytlarda uni bezovta qilishmas va, hatto, uning ko'ziga ko'rinishmas edi... Bir necha kundan keyin Ignat yana birjaga kelar, odamlar bilan hazil-mutoyiba qilar, kular, g'alla yetkazib berish uchun pudratlar olar, tajribali yirtqichga xos ziyraklik bilan, ishga taalluqli hamma narsalarni yaxshi bilgan kishiday, yana ishga kirishib ketar edi.

Biroq hayotning uchala davrida ham Ignat o'zining kuchli bir orzusidan – o'g'il ko'rish orzusidan qutula olmas va keksaygan sari bu orzusi tobora zo'rayar edi. Aksari er-u xotin o'rtasida shu haqda gap-so'z bo'lib turardi. Ertalab nonushta vaqtida yoki kunduzgi ovqat mahalida, semizlikdan tirsillagan yuzlari qip-qizil va ko'zlari suzuk xotiniga xo'mrayganicha qarab so'rardi:

– Xo‘sh, hech nimani sezmayapsanmi?

Xotini erining nimani so‘rayotganini bilsa ham, doim bir xil javob qilardi:

– Nega sezmas ekanman? Mushtlaringni qara, xuddi qadoq toshga o‘xshaydi...

– Men sendan homilang to‘g‘risida so‘rayapman, tentak...

– Kaltaklanavergandan keyin homila qoladimi?

– Kaltak yeganingdan emas, ko‘p ovqat yeganingdan tug‘maysan. Qorningga har xil ovqatni tiqqaning-tiqqan, bolaga joy ham qolmaydi.

– Go‘yo hech tug‘maganimdek gapirasan-a?..

– Qiz tug‘ding-da! – dedi Ignat ta’na qilib. – Menga o‘g‘il kerak! Tushunyapsanmi? O‘g‘il kerak, merosxo‘r kerak! O‘lganimdan keyin davlatim kimga qoladi? Arvohimni kim yo‘qlab turadi. Yo hammasini monastirga topshiraymi? Monastirga ko‘p berganman, o‘sha ham kifoya! Senga qoldirsammi? Sen taqvodor xotinsan – cherkovda ham ovqatni o‘ylaysan... O‘lganimdan keyin erga tegib ketasan, ana o‘shanda mening dunyom bironta ahmoqning qo‘liga tushadi, men shuning uchun jon koyityapmanmi? Seni qara-yu...

Shundan keyin uni qattiq g‘am bosar, agar ishini davom ettiradigan o‘g‘il ko‘rmasa, o‘z hayotining bema’ni ekanini sezardi.

To‘qqiz yil birga umr ko‘rib, xotini unga to‘rtta qiz tug‘ib bergan, biroq hammasi o‘lib ketgan edi. Ignat ularning tug‘ilishini yurak hovuchlab kutgan bo‘lsa ham, lekin o‘lganlariga uncha achinmadi, chunki unga qizlarning keragi ham yo‘q edi. U to‘ydan bir yil keyinroq xotinini savalay boshladi, boshda uni mast holda bekordan bekorga urdi, «xotiningni joningdek sevgin-u, lekin nashvatiday qoqib tur», degan maqolga amal qilib uraverdi, biroq bora-bora xotini har tuqqanida Ignatning umidlari puchga chiqib, unga nisbatan nafrati orta boshladi va shundan so‘ng o‘g‘il tug‘ib bermagani uchun uni urib, xumordan chiqadigan bo‘ldi.

Bir kuni Ignat ish bilan Samara gubernasida yurganida qarindoshlaridan, xotining o‘ldi, degan xabar oldi. U cho‘qinib oldi-da, biroz o‘ylab turgach, Mayakinga:

«Mensiz ko‘maveringlar, narsalarga ehtiyot bo‘l...» deb xat yozdi.

So‘ngra duoyi fotiha qilish uchun cherkovga bordi va yaqindagina vafot etgan marhuma Akilinaning arvohi uchun ibodat qilib bo‘lgach, tezroq uylanishga qaror berdi.

O‘sha vaqtda u qirq uch yoshga kirgan edi. Baland bo‘yli va chorpaxil Ignat xuddi protodyakonga o‘xshab yo‘g‘on ovoz bilan gapirardi, uning katta ko‘zlari qop-qora qoshlari ostidan dadil va ma’noli boqar, oftobda qoraygan va qop-qora soqol bosgan yuzida hamda butun baquvvat jussasida ruslarga xos sog‘lomlik va beparvoz go‘zallik aks etar, silliq va muloyim harakatlarida, shoshmay qadam tashlashida nihoyatda baquvvat ekani ko‘rinib turar edi. U xotinlarga yoqar va ulardan o‘zini opqochmas edi.

Xotinining o‘lganiga yarim yil bo‘lmay, ish yuzasidan tanish bo‘lgan, eskicha diniy rusumga amal qiluvchi urallik bir kazakning qiziga sovchi yubordi. Qizning otasi, Ignatning Uralda ham «Dovdir» deb nom chiqarganiga qaramay, qizini berdi. Qizining ismi Natalya edi. Baland bo‘yli, qaddi-qomati kelishgan, moviy ko‘zlari katta-katta, qo‘ng‘ir sochlari uzun bu qiz, xushsurat Ignatga munosib tushdi. U xotini bilan faxrlanar va uni sog‘lom bir erkak mehri bilan sevardi, lekin oradan ko‘p o‘tmay uni diqqat bilan sinchiklab kuzata boshladi.

Xotinining dum-dumaloq va nihoyatda kelishgan yuzida tabassum kamdan kam ko‘rinar, u doim xayol surar, uning sovuq va sokin moviy ko‘zlarida goho allaqanday mubham va g‘ayri insoniy bir narsa yaltillab ketar edi. U ro‘zg‘or ishidan bo‘shagan vaqtlarida uydagi katta xonaning derazasi oldida ikki-uch soatlab qimir etmasdan o‘tirib qolardi. U ko‘chaga qarab o‘tirgan bo‘lsa ham, lekin ko‘zlari tashqaridagi qimirlab turgan barcha narsaga beparvo edi, biroq shu bilan birga, uning ko‘zlari shu qadar o‘ychan va bir nuqtaga tikilgan ediki, go‘yo u o‘z qalbiga nazar tashlayotganday edi. Uning yurishlari ham g‘alati edi – Natalya keng xonalar ichida yurganda ham, go‘yo ko‘zga ko‘rinmas allaqanday narsalar uning erkinroq yurishiga xalaqit berayotganday, sekin va ehtiyot bo‘lib yurardi. Uy ichi og‘ir va beso‘naqay serhasham buyumlar bilan jihozlangan bo‘lib, undagi hamma narsa uy egasining badavlat ekanidan dalolat berardi, lekin kazak qizi kumush buyumlar to‘la bu shkaflar hamda qimmatli jihozlar yonidan o‘tarkan, bu narsalar go‘yo uni tutib olib bo‘g‘ib

tashlaydiganday, qo'rqa-pisa chetlab o'tib ketar edi. Nihoyatda olag'ovur savdo shahrining suronli hayoti ham bu xotinni qiziqtirmasdi, eri bilan sayr-tomoshaga chiqqanda ham, u faqat kucherning yelkasidan ko'zini uzmas edi. Agar eri mehmondorchilikka olib borgudek bo'lsa, borardi, lekin u yerda ham xuddi uydagidek jimgina o'tirardi, agar o'zlarinikiga mehmon kelgudek bo'lsa, ularning gap-so'zlariga ham e'tibor bermas, hammaga bab-baravar qarar va ularni yaxshilab siylar edi. Yolg'iz sho'x va aqlli Mayakingina goho uning yuzida soyaga o'xshagan tabassum paydo qila olardi. Mayakin Natalya to'g'risida:

– Xotinmas – yog'och bu! – der edi. – Biroq hayot – so'nmas bir gulxan, sabr qil, bu molokanka[1] ham lovullab ketadi! Ana o'shanda uning guldek ochilib ketganini ko'ramiz...

Ignat xotiniga hazil qilib:

– Hoy! Kulugurka! – der edi. – Muncha o'ylanib qolding? Yo stanitsangni sog'indingmi? Bundog' yayrab yursang-chi!

Natalya unga beparvo qarab, indamay qo'ya qolardi.

– Cherkovga juda serqatnov bo'lib qolding... Uncha oshiqmasang ham bo'lardi! Hali tavba-tazarru qilishga ulgurasan, avval biror gunoh qil. Bilasanmi, gunoh qilmay turib tavba qilib bo'lmaydi, lekin tavba qilmay turib, gunohdan qutulib bo'lmaydi... Yoshligingda gunoh qilib qol. Aylanib tomosha qilib kelamizmi?

– Borgim yo'q...

Ignat uning yoniga o'tirar, erining erkalashlariga sovuqqina javob qilgan Natalyani quchoqlar va ko'zlariga tikilib turib der edi:

– Natalya! Nega buncha xafasan? Yo mendan zerikyapsanmi, a?

– Yo'q, – deya Natalya qisqagina javob berardi.

– Bo'lmasa, ota-onangni sog'indingmi?

– Ha, yo'q... o'zim, shunday...

– Nimani o'ylaysan?

– Hech narsani o'ylayotganim yo'q...

– Nega bo'lmasa?..

– Shunday...

Bir kuni Ignat undan ancha chigal javob oldi:

---

[1] *Molokanlar* – pravoslav dinidagi bir mazhab: et yemaydilar, sut bilan tuxum iste'mol qiladilar.

– Yuragim negadir g‘ash. Ko‘zlarimga ham... nazarimda hamma narsa yolg‘onga o‘xshab ko‘rinadi.

U qo‘li bilan atrofidagi hamma narsani – devorni, jihozlarni ko‘rsatdi. Ignat uning nima deyayotganiga parvo qilmay, kulimsirab dedi:

– Sen behuda o‘ylabsan! Bu yerdagi hamma narsa asil... Hammasi qimmatbaho, puxta buyumlar... Agar istasang, hammasiga o‘t qo‘yaman-da, yangisini olaman! Xo‘sh, nima deysan?

– Nega endi? – dedi Natalya sokinlik bilan.

Shunday yosh, sog‘lom xotinining xuddi uxlayotganday yashashi, hech narsani istamasligi, cherkovdan boshqa joyga bormasligi, odamlardan yotsirashi Ignatni ajablantirardi, u xotinini yupatib:

– Shoshmay tur hali, o‘g‘il tug‘ib berganingdan keyin hayoting tamoman boshqacha bo‘lib ketadi, – dedi. – Tashvishing kam, shuning uchun ham g‘amgin yurasan, tug‘sang u bilan ovora bo‘lib qolasan. O‘g‘il tug‘ib berasanmi, a?

Xotini yerga qarab:

– Xudo bersa, – deb javob qilardi.

Keyin xotinining bunday kayfiyati uning g‘ashiga tega boshladi.

– Xo‘sh, molokanka, nega tumshug‘ingni osiltirib olding? Xuddi oyna ustida yurgandek yurasan, go‘yo birovni o‘ldirgan odamdek ma’yus boqasan!.. O‘zing biram chiroyli nozaninsan-u, biroq hech narsani yoqtirmaysan, diding yo‘q, tentaksan!

Bir kun Ignat uyga shirakayf bo‘lib qaytdi, xotinini erkalatib sevmoqchi bo‘lgan edi, xotini undan o‘zini opqochdi. Shunda uning jahli chiqib o‘shqirdi:

– Natalya! Menga qara, ahmoqlik qilma!

Xotini unga o‘girilib qaradi-da, bosiqlik bilan so‘radi:

– Bo‘lmasa nima qilarding?

Ignat uning bu so‘zidan va tap tortmay qarashidan tutaqib ketdi. Xotinining ustiga tik bostirib borib:

– Nima-nima? – deb bo‘kirdi.

Xotini o‘tirgan joyida qimirlamay baqrayib turib:

– Nima, urmoqchimisan? – deb so‘radi.

Ignat jahli chiqqan paytida boshqalar uning oldida titrab turishiga odatlangan edi, Natalyaning parvoyi falakligi unga g‘alati tuyulib alam qildi.

Unga musht ko'tarib:

– Mana, bo'lmasa!.. – deb o'shqirdi. Xotini shoshmasdan, lekin o'z vaqtida uning mushtidan qochib qoldi, keyin erining qo'lidan ushlab itarib yubordi-da, bosinqi ovoz bilan dedi:

– Agar qo'l tegizadigan bo'lsang, yonimga yaqin yo'lama! Ovora bo'lasan.

Natalyaning katta ko'zlari suzilib, ko'zlarining o'tkir yolqini Ignatni hushyor qilib qo'ydi. Ignat, xotinining aftidan uning ham kuchli yirtqich ekanini, agar istasa, o'lgudek urganda ham uni yaqiniga yo'latmasligini fahmladi.

– U-u, kulugurka![1] – deb o'shqirdi-da, chiqib ketdi.

Biroq u xotiniga bir marta yon berib, ikkinchi marta shundoq qilmas edi. U xotin kishining va, ayniqsa, o'z xotinining undan hayiqmasligiga sira chidab tura olmas, bu uning uchun xo'rlik edi. U xotinining hech qachon va hech bir narsada unga yon bermasligini va xotini bilan o'rtada qat'iy kurash boshlanishini sezib qoldi.

Ignat ertasiga xotinining orqasidan xo'mrayib qarar ekan: «Mayli! Ko'ramiz hali, kim kimni yengarkin», deb o'yladi va uning ko'nglida xotinini tezroq yengish uchun kurash boshlash istagi alangalandi.

Biroq uch-to'rt kundan keyin Natalya Fominishna eriga o'zining homilador bo'lib qolganini aytdi, Ignat quvonganidan seskanib ketdi, xotinini qattiq bag'riga bosib, do'rillab dedi:

– Natasha... agar o'g'il bo'lsa, agar o'g'il tug'ib bersang, boshingdan oltin sochaman! Bu ham gapmi! Rostini aytsam, quling bo'laman! Xudo haqqi! Oyoqlaringga yiqilaman, istasang toptayverasan!

Natalya andisha bilan ohistagina:

– Bu bizning ixtiyorimizda emas, xudo biladi!.. – dedi.

– Ha, xudo biladi! – deb nido qildi Ignat alam bilan va g'amgin bo'lib boshini egdi. Shu daqiqadan boshlab xotinining ketidan xuddi yosh bolaning orqasidan yurgandek yura boshladi.

– Nega deraza yonida o'tiribsan? Ehtiyot bo'l, biqiningga shamol tegib kasal bo'lib qolma tag'in!.. – dedi u yoqimli qilib, jiddiy ravishda. – Nega zinadan irg'ishlab chiqasan-a? Yiqilib tushib

[1] Kulugurlar ham molokanlar singari eski mazhab kishilari.

tag'in, lat yemagin... Sen ko'proq ikki kishilik ovqat ye, unga ham ovqat bo'lsin...

Homiladorlik Natalyani yana o'ychan va kamgap qilib qo'ydi. U qalbi ostida urib turgan yangi vujudga tamomila berilib, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoldi. Endi u ochilibroq kuladigan bo'ldi, ko'zlarida esa, goho tong nuriday zaif va yuvoshgina, allaqanday yangi bir narsa uchqunlanib ketar edi.

Kuz kuni tong mahalida to'lg'oq tutganda xotinining og'riqqa chiday olmay birinchi marta baqirganini eshitgach, Ignatning rangi oqarib ketdi, xotiniga nimadir demoqchi bo'ldi-yu, lekin faqat qo'l siltab qo'ya qoldi-da, Natalya to'lg'oq azobida ikki bukilib yotgan yotoqxonadan chiqib, marhuma onasi ibodat qiladigan pastdagi kichik xonaga kirdi. U aroq olib kelishga buyurdi-da, uydagi g'ovur-g'uvurga quloq solib, tumshayganicha stol yoniga o'tirib, icha boshladi. Uy burchagidagi lampada yoritib turgan ikonalarning loqayd va qoramtir yuzlari xiragina kulga tashlanardi. Yuqorida, Ignatning tepasida gursullab va patir-putur qilib yurishar, og'ir bir narsani jildirishar, idish-tovoqlar jaranglar, zinapoyadan shoshib-pishib goh yuqoriga, goh pastga chiqib-tushib turishar edi... Hamma ish oshig'ich va tez qilinardi-yu, lekin vaqt imillab o'tardi... Ignatning qulog'iga bo'g'iq ovozlar kirardi:

– Bu ahvolda tug'olmaydi... cherkovga odam yuborib darvozasini ochtirsa bo'lardi...

Ignat o'tirgan uyning yonidagi xonaga unikida yashovchi Vassushka kirib, qattiq shivirlab duo o'qiy boshladi:

– Yo, xudovandi karim... O'zing oson qil... bandangning ojizligini bilasan... bechora qulingga rahming kelsin... Eson-omon ko'zi yorisin...

Goh birdaniga odamzod chidab turolmaydigan faryod eshitilib, yurakni titratib, butun ovozlarni bosib tushardi, goh cho'zib-cho'zib ingragan ovoz uy ichidan ohista suzib o'tardi-da, kechki g'ira-shira qorong'i bosgan burchaklarga singib ketardi... Ignat ikonalarga g'amgin nazar tashlarkan, og'ir xo'rsinib:

«Nahotki yana qiz bo'lsa?» deb o'ylardi...

U goho o'rnidan turib, ikonalar oldida ikki bukilib indamay cho'qinardi, keyin yana stol yoniga o'tirib, shu damgacha mast qil-

magan aroqdan yana ichib pinakka ketar va butun kechani, butun tunni u hatto ertalabdan to tushgacha vaqtni shunday o'tkazardi...

Nihoyat, yuqoridan shoshib-pishib tushib kelayotgan doya xotin suyunganidan ingichka ovoz bilan:

– O'g'il muborak bo'lsin, Ignat Matveich! – deya qichqirdi.

– Yolg'on aytganing yo'qmi?

– Nega yolg'on aytay, otaxon!..

Ignat o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas oldi-da, gurs etib cho'kkaladi va qo'llarini ko'ksiga qattiq bosib, titroq ovoz bilan g'udurandi.

– O'zingga shukur, egam! Demak, mening naslimni quritmoqchi emassan! Sening oldingda qilgan gunohlarimni yuvib tashlagayman... Shukurlar bo'lsin, senga parvardigorim! – O'sha ondayoq o'rnidan turib, baqirib-hayqirib buyruq bera boshladi: – Hoy! Birontang Nikola cherkoviga borib popni aytib kel! Ignatiy Matveich chaqirdi degin! Ko'zi yorigan xotinini o'qib qo'yishga marhamat qilarmishsiz, degin...

Oqsoch xotin kirib, hovliqib dedi:

– Ignatiy Matveich! Natalya Fominishna sizni chaqiryaptilar... ahvollari yomon...

– Nega yomon bo'lsin? Sog'ayib ketadi! – dedi quvonch to'la ko'zlarini chaqnatib. – Ayt, hozir kiraman! Ayt, rahmat deyapti de! Hozir sovg'a-salom olib kelarkan de. Shoshma! Popga dasturxon tayyorlab qo'yinglar. Mayakinga odam yuboringlar!

Uning barvasta gavdasi sevinganidan go'yo yanada o'sganday bo'ldi, o'zini yo'qotib, qo'llarini ishqalab, uy ichida u yoqdan bu yoqqa yurdi va ikonalarga mehr bilan nazar tashlab, qo'lini keng yozib cho'qindi... Keyin xotinining oldiga kirib ketdi.

Uning ko'ziga hammadan burun doya xotin tog'arada cho'miltirayotgan kichkinagina qip-qizil gavdacha ko'rindi. Buni ko'rgan Ignat qo'llarini orqasiga qilib, lablarini g'alati qilib cho'chchaytirganicha, ohistagina oyoq uchida bola tomon yurib keldi. Kishining rahmini keltiradigan zaif, yalang'och bu tana, ovozining boricha chirillab suv ichida tipirchilardi...

Ignat doyaga yalinganday past tovush bilan:

– Ehtiyot bo'l, qattiq ushlama... hali suyagi qotmagan... – dedi.

Kampir, bolani chaqqonlik bilan u qo'lidan bu qo'liga olarkan, kemshik og'zini ochib kuldi.

– Xotining oldiga borsang-chi...

Ignat xotini oldiga borarkan, yo'l-yo'lakay:

– Xo'sh, nima bo'ldi Natalya? – deb so'radi.

Keyin karavot yoniga bordi-da, to'shakni to'sib turgan pardani siltab ochib tashladi. U yerdan xirillagan ohista ovoz eshitildi:

– Maza qochdi, odam bo'lmayman...

Ignat, qop-qora soch o'rimlari ilondek cho'zilib, oppoq yostiqqa botib yotgan xotinining yuziga tikilganicha indamay qarab qoldi.

Natalyaning jonsiz sap-sariq yuzi, atrofini qora dog'lar qoplagan keng ochiq ko'zlari Ignatga yot bo'lib tuyuldi. Mana shu dahshatli ko'zlarning devordan osha, qayoqqadir, juda olislarga tikilganicha qimir etmay qarashi ham Ignatga notanish edi. Ignatning yuragi bir narsani sezganday orqasiga tortib ketdi, yuragining quvonch bilan urishi susaydi.

– Hechqisi yo'q... Hamma vaqt shunaqa bo'ladi... – dedi u ohistagina xotinini o'pish uchun engashar ekan, lekin Natalya erining yuziga tik qarab takrorladi:

– Odam bo'lmayman...

Natalyaning ko'kargan lablari muzdek edi. Ignat lablarini uning lablariga tegizganda xotinining ramag'dajon ekanini fahmladi.

Ignat vahm ichida bo'g'iziga bir narsa tiqilganday nafasi bo'g'ilganini sezdi-da:

– Yo, parvardigor, – dedi dahshatli ovoz bilan shivirlab. – Natasha! Nima bo'ldi? Axir u emishi kerak-ku? Nega bunday qilasan?

U xotiniga o'shqirib yuborishiga oz qoldi. Doya xotin uning oldida ivirsib yurar, yig'layotgan chaqaloqni irg'itarkan, kuyib-pishib Ignatga allanarsalar derdi, biroq uning qulog'iga hech narsa kirmas va ko'zlarini xotinining quti o'chgan qo'rqinchli yuzidan uza olmas edi. Natalyaning lablari qimirladi. Ignat uning juda sekin aytgan so'zlarini eshitgan bo'lsa ham, lekin nima deganiga tushuna olmadi. U karavotning bir chetida o'tirib, yalinchoq ovoz bilan xirillab dedi:

– O'zing o'yla, axir, sensiz nima qila oladi, hali go'dak-ku! O'zingni bardam tut, dadil bo'l! Xayolingdan chiqar bu gapni! Hayda uni!

U gapirgan gapining behudaligini tushunardi. Ko'z yoshlari qaynar, ko'kragida xuddi toshday og'ir, muzdek sovuq bir narsa paydo bo'lib ezardi.

– Kechir meni, xayr! Asra, ehtiyot qil... Ichma... – Natalya tovushsiz pichirladi.

Pop yetib keldi va Natalyaning yuziga bir nima yopib qo'ydi-da, xo'rsina-xo'rsina, xudoga yolvorib, duo o'qiy boshladi:

– «E, yakka-yu yagona parvardigor, har dardga o'zing shifo berasan... Endigina ko'zi yorigan bandang Natalyaga ham shifo ato qil... o'rnidan turg'izib oyoqqa bostir... Dovud payg'ambar demishlarki: «Hammamiz ham gunohkor bo'lib tug'ilibmiz va sening oldingda hammamiz ham murtadmiz...»

Cholning ovozi uzilib-uzilib chiqar, ozg'in yuzi jiddiylashgan, kiyimidan esa buxur hidi anqib turar edi.

– «...bu xotindan tug'ilgan go'dakni har qanday kasalliklardan asra... barcha yomonliklardan... barcha balo-yu qazolardan... kunduzgi, hamda tungi ins-jinslardan o'zing saqla...»

Ignat unsiz yig'lardi. Qatra-qatra iliq ko'z yoshlari xotinining qo'llariga tomardi. Biroq uning qo'llari ko'z yoshlarining chak-chak tomganini sezmadi chog'i, oxiri u qimir etmay, hatto ko'z yoshi tomganda ham seskanmay qoldi. Natalya duo o'qilib bo'lgach, hushdan ketdi va ertasi kuni hech kimga bir og'iz so'z aytmay joni uzildi. U qanday yashagan bo'lsa xuddi ana shunday jimgina jon berdi. Ignat xotinini tantana bilan ko'mgandan so'ng, o'g'lining ismini Foma qo'ydi, yuragi achishsa ham, uni otaxoni Mayakin oilasiga topshirdi. Mayakinning xotini ham yaqinginada tuqqan edi. Xotinining o'limi Ignatning qop-qora qalin soqolini oqartirib yubordi, biroq uning ko'zlarida qandaydir mayin va yoqimli yangi bir narsa yiltirardi.

II

Mayakin oldida bog'chasi bo'lgan ikki qavatli kattakon binoda turardi. Bu bog'chada azim, keksa arg'uvon daraxtlari sadaday shoxlab o'sib yotar edi. Ularning qalin shoxlari xuddi zich qilib to'qilgan qora to'r parda singari, derazalarni to'sib turar va quyosh nuri bu parda orqali parchalanib, uy ichiga arang o'tganligi sababli, turli-tu-

man jihozlar va katta-katta sandiqlar bilan to'la bo'lgan bu kichkina xonada doimo ko'ngilsiz nim qorong'ilik hukm surardi. Mayakinlar oilasi nihoyatda taqvodor edi, ularning uylarini doim sham, buxur va lampa moyning hidi bosib, tavba sadolari, duo ovozlari havoda suzib yurardi. Bu uydagilar diniy marosimlarni hech tark qilmay zavq bilan berilib, joyiga qo'yib o'tardilar. Egnilariga qora ko'ylak, oyoqlariga yumshoq tufli kiyishar va hamma vaqt ruhan tushkun ayollarning soyalari qorong'i, dim va havosi og'ir xonalarda asta sudralib yurardi. Yakov Mayakin oilasida uning o'zi, xotini bilan qizidan boshqa yana beshta ayol qarindoshi bo'lib, bularning eng kichigi o'ttiz to'rtga kirgan edi. Hammasi ham taqvodor, qiyofasiz bo'lib, har bir narsada shu uyning bekasiga – uzun bo'yli, oriq, qarashlari amirona va aqlli, ko'k ko'zli, qorachadan kelgan Antonina Ivanovnaga bo'ysunishardi. Mayakinning yana Taras degan o'g'li ham bor edi, biroq uning nomi oilada kamdan kam tilga olinardi. Taras o'n to'qqizga kirganda Moskvaga o'qishga ketgani va uch yildan so'ng, otasidan ruxsatsiz o'sha yerda uylangani uchun otasi uni oq qilgani shahar aholisiga ma'lum edi. Keyin Taras dom-daraksiz bo'lib ketdi. Aytishlaricha uni Sibirga jo'natgan ekanlar...

Yakov Mayakin qizg'ish cho'qqi soqol, pakana, ozg'in, jikkak kishi bo'lib, ko'kish ko'zlari har bir kimsaga: «Hechqisi yo'q, janoblari, tashvish tortmang! Men sizni tushunaman, agar siz menga tegmasangiz siringizni ochmayman...» degandek qarab turardi.

Uning xumkalla boshi tuxumga o'xshar va g'oyatda katta edi. Ajin bosgan keng peshonasi tepakaliga tutashib ketgani uchun, go'yo bu odamning yuzi ikkitaga o'xshab ko'rinardi, biri uzun qiyg'ir burunli, hammaga ko'rinib turgan ziyrak va aqlli yuz bo'lsa, boshqasi uning tepasida, faqat ajinlardan iborat ko'zsiz ikkinchi yuzi edi, lekin Mayakin shu ajinlar orqasiga ko'zlarini ham, labini ham yashirib qo'ygandek bo'lar, faqat payti kelguncha yashirib yurib, olamga boshqacha ko'z bilan qarar, boshqacha tabassum qilar edi.

Uning arqon zavodi bilan shaharda pristanlar yonida do'koni ham bor edi. Shiftigacha arqon, chilvir, los tiralgan shu do'konchada oynavand eshigi g'irchillaydigan kichkinagina hujrasi bo'lar edi. Shu hujrada katta, eski, beso'naqay stol yonida chuqur bir oromkursi turar, Mayakin mana shu oromkursida kuni bo'yi choy ichib,

«Moskovskiye vedomosti» gazetasini o'qib o'tirardi. U savdogarlar orasida baobro' va miyali odam hisoblanar va o'zining tagli-tugli odamlardan ekanini aytib maqtanarkan, bo'g'iq ovoz bilan:

– Biz, Mayakinlar, Yekaterina poshsholik qilgan zamonida ham savdogar edik, demak men asilzodalar naslidanman... – derdi.

Ignat Gordeyevning o'g'li shu oilada olti yil turdi. Foma yetti yoshga kirganda, boshi katta, ko'krakli bola bo'lib, bo'y-bastiga, bodomqovoq, qop-qora ko'zlarining jiddiy qarashidan yoshiga nisbatan kattaroq ko'rinardi. Kamgap va bolalarga xos istaklarini so'zsiz amalga oshiradigan bu bola, haligi beshta qarindosh xotinlardan birining va nima uchundir «Buzya» deb laqab olgan cho'tir va semiz qari qizning nazoratida Mayakinning qizi Lyuba bilan birga kuni bo'yi o'yinchoqlar o'ynar edi. Nimadandir cho'chinqiragan Buzya hatto bolalar bilan ham shipshib so'zlashar va shunda ham ko'p gapirmas edi. Ko'pgina duolarni biladigan bu xotin Fomaga bironta ham ertak aytib bermasdi.

Foma Lyuba bilan inoq yashardi, lekin Lyuba biror narsa bilan uning achchig'ini keltirib yoki g'ashiga tegib qo'ygudek bo'lsa, uning rangi oppoq oqarib, burun kataklari kerilib ketar, ko'zlari shokosasidan chiqib ketgudek bo'lar va Lyubani ayamay urardi. Lyuba yig'laganicha onasining oldiga borib arz qilar, ammo Antonina Fomani yaxshi ko'rgani uchun qizining so'zlariga uncha e'tibor qilmasdi, bolalar yana inoq bo'lib ketar edi. Foma uchun uzun kun doim bir xilda o'tardi. U ertalab o'rnidan turib yuvingach, ikona oldiga borib tiz cho'kib, Buzyaning pichirlab aytgan uzundan uzoq duolarini takrorlardi. Keyin choy ichishar, ko'pgina bulka non, yog'liq kulcha va somsa yeyishardi. Choydan keyin, yoz kunlari bolalar serdaraxt katta boqqa chiqib ketishar, bog'ning bir tomoni doim tagi qorong'i bo'lgan jarga borib taqalar, u yerdan rutubat hamda allaqanday vahima esib turardi. Bolalarni hatto jarning yoqasiga ham yo'latmas edilar, bu esa ularning yuraklariga battar vahima solar edi. Qish kunlari ertalabki choydan to ovqat mahaligacha tashqarida, sovuq qattiq bo'lsa uyda o'ynashar yoki hovliga chiqib, baland qortepadan sirpanishar edi.

Tush mahalida, Mayakin aytganidek, «ruscha» ovqatlanardilar. Avval stol ustida, katta tog'orada ichiga jaydari non qoqisi solin-

TOSHKENT SHAHRI SHAYXONOBOD TUMANI HOKIMLIGI ... № 2022/№2-28

gan go'shtsiz, yog'liq karam sho'rva kelar, keyin yana shu sho'rvani mayda qilib to'g'ralgan go'shti bilan ichishar, uning ketidan qovurilgan cho'chqa, g'oz, buzoq go'shti yo bo'lmasa, ichiga bo'tqa solingan cho'chqa qorin, bundan keyin yana kalla-pocha solingan sho'rva yoki ugra, eng keyin bironta shirin ovqat kelar edi. Brusnikadan, qorakat va nondan qilingan kvas ichishardi – Antonina Ivanovnanikida doim har xil kvaslar bo'lardi. Indamay ovqatlanishar, charchaganlaridan og'ir nafas olishardi, ikkala bolaga alohida idishda ovqat berishar, kattalarning hammasi bir idishdan yeyishardi. Bunday ovqatdan keyin lanj bo'lib uxlashar va ikki-uch soat davomida Mayakinlar uyida faqat xurrak bilan uyqusirab alahlashlar eshitilar edi, xolos.

Uyqudan turgach, shahar yangiliklari to'g'risida, cherkov xonishchilari, dyakonlar, to'ylar yoki bironta tanish savdogarning behayo qiliqlari to'g'risida so'zlashib o'tirib choy ichishardi. Choydan so'ng Mayakin xotiniga:

– Qani, onasi tavrotni bu yoqqa ber-chi... – derdi. Yakov Tarasovich ko'pincha Ayub payg'ambar kitobini o'qirdi. Kattakon, qirg'iy burniga kumush gardishli og'ir ko'zoynagini taqib olib, tinglovchilarning hammasi shu yerdami, deb bir qur ko'z yugurtib chiqardi.

Ularning hammasi, u doim ko'rib o'rganib qolgan joyda o'tirishar va Mayakinga tanish bo'lgan to'poslik, taqvodorlik, hayiqish alomati yuzlaridan ko'rinib turardi.

Mayakin bo'g'iq ovoz bilan:

– «Uts degan yerda bir odam bor ekan...» – deb gap boshlashi bilanoq, uyning burchagidagi divanda Lyubaning yonida o'tirgan Foma, hozir Mayakinning jim bo'lishini, tap-taqir boshini silab qo'yishini bilar edi. Foma uning o'qishiga quloq solib o'tirib utslik odamni ko'z oldiga keltirardi. Bu odam nihoyatda novcha, yalang'och bo'lib, ko'zlari juda katta, xuddi Nerukotvorniy Spasning[1] ko'zlariga o'xshar, ovozi esa lagerdagi soldatlar chaladigan katta mis karnayning ovoziga o'xshar edi. Bu odam daqiqa sayin o'sib, bora-bora boshi osmonga yetgach, qop-qora qo'llarini bulutlar orasiga tiqardi-da, bulutlarni parcha-parcha qilib yirtib, dahshatli ovoz bilan baqirar edi:

---

[1] Ikonalardagi bir avliyoning ismi.

«Xudo atrofini zulmat bilan qoplagan yo‘li berk odamga yorug‘lik ne uchun berilgan?»

Fomani vahima bosganidan qaltirab ketardi. Uning uyqusi qochar va Mayakinning soqolini chimdib o‘tirib miyig‘ida kulimsirab aytgan so‘zlarini eshitardi.

– Uning jasoratini qara-ya...

Foma, Mayakin bu so‘zlarni utslik odam to‘g‘risida aytganini bilar va uning jilmayishini ko‘rib tasalli topar va haligi odam o‘zining dahshatli qo‘llari bilan osmonni yiqita olmasligini, parchalab qulata olmasligini fahmlar edi... Biroq Foma yana haligi odamni ko‘radi. Endi u yerda, «tanasini qurt va yara-chaqa bosgan, terisi chirib ketgan» holda o‘tirardi. Lekin u endi kichkina va munkaygan holda cherkov eshigi oldidagi gadodek o‘tirardi...

U shunday derdi:

«Xotin kishidan tug‘ilgan odam nechuk pok bo‘lsin-u, nechuk vale bo‘lsin?»

– U bu gapni xudoga aytyapti... – der edi Mayakin gapini uqtirib. – Quruq bir jasad bo‘lganimdan keyin qanday qilib men avliyo bo‘lay? – derdi. – Bu savolni xudoga beryapti.

Shundan so‘ng Mayakin tinglovchilarga gerdayib savol nazari bilan qarab qo‘yardi.

Ular xo‘rsinishib javob qilishardi:

– Xudoga manzur bo‘lgan... avliyo...

Yakov Mayakin kulib, ularga nazar tashlar ekan:

– Voy, ahmoqlar-ey!.. Boringlar, bolalarni yotqizinglar... – dedi.

Ignat o‘g‘liga o‘yinchoqlar olib, Mayakinlarnikiga har kuni kelar va uni qo‘lidan ushlab bag‘riga bosar, goho ranjib va o‘zining pinhona tashvishini yashira olmay o‘g‘liga:

– Nega bunaqa tumtayib yurasan-a? Nega kulmaysan? – der edida, otaxoniga murojaat qilardi:

– Fomka onasiga tortmasaydi deb qo‘rqaman... Ko‘zlari g‘amgin...

– Ertaroq tashvishlanyapsan, – deb kulardi Mayakin. Mayakin ham Fomani yaxshi ko‘rardi, shuning uchun ham bir kuni Ignat o‘g‘limni olib ketaman deb aytganda, u juda xafa bo‘ldi.

– Shu yerda qoldir! – deb yalindi u. – Bizga o‘rganib qolgan, yig‘lashini qara...

– Yupanib qoladi! O‘g‘limni sen uchun topganim yo‘q-ku, sizlarnikida qiyin... xuddi monastirga o‘xshash zerikarli. Buning turgan-bitgani bolaga zarar. Menam usiz zerikib qolaman. Uyga kelsam, huvillagan. Hech narsaga qo‘lim bormaydi. Bolani deb sizlarnikiga ko‘chib kelish to‘g‘ri kelmaydi, men o‘g‘lim uchun emas, o‘g‘lim men uchun. Shundoq, opam Anfisa keldi – unga qaraydigan odam bor...

Shunday qilib, bolani o‘z uyiga olib keldi.

Fomani qushburun, kemshik, og‘zi katta ajib bir kampir qarshi oldi. Baland bo‘yli, biroz bukchaygan, egniga sur rang ko‘ylak kiygan, sochlari oqargan, qora shohi ro‘mol o‘ragan bu kampir dastlab Fomaga uncha yoqmadi va, hatto, undan biroz cho‘chidi ham. Keyin uning ajin bosgan yuziga tikilib, yoqimli jilmayib turgan qora ko‘zlarini ko‘rgach, Foma yotsiramay kampirning tizzasiga darrov boshini qo‘ydi.

– Bechora yetimginam! – dedi kampir do‘rillagan ovoz bilan va uning yuzlarini ohista siladi. – Mung‘ayishini qaranglar-a... bo‘taginam!

Kampirning erkalashlarida allaqanday yoqimli, Foma ko‘rmagan yangi bir narsa bor edi, shuning uchun ham bola allanarsani kutganday, kampirning ko‘zlariga sinchiklab qaradi. Bu kampir bolani hozirgacha unga mutlaqo notanish bo‘lgan yangi bir dunyoga olib kirdi. Birinchi kuniyoq, uni karavotga yotqizgach, yonida o‘tirib, bolaning ustiga engashgan holda:

– Senga ertak aytib beraymi? – deb so‘radi.

Foma o‘sha kundan boshlab, doim ajoyib afsonaviy hayotni ko‘z oldida gavdalantiruvchi kampirning muloyim tovushi ostida uxlab qolardi. Uning qalbi xalq ijodining ajoyib go‘zalliklaridan bahramand bo‘ldi. Bu kampirning xotira va xayol xazinasi bitmas-tuganmas edi. Bolaning uyqusiragan ko‘ziga bu kampir ko‘pincha, goh ertaklardagi ajoyib rahmdil, yalmog‘iz kampirga, goho go‘zal Vasilisa Premudrayaga o‘xshab ko‘rinardi. Bola ko‘zlarini katta ochib, nafasini ichiga yutib, xonani qamrab olgan tungi qorong‘ilikka tikilar va uning ikonalar oldidagi lampa alangasida ohistagina jimirlab

turganini ko‘rardi... Foma xayolan xonani ertaklardagi ajoyib manzaralar bilan to‘ldirardi. Unsiz, lekin jonli soyalar devorlar va yerlarda o‘rmalardi, bu ko‘lankalar hayotini kuzatib borish, ularni ko‘z o‘ngida, turli qiyofada, turli rangda tasavvur qilish, keyin ularni bir kiprik qoqish bilan tamom yo‘q qilib yuborish bola uchun nihoyatda dahshatli, ham nihoyatda ko‘ngilli edi. Uning qora ko‘zlarida bolalarga xos sodda, judayam jiddiy bo‘lmagan yangi bir ifoda paydo bo‘ldi. Yolg‘izlik va qorong‘ilik uning qalbida allanimani kutganday dahshatli vahima tug‘dirar, hayajonga solar, uning qiziqishini uyg‘otar, uni qorong‘i burchakka borib, u yerda qorong‘ilik qo‘ynida nimalar borligini bilib kelishga majbur qilar edi. U borib hech narsa topa olmas, lekin bir kunmas, bir kun toparman, degan umididan voz kechmas edi...

U otasidan qo‘rqsa-da, lekin uni yaxshi ko‘rardi. Ignatning zabardast bo‘yi, do‘rillagan ovozi, sersoqol basharasi, paxmoq oq sochi, baquvvat va uzun qo‘llari va chaqnab turgan ko‘zlari uni ertaklardagi afsonaviy qaroqchilarga o‘xshatar edi.

Bir kuni yoshi yettidan oshgan Foma, uzoq bir safardan endigina qaytgan otasidan so‘radi:

– Sen qayerda bo‘lding?

– Volgada kezdim...

– Qaroqchilik qildingmi? – deb so‘radi Foma ohista.

– Nima deyapsan? – dedi cho‘zib Ignat qoshlarini uchirib.

Foma otasining yashirin hayotini osongina bilib olganidan xursand bo‘lib, ko‘zlarini mug‘ambirona qisib:

– Sen qaroqchisan, ota! Men bilaman... – dedi.

– Men savdogarman! – dedi Ignat jiddiy ohangda va biroz o‘ylab turgach, ochiq ko‘ngil bilan qo‘shimcha qildi, – sen tentaksan!.. Men g‘alla olib sotaman, paroxodda ishlayman. «Ermak»ni ko‘rganmisan? Ana shu mening paroxodim... Seniki ham...

Foma xo‘rsinib:

– U juda katta-ku... – deb qo‘ydi.

– Unday bo‘lsa, men senga kichkinasini olib beraman, o‘zing ham kichkinasan, maylimi?

– Mayli! – deb qo‘ydi Foma, lekin biroz o‘ylanib indamay turgach, yana achinib dedi: – Men seni qaroqchi deb o‘ylovdim-a...

– Men senga aytdim-ku, savdogarman! – dedi Ignat yana uqtirib, biroq nazarida noumid bo'lgan o'g'lining yuzida qo'rqqansimon, allaqanday norozilik alomati bor edi...

– Bulkapaz Fyodor boboga o'xshaganmi? – deb so'radi Foma biroz o'ylanib turgach.

– Ha, o'shanga o'xshagan... Lekin men boyroqman, pulim Fyodornikidan ko'proq.

– Puling ko'pmi?

– Ha... bundan ham ko'payadi...

– Senda necha bochka bor?

– Nima?

– Puldan?

– Tentag-ey! Pulni ham bochka bilan o'lchaydilarmi?

– Bo'lmasam-chi? – dedi Foma jonlanib va otasiga o'girilib qarab, shosha-pisha gapira ketdi: – Maksimka degan qaroqchi bir shaharga kelib, o'sha yerlik bir boyning o'n ikki bochka pulini... turli-tuman kumush buyumlarini o'g'irlagan, cherkovni ham talagan... bir odamni esa qilichi bilan chopib, cherkov jomxonasidan uloqtirib tashlagan... U odam jom chalib daraklamoqchi bo'lgan ekan... Ignat o'g'lining jonlanganiga quvonib:

– Buni senga ammang aytib berdimi? – deb so'radi.

– Ha, ammam, nima edi?

– Hech! – dedi Ignat kulib. – Shuning uchun ham otangni qaroqchi qilib qo'ygan ekansan...

– Balki bir vaqtlar bo'lgandirsan? – dedi Foma, yana o'sha gapga qaytib, bolaning aftidan «ha» degan javob olgisi kelayotgani ko'rinib turardi.

– Qaroqchi bo'lmaganman... bas qil buni...

– Bo'lmaganmisan?

– Aytyapman-ku, bo'lmaganman, deb! Seni qara-yu... Axir qaroqchi bo'lish yaxshimi? Ular hammasi gunohkor odamlar! Xudoga ishonmaydilar... Cherkovlarni talaydilar... axir cherkovlarda ularga la'nat yog'diradilar-ku... Ha... menga qara, o'g'lim, sen o'qishing kerak! Vaqti keldi, og'ayni, ha... xudo yorlaqasin. Qishi bilan o'qisang, bahorda men seni Volgada baliq oviga olib boraman...

– Maktabga boramanmi? – deb so'radi Foma cho'chibroq.

– Avval uyda, ammangda o‘qiysan...

Oradan ko‘p o‘tmay Foma ertalabdanoq stol yoniga o‘tirib, slavyan alifbesi ustidan barmoqlarini yurgizib, ammasining ortidan takrorlar edi.

– Az... buki... vedi...

Foma «bra, eva, gra, dra»ga tushganda, bu bo‘g‘inlarni o‘qiganda kulgidan o‘zini tiyolmas edi. Bularni Foma osongina o‘rganib oldi va shundan so‘ng u injilning birinchi surasidagi birinchi oyatini bemalol o‘qiy boshladi: «Bla-jen mu-j... ije ne ide na... so-vet nechesti-nix...»[1] Uning zehnidan suyunib ketgan ammasi mehr bilan:

– O‘qi jonim, o‘qi! Shunday Fomushka, durust! – dedi unga.

Ignat ham o‘g‘lining qanday o‘qiyotganini bilib, jiddiy tusda:

– Barakalla, Foma! – dedi... – Bahorda Astraxanga boramiz, kuzda sen maktabga kirasan!

Fomaning hayoti, qiyalikdan yumalagan shardek olg‘a qarab ketdi. Ammasi unga ustozgina emas, balki birga o‘ynaydigan o‘rtoq ham edi. Lyuba Mayakina kelganda ammasi xuddi shu bolalarga o‘xshab yayrab ketar edi. Bekinmachoq, ko‘z bog‘lash o‘ynashardi. Anfisa ro‘mol bilan ko‘zlarini bog‘lab olib, qo‘llarini kerib, xonada ehtiyot bilan yurib, o‘zini goh stullarga, goh stolga urib olar yoki ularni qidirib hamma burchaklarni timirskilab chiqarkan:

– Obbo muttahamlar-ey... Obbo qaroqchilar-ey... ular qayerga yashirindilar, a? – deb g‘udranishi bolalarga nihoyatda yoqar va bundan ular zavqlanib kulishardi.

O‘zi qarib qolgan bo‘lsa ham, ammo hali ko‘ngli yosh va qo‘lidan kelganicha bolalarning hayot yo‘lini bezamoqchi bo‘lgan bu kampirga quyosh o‘zining yoqimli va quvnoq nurini sochar edi.

Ignat ertalab barvaqt birjaga ketar, goho kechgacha qaytmas, kechqurun dumaga, mehmonga yoki bo‘lmasa boshqa bir joyga borar edi. Ba’zan u uyga mast bo‘lib qaytar, bunday vaqtlarda Foma avvallari undan qo‘rqib, yashirinib olardi. Keyin esa, ko‘nikib qoldi, chunki otasining mastligi hushyorligidan ko‘ra yaxshiroq, muloyimroq, soddaroq va biroz g‘alatiroq tuyuldi. Agar bunday hodisa kechasi yuz bersa, bola doim uning do‘rillagan ovozidan uyg‘onib ketardi.

---

[1] «Osiylar davrasiga yo‘lamagan odam baxtiyor bo‘ladi».

– Anfisa-a! Opajon! O‘g‘limning, merosxo‘rimning oldiga kiray, ijozat ber!

Lekin opasi unga ta’naomuz, yig‘lamsirab nasihat qilardi:

– Bor, bor, yot, bas endi, jin urgur, shayton! Shunchalik ichasanmi? Sochingga oq kirib qolgan, axir...

–Anfisa! O‘g‘limni ko‘ra olamanmi men? Bir ko‘z bilan bo‘lsa ham!

– Ichkilikdan ikkala ko‘zing ham oqib tushsin, iloyim...

Foma ammasi otasini kirgizmasligini bilar va shuning uchun ham, ola-g‘ovur ostida yana uyquga ketar edi. Ammo kunduzlari mast bo‘lib kelgan paytlarida Ignat qo‘pol qo‘llari bilan darhol o‘g‘lini tutib olardi-da, mastlarga xos kulgi bilan shodiyona xaxolarkan, Fomani u xonadan bu xonaga ko‘tarib yurib, undan so‘rardi:

– Fomka! Nima xohlaysan? Ayt! Sovg‘ami? O‘yinchoqmi? Ayt! Shuni bir bilki, dunyoda men senga olib berolmaydigan hech narsa yo‘q. Men millioner! Yana ko‘payadi! Uqdingmi? Hammasi seniki!

Shu on uning quvonchi kuchli shamolda so‘ngan shamday birdan so‘nardi. Badmast aft-basharasi pirpirab, ko‘zlari qizarib yoshlanar, lablari cho‘chiganday jilmayar edi.

– Anfisa! Bordi-yu, u o‘lib qolsa, unda nima qilaman?

Mana shu so‘zlardan keyin, u nihoyatda quturib ketardi:

– Hamma yoqqa o‘t qo‘yaman! – deb o‘kirar va g‘azab to‘la ko‘zlarini xonaning qorong‘i bir burchagiga tikardi. – Yakson qilaman! Dori bilan portlataman!

– Ba-a-s qil, so‘xtasi sovuq! Hali sen go‘dakni qo‘rqitmoqchimisan? Yo uni kasal qilib qo‘ymoqchimisan? – deb javrardi Anfisa. Mana shuning o‘zi Ignat uchun kifoya edi, u shoshibpishib, g‘udranib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lardi.

– Bo‘ldi, bo‘ldi! Ketaman, ketaman... Lekin sen baqirma... Uni qo‘rqitma...

Agar Fomaning tobi qochib qolgudek bo‘lsa, otasi o‘zining hamma ishini tashlab, uydan chiqmas, opasi bilan o‘g‘liga ahmoqona savollar, maslahatlar berib, ularning g‘ashiga tegar va qovog‘ini solib, ko‘zlari to‘la vahima, nima qilishini bilmay uh tortib, u xonadan bu xonaga borib kelardi.

– Sen nega xudoning qahrini keltirasan? – derdi unga Anfisa. – Hushyor bo'l, sening bu nolishing xudoga yoqmay, bu nonko'rliging uchun yana qaqshatib qo'ymasin seni...

– Hoy, opa! – derdi Ignat xo'rsinib, – sen tushungin, agar biror narsa bo'lib qolsa, butun hayotim barbod bo'ladi! Nima uchun yashayapman? Noma'lum...

Bunday voqealar va otasining kayfi o'zgarib turishi oldiniga bolani qo'rqitsa ham, biroq u tezda bunga ko'nikib qoldi va otasining chanadan zo'rg'a tushib kelayotganini derazadan ko'rgan kezlarida, parvoyi falak:

– Amma! Otam yana mast keldi shekilli, – deb qo'yardi.

Bahor keldi, Ignat va'dasiga muvofiq, o'g'lini paroxodga – yoniga oldi va shu bilan Fomaning oldida yangi hayot yo'li ochildi.

Savdogar Gordeyevning chiroyli va kuchli shatak paroxodi – «Ermak» oqimga qarab jadal suzib borar va uning ro'parasidan ikki tomondan esa salmoq bilan Volga qirg'oqlari suzib o'tar edi. Chap qirg'oq butunlay quyosh nuriga cho'mgan, xuddi ajoyib ko'm-ko'k gilamday to ufqqacha cho'zilib ketgan, o'ng qirg'oqni o'rmon qoplagan va tik tushgan tepaliklarning cho'qqilari ko'kka bo'y cho'zib, salobat bilan sukut saqlagan edilar.

Shu ikki qirg'oq o'rtasida bag'ri keng, ulug'vor daryo yastangan. Uning suvi sokin, shoshilmay viqor bilan oqadi, tog'li qirg'oq esa suvda qora soyadek aks etadi; chap tomondan uni daryoning qumli qirg'oqlari, poyonsiz o'tloqlarining oltin va ko'm-ko'k baxmal uqalari bezab turardi. Goh unda, goh bunda, tog'larda, o'tloqlarda qishloqlar ko'zga chalinadi, uylarning deraza oynalarida, poxol tomlarining sathida quyosh nuri yaltillaydi, ko'm-ko'k daraxtlar orasidan cherkovlarning butlari yiltillab ko'rinadi, shamol tegirmonlarining kulrang qanotlari havoda asta-sekin aylanadi, zavod mo'risining tutuni esa buralib-buralib osmonga chiqib ketadi. Ko'k, qizil, oq ko'ylak kiygan bir to'da bolalar qirg'oq bo'yida turib, suvning sokinligini buzgan paroxodni qiy-chuv bilan kuzatib qolishadi, paroxodning parraklari ostidan bolalarning oyoqlari tomon to'lqinlar o'ynoqlab chopadi. Mana, bir to'da bolalar qayiqqa tushib, to'lqinlarda tebranib-chayqalish uchun shoshib-pishib daryo o'rtasiga qarab suzib kelishmoqda. Suvdan esa daraxtlarning uchlari chiqib turibdi, ba'zi

joylarda ulardan bir qanchasi toshqin mahalida suv ostida qolib ketgan. Endi ular to'lqinlar orasida xuddi orolga o'xshab ko'rinadi. Allaqayerdan, qirg'oqdan oh tortganday og'ir, mungli qo'shiq eshitiladi:

– O-e-o-o – yana – bir – marta!

Paroxoddan tarqalgan to'lqinlar sollarni chayqaltirib o'tib ketadi. Zarb bilan kelib urilgan to'lqinlardan xodalar alg'ov-dalg'ov bo'ladi. Ko'k ko'ylakli solchilar turgan yerlarida gandiraklab, paroxodga qarab kulishar va allanimalar deb qichqirishadi. Kelishgan, chiroyli oqizoq kema daryoda yonboshi bilan suzib borardi. Uning ustiga ortilgan sariq taxtalar quyoshda oltinday yaltillaydi va bahorgi toshqin suvda xiragina aks etadi. Qarshidan chinqirib passajir paroxodi keladi. Uning bo'g'iq chinqirig'i o'rmonlarga, daraxtzorlarga kirib g'oyib bo'ladi. Daryoning o'rtasida ikki kemaning to'lqinlari to'qnashib, bir-birining bortiga uriladi va kemalar chayqalib ketadi. Tog'li qirg'oqning yassi yonbag'irlarida kuzgi bug'doylarning maysa gilami, shudgor qilingan qora yerlar, bahorgi ekinlar uchun haydab qo'yilgan dalalar yastanib yotibdi. Yerlar ustida, xuddi kichik nuqtalarga o'xshagan, gala-gala bo'lib moviy osmonda uchib yurgan qushlar ko'rinadi. Nariroqda poda o'tlab yuribdi, olisdan u xuddi o'yinchoqlarga o'xshaydi, podachining gavdasi kichkina bo'lib, arang ko'rinardi, u tayog'iga suyanib daryoga qarab turibdi.

Hamma yer ravshan, erkin va keng, o'tloqlar ko'm-ko'k, kishining bahridilini ochadi, shishadek tiniq osmon, suvning sekin oqishida yashirin bir kuch bordek, suv tepasida – osmonda may oyining saxiy quyoshi charaqlagan, havo esa ignabarg daraxtlar va yashil yaproqlar hidi bilan to'lgan. Qirg'oqlar esa o'z chiroyi bilan ko'zlarni va qalblarni quvontirib peshvoz kelar va qirg'oqlarda yangidan yangi manzaralar ko'rinar edi.

Atrofdagi barcha narsalarda beparvolik alomati bor edi. Tabiat ham, odamlar ham beo'xshov va yalqovlik bilan yashar, lekin bu yalqovlik orqasida zo'r bir kuch bordek, ammo hozircha shuurdan mahrum bo'lgani uchun o'z maqsad va tilaklarini aniq belgilab ololmagan, lekin hech kimning kuchi yetmaydigan bir quvvat yashirinib yotgandek tuyular edi... va bu mudroq ichidagi hayotda shuurning yo'qligi shu go'zal fazoga ham g'amginlik soyasini tashlab turar-

di. Hatto qirg‘oqda daryoga shamol uchirib kelgan kakku qushning tovushida ham itoatkor toqat, allaqanday jonli bir narsani sabr bilan kutayotgani sezilib turardi... Mungli qo‘shiqlar go‘yo yordam so‘rayotganday... Goho bu qo‘shiqlar alamzadalik bilan mardonavor yangrar... Daryo bu qo‘shiqlarga xo‘rsinib javob berar... Daraxtlarning uchlari ham o‘ychan tebranar... Jimjitlik...

Foma butun kunni kapitan ko‘prikchasida, otasining yonida o‘tkazardi. U ko‘zlarini katta ochib, qirg‘oqdagi poyonsiz manzaralarni jimgina tomosha qilib borar, nazarida keng kumush so‘qmoqdan, ertaklardagi botirlar, jodugarlar mamlakatiga ketayotgandek bo‘lar edi. U goho ko‘rgan narsalari to‘g‘risida otasidan so‘rab-surishtirardi. Otasi unga erinmasdan, mukammal javob berar, biroq uning javoblari bolaga yoqmas, bu javoblarda bola uchun qiziqarli va tushunarli hech narsa yo‘q va eshitgisi kelgan narsalarni eshitolmas edi. Bir kuni u xo‘rsinib turib, otasiga:

– Anfisa ammam sendan yaxshiroq biladi... – dedi.

– Nimani biladi u? – deb so‘radi otasi kulib. Bola qat’iy qilib:

– Hamma narsani, – deb javob qildi.

Unga ajoyib va g‘aroyib mamlakatlar duch kelmadi. Lekin qirg‘oq bo‘ylarida Foma yashagan shaharga o‘xshash shaharlar tez-tez uchrab turdi. Bularning ba’zilari kattaroq, ba’zilari esa kichikroq, biroq odamlari ham, uylari ham, cherkovlari ham, hamma narsa uning shahridagiga o‘xshardi. Foma otasi bilan ularni tomosha qilgani tushar, lekin ulardan ko‘ngli to‘lmay paroxodga qovoq-lunji osilgan, horigan holda qaytib kelardi.

Bir kuni otasi:

– Ertaga Astraxanga yetamiz... – dedi.

– U ham shu shaharlarga o‘xshaydimi?

– Bo‘lmasam-chi!.. Qanaqa bo‘lardi?

– Uning orqasida nima bor?

– Dengiz bor... Kaspiy degan dengiz.

– Unda nima bor?

– Baliq bor-da, tentak! Suvda nima bo‘lardi?

– Kitej shahri suv ichida-ku...

– Uning yo‘rig‘i boshqa! U – Kitej... Unda faqat avliyolar yashagan.

– Dengizda avliyolar shahri bo‘lmaydimi?

– Bo‘lmaydi... – dedi Ignat va biroz jim turgach, qo‘shib qo‘ydi. – Dengiz suvi sho‘r, uni ichib bo‘lmaydi...

– Dengizning naryog‘ida ham yer bormi?

– Ha! Axir dengizning ham cheti bo‘ladi-da. U xuddi piyolaga o‘xshaydi.

– U yerda ham shaharlar bormi?

–Bo‘lmasam-chi, shaharlar bor, lekin u yerlar biznikimas, persiyonlar yeri... Yarmarkada persiyonlarni ko‘rganmisan – shaftoli, o‘rik, pista sotuvchilarni?

– Ko‘rganman, – deb javob berdi Foma va o‘ylanib qoldi. U bir kuni otasidan So‘rab qoldi:

– Yer ko‘pmi, a?

– Ha, o‘g‘lim, juda ko‘p!

– Ular ham hammasi bir xilmi?

– Bu nima deganing?

– Shaharlar hammasi...

– Ha, albatta... hammasi bir xil...

Shunga o‘xshagan bir necha suhbatdan keyin, bola qop-qora ko‘zlarini savol nazari bilan olislarga kamroq tikadigan bo‘ldi.

Paroxod komandasi uni yaxshi ko‘rar, quyosh bilan shamolda qoraygan va u bilan sho‘x hazil qiladigan bu ajoyib yigitlarni u ham yoqtirar edi. Ular Fomaga baliq tutadigan to‘rlar, daraxt qobig‘idan qayiqlar yasab berishar, u bilan o‘ynashar, paroxod to‘xtab turganda, otasi ish bilan shaharga ketgan kezlarda uni qayiqda sayr qildirishar edi. Bola otasini yigitlar so‘kkanlarini ko‘p eshitar, biroq bunga e’tibor bermas va otasi to‘g‘risida eshitgan gaplarini hech qachon unga aytmas edi. Ammo bir kuni Astraxanda paroxodga yoqilg‘i ortilayotganida, Foma mashinist Petrovichning tovushini eshitib qoldi:

– Shu qadar o‘tin ortishga buyuradimi, tfu, bema’ni odam! Paroxodning palubasigacha o‘tin taxlatadi-da, keyin o‘shqirib, mashinani tez buzasan, deydi... moyni bekorga isrof qilasan, deydi...

Sochi oqargan, tund lotsman unga javoban dedi:

– Hamma balo o‘taketgan ochko‘zligida, bu yerda o‘tin arzonda, shuning uchun o‘lib-tirilyapti... ochko‘z, shayton!..

– Ochko‘z...

Bu ketma-ket bir necha bor qaytarilgan so‘z Fomaning xotiriga singib qoldi-da, kechqurun otasi bilan ovqatlanayotganida so‘rab qoldi:

– Ota!

– Xo‘sh?

– Sen ochko‘zmisan?

Otasiga lotsman bilan mashinist o‘rtasida o‘tgan gapni aytib berdi. Ignatning yuzlari tumtaydi, ko‘zlarida g‘azab uchquni yiltilladi.

– Hali shunaqa degin! – dedi u bosh irg‘ab. – Lekin sen, haligi, ularga quloq solma. Ular sening tengingmas, sen ularning oldida kamroq o‘ralash. Sen ularga xo‘jayinsan, ular sening xizmatkorlaring, shuni bilib qo‘y. Ikkovimiz xohlasak hammasini ham qirg‘oqqa uloqtirib tashlaymiz, ular arzon, ular hamma yerda itdan ham ko‘p. Uqdingmi? Ular mening to‘g‘rimda juda yomon gaplarni aytishlari mumkin, chunki men ularning chinakam xo‘jayini bo‘laman. Hamma gap mana shunda, men omadi kelgan boy kishiman, boy kishini hamma ko‘rolmaydi. Baxtli odam hammaning dushmani.

Ikki kundan keyin paroxodga yangi lotsman bilan yangi mashinist keldi.

– Yakov qani? – deb so‘radi bola.

– Men unga javob berdim... haydab yubordim!

– Nima uchun?

– Ha, o‘shaning uchun...

– Petrovichni hammi?

– Uni ham.

Otasining paroxoddagi odamlarni tezda almashtira olishi Fomaga ma’qul tushdi. U otasiga qarab jilmayib qo‘ydi-da, pastga, palubaga tushib, shvabra qilish uchun bir parcha arqonni yechib o‘tirgan matros yoniga keldi.

– Yangi lotsman kelibdi-ku, – dedi Foma.

– Eshitdik... salomatmisiz, Foma Ignatich! Qalay uxlab turdingiz?

– Mashinist ham yangi...

– Mashinist ham... Petrovichga achinyapsanmi?

– Yo‘q.

– Be. U seni juda yaxshi ko‘rardi-ku...

– Nega bo‘lmasa otamni so‘kadi?
– E, hali so‘kdimi u?
– So‘kdi, o‘zim eshitdim...
– Himm... demak, otang ham eshitdimi?
– Yo‘q, unga men aytdim... Matros:
– Sen... Hali... shunaqa... – deya cho‘zib gapirdi-da, yana ishga tutinib, indamay qo‘ya qoldi.
– Otam menga, bu yerda sen xo‘jayinsan dedi, agar xohlasang hammasini haydab yubora olasan, dedi...
Matros o‘z oldida xo‘jayinligini pesh qilayotgan bolaga xo‘mrayib qararkan:
– Hali ish shunaqa degin!– deb qo‘ydi.
Foma shu kundan boshlab komandaning o‘ziga avvalgidan boshqacharoq munosabatda bo‘lganini payqab qoldi. Ba’zilari unga nihoyatda xushomadgo‘ylik qilib muloyim gapirsa, ba’zilari u bilan mutlaqo gaplashishni istamas, agar gaplashsalar ham, avvalgidek qiziq gaplarni so‘zlamas, zarda bilan gapirishardi. Foma ularning paluba yuvishlarini tomosha qilishni yaxshi ko‘rardi. Matroslar, ishton pochalarini tizzalarigacha shimarib olib, qo‘llarida shvabra va cho‘tkalar bilan palubada u yoqdan bu yoqqa chopqillab yurishar, palubaga chelaklab suv quyishar, bir-birlariga suv sepishar, kulishar, qichqirishar, yiqilishar, hamma yerda suv oqar va uning yoqimli shapillashi odamlarning qiy-chuvlariga qo‘shilib ketar edi. Ilgarilari Foma matroslarning mana shu hazil-mutoyiba va yengil ishlariga xalaqit berish u yoqda tursin, hatto o‘zi ham astoydil qatnashar, ularga suv separ, o‘ziga suv sepmoqchi bo‘lganlarida xaxolab qochib ketar edi. Biroq Petrovich bilan Yakovga javob berib yuborilgandan keyin, u endi hammaga xalaqit berayotganini, u bilan hech kimning o‘ynagisi kelmayotganini va hamma unga xo‘mrayib qarayotganini sezdi. U hayron bo‘lib, g‘amgin holda palubadan yuqoriga chiqdi-da, shturval yoniga o‘tirib, xafaqon, o‘ychan bir qiyofada ko‘m-ko‘k qirg‘oqlarga, uchlari kungirador o‘rmonlarga tikila boshladi. Pastda, palubada suv o‘ynoqlab shaloplar matroslar esa qiyqirib kulishar edi... Fomaning ular yoniga tushgisi kelar, biroq allanarsa sira qo‘ymasdi. Otasining:

«Ulardan uzoqroq yur, sen ularga xo'jayinsan...» degan so'zlari esiga tushdi.

Shunda uning matroslarga allanimalar deb qichqirgisi, otasiga o'xshab jerkib, xo'jayinlarga xos do'q bilan qiyqirgisi keldi. U nima deb qichqirsam ekan, deb uzoq bosh qotirdi. Biroq hech narsa o'ylab topolmadi... Yana ikki-uch kun o'tdi, komanda uni sevmasligini aniq payqab oldi. U paroxodda zerika boshladi va yangi taassurotlarning rango-rang tumani orasidan Fomaning ko'z oldida o'zining ertaklari, jilmayishlari va muloyim kulishlari bilan uning qalbini iliq quvonchlarga to'ldirgan Anfisa ammasining yoqimli qiyofasi tez-tez gavdalana boshladi. U hamon ertaklar olamida yashar, biroq borliqning shafqatsiz qo'li, atrofidagi hamma narsalarni bolaga ajoyib qilib ko'rsatib turgan pardani jon-jahdi bilan yirta boshlagan edi. Lotsman va mashinist voqeasi bolaning e'tiborini atrofdagi narsalarga tortdi. Fomaning ko'zlari o'tkirlashdi, uning ko'zlarida chinakam qiziqsinish paydo bo'ldi, otasiga bergan savollari-da esa odamlarning xatti-harakatlarini qanday ip va prujinalar idora etib turishini bilishga intilish borligi jaranglar edi.

Bir kuni uning ko'z oldida shunday bir voqea yuz berdi: matroslar o'tin tashir edilar, ulardan biri, jingalak sochli, xushchaqchaq Yefim degan yigit, zambil ko'tarib palubadan o'tib ketayotib, zarda bilan baqirdi:

– Yo'q, bu endi noinsoflik! Men o'tin tashiyman deb shartlashganim yo'q edi! Matros bo'lganingdan keyin, qiladigan ishing ravshan! Yana buning ustiga o'tin... Rahmat! Bu axir sotmagan terimni ham shilib olish-ku... Bu axir vijdonsizlik-ku! Odamlarning jirini so'rishga ustaligini qaranglar-a!

Foma bu po'ng'illashni eshitib gap otasi haqida borayotganini bildi. Yefim vaysasa ham, uning zambilidagi o'tini boshqalarnikidan ko'proq ekanini va uning hammadan ko'ra chaqqonroq o'tin tashiyotganini ko'rdi. Matroslardan hech biri Yefimning vaysashlariga javob qilmadi, hatto u bilan birga zambilning bir tomonini ko'targan sherigi ham indamadi. U faqat Yefimning kuyib-pishib zambilga haddan ortiq o'tin qalashiga goho norozi bo'lib:

– Bas! – deb qo'yardi xo'mrayib. – Axir, otga ortayotganing yo'q-ku!

– Sen jim turishingni bil! Seni qo‘shibdimi, tort, shattalama... Bordi-yu, qoningni so‘rsalar ham indama, nimayam deya olasan?

Shu choq qayerdandir Ignat paydo bo‘lib qoldi-da, matrosning oldiga kelib, uning yuziga tikilarkan, do‘q qilib:

– Nima deyapsan? – deb so‘radi.

– Nima bo‘lardi, bilganimni... – deya javob berdi Yefim tutilib. – Gapirmaslik uchun... kelishmovdik shekilli.

– Xo‘sh, qoningni so‘rayotgan kim? – deb so‘radi Ignat soqolini silab. Matros qo‘lga tushganini va qutulish mushkul ekanini payqab, qo‘lidagi g‘o‘lani tashladi-da, kaftini ishtoniga artib, Ignatning betiga tik qarab, dadil dedi:

– Men nohaq gapirdimmi? So‘rayotgan o‘zing emasmi?..

– Men-a?

– Sen!

Foma otasining musht urganini ko‘rib qoldi, allaqanday sharaqlagan ovoz eshitildi-yu, matros gursullab o‘tin ustiga yiqildi. U o‘sha zahotiyoq o‘rnidan turdi-da, indamay yana ishlayverdi... Qayin o‘tinining oppoq po‘stlog‘i ustiga uning shikastlangan yuzidan qon tomdi, u qonini ko‘ylagining yengi bilan artdi, yengiga qarab, indamay xo‘rsinib qo‘ya qoldi. U zambil ko‘tarib Fomaning yonidan o‘tib ketayotganda, Foma uning qansharida ikki tomchi yirik ko‘z yoshi titrab turganini ko‘rdi...

Otasi bilan ovqatlanayotganda Foma o‘yga tolgan holda, ko‘zlarida qo‘rquv alomati bilan otasiga qarab o‘tirdi.

– Sen nega tumtayib o‘tiribsan? – deb so‘radi otasi undan muloyimgina.

– O‘zim...

– Tobing qochdimi?

– Yo‘q...

– Unday bo‘lsa-ku, mayli... Agar biron narsa bo‘lsa ayt...

Bola o‘ychanlik bilan:

– Kuchli ekansan!.. – dedi.

– Menmi? Ha... Xudo kuchdan kamsitmagan...

Foma boshini quyi solib, ohistagina dedi:

– Uni sen hali rosa tushirding-da!

Ignat ikra surtilgan bir burda nonni endi og'ziga olib borganda o'g'lining gapini eshitib, qo'li to'xtab qoldi, u o'g'lining egilgan boshiga savol nazari bilan qararkan:

– Haligi Yefimkani aytyapsanmi? – deb so'radi.

– Ha... Qon chiqdi!.. U yurgan yo'lida yig'ladi... – dedi bola past tovush bilan.

– Himm... – deya pishqirdi Ignat kavshanib. – Unga rahming keldimi?

– Ha, – dedi Foma yig'lamsirab.

– Him... Obbo sen-ey! – deb qo'ydi Ignat.

Keyin biroz jim turgach, bir ryumka aroq quyib ichdi-da, nasihatomuz gapga tushdi:

– Uning nimasiga rahming keladi? Bekorga vaysaydi, qilmishiga yarasha jazosini tortdi... Men uni bilaman, yaxshi, g'ayratli, baquvvat, aqlli yigit. Fikr yurgizish uning ishi emas... Men fikr yurgizsam bo'ladi, chunki men xo'jayinman. Xo'jayin bo'lish oson ish emas!.. Jag'iga urganing bilan u o'lib qolmaydi, aqli kiradi. Shunaqa, Foma! Hali go'daksan... hech narsaga aqling yetmaydi... Yashash yo'lini senga o'rgatish kerak... balki bu dunyoda mening umrim oz qolgandir...

Ignat jim bo'lib qoldi, yana aroq ichdi-da, yana salmoq bilan gap boshladi:

– Odamlarga achinish kerak... Buning yaxshi! Biroq idrok bilan achinish kerak... Avvalo odamiga qarab bilib olish kerak, biron nafi bormi, biron foydasi tegadimi? Agar uning kuchli, ishchan odam ekanini ko'rsang aya, yordam qil, bordi-yu, u nimjon, ishga uquvsiz bo'lsa, betiga tupur, ishing bo'lmasin. Shuni bir bilki, hamma narsadan doim zorlanib, oh-voh qilib yuradigan odam, ikki pulga arzimaydi, unaqa odamga achinish ham kerakmas, agar sen unga achinib yordam qilgudek bo'lsang, baribir unga foydang tegmaydi... Undaylarga achinsang, beshbattar takasaltang bo'lib, taltayib ketadi... Otaxoningnikida turganingda sen turli-tuman, qalang'i-qasang'i, daydi, yuvindixo'r, bechoralarni... va har xil ablahlarni ko'rgansan... Ularni unut... Ular odam emas, chiqindi xolos, ular hech narsaga arzimaydi... Ular xuddi kana, burga va shu singari boshqa hasharotlarga o'xshaydilar... Ular xudo uchun yashashmaydi, ularning

hech qanaqa xudosi ham yo‘q, ular faqat ahmoqlarning ko‘ngillarini yumshatish va ularning xayr-ehsonlari bilan o‘zlarining qorinlarini qappaytirish uchungina xudoning nomini tilga oladilar... Ular o‘z qorinlari uchungina yashaydilar – yeyish, ichish, uxlash va oh-voh chekishdan boshqa hech narsani bilmaydilar... Ular ko‘ngilni vayron qilishadi, xolos. Ularga yaqinlasha ko‘rma. Ular orasida hatto yaxshi odam ham, chirigan olmalar orasida qolgan toza olmadek buzilishi mumkin. Hali yoshsan, mening so‘zlarimga ham tushunmaysan. Sen qiyinchilikka bardosh beradigan odamga yordam qil... U balki sendan yordam ham so‘ramas, lekin so‘ramasa ham o‘zing bilib yordam qil... Agar u mutakabbir odam bo‘lsa, balki sening yordamingga xafa ham bo‘lar, shunda sen yordam qilayotganingni sezdirma, o‘zingni bilmaslikka sol... Aql bilan ish tutilsa, mana shunday qilish kerak! Gap mana bunday: aytaylik, ikkita taxta loyda yotibdi, biri chirik, ikkinchisi esa yaxshi, butun taxta. Shunda sen nima qilishing kerak? Chirik taxtadan nima foyda? Sen unga tegma, mayli, loyda yotaversin, oyoqni iflos qilmaslik uchun uni bosib o‘tish mumkin... Yaxshi taxtani olib oftobga qo‘y, u senga yoki birovga biron narsaga asqatib qoladi. Shunday o‘g‘lim! Mening gaplarimni yaxshilab uqib ol... Xotiringdan chiqarma... Yefimga achinishning hech hojati yo‘q, u ishchan yigit, o‘z qadrini biladi... urgan bilan o‘lib qolmaydi... Men yana biror hafta ko‘raman, keyin shturvalga qo‘yaman... Qarabsanki, keyinchalik lotsman bo‘lib ketadi... Agar kapitan qilsang bormi, epchil kapitan bo‘ladi! Odamlar mana shunday o‘sadi... Bu saboqni, o‘g‘lim, men ham o‘z boshimdan kechirganman, uning yoshida men ham rosa kaltak yeganman. He, o‘g‘lim, hayot, tuqqan onamiz emas – bizning qattiqqo‘l xo‘jayinimiz...

Ignat o‘g‘liga ikki soat chamasi o‘zining yoshlik chog‘lari, qilgan ishlari, odamlar va ularning zaif tomonlarining dahshatli kuchi, odamlarning boshqalar hisobiga yashashi uchun o‘zlarini baxtsiz qilib ko‘rsatishga ustaliklari to‘g‘risida va yana o‘zining oddiy bir ishchidan qanday qilib katta ishning xo‘jayini bo‘lib olganligi to‘g‘risida so‘zlab berdi...

Bola otasining so‘zlariga quloq solib o‘tirarkan, unga tikilar va go‘yo otasi borgan sari unga yaqinlashib kelayotganday tuyular edi. Otasining gaplari, Anfisa ammasi aytib bergan ertaklar singa-

ri mazmundor bo‘lmasa ham, lekin ularda ertaklardagiga qaraganda aniqroq, tushunarliroq va kishini qiziqtiradigan allaqanday yangilik bor edi. Uning kichkinagina qalbida allaqanday kuchli va otashin bir narsa qaynab, bola ko‘nglini otasiga jalb qilardi. Ignat o‘g‘lining qarashlaridan, uning hislarini sezdi shekilli, o‘tirgan yeridan irg‘ib turdi-da, o‘g‘lini dast ko‘tarib bag‘riga bosdi. Foma esa otasining bo‘ynidan quchoqlab, yuzini uning yuziga qo‘yib tez-tez nafas olarkan, jim turdi.

– O‘g‘lim! – deya pichirladi Ignat bo‘g‘iq ovoz bilan, – jonim... quvonchim mening. Tirikligimda o‘qib ol... Hayot kechirish naqadar og‘ir!

Bu shivirlashdan bolaning qalbi titrab ketdi, u tishini tishiga mahkam bosarkan, ko‘zlaridan duv etib qaynoq yoshlar to‘kildi.

Paroxod Volga bo‘ylab yuqoriga – orqasiga qaytib kelardi. Ko‘k yuzini qalin qora bulutlar qoplagan va daryo ustida mash’um sokinlik hukm surgan iyul oyining dim kechalaridan birida paroxod Qozonga yetib, Uslon yonida uzoqlarga cho‘zilib ketgan kemalar karvoni ortiga kelib to‘xtadi. Langar zanjirlarining sharaqlashi va komanda hayqiriqlari Fomani uyg‘otib yubordi. U derazadan qararkan olisda, qorong‘ilik ichida arang lipillagan chiroqlarni, moydek qop-qora, quyuq suvni ko‘rdi, bo‘lak hech narsa ko‘rinmadi. Bolaning yuragi orziqib, seskanib tushdi, u diqqat bilan quloq sola boshladi.

Qayerdandir aytib yig‘laganday mungli, alamli qo‘shiq ovozi eshitilib turardi. Kemalar karvonida qorovullar bir-birlarini chaqirar, paroxod bug‘ chiqarib, zarda bilan pishqirar edi... Daryoning qop-qora suvi kemalar bortiga urilarkan, goh mungli, goh muloyim shapillardi. Bola ko‘zlari tolguncha yiroqlarga tikilib qarab, u yerda to‘da-to‘da bo‘lib turgan qora narsalarni va ularning tepasida so‘nay-so‘nay deb miltillagan olovlarni ko‘rdi... Bular barjalar ekanini bilsa-da, lekin ko‘ngli tinchimadi, yuragi gup-gup urib, xayolida allaqanday vahimali qop-qora narsalar ko‘z oldiga keldi.

– O-o... O! – deya yiroqdan cho‘zib qichqirgan ovoz eshitilib, bora-bora xuddi ho‘ngragandek bo‘lib tugadi... Kimdir palubadan yurib paroxod bortiga keldi...

– O-o-o!.. – degan ovoz yana eshitildi, biroq bu gal yaqinroqqa keldi...

– Yefim! – dedi birov palubada do‘rillab. – Shayton! Tur o‘rningdan! Changakni ol...

Yaqinginadan yana:

– O-o-o! – deya ingragan ovoz eshitildi, Foma seskanib ketdida, o‘zini derazadan olib qochdi.

Bu g‘alati ovoz borgan sari yaqinlasharkan, hamon zo‘rayar, faryod qilar va zulmat qo‘yniga singib ketar edi. Palubada esa tashvishlanib pichirlashardi:

– Yefimka! Tur, mehmon kelyapti!

Birov shoshib:

– Qani? – deb so‘radi.

Palubadan shipillab o‘tgan yalangoyoq tovushi va g‘ovur-g‘uvur eshitildi, bolaning xuddi tumshug‘i yonidan, ikki changak pastga sirg‘anib tushdi-yu, tovushsiz suvga sanchildi...

Yaqinginadan:

– Meh-mo-o-n! – deb qichqirishdi, suvning ohista va g‘alati shapillagani eshitildi.

Bola bu mungli ovozni eshitib qo‘rqqanidan titradi, biroq qo‘llarini derazadan, ko‘zlarini suvdan uzolmadi.

– Fonusni yoq... hech narsa ko‘rinmayapti!..

Mana, suvga xiragina shu’lasi tushdi... Foma suvning ohista chayqalayotganini, go‘yo jon og‘rig‘iga chidolmay titrayotganday jimirlaganini ko‘rdi.

– Qara... qara! – vahima bilan pichirlashdi palubada.

Shu choq suv betiga tushgan shu’la yorug‘ida bir odamning oppoq tishlari irjaygan dahshatli basharasi ko‘rindi. U suv betida chayqalib suzib borar, tishlari esa, to‘g‘ri Fomaga qarab, go‘yo kulimsirab:

«Eh, bola, bola... sovuq!» deyayotgandek edi.

Changaklar lapanglab baland ko‘tarildi, keyin yana suvga tushdi.

– Itarib yubor uni... Tort!.. Ehtiyot bo‘l, parrakka tiqilib-netib qolmasin...

Changaklar paroxod borti bo‘ylab siyg‘anar, go‘yo tish g‘ijirlaganday ovoz chiqarib, bortni tatalar edi. Palubada shipillayotgan oyoq tovushlari asta-sekin paroxodning quyrug‘i tomon ketdi...

Mana, u yerda ham azada aytib yig'laganday, mungli nido yana takrorlandi:

– Meh-mo-o-n!..

– Dada! – deb baqirib yubordi Foma. – Dada...

Otasi irg'ib turib, o'g'lining oldiga yugurdi.

– Nima u? Ular nima qilishyapti? – dedi qichqirib Foma.

Ignat o'kirganicha kayutadan o'qday otilib chiqib ketdi. U tezda qaytdi, qaytib kirganda, Foma dovdirab, qo'rqa-pisa atrofiga alanglab, deraza oldidan hali otasining o'rniga yetib ololmagan edi.

– Qo'rqitishdimi seni, hechqisi yo'q! – dedi Ignat o'g'lini ko'tarib. – Men bilan yota qol...

Foma ohista so'radi:

– Nima u?

– O'g'lim, hech narsa emas... U cho'kkan odam. Birov cho'kib o'lgan, oqib kelyapti... Hechqisi yo'q! Sen qo'rqma, u oqib ketdi...

– Nega uni itarib yuborishdi? – deb so'radi bola, qo'rqqanidan otasiga mahkam yopisharkan, ko'zlarini yumib...

– Shunday qilish kerak... Uni suv parrakka tiqib qo'ysa... ertaga politsiya ko'rib qolsa, ovoragarchilik bo'ladi, tergov bo'lib... bizni ushlab qoladi. Shuning uchun ham uni itarib, oqizib yuborishdi... unga nima? U o'lgan... uning hech yeri og'rimaydi, xafa ham bo'lmaydi... tiriklarga u anchagina tashvish orttirishi mumkin... uxla, o'g'lim!..

– U shunday oqib ketaveradimi?

– Ha, shunday oqib ketaveradi... biron yerda tutib olib ko'mishadi...

– Baliqlar yeb qo'ymaydimi?

– Baliqlar odam go'shti yemaydi... qisqichbaqalar yeydi...

Foma vahmdan qutuldi, biroq uning ko'z o'ngida, tishlarini irjaytirib turgan dahshatli bashara qop-qora suv betida qalqib turganday edi.

– Kim o'zi u?

– Xudo biladi! Sen unga xudodan: «Qabrida tinch yotsin», deb so'ra!

– E xudo, uni qabrida tinch yotqiz, takrorladi Foma pichirlab.

– Endi bo‘ldi... Uxla, qo‘rqma!.. U endi juda olisda! Oqib ketyapti... Sen-chi, bortga ehtiyot bo‘lib yaqinlash, tag‘in xudo ko‘rsatmasin, suvga yiqilib tushsang bormi...

– U ham yiqilib tushganmi?

– Albatta, yiqilgan... Ehtimol, mast bo‘lgandir... Balki o‘zini tashlagandir... O‘zini shunaqa suvga otadiganlar ham bor... Keladida, o‘zini suvga tashlaydi... Cho‘kib o‘ladi... Hayot mana shunaqa, bolam, bir xil o‘lim odamning o‘zi uchun bayram, bir xillari esa hamma uchun xayrli!

– Dada...

– Uxla, bo‘tam...

III

Maktab hayotining birinchi kuniyoq, bolalarning qiy-chuv bilan to‘s-to‘polon ko‘tarib qilgan sho‘xliklaridan va qaltis o‘yinlaridan hayron bo‘lib qolgan Fomaning ko‘zi shu bolalar orasidan ikkitasini ajratdi, ular bir ko‘rishdayoq, boshqa bolalarga qaraganda unga qiziqroq tuyuldi. Bittasi Fomaning oldidagi partada o‘tirardi. Foma unga yer ostidan qarab, uning keng yelkasiga, sepkil bosgan yo‘g‘on bo‘yniga, shalpang quloqlariga, och malla sochi taqir qilib olingan ensasiga ko‘zi tushdi.

Boshi yaltiroq, pastki labi osilgan o‘qituvchi: «Smolin Afrikan!» deb chaqirganda, haligi malla bola sekin o‘rnidan turdi-da, masalani eshitib olgach, doskaga qunt bilan katta-katta qilib yumaloq raqamlarni yoza boshladi.

– Yaxshi, bo‘ldi! – dedi o‘qituvchi. – Yejov Nikolay, davom ettir!

Fomaning yonidagi partada o‘tirganlardan biri – jikkak, qopqora, sichqon ko‘zli, kichkinagina bir bola o‘rnidan irg‘ib turdi-da, atrofga alanglab hamma narsaga turtinib, partalar o‘rtasidan yurib bordi. U doska oldiga borgach, darrov bo‘rni oldi-da, oyoq uchida turib, doskani taqillatib, bo‘rni uvatib, bilinar-bilinmas mayda sonlarni yoza boshladi.

Ko‘zlari toliqqan o‘qituvchi ijirg‘anib sap-sariq basharasini burushtirarkan:

– Sekinroq! – dedi. Yejov esa jaranglagan ovoz bilan tez-tez so‘zlay boshladi:

– Endi biz, birinchi savdogarning o‘n yetti tiyin foyda olganini bildik...

– Bo‘ldi!.. Gordeyev! Ikkinchi savdogarning qancha foyda olganini bilish uchun nima qilish kerak?

Bir-biriga sira o‘xshamagan bu ikki bolaning qiliqlarini kuzatib o‘tirgan Foma, qo‘qqisdan berilgan bu savoldan gangib, indamay qoldi.

– Bilmaysanmi?.. Tushuntir unga, Smolin...

Bo‘r tegib oqargan barmoqlarini latta bilan tozalab artayotgan Smolin, Fomaga qaramay, lattani qo‘ydi-da, masalani tamomlagach, yana qo‘lini arta boshladi. Yejov esa iljayganicha, yo‘l-yo‘lakay irg‘ishlab, o‘z joyiga qaytib keldi.

– Eh, seni! – deya shipshidi u Fomaning yoniga o‘tirayotib uning biqiniga mushti bilan turtib ham qo‘ydi. – Nimasi qiyin? Hamma foydaning o‘zi qancha? O‘ttiz tiyin... sotuvchilar-chi, ikkita... biri o‘n yetti tiyin oldi, xo‘sh, ikkinchisi qancha oladi?

Foma xijolat bo‘lib pichirladi:

– Bilaman, – dedi-da, bitta-bitta bosib o‘z joyiga qaytib kelayotgan Smolinning yuziga tikildi. Unga Smolinning yumaloq, sepkil bosgan olachalpoq, lorsillab turgan yuzi va ko‘k ko‘zi yoqinqiramadi. Yejov esa uning oyog‘ini qattiq chimchilarkan:

– Kimning o‘g‘lisan, Dovdirnimi? – deb so‘radi.

– Ha...

– Seni qara-ya... Xohlasang, men senga hamma vaqt aytib turaman.

– Bo‘pti...

– Buning uchun nima berasan?

Foma o‘ylab turib so‘radi:

– Sen o‘zing bilasanmi?

– Menmi? Men, birinchi o‘quvchi bo‘laman...

– Hoy! Yejov, tag‘in gaplashyapsanmi? – deb qichqirdi o‘qituvchi.

Yejov sapchib turib:

– Men emas, Ivan Andreyevich, Gordeyev! – dedi shartta.

– Ikkalasi ham pichirlashyapti, – dedi Smolin salmoq bilan.

O‘qituvchi aftini norozi kishiday burushtirib, qalin lablarini g‘alati qilib chapillatib, hamma bolani qoyidi, biroq uning tanbehi Yejovga kor qilmadi shekilli, u o‘sha zahotiyoq yana shivirladi:

– Qarab tur seni, Smolin! Chaqimchiliging uchun bir adabingni bermasam...

– Bo‘lmasa sen nega yangi kelgan bolaga to‘nkaysan? – deb so‘radi ohista Smolin, boshini o‘girmay.

– Bo‘ldi, bo‘ldi! – dedi zarda qilib Yejov.

Foma jikkak sherigiga ko‘z qiri bilan qarab turarkan, indamadi, bu bola unga ayni vaqtda ham yoqar edi va ayni zamonda undan yiroqroq bo‘lish istagini qo‘zg‘atardi. U tanaffus vaqtida Yejovdan Smolinning boyvachcha, ko‘n zavodi xo‘jayinining o‘g‘li ekanini, Yejovning o‘zi esa, davlat palatasida qorovul bo‘lib ishlaydigan bir kambag‘alning o‘g‘li ekanini bilib oldi. Bu esa, sho‘x bolaning tizzasiga hamda tirsaklariga yamoq tushgan kulrang bamazeydan tikilgan kiyimidan, rangpar, zahil yuzidan, suyaklari turtib chiqqan kichkinagina gavdasidan ham ma’lum edi. Yejov so‘zlaganda qo‘llarini paxsa qilib, yuz-ko‘zlarini uchirib, jaranglagan ovoz bilan so‘zlar va ko‘pincha gapida ma’nosi yolg‘iz o‘zigagina ma’lum bo‘lgan so‘zlarni ishlatar edi.

– Biz ikkovimiz o‘rtoq bo‘lamiz, – dedi u Fomaga.

Gordeyev shubha bilan unga ko‘z qirini tashlarkan:

– Hali o‘qituvchiga sen meni nega chaqding? – deb esiga soldi.

– Buni qara-ya! Sen yangisan, ham boysan, o‘qituvchi boylarga indamaydi. Men esa kambag‘al, ochofatman, meni u yaxshi ko‘rmaydi, chunki men to‘polonchiman va unga hech qachon sovg‘a olib kelganim yo‘q... Agar men yomon o‘qiganimda bormi, u allaqachon meni haydab yuborardi. Bilasanmi, men bu yerdan gimnaziyaga ketaman... Ikkinchi sinfni bitirsam, ketaman... Meni bir student o‘rgatib tayyorlayapti... U yerda men shunday o‘qiyki, hayron qolgin! Sizlarning nechta otingiz bor?

– Uchta... Sen ko‘p o‘qib nima qilasan? – deb so‘radi Foma.

– Chunki men kambag‘alman... kambag‘allar ko‘p o‘qishi kerak, o‘qisa ular ham boy bo‘ladi, doktor, chinovnik, ofitser bo‘lishadi...

Men ham... yonimga qilich osib, oyoqlarimga shpor taqaman – jiring, jiring! Sen kim bo'lasan?

– Bilmayman!.. – dedi o'ylanib Foma, o'rtog'ini ko'zdan kechirarkan.

– Sening biror kimsa bo'lishing shartmas... Kaptarni yaxshi ko'rasanmi?

– Ha, yaxshi ko'raman...

Yejov Fomaning salmoqlanib gapirishiga qarab:

– Obbo qurg'ur-e! O-o! Nechta kaptaring bor? – dedi.

– Birorta ham yo'q...

– E, seni qara-ya! Boy bo'lib kaptaring ham yo'q... Menda uchta bor-u – bitta paypoqdor, bitta chipor, yana bitta turman... Agar otam boy bo'lganda, men yuzta kaptar boqardim-da, kuni bilan uchirardim. Smolinning ham kaptarlari bor, hammasi yaxshi! O'n to'rtta, menga turmanni o'sha bergan. Lekin u juda qurumsoq!.. Boylarning hammasi ham qurumsoq bo'ladi! Sen ham xasismisan?

– Bilmayman, – deya chuchmal javob qildi Foma.

– Sen Smolinlarnikiga kel, uchovimiz birga uchiramiz...

– Xo'p... agar menga ruxsat berishsa...

– Hali seni otang yaxshi ko'rmaydimi?

– Yaxshi ko'radi.

– Unday bo'lsa ruxsat beradi. Sen otangga mening borishimni ayta ko'rma, meni aytsang, albatta yubormay qo'yadi, sen, Smolinlarnikiga boraman, deb so'ra... Smolin!

Girdig'um bola ularning yoniga keldi, Yejov ta'na qilganday bosh chayqab u bilan so'rashdi:

– Eh, sariq chaqimchi! Sen bilan o'rtoq bo'lib ham bo'lmaydi, chaqirtosh!

Smolin o'qrayib Fomani kuzatarkan, pinagini buzmay Yejovdan:

– Nega so'kasan? – deb so'radi.

Yejov jonlanganidan tipirchilab:

– So'kayotganim yo'q, haq gapni aytyapman, – dedi. – Gapimga quloq sol! Sen latta bo'lsang ham, xo'p, mayli! Yakshanba kuni ibodatdan keyin u bilan birga senikiga boramiz...

– Kelinglar, – dedi Smolin bosh irg'ab.

Yejov:

– Kelamiz... Hademay qo‘ng‘iroq chalinadi, g‘izillab borib sa’vani sotib kelay. – Shimining cho‘ntagidan ichida allaqanday tirik bir narsa pitirlab turgan qog‘oz xaltani oldi-da, maktab hovlisidan xuddi kaftdagi simobdek g‘oyib bo‘ldi.

Yejovning epchilligiga hayron qolgan Foma Smolinga savol nazari bilan qarab:

– Uni qara-ya! – dedi.

– Juda epchil! – dedi malla bola.

– Xushchaqchaq ham, – deb qo‘ydi Foma.

– Ha, xushchaqchaq! – dedi Smolin ham. Shundan keyin ular bir-biriga qarab, jim bo‘lishdi.

– Biznikiga kelasanmi u bilan? – deb so‘radi malla bola.

– Kelaman...

– Kel... Biznikida yaxshi...

Foma bunga hech narsa demadi. Shundan keyin Smolin so‘radi:

– O‘rtoqlaring ko‘pmi?

– Hech yo‘q...

– Maktabga kirgunimgacha mening ham hech o‘rtog‘im yo‘q edi... Faqat amakivachchalarim bor, xolos... Endi sen birdaniga ikki o‘rtoq orttirding...

– Shunday, – dedi Foma.

– O‘rtog‘ing ko‘p bo‘lsa, zerikmaysan... O‘qish ham oson, aytib berib turishadi...

– Sen o‘zing yaxshi o‘qiysanmi?

– Men hamma narsani yaxshi bajaraman, – dedi Smolin bemalol.

Go‘yo bir narsadan qo‘rqib, allaqayoqqa shoshib chopib ketayotgandek, qo‘ng‘iroq jiringlab qoldi...

Maktabga kirib o‘tirgach, Foma o‘zini erkinroq sezdi va o‘z o‘rtoqlarini boshqa bolalarga solishtirib ko‘ra boshladi. Hademay u, ularning ikkalasini ham, maktabda eng yaxshi o‘quvchilardan ekanini va xuddi sinfning qora doskasidan hali o‘chirilmagan o‘sha 5, 7 raqamlari kabi darrov kishi ko‘ziga tashlanib turishini fahmladi. O‘rtoqlarining barcha bolalardan yaxshi ekani Fomaning ko‘nglini ko‘tardi.

Maktabdan ular uchalasi birga qaytishdi, lekin Yejov uzoqqa bormay, allaqanday bir tor ko'chaga burilib ketdi. Smolin esa Fomaning uyigacha birga bordi va xayrlashayotib:

– Mana ko'rdingmi, bundan keyin ham birga yuramiz! – dedi.

Fomani uyda tantana bilan kutib oldilar – otasi unga ism va familiyasining bosh harflari naqsh qilib o'yilgan og'ir kumush qoshiq, ammasi esa, o'zi to'qigan sharfni sovg'a qildi. Uning yaxshi ko'rgan ovqatlarini qilib kutib turishgan ekan, yechinishi bilanoq, darhol uni stolga o'tqazishib, surishtira boshladilar:

– Xo'sh, maktab yoqdimi? – deb so'radi Ignat, o'g'lining lovullab turgan qip-qizil yuziga mehr bilan tikilib.

– Durust... yaxshi! – deb javob berdi Foma.

– Bo'tam! – deya muloyimgina xo'rsindi ammasi. – Sen, hushyor bo'l! O'rtoqlaringga ehtiyot bo'l... Agar birontasi seni xafa qilgudek bo'lsa, darrov domlangga ayt...

– Gapini qara-ya! – deb kulimsiradi Ignat. – Hech qachon shunday qilma! Kimki seni xafa qilsa, o'zing javob qilishga urin, o'z qo'ling bilan adabini ber! Bolalar yaxshimi o'zi?

– Ha, – Foma Yejovni eslab kulimsiradi. – Bittasi bor, biram epchilki, qo'yaverasan!

– Kimning o'g'li?

– Qorovulning o'g'li...

– Epchil deysanmi?

– Juda ham!

– Satqayisar! Boshqasi-chi?

– Boshqasi sap-sariq bola... Smolin...

– E! Aftidan, Mitriy Ivanovichning o'g'liga o'xshaydi... O'shandan qolma, yaxshi o'rtoq bo'ladi... Mitriy – aqlli odam... O'g'li o'ziga o'xshagan bo'lsa, yaxshi! Lekin boshqasi... Sen, Foma, quloq sol, yakshanba kuni ularni mehmonga chaqir. Men tortiq olib kelaman, ularni ziyofat qilasan... Ko'raylik, ular qanaqa ekan?..

– Yakshanba kuni meni Smolin o'zinikiga chaqirgan edi, – dedi Foma otasiga savol nazari bilan qarab.

– E-ha, shundaymi... Mayli, bor! Hechqisi yo'q, bor... Dunyoda qanday odamlar borligini ko'r... Do'st orttirmay, yolg'iz yashab bo'lmaydi... Mana, men yigirma yildan ko'p bo'ldi, otaxoning bilan

do‘stman, uning aqlidan anchagina foydalandim. Sen ham shunday qil, o‘zingdan yaxshiroq va aqlliroq bola bilan do‘st bo‘lishga urin... Yaxshi odamning yonida yursang, kumush yonida yaltillagan chaqadek, o‘zing ham bittangalik o‘rniga o‘tasan... – Ignat o‘zi qilgan taqqosga kulimsirab qo‘shib qo‘ydi:

– Hazillashyapman, soxta bo‘lmay, chinakam odam bo‘lishga tirish... Ozgina bo‘lsa ham o‘z aqling bo‘lsin... Xo‘sh, ko‘p dars berdimi senga?

– Ko‘p, – dedi bola xo‘rsinib va uning xo‘rsinganiga ammasi ham xo‘rsinib qo‘ydi.

– Mayli, o‘qi! Ilmda boshqalardan orqada qolma. Lekin men senga aytsam, maktabda yigirma besh sinf bo‘lganda ham, yozuv, o‘quv, hisobdan boshqa hech narsani o‘rgatmaydi. Bundan boshqa turli-tuman ahmoqliklarni ham o‘rgatishi mumkin, lekin seni xudo saqlasin! Agar biron hodisa... kaltaklayman... agar tamaki cheksang, labingni kesib tashlayman.

– Xudoni yodla, Fomushka, – dedi ammasi. – Yaratganni unutma, ehtiyot bo‘l...

– To‘g‘ri! Xudo bilan otangni hurmat qil! Lekin men shuni aytmoqchimanki, o‘qish kitoblarining o‘zi kamlik qiladi... Duradgorga bolta bilan randa qanchalik kerak bo‘lsa, senga ular shunchalik kerak, ular anchayin asbob, asbob o‘rgatmaydi. Uqdingmi?.. Aytaylik, duradgorning qo‘liga bolta berilgan, u bolta bilan to‘sin yo‘nishi kerak... Buning uchun birgina qo‘l bilan bolta kifoya qilmaydi, bundan tashqari, o‘z oyog‘ingni chopib olmasdan, to‘sin yo‘nish uchun uquv kerak... Bundan chiqdiki, yolg‘iz kitobning o‘zi ozlik qiladi. Undan foydalanishni ham bilish zarur... Mana shu uquv har qanday kitobdan ham ustunlik qiladi, lekin kitoblarda bu haqda hech narsa yozilgan emas... Buni, Foma, hayotning o‘zidan o‘rganish kerak. Kitob jonsiz narsa, uni nima qilsang ham bo‘laveradi, yirt, majaqla, u dod demaydi... Ammo hayot, agar sen biroz qing‘ir qadam qo‘ysang, o‘zingga nomunosib joy egallasang bormi, minglarcha ovoz bilan senga baqiradi, yetmasa shunday uradiki, to‘ntarilib tushasan.

Foma stolga suyanib, otasining so‘zlarini zo‘r diqqat bilan tingladi va uning kuchli ovoziga quloq solib o‘tirarkan, goh o‘sha to‘sin yo‘nayotgan duradgorni, goh o‘zini ko‘z oldiga keltirardi, go‘yo u

qo'llarini olg'a cho'zib, bilqildoq yer ustidan yurib allaqanday bahaybat va tirik bir narsa tomon ohista pusib borayotganday va mana shu bahaybat narsani tutishga intilayotganday bo'ladi...

– Odam o'zini o'z ishi uchun ehtiyot qilishi va o'z ishining yo'lini puxta bilishi kerak... Odamzod, bo'tam, xuddi paroxoddagi lotsmanga o'xshaydi... Yoshligingda, toshqin suvda suzgandek to'g'ri bor! Hamma yerda senga yo'l ochiq... Lekin paroxod haydashning ham vaqti borligini bilish kerak... Suv kamaydimi, osting sayoz bo'lib qoladi, goh to'ngak, goh tosh ro'para keladi. Pristanga eson-omon yetib olish uchun, bularning hammasini nazarda tutish va o'z vaqtida chetlab o'tish kerak...

– Men pristanga yetib olaman! – dedi bola ishonch va g'urur bilan otasiga qarab.

– Be... Katta ketding! – Ignat kulib yubordi. Ammasi ham muloyimgina kulib qo'ydi.

Otasi bilan birga Volgani aylanib qaytgandan keyin Foma otasi, ammasi va Mayakin bilan dadil so'zlashadigan bo'lib qoldi. Biroq ko'chada yoki biron boshqa joyda, yot odamlar oldida, qovog'ini solib olar va hamma yerda allaqanday yashirin dushmanlik sezayotgandek, uni birov poylab turgandek, chor atrofiga shubha bilan ishonqiramay qarayverardi.

U ba'zan kechalari qo'qqisdan uyg'onib, anchagacha atrofdagi jimlikka quloq solib, ko'zlarini katta ochib qorong'ilikka tikilganicha yotardi. Uning ko'z o'ngida otasi so'zlab bergan odamlarning obrazi va voqealar gavdalanardi. U o'zi ham sezmay, ularni ammasining ertaklari bilan aralashtirib, voqealarni shunday chalkashtirib yubordiki, unda xayolning ravshan bo'yoqlari haqiqiy hayotning dag'al ranglari bilan g'alati bo'lib qorishib ketardi. Bundan tushunib bo'lmaydigan allaqanday bahaybat bir narsa paydo bo'lardi. Bola ko'zlarini yumib olar, bularning hammasini o'zidan nari quvmoqchi bo'lar, yuragiga vahm soluvchi xayolotning charx urishlarini to'xtatishga urinar edi.

Biroq u harchand urinsa ham uxlay olmasdi, ammo uy ichini borgan sari qora sharpalar to'ldirardi. Shunda u ammasini ohista uyg'otib:

– Amma... Hoy, amma... – dedi.

– Nima deysan? Xudo saqlasin...
– Oldingga o‘taman, – deb shivirladi Foma.
– Nega? Ux-la, jonim... uxla...
– Qo‘rqyapman! – dedi bola.
– Sen duo o‘qib, o‘zingga dam solib yot, qo‘rqmaydigan bo‘lasan.

Foma ko‘zini yumib yotgan joyida duo o‘qirdi. Sokin tun uning ko‘z o‘ngida poyonsiz qop-qora suv bosganday jimjit, suv hamma yoqqa toshib ketgan-u, shu kepatada qotib qolgan, na mavjlanadi, na qimirlaydi, o‘zi tubsiz chuqur bo‘lsa ham, ichida hech narsa yo‘q. Allaqayerdan, yuqoridan, qorong‘ilikdan mana shu jonsiz suvga yolg‘iz qarab turish nihoyatda qo‘rqinchli... Lekin tungi qorovul shaqildog‘ining ovozi eshitiladi-yu, bola suv betining jimirlaganini ko‘radi, suv yuzini chayqaltirib yumaloq, mayda-mayda tiniq pufakchalar irg‘ishlaydi... Cherkov jomxonasida chalingan qo‘ng‘iroq ovozi butun suvni nihoyatda kuchli bir harakat bilan qo‘zg‘alishga majbur qiladi va bu ovozdan anchagacha asta tebranib turadi, zo‘r bir shu’la ham tebranib suv betini yoritadi va uning o‘rtasidan olis qorong‘ilik tomon yoyiladi-da, oqarib ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Mana shu zulmat sahrosini yana qaytadan mungli bir jimjitlik qoplaydi.

– Amma... – yolvorib pichirlaydi Foma.
– Nima deysan?
– Oldingga boraman...
– Ke, kela qol, bo‘taginam...

Foma ammasining yoniga o‘tgach, unga yopishib olib:
– Biror narsa aytib ber... – deb so‘raydi.
– Kechasi-ya? – deya ko‘nmaydi ammasi uyqu aralash.
– Aytib ber...

Ammasi uzoq yalintirmaydi. Kampir ko‘zini yumib olib, esnab-esnab, uyqusirab, xirillagan ovoz bilan sekin gap boshlaydi:

– Men senga aytsam, bo‘taginam, bor ekan-da, yo‘q ekan, bir yurtda, bir podsholikda er-u xotin bor ekan, ular nihoyatda kambag‘al ekanlar!.. Ular shu qadar bechora ekanlarki, yegani nonlari ham yo‘q ekan. Ular tilanchilik qilisharkan. Kunlardan bir kuni ular farzand ko‘rishibdi... Farzand ko‘rishibdi, bolani cho‘qintirib ism qo‘yish kerak bo‘pti, biroq ular kambag‘al bo‘lganliklari uchun, otaxoni bi-

lan mehmonlarni ziyofat qilishga hech narsalari yo‘q ekan, shuning uchun bolaga ism qo‘yib cho‘qintirishga hech kim kelmabdi! Ular unday qilsa ham, bunday qilsa ham hech kim kelmabdi!.. Shundan keyin xudoning o‘ziga yolvorishibdi: «E, xudoyo xudovando!»

Foma, xudoning o‘zi ism qo‘yib bergan bola haqidagi bu dahshatli ertakni bilardi, bu ertakni bir necha bor eshitgan edi, kampir aytib berguncha uni ko‘z oldiga keltirdi: mana, u oq otga minib o‘ziga ism qo‘ygan ota-onasining yoniga bormoqda. U qorong‘ida sahro bo‘ylab ketarkan, gunohkor bandalarning naqadar azob-uqubat chekayotganini ko‘radi... va ularning ohistagina ingrab yolvorishlarini eshitadi:

«O-o-o! Inson! Xudodan so‘ra, tokaygacha biz azob chekamiz?»

Shunda Fomaga, go‘yo tunda o‘zi oq otga minib kelayotgandek va o‘sha odamlar uning o‘ziga ingrab yolvorayotgandek tuyuladi. Uning yuragi siqiladi, ko‘zlari jiqqa yoshga to‘ladi, u ko‘zlarini chirt yumib oladi va o‘rnida besaranjom bo‘lib yotib, ko‘z ochishga ham qo‘rqadi...

Kampir, odamlarning azob-u uqubatlari haqidagi hikoyasini to‘xtatib:

– Uxla, bolaginam, Iso hamrohing bo‘lsin! – deydi.

Foma shunday kechalardan keyin, ertalab turgach, shosha-pisha yuvinar, apil-tapil choy ichib, yog‘liq, shirin somsalarni ola solib maktabga chopardi, u yerda uni boy o‘rtog‘ining saxiyligidan naf ko‘radigan, doimo och, Yejov kutib turardi.

– Yeydigan narsa opkeldingmi? – deb kutib olardi Fomani u, uzun burnini jiyirib. – Ber, men uydan hech narsasiz keldim... uxlab qolibman, jin urgur, kechasi soat ikkigacha o‘qib o‘tirdim... Sen masalani chiqardingmi?

– Chiqarganim yo‘q...

– Obbo, qora boskur-ey! Men senga hozir tuya qilib beraman!

U mayda, o‘tkir tishlari bilan balishni tishlar ekan, mushuk singari xo‘rillar, gap ohangiga jo‘r qilib chap oyog‘i bilan depsinar, Fomaga qisqa qilib masalani tushuntirar edi:

– Ko‘rdingmi? Bir soatda sakkiz chelak oqqan bo‘lsa... Necha soat oqqan, oltimi? Eh, juda mazali ovqat yerkansizlar!.. Demak, oltini sakkizga ko‘paytirish kerak bo‘ladi... Sen ko‘k piyoz solgan

balishni yaxshi ko‘rasanmi, a? Men juda ham! Shunday qilib, birinchi krandan olti soatda qirq sakkiz chelak oqqan... changa hammasi bo‘lib to‘qson chelak quyilgan... U yog‘ini o‘zing bilasanmi?

Fomaga Smolindan ko‘ra ko‘proq Yejov yoqsa-da, lekin Smolin bilan inoqroq edi. Kichkinagina bu bolaning zehniga, epchilligiga qoyil qolar, Yejovning o‘zidan aqlliroq ekanini bilar va unga havasi kelardi-yu, biroq shuning uchun ham uni yomon ko‘rar va ayni zamonda unga, to‘q odam och odamga qanday achinsa, xuddi shunday achinardi ham. Ehtimol, uning mana shu jikkak bolaga bo‘lgan rahmdilligi, tund, malla Smolinga nisbatan uni yaxshiroq ko‘rishga hamma narsadan ko‘ra ko‘proq xalaqit berayotgan bo‘lsa ham ajab emasdi. Yejov boyvachcha o‘rtoqlarini mazax qilib, doim ularga:

– Eh, siz, somsaxo‘r, qorni kattalar, – deb qo‘yardi. Uning mazax qilganiga Fomaning jahli chiqardi va bir kuni qattiq xafa bo‘lib, alamiga chidolmay:

– Sen, tilanchi, gadoysan! – dedi.

Sariq yuzini birdaniga parcha-parcha dog‘ bosgan Yejov shartta javob berdi:

– Xo‘p, mayli!.. Mana ko‘rasan, bundan keyin aytib berib bo‘pman, xodaga o‘xshab qaqqayib qolarsan hali!

Ular uch kungacha bir-biri bilan gaplashmay yurishdi, o‘qituvchining ta’bi xira bo‘ldi, chunki shu kunlari o‘qituvchi hamma hurmat qiladigan Ignat Gordeyevning o‘g‘liga bir va ikki baho qo‘yishga majbur bo‘ldi.

Yejov hamma narsadan xabardor edi. U maktabdagilarga prokurorning oqsochi tug‘ib qo‘yganini, prokurorning xotini shu vajdan erining ustiga qaynoq kofe to‘kib yuborganini so‘zlab berdi. U yorsh balig‘ini qayerda va qachon tutish yaxshiroq ekanini aytib bera olar, qush tutish uchun tuzoq va qafas yasashni bilar, kazarma cherdagida o‘zini osib o‘ldirgan soldatning nima uchun va qandoq qilib osganini, o‘qituvchiga bugun o‘quvchilardan kimning ota-onasi sovg‘a olib kelganini va qanday sovg‘a ekanini mufassal aytib berar edi.

Smolinning bilim va havas doirasi savdogarlar hayoti bilan chegaralanardi malla bola ularning uylariga, paroxodlariga, otlariga qarab baho berib, kim kimdan boyroq ekanini aytishni yaxshi ko‘rardi.

Bularning hammasini u mufassal bilar va bu haqda zavq bilan gapirardi.

Smolin ham Yejovni Foma singari nazarga ilmas edi-yu, biroq u bilan bir xilda inoq munosabat qilardi. Har gal Gordeyev Yejov bilan urishib qolganda, ularni yarashtirishga urinardi va bir kuni maktabdan uyga ketayotib Fomadan:

– Nega Yejov bilan urishasan? – deb so'radi.

– Nega bo'lmasa o'zi tumshug'ini ko'taradi? – zarda qilib javob berdi Foma.

– Chunki sen yomon o'qiysan, u esa senga doim yordam beradi... U aqlli... Bechora bo'lsa, unda nima ayb? U o'qib olsa bormi, qo'lidan hamma ish keladigan bo'ladi, boy ham bo'lib ketadi...

– Xuddi pashshaga o'xshaydi, – dedi Foma mensimay, – g'ing'illab, g'ing'illab turib, qo'qqisdan chaqib oladi.

Lekin bolalarning hayotida ularning uchovini ham birlashtiradigan bir narsa bor edi, shunday damlar ham bo'lardiki, ular xarakterlari va mavqelari jihatdan bo'lgan tafovutni ham unutishardi. Yakshanba kunlari uchalasi ham Smolinnikiga kelib hujra tomiga qurilgan keng kaptarxonaga chiqib olib, kaptar uchirishardi.

Chiroyli semiz kaptarlar qordek oppoq qanotlarini qoqib, birinketin kaptarxonadan uchib chiqishardi-da, tom chetiga tizilishib, oftobda tovlanishib, bolalarning ro'parasida g'u-g'ulab taranishardi.

Yejov sabrsizligidan tipirchilab:

– Uchir! – deb yalinardi.

Smolin uchiga latta bog'langan uzun yog'ochni havoda o'ynatib, hushtak chalardi.

Cho'chigan kaptarlar osmonga duv etib ko'tarilar va qanotlarini tez-tez qoqib, uning sadosi bilan havoni to'ldirar edi. Mana, kaptarlar keng doira yasab, zangori osmonga baland ko'tarilishar, qanotlarini qordek va kumushdek yiltillatib, borgan sari osmon cho'qqisiga yuqorilab ketishar edi. Ba'zilari qanotlarini keng yoyib, lekin qimir etkazmay, xuddi lochinday parvoz qilarkan, osmon gumbaziga yetishga intilardi, ba'zilari esa, o'ynoqlab, havoda o'mbaloq oshar, yumaloq qordek pastga tomon sho'ng'ib, yana o'qday otilib yuqoriga ko'tarilib ketar edi. Mana, kaptarlar galasi osmonda qimir etmay qotib turganday ko'rinar, lekin borgan sari kichrayib butunlay ko'z

ilg‘amay qolardi. Bolalar osmonga qarab, kaptarlardan ko‘z uzmay, jimgina, zavq bilan tomosha qilishardi, ularning toliqqan ko‘zlarida yerdan shu qadar yengil ko‘tarilib, quyosh nuri charaqlab turgan sof, jimjit osmonga tomon uchib ketgan mana shu qanotli jonivorlarga nisbatan hasad tuyg‘usi va sevinch ifodasi charaqlab turardi. Ko‘m-ko‘k osmon yuziga sepilgan, ko‘z arang ilg‘aydigan mayda nuqtalar bolalarning xayolini o‘ziga tortib ketardi va Yejovning, o‘ylanib, ohistagina:

– Biz ham mana shunday uchsak edi, og‘aynilar... – deyishi hammalari uchun umumiy bo‘lgan tuyg‘uni ifodalar edi.

Umumiy quvonch tuyg‘usi bilan birlashib, bir-biriga mahkam suyanishib, kaptarlarning osmondan qaytib tushishini diqqat bilan jimgina kutib turgan bu bolalar, xuddi yerdan uzoqlashgan o‘z kaptarlaridek, hayot nafasidan uzoqlashib ketishgan edi, shu damda ular faqat bola edilar, shuning uchun ham hasad qilmay va arazlashmay tura olmasdilar hamma narsa ular uchun yot bo‘lsa-da, o‘zaro juda inoq va bir-birining niyatlarini so‘zsiz, bir qarashdayoq fahmlab olishardi, shuning uchun ham ular xuddi osmondagi kaptarlardek maza qilishardi!

Mana, ucha-ucha charchagan kaptarlar tomga kelib qo‘nishdi, ularni kaptarxonaga qamab qo‘ydilar.

– Og‘aynilar! Olmaga bormaymizmi?! – deb taklif qildi Yejov. Barcha o‘yin va barcha mojaroni boshlovchi shu Yejov edi.

Uning bu taklifi bolalarning ko‘nglidan kaptarlar uyg‘otgan tinch kayfiyatni quvib chiqaradi va ular har bir tovushga yirtqichday ziyraklik bilan quloq solib, xuddi yirtqichlar singari bitta-bitta qadam tashlab pastqam joylardan yurib, qo‘shni boqqa tomon borishardi. Qo‘lga tushmay o‘g‘irlik qilish umidi, qo‘lga tushish vahimasidan ustun keladi. O‘g‘irlik ham mehnat, lekin xatarli mehnat, har qalay, mehnat qilib topgan narsa juda ham shirin bo‘ladi!.. Nechog‘lik ko‘p harakat va kuch sarf qilinsa, shu qadar shirin bo‘ladi... Bolalar sekingina bog‘ devoridan oshib tushib, engashib, qo‘rqa-pisa alanglab, olma tomon emaklab ketishadi. Har bir shitirlagan tovushdan ularning yuraklari dukillab, uvishib ketardi. Ular qo‘lga tushishdan ham, tanilib qolishdan ham bir xilda qo‘rqishardi, agar ularni ko‘rib qolib faqat baqirib qo‘ya qolishsa xursand bo‘lishadi-ya! Baqiriq-

dan ular har tomonga tumtaraqay bo‘lib qochib ketishadi, keyin bir yerga yig‘ilishib, baqiriqni eshitganda va orqalaridan quvishganda xayollaridan nimalar o‘tganini va oyog‘i kuygan tovuqday bog‘dan qochib chiqib ketishayotganda nimalar bo‘lishini kerilib, maqtanib, ko‘zlarini o‘ynatib, bir-birlariga kula-kula so‘zlab berishadi.

Foma boshqa barcha o‘yin va sarguzashtlarga qaraganda, mana shunday qaroqchilikka astoydil berilar va bunday kezlarda o‘zining dovyurakligi bilan o‘rtoqlarini ham hayratda qoldirar, ham jahllarini chiqarar edi. Foma birovlarning bog‘ida o‘zini atayin dadil tutar, ovozi boricha gapirar, olma daraxtining shoxlarini qasirlatib sindirar, qurt yegan olmani uzib olib bog‘ egasining uyi tomon uloqtirardi. Jinoyat ustida qo‘lga tushish xavfidan qo‘rqmas, aksincha, uning havasini oshirar, uning ko‘zlari qorayar, tishlari mahkam qisilar, yuzi esa jiddiy va qahrli tus olardi. Smolin katta og‘zini unga qiyshaytirib:

– Muncha kekkaymasang... – dedi.

– Men qo‘rqoqmasman! – deb javob berdi Foma.

– Qo‘rqoqmasligingni bilaman, lekin faqat ahmoqlargina kekkayadi... Kekkaymasdan ham ishni boplasa bo‘ladi...

Yejov Fomani boshqa nuqtayi nazardan koyidi:

– Agar sen o‘zingni tutib bermoqchi bo‘lsang, yo‘qol nari! Men senga o‘rtoqmasman... Seni tutib olsalar otang oldiga olib boradilar, u seni hech narsa qilmaydi, meni esa kamar bilan chunonam uradiki, butun suyaklarim shalayim bo‘lib ketadi...

– Qo‘rqoqsan! – dedi Foma qaysarlik bilan.

Bir kuni Fomani, kichkinagina, ozg‘in, qari shtabs-kapitan Chumakov ushlab oldi. Chol asta yashirinib kelib uzgan olmalarini apiltapil qo‘yniga tiqayotgan bolaning yelkasiga chang soldi-da, vahshat bilan baqirdi:

– Qo‘lga tushding-ku, o‘g‘ri! Aha-a!

Foma o‘sha vaqtda o‘n besh yoshlarda edi, u cholning qo‘lidan bir siltanib chiqib ketdi. Biroq undan qochmadi, qovoqlarini solib, mushtini siqib, do‘q qilib dedi:

– Qani!.. Tegib ko‘r-chi!

– Men senga tegmayman, politsiyaga olib boraman! Kimning bolasisan?

Foma buni kutmagan edi, shuning uchun uning butun jasorati ham, g'azabi ham o'sha zamonoq birdan yo'q bo'ldi qo'ydi. Politsiya mahkamasiga borish, otasi hech qachon kechirmaydigan allaqanday bir narsaday bo'lib tuyuldi. Fòma seskanib tushdi-da, xijolat bo'lib:

– Gordeyev... – dedi.

– Iye... Ignat Matveyevichning o'g'limisan?

– Ha...

Bu gal shtabs-kapitan xijolat bo'ldi. U qaddini rostladi, ko'kragini kerib, negadir ta'sirli qilib, tomog'ini qirib qo'ydi. So'ngra munkayibroq otalarcha nasihatomuz dedi:

– Uyat! Shunday baobro' va mo'tabar odamning bolasi-ya... Bunday qilish sizga yarashmaydi... Boring, keting... Agar bordi-yu, shu qilig'ingizni yana takrorlaydigan bo'lsangiz... otangizga aytishga majbur bo'laman... Lekin u kishiga mening kamoli ehtiromim va salomimni yetkazing!

Foma bu cholning yuzidagi o'zgarishni ko'rib otasidan qo'rqishini tushundi. Foma Chumakovga xuddi bo'ri bolasi singari yer ostidan xo'mrayib qarab turardi chol bo'lsa ruxsat berilganiga qaramay, ketmay turgan bola qarshisida kulgili tarzda hadeb oqargan mo'ylovini burar va turgan joyida tipirchilardi.

– Ketsangiz bo'ladi, – dedi chol va qo'li bilan yo'lni ko'rsatdi.

– Politsiya-chi! – deb so'radi Foma xo'mrayib va shu on cholning beradigan javobidan qo'rqib ketdi.

– Men hazillashdim! – dedi chol jilmayib. – Sizni qo'rqitmoqchi edim...

– Siz o'zingiz otamdan qo'rqasiz... – dedi Foma va undan o'girilib, bog'ning ichkari tomoniga qarab ketdi.

– Qo'rqamanmi? A! Yaxshi, – deya baqirdi Chumakov uning orqasidan.

Foma uning tovushidan, cholni xafa qilib qo'yganini fahmladi. O'zi uyalib, xafa bo'lib ketdi, kechgacha tentirab yurdi, uyga qaytganda otasi uni dahshatli savol bilan qarshiladi:

– Fomka! Sen Chumakovning bog'iga tushdingmi?

– Tushdim, – dedi bola otasiga tik qarab, pinagini buzmay. Ignat bunday javobni kutmagan bo'lsa kerak, soqolini silab, bir necha soniya indamay turib qoldi.

– Ahmoq! Nega bunday qilasan? O‘z olmamiz senga kamlik qilyaptimi?

Foma otasining oldida yerga qarab indamay turardi.

– Ha, uyalding-a. Balki seni o‘sha Yejishka yo‘ldan urgandirda?! Kelsin, men uning adabini beray... yo bo‘lmasa u bilan butun aloqangni uzib qo‘yaman...

– O‘zim qildim, – dedi Foma dadil.

– Undoq bo‘lsa, yana yomon! – dedi zarda bilan Ignat. – Nega bunday qilding?

– O‘zim, shundoq...

– Vaq-vaq, – deya uni masxara qildi otasi. – Agar sen bir ish qilib qo‘ysang, o‘zing ham tushun, boshqalarga ham vaj ko‘rsata bil... Beri kel...

Foma stulda o‘tirgan otasining oldiga borib, tizzalari orasiga kirdi. Ignat esa, qo‘llarini uning kiftiga qo‘yib, kulimsirab ko‘zlariga tikilib qaradi:

– Uyalyapsanmi?

– Ha, uyalyapman! – dedi Foma xo‘rsinib.

– Mana shunaqa, tentak! O‘zingni ham, meni ham sharmanda qilasan...

U o‘g‘lining boshini bag‘riga bosarkan, uning sochlarini silab turib yana so‘radi:

– Birovning olmasini o‘g‘irlab nima qilarding?

– O‘zim ham bilmayman! – dedi Foma uyalib. – O‘ynab o‘ynab zerikasan... hammasi jonga tegadi! Bu esa...

– Yuragingga g‘ulg‘ula soladimi? – deb so‘radi otasi, kulimsirab.

– Ha...

– Himm... balki, shundaydir!.. Lekin sen, Foma, bu ishingni qo‘y! Bo‘lmasa men seni xafa qilib qo‘yaman...

– Bundan keyin hech ham tushmayman, – dedi bola qat’iy.

– O‘zing uchun o‘zing javob qilganing yaxshi. Kelgusida nima bo‘lishingni xudoning o‘zi biladi-yu, lekin hozircha... Chakki emassan! Agar odam o‘z qilmishi uchun o‘z boshi bilan javob berishni istarkan, bu chakana gap emas... Sening o‘rningda boshqa birov bo‘lganda, o‘rtoqlariga to‘nkardi, sen esa, o‘z ustingga olyapsan...

Shunday qilish kerak, Foma!.. O‘zing gunoh qildingmi, o‘zing javob ber... Xo‘sh, Chumakov seni... haligi... urmadimi? – deb so‘radi Ignat o‘g‘lidan asta.

– Urib ko‘rsin-chi, qani! – dedi Foma bosiqlik bilan.

– Himm... – deya pishqirdi otasi.

– Men unga otamdan qo‘rqasiz, devdim... Shuning uchun senga aytibdi... Bo‘lmasa senga chaqmoqchi emasdi...

– Rostdanmi?

– Xudo haqi, otangizga salom aytib qo‘ying ham degan edi...

– Chumakovmi?

– Ha...

– Obbo... it-e! Mana ko‘rdingmi, dunyoda qanaqa odamlar bor, uni talasalar ham, u salom yuborib ta’zim qiladi! Hay mayli, sizlar ko‘p bo‘lsa uning bir tiyinlik narsasini olgandirsizlar, lekin uning tiyini – mening uchun so‘m... Gap tiyinda ham emas, gap shundaki, tiyin meniki ekan, o‘zim tashlab yubormagunimcha uni birovning olishga haqi yo‘q... Eh! Qo‘y, padariga qusur! Qani ayt-chi, qayerga bording, nimalarni ko‘rding?

Bola otasining yoniga o‘tirib, unga shu kungi taassurotlarini so‘zlab berdi. Ignat o‘g‘lining jonlanib ketgan yuziga diqqat bilan tikilib quloq solar, tobora uning qoshlari o‘ychan chimirilardi.

– Jarlikda bir boyqushni qo‘rqitdik, – deb hikoya qila boshladi bola. – Biram qiziq bo‘ldiki, uchib borib o‘zini to‘g‘ri daraxtga ursa bo‘ladimi, biram zorlanib chiyilladiki... Biz uni yana hurkitdik, u tag‘in uchdi, xuddi boyagidek, uchib yurib-yurib yana biror narsaga o‘zini urib oladida-da, patlari duv etib to‘zib tushadi! U jarlikda rosa tentiradi... keyin zo‘rg‘a qayoqqadir bekinib oldi... biz keyin axtarmadik, rahmimiz keldi, o‘ziyam o‘lasi bo‘ldi... u kunduzi sira ko‘rmaydimi, ota?

– Ko‘rmaydi, – dedi Ignat. – Ba’zi odam xuddi mana shu boyqushga o‘xshab, hayotda dovdirab yuradi... O‘z o‘rnini qidira-qidira rosa sarson bo‘ladi, pati to‘zib ketadi, xolos, qo‘lidan hech narsa kelmaydi... Horiydi, azob chekadi, butunlay to‘ziydi, nihoyat, to‘g‘ri kelgan yerga borib o‘zini uradi-da, faqat tortgan azob-uqubatlaridan boshqa narsani o‘ylamaydi... Eh, sho‘ri qursin shunday odamlarni, sho‘ri qursin, bolam!

– Nega ular shunaqa?

– Nega deysanmi? Buni aytish qiyin... Ba'zilari gerdayib ketib, boshi aylanib qoladi, ko'p narsani istaydi-yu, lekin kuchi yetmaydi... ba'zilari esa, o'zining ahmoqligi tufayli... Sababi oz deysanmi?

Shunday qilib, umuman Fomaning taassurotlarga uncha boy bo'lmagan, tinch va osoyishta hayoti har kuni imillab o'tardi. Kuchli taassurotlar qalbini bir soatgina hayajonlantirib, mana shu bir xildagi hayotining umumiy manzarasida goho keskin ravishda bo'rtib ko'rinsa-da, lekin yana tezda unutilardi. Bolaning qalbi hali sokin bir ko'l singari, hayotning bo'ronli nafasidan yashiringan ko'l edi va bu ko'lning betiga tegib o'tgan, yo ostiga cho'kkan har bir narsa mudroq suvni biroz to'lqinlantirib yoki uning sathidan sirpanib o'tarkan, keng doira yasab yoyilardi-da, ko'zdan g'oyib bo'lardi.

Foma uyezd maktabida besh yil o'qib, to'rtinchi sinfni arang bitirdi va u yerdan sochi qop-qora, yuzi qorachadan kelgan, qoshlari qalin, ustki labida qo'ng'ir tuklar paydo bo'lgan azamat bir yigit bo'lib chiqdi. Uning katta, shahlo ko'zlari sodda va o'ychan tikilar, labi esa bolalarniki singari sal-pal ochilib turar edi. Biroq u o'z xohishi qarshilikka uchragan choqlarda yoki boshqa biron narsadan achchig'i kelgan paytlarda, ko'zlarining qorachig'i kengayar, lablari qimtinar va butun vajohati to'rsayib, keskin tus olardi. Otaxoni Mayakin, shubha aralash kulimsirab, uning to'g'risida:

– Sen, Foma, xotinlar uchun asaldan ham shirin bo'lasan... lekin hali aqling ko'p emas, – derdi.

Ignat bu so'zlarni eshitib, xo'rsinib qo'yardi.

– Sen, otaxon, o'g'lingni tezroq ishga solsang bo'lardi.

– Shoshmay tur hali, – derdi Ignat.

– Shoshmay turing nimasi? Bir-ikki yoz Volgada yursin, keyin uylantirib qo'yasan... Lyubam ham ajoyib qiz bo'lyapti-da...

Lyubov Mayakina bu vaqtda allaqanday pansionning beshinchi sinfida o'qirdi. Foma uni ko'chada tez-tez uchratib turar, Lyuba olifta shapkacha kiygan sariq sochli boshini siltab, doim viqor bilan salomlashar edi. U Fomaga yoqar, biroq uning qip-qizil yonoqlari, qo'ng'ir rang sho'x ko'zlari va qizil lablari, mensimaganday bosh siltab salomlashganda Fomada paydo bo'lgan alam ta'sirini yuvib keta olmas edi. Lyuba allaqanday gimnazistlar bilan tanish va

Fomaning eski o'rtog'i Yejov ham shular orasida bo'lishiga qaramay, Foma ularni yoqtirmas va ular orasida o'zini begonadek sezar edi. Uning oldida go'yo ular o'z ilmi bilan maqtanayotganday va uning nodonligidan kulayotganday tuyular edi. Ular Lyubanikiga yig'ilishib allaqanday kitoblarni o'qishar, agar Foma ularning shunday kitob o'qib yoki shov-shuv ko'tarib bahslashib o'tirgan paytlarida kirib qolgudek bo'lsa, ular uni ko'rishlari bilanoq jim bo'lib qolishardi. Bularning hammasi Fomani bezdirib qo'ygandi. Bir kuni Mayakinlarnikida o'tirganida Lyuba boqqa chiqib aylanishni taklif qildi va u yerda Foma bilan yonma-yon borarkan, aftini burushtirib so'radi:

– Sen nega bunaqa yovvoyisan, hech qachon bir og'iz ham gapirmaysan?

– Hech narsa bilmasam, nimaniyam gapiraman! – deb javob berdi Foma.

– O'rgan, kitob o'qi!

– O'qigim kelmaydi...

– Gimnazistlar hamma narsani bilishadi va hamma narsa to'g'risida gapira olishadi... Yejov, masalan...

– Men Yejovni bilaman, mahmadona!

– Unga g'ayrliging keladi, xolos... U juda aqlli... Ha, u gimnaziyani bitirgach, universitetda o'qigani Moskvaga ketadi.

– Ketsa nima?

– Sen shunday nodon bo'lib qolaverasan...

– Mayli, qolsam...

– Unday bo'lsa juda soz! – dedi Lyuba istehzo bilan.

– Men ilmsiz ham o'z o'rnimni topib olaman, – dedi Foma kinoya qilib. – Har qanday olimni ham yo'lda qoldiraman... Ochlar o'qisin, menga keragi yo'q...

– Fu, biram ahmoq, dag'al, rasvosanki! – dedi qiz nafrat bilan va bog'da uni yolg'iz qoldirib chiqib ketdi. Foma tumtayib, xafa bo'lganicha, uning orqasidan qarab qoldi-da, boshini egib, bitta-bitta bosib bog'ning ichkari tomoniga o'tib ketdi.

U yolg'izlik zavqini va xayolning shirin zahrini tatiy boshladi. Goho yoz kechalari, yerdagi butun narsalar xayolni qo'zg'ab, olovday shafaq rangiga bo'yalgan choqda, uning ko'ksida o'ziga

noma'lum allanarsa to'g'risida mubham orziqish paydo bo'lardi. U bog'ning qorong'i bir burchagida o'tirganda ham, yoki o'rnida yotganda ham doim ertaklardagi malikalarni ko'z oldiga keltirardi, uning ko'z o'ngida ular, Lyuba va boshqa tanish qizlar qiyofasida namoyon bo'lishardi-da, kechki g'ira-shirada uning oldidan jimgina suzib o'tishar va uning ko'zlariga sirli qilib boqib qo'yishar edi. Goho bu xayollar unda nihoyatda zo'r kuch paydo qilar va uni go'yo mast qilib qo'yardi, u o'rnidan turib qaddini rostlab, ko'kragini kerib nafas olarkan, xushbo'y havoni simirardi, lekin goho mana shu xayollar unda g'amgin hislar uyg'otar, uning yig'lagisi kelar, lekin yig'lashdan o'zini tiyib bosib olar, biroq shunga qaramay, ohistagina yig'lab ham olardi.

Otasi sabr va chidam ila uni savdo ishlari bilan tanishtirdi, o'zi bilan birga birjaga olib borar, mol yetkazib berish bo'yicha shartnomalar, pudratlar to'g'risida va o'z sheriklari to'g'risida gapirib berardi, ularning qanday qilib «odam bo'lganlarini», hozirgi boyliklarini, ularning fe'l-atvorlarini birma-bir ta'riflab berardi. Foma ishni tez o'rganib, hamma narsaga jiddiy va farosat bilan qaraydigan bo'lib oldi.

– Bizning to'ng'iztarog'imiz ham loladek ochilyapti, – deb qo'ydi kulimsirab Mayakin, Ignatga ko'z qisib.

Har qalay Foma hatto o'n to'qqiz yoshga kirganda ham, uni o'z tengdoshlaridan ajratib turadigan allaqanday bolalarga xos soddaligi bor edi. Tengdoshlari uni ahmoq sanab, mazax qilib kulishar, Foma ularning bunday munosabatidan xafa bo'lib, ulardan o'zini olib qochar edi. Foma xarakterining mujmalligi undan ko'z-quloq bo'lib yurgan otasi bilan Mayakinni jiddiy tashvishga solardi.

– Men unga tushunolmay qoldim! – derdi kuyinib Ignat. – Yomon yurmasa, xotinlar ketidan ergashmasa, sen bilan meni hurmat qilsa, hamma narsaga quloq ossa, yigit emas, xuddi qiz bolaga o'xshaydi! Aftidan, ahmoqqa ham o'xshamaydi shekilli?

– Uncha ahmoqligi sezilmaydi, – dedi Mayakin.

– Hayronman! Xuddi biron narsani kutganday, ko'zlarini allaqanday parda bosganday... Rahmatli onasi ham bu yorug' dunyodan timirskilanib yurib o'tib ketdi... Axir o'sha Afrikan Smolin ham bundan ikki yoshgina katta, xolos, sen uni ko'r! Hatto kim-kimga

boshligini bilib bo‘lmaydi – o‘g‘li otasigami yo otasi o‘g‘ligami? Allaqanday fabrikaga o‘qishga ketmoqchi, koyinadi xolos: «Eh, ota, deydi, meni yomon o‘qitgansizlar deydi...» Shunday! Meniki esa hech nima demaydi... Ey xudoyim!

– Menga qara, – deb maslahat berdi Mayakin, – sen uni biron tuzukroq ishga tiqib qo‘y! Rost! Oltin olovda sinaladi... Uni o‘z ixtiyoriga qo‘yib yuboraylik-chi, nimaga epi borligini keyin ko‘ramiz... Sen bir o‘zini Kamaga yuborib ko‘r-chi!

– Sinab ko‘rsakmikin?

– Agar eplolmasa... ozroq zarar ko‘rasan... biroq uning yuragida nima borligini bilib olamiz.

– Rost aytasan, bir yuborib ko‘ray-chi, – dedi Ignat. Shunday qilib, bahor kelishi bilan Ignat o‘g‘lini ikki barja g‘alla bilan Kamaga jo‘natdi. Barjalarni «Prilejniy» nomli paroxod sudrab borardi, paroxodda Fomaning eski tanishi, sobiq matros Yefim kapitanlik qilardi, endi uni Yefim Ilich deyishardi. Bu chorpaxil gavdali, mushuk ko‘zli, sermulohaza, vazmin, o‘ttiz yoshlar chamasidagi odam anchagina qattiqqo‘l kapitan edi.

Xushchaqchaqlik bilan daryoda suzib borishar, chunki hammalarining kayfi chog‘ edi. Foma o‘z zimmasiga yuklangan birinchi mas’ul topshiriqdan mag‘rur edi. Yefim esa yonida yosh xo‘jayin borligidan xursand, chunki u har bir yanglishish uchun tanbeh bermas va shaloq so‘zlar bilan haqorat qilmas edi. Kemadagi bu ikki asosiy odamdagi kayfiyatning yaxshiligi butun komandaga nur kabi yog‘ilib turardi. G‘alla ortilgan yerdan aprelda jo‘nab ketgan paroxod, may oyining birinchi kunlarida tayinlangan joyga yetib keldida, barjalarni qirg‘oq bo‘yida langarga qo‘yib, o‘zi ham shular qatoriga kelib to‘xtadi. Foma g‘allani mumkin qadar tezroq topshirib, pulini olgach, Permga borishi va u yerdan, Ignat qabul qilgan temirlarni ortib, yarmarkaga yetkazib berishi zarur edi.

Barjalar qarag‘ay o‘rmoniga tutashgan katta bir qishloq ro‘parasida to‘xtadi. Ular kelgan kunning ertasi ertalabdanoq, otliq va piyoda bir gala xotin-qiz va erkaklar shovqin-suron bilan qirg‘oqqa yetib kelishdi, ular ashula aytishib, qiy-chuv ko‘tarishib, palubalarga tarqalishdi va bir lahza ichida ish qizib ketdi. Xotin-qizlar trumlarga tushib, javdarni qoplashar, erkaklar esa qoplarni yel-

kalariga olib, taxta ko'prikdan qirg'oqqa chopishar edi, qirg'oqdan esa ko'pdan beri kutilgan g'allani ortgan aravalar qishloq tomon qator bo'lib jo'nashar edi. Xotin-qizlar qo'shiq aytishar, erkaklar hazil qilishar, so'kishar, matroslar esa o'zlarini tartib saqlovchi qilib ko'rsatish maqsadida, ora-chora ishlayotganlarga o'shqirib qo'yishar, ko'prikning taxtasi oyoqlar ostida bukilib suvga tegib, shapillab ketar, qirg'oqda esa otlar kishnar, aravalar g'iyqillar, g'ildiraklar ostida qum-shag'al g'irchillar edi...

Quyosh endigina chiqqan, qarag'ay hidi anqib turgan havo nihoyatda toza, daryoning bulutsiz osmon aks etib turgan sokin suvi kemalarning tumshug'iga va langarlarning zanjirlariga urilib, muloyimgina shildirardi. Xushchaqchaq, kuchli mehnat suroni, quyosh nurlari ostida charaqlab turgan bahor tabiatining navqiron go'zalligi – bularning hammasi Fomada noaniq, yangi hislar, orzular qo'zg'ab, uning qalbini nash'alantiruvchi tetik kuch bilan to'ldirdi. U paroxodda, soyabon ostidagi stol yonida Yefim hamda g'allani qabul qilib oluvchi, zemstvoda ishlovchi sariq sochli, shapko'r, ko'zoynakli janob bilan choy ichib o'tirardi. Qabul qilib oluvchi asabiy holatda yelkalarini uchirarkan, dehqonlarning naqadar och qolganlari to'g'risida titroq ovoz bilan hikoya qiladi, lekin Foma uning so'zlariga uncha quloq solmay, goh pastda borayotgan ishga, goh ro'paradagi, chetlarida qarag'ay o'sgan, qumloq, sap-sariq, tik tushgan daryo qirg'og'iga qarab o'tirardi. U yoq kimsasiz va jimjit edi.

«U yerga borib kelish kerak ekan», deb o'yladi Foma. Ammo qulog'iga allaqayerdan, juda olisdan kelayotganday, qabul qilib oluvchining bezovta, shang'illagan ovozi eshitilardi.

– Siz ishonmaysiz, nihoyatda dahshat bo'ldi! Shunday bir voqea yuz berdi: Osa degan yerda bir intelligentga bir mujik o'zining o'n olti yashar qizini olib kelgan... «Senga nima kerak?» deb so'rasa, «Men sizga qizimni olib keldim, janob», degan... «Nega?» «Balki, – olarsiz... siz bo'ydoq odamsiz...» «Nega endi? Bu nimasi?» «Shaharda rosa olib yurdim, birontasiga xizmatchi qilib bermoqchi edim – hech kim olmadi... Siz hech bo'lmasa o'ynash qilib oling!» degan, tushundingizmi? U o'z qizini taklif etgan, tushuning! O'z qizini o'ynash qilib bermoqchi bo'lgan! Axir bu nima degan gap! A? Albatta intelligentning jahli chiqadi, mujikka dag'dag'a qiladi,

so‘kadi... Lekin mujik dangal qilib unga deydi: «Janob! Shunday zamonda uning menga nima keragi bor? Butunlay ortiqcha... Mening, degan, uchta o‘g‘ilcham bor, ular kelgusida ishga yaraydi, ularni asrash kerak... Qizim uchun, degan, o‘n so‘m bering, men bolalarim bilan bir kunimni ko‘ray», degan... Buni qarang-a! Naqadar dahshat-a, men sizga aytsam...

– Yaxshi e-ma-s! – deydi xo‘rsinib Yefim. – Ochlik – amaking emas, deydilar... Qorinning ham, bilsangiz, o‘z qonunlari bor...

Fomada bu voqea, uning o‘ziga allaqanday noma’lum bo‘lgan va qalbini qitiqlab turgan juda kuchli bir tuyg‘u paydo qildi-da, u qizning taqdiri bilan qiziqsinib, shoshib qabul qilib oluvchidan so‘radi:

– Xo‘sh, o‘sha barin nima qildi, qizni sotib oldimi?

– Albatta, yo‘q! – dedi ta’naomuz.

– Xo‘sh, keyin qizni nima qilishdi?

– Yaxshi odamlar bor ekan... ishga joylab qo‘yishdi...

– A-a! – dedi cho‘zib Foma va birdan qat’iy qilib zarda bilan: – Men o‘sha mujikning rosa adabini berardim! Tumshug‘ini majaqlab tashlardim, – deb qabul qilib oluvchiga mahkam qisgan katta mushtini ko‘rsatdi.

– Nima uchun? – deya alam bilan qichqirdi qabul qilib oluvchi, burnidan ko‘zoynagini yulib olarkan.

– Axir odamni sotish mumkinmi?..

– Vahshiylik bu, men qo‘shilaman, biroq...

– Yana qiz bolani-ya! Men unga o‘n so‘mni ko‘rsatib qo‘yardim!

Qabul qilib oluvchi hafsalasi pir bo‘lib qo‘l siltadi-da, indamay qo‘ya qoldi. Uning bu harakati Fomani xijil qildi, u stol yonidan turdi-da, paroxod panjarasi oldiga bordi va shoshib-pishib ishlayotgan odamlar bilan liq to‘la barjalar palubasini ko‘zdan kechira boshladi. Shovqin-surondan mast bo‘ldi va ko‘nglida g‘ivirlab turgan mubham bir narsa kuchli bir istakka aylandi-yu, o‘zining ham ishlagisi kelib ketdi. Afsonaviy bir kuchi bo‘lsa-yu, keng yelkalarida birdaniga yuz qoplab g‘alla tashib hammani hayron qoldirsa...

– Chaqqonroq qimirlanglar! – deb qichqirdi u pastga qarab. Bir necha bosh ko‘tarilib unga qaradi, uning ko‘z o‘ngidan allaqanday basharalar lipillab o‘tdi va shulardan biri, qora ko‘z bir xotinning yuzi, unga yoqimli va jozibador jilmayib qo‘ydi. Bu jilmayishdan

Fomaning ko'ksida allanarsa alangalandi-yu, qaynoq to'lqinday tomir-tomirlariga taraldi. U yonoqlarining lovullab yonayotganini sezib, panjara yonidan yana stol oldiga bordi.

– Quloq soling! – deb murojaat qildi unga qabul qilib oluvchi. – Siz otangizga telegramma bersangiz, hech bo'lmasa to'kilgani uchun biroz g'alla chegirsa bo'lardi! Qarang, qanchadan qanchasi isrof bo'lyapti, axir bu yerda har bir qadog'i qimmat-ku! Buni tushunish kerak, axir!.. Lekin sizning otangiz... – deb tamomladi u gapini aftini burushtirib.

– Qancha chegirish kerak? – deb so'radi Foma nazar-pisand qilmay, mardlik bilan... – Yuz pud yetadimi? Ikki yuzmi?

– Buning uchun tashakkur sizga! – deb qichqirdi qabul qilib oluvchi xijolat aralash quvonib. – Agar huquqingiz bo'lsa...

– Men xo'jayinman! – dedi Foma qat'iy qilib. – Lekin otam haqida bunday deyishingizga va aftingizni burushtirishga haqqingiz yo'q...

– Kechirasiz! E... sizning vakolatingiz borligiga shubham yo'q... Sizga va otangizga shu odamlar nomidan, chin qalbimdan tashakkur aytaman...

Yefim xavotirlanib yosh xo'jayinga qarab qo'ydi-da, cho'chchaygan lablarini chapillatdi, lekin xo'jayin esa, qo'llarini mahkam qisib, tez-tez gapirayotgan qabul qilib oluvchiga g'urur bilan quloq solib turdi.

– Ikki yuz! Bu ruslarga xos tantilik, yigitcha! Men hozir sizning bu iltifotingizni mujiklarga e'lon qilaman. Ularning naqadar minnatdor bo'lganini ko'rasiz...

– Yigitlar! Mana, xo'jayin ikki yuz pud in'om qilyaptilar...

– Uch yuz! – deb Foma uning so'zini bo'ldi.

– Uch yuz pud... Rahmat! Uch yuz pud, yigitlar!

Biroq buning ta'siri yaxshi bo'lmadi. Mujiklar boshlarini ko'tarib bir qarab qo'yishdi-da, churq etmay yana yerga qaragancha, ishga tutinishdi. Bir necha ovoz cho'chinqirab va istar-istamas.

– Rahmat... Xudo yorlaqasin... Katta rahmat... – deb qo'yishdi.

Kimdir quvnoq va mensimayroq baqirdi:

– Shu ham in'ommi! Agar bir stakandan aroq berganda... joyida bo'lardi, rost aytaman! G'alla bizga tegmaydi – zemstvoga...

– Eh! Ular tushunmaydilar! – dedi qabul qilib oluvchi xijolat tortib. – Men borib ularga tushuntiray...

U tushib ketdi. Biroq Fomani mujiklarning in'omga bo'lgan munosabati qiziqtirmas edi. U anor yuzli xotinning qop-qora ko'zlari unga g'alati qilib, yoqimli nigoh tashlab turganini ko'rardi, xolos. U ko'zlar minnatdorchilik bildirib, navozish qilar, o'ziga chorlar va Fomaga bu ko'zlardan boshqa hech narsa ko'rinmas edi. Bu ayol shaharliklar singari kiyingan – oyog'ida boshmoq, egnida chit kofta, qop-qora sochlari esa allaqanday ajoyib ro'mol bilan tang'ilgan edi. Bo'yni uzun, xipcha bel bu ayol, o'tin ustida o'tirib, tirsagigacha ochiq qo'llarini chaqqon qimirlatib qop yamar va Fomaga qarab hadeb jilmayar edi. Yefimning:

– Foma Ignatich, – deya jerkigan ovozi eshitildi. – Sen juda katta ketding... Hech bo'lmaganda ellik pud bo'lganda ham mayli edi! Birdaniga shunchani!.. Hushyor bo'l buning uchun sen bilan men adabimizni yeb qolmaylik tag'in...

– Bas qil! – dedi Foma shartta.

– Menga nima? Indamay qo'ya qolaman... Lekin sen hali yoshsan, menga «ko'z-quloq» bo'l, deb topshirilgan, lekin indamasam tumshug'imga tushiradi...

– Otamga o'zim aytaman... – dedi Foma.

– Menga baribir, bu yerda sen xo'jayin...

– Bas qil, Yefim!..

Yefim xo'rsinib jim bo'lib qoldi. Foma esa boyagi ayolga tikilib:

«Mana shunaqasini sotgani olib kelishsa-ku... menga», deb o'yladi.

Uning yuragi tez-tez ura boshladi. U jismoniy tomondan pok bo'lsa ham, erlar bilan xotinlar o'rtasida bo'ladigan yashirin munosabatlarning sirlarini eshitib bilib olgan edi... Buni u dag'al va behayo so'zlar tufayli bilar, bu so'zlar unda yoqimsiz, ammo kuchli havas uyg'otardi. Uning xayoli to'xtovsiz ishlar, lekin shunday bo'lsa ham, o'ziga aniq-ravshan bir shaklda buni ko'z oldiga keltira olmas edi. Erkakning xotinga bo'lgan munosabati odamlar aytgan darajada sodda va qo'pol bo'lishiga uning ko'ngli sira ishonmas edi. Bir vaqtlar uni masxara qilib, bu munosabat xuddi shunday bo'ladi va bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas, deb uni ishon-

tirmoqchi bo'lganlarida, u o'ng'aysizlanib, tentaknamo kulimsirab qo'yardi-yu, lekin har nechuk, hamma odam uchun ham, xotin bilan shu xilda sharmandalarcha yaqinlik qilish majburiy bo'lmasa kerak, odamni bu qadar xo'rlamaydigan, u qadar dag'al bo'lmagan, lekin ancha pok bo'lgan boshqa munosabat ham bordir, deb o'ylar edi.

Hozir qora ko'z xotinga shaydo bo'lgan Foma o'zida unga nisbatan xuddi ana shunday dag'al bir dard paydo bo'lganini sezdi. Bu ham uyat, ham dahshat edi. Uning yonida turgan Yefim nasihatomuz gapirardi:

– Hozir sen shu ayoldan ko'z uzolmayapsan, shuning uchun men jim turolmayman... Sen uni tanimaysan, lekin uning ko'z suzganiga uchib, yoshlik qilib, shu fe'ling bilan shunday bir ish qilyapsanki, pirovardida, biz bu yerdan qirg'oq bo'ylab piyoda jo'nab qolmaylik tag'in... har nechuk ishtonimiz butun qolsa go'rga...

– Axir senga nima kerak? – deb so'radi Foma, uyalganidan qipqizarib.

– Menga hech narsa kerakmas... Sen menga quloq solishing kerak... Ayollar masalasida men senga dars bera olaman... Xotinlar bilan bo'ladigan ish juda oson – oldiga bir shisha aroq, yeyishga biron narsa, orqasidan bir juft pivo qo'ysang, bas, keyin qo'liga bittanga tutqazasan. Shu pul badaliga u o'zining butun mehri muhabbatini senga bag'ishlaydi... Asti qo'yaver...

– Yolg'on! – dedi Foma astagina.

– Yolg'on? Men qandoq qilib yolg'on aytay, axir men bu ishni, balki yuz martacha qilgandirman! Unday bo'lsa, uni yo'lga solishni menga topshir... Xo'pmi? Men seni u bilan apoq-chapoq qilib qo'yaman...

– Yaxshi... – dedi Foma, nafasi bo'g'ilayotganini va nimadir tomog'iga tiqilayotganini sezib...

– Ana xolos... kechqurun men uni olib kelaman...

Foma mujiklarning unga zo'r hurmat va xushomadgo'ylik bilan qarayotganlarini payqamay, kechgacha ko'z o'ngini tuman bosganday yurdi. U nihoyatda zo'r dahshat ichida qoldi, u o'zini kimningdir oldida gunohkor his qilar, o'ziga murojaat qilgan har bir odamga xuddi kechirim so'rayotganday kamtarlik bilan muloyim javob berar edi.

Kechqurun ishchilar, qirg‘oq bo‘yidagi gurullab turgan zo‘r gulxan atrofiga yig‘ilishib ovqat pishira boshladilar. Gulxan shu’lasi daryoda qizg‘ish va sariq dog‘ bo‘lib aks etar, sokin suv yuzida hamda Foma o‘tirgan burchakdagi divanda paroxod rubkasining deraza oynalarida jilolanar edi. U deraza pardasini tushirib qo‘ydi, chiroqni ham yoqmadi, gulxanning g‘ira-shira yorug‘i parda orqali o‘tib, stol ustiga, devorga tushdi va goh yorishib, goh pasayib titrab turdi. Hamma yoq jimjit, faqat qirg‘oq tomondan g‘ovur-g‘uvur tovush hamda suvning paroxod bortiga urilib, sekin shaloplagani arang eshitilar edi. Fomaga qorong‘ida, uning yonida kimdir yashirinib uni qo‘zg‘atayotganday tuyuldi... Mana, kema ko‘prigi ustidan shoshib-pishib og‘ir qadamlar tashlab kelishmoqda – ko‘prik taxtalari dupurlab, zarda bilan suvni shapillatardi... Foma kulgi ovozini va rubka eshigi oldida ohistagina so‘zlashgan tovushni eshitdi...

– Kerakmas! – deb qichqirgisi keldi Fomaning.

U o‘rnidan turishi bilanoq, rubkaning eshigi ochilib, bo‘sag‘ada uzun bo‘yli ayolning gavdasi ko‘rindi va u eshikni sekingina yopib, asta dedi:

– Ho‘-ho‘, muncha qorong‘i! Bu yerda biron kishi bormi o‘zi?

– Bor... – deb sekin javob berdi Foma.

– Unday bo‘lsa, salom!..

Shundan keyin ayol ehtiyot bilan olg‘a yurdi.

– Men hozir... chiroqni yoqaman!.. – dedi Foma tutilib, lekin yana divanga o‘tirib, burchakka biqindi.

– Shunday ham bo‘laveradi... Ko‘z ko‘nikkach, qorong‘ida ham ko‘rinaveradi...

– O‘tiring, – dedi Foma.

– O‘tiraylik...

Ayol divanga, undan ikki qadam nariroqqa o‘tirdi. Foma uning ko‘zlari yiltillaganini va lablari jilmayganini ko‘rdi. Uning nazarida, ayol boyagidek emas, boshqacharoq – zorlanib va g‘amgin jilmayayotgandek ko‘rindi. Bu jilmayish unga dalda berdi, ko‘zlari to‘qnashganda ayolning yerga qarab olganini ko‘rgach, yengil nafas oldi. Biroq Foma bu ayol bilan nima haqda gaplashishni ham bilmadi, ikkalasi ham o‘ng‘aysizlanib, og‘ir jimlik saqlab indamay o‘tirishdi... Nihoyat, ayol gap ochdi:

– Siz, deyman, yolg‘iz zeriksangiz kerak?

– Ha-a! – deb javob qildi Foma.

– Bizning joylar yoqdimi sizga? – deb so‘radi ayol sekingina.

– Yaxshi. O‘rmonzor...

Yana jim bo‘lib qolishdi...

– Bu daryo Volgadan ham chiroyliroqqa o‘xshaydi, – deb qo‘ydi Foma zo‘rg‘a.

– Men Volgada bo‘lganman, Simbirskda...

– Simbirsk... – deya takrorladi xuddi aks sado bergandek Foma, yana tili tutilganini, ortiq bir og‘iz ham gap qotolmasligini sezib. Lekin xotin, kim bilan o‘tirganini fahmladi shekilli, barala pichirlab:

– Xo‘sh, xo‘jayin, nega meni siylamaysan-a? – deb so‘radi undan.

– Ana xolos! – dedi Foma o‘ziga kelib. – Rostdan ham... Meni qarang-a! Qani, marhamat qiling!

U qorong‘ida stolga turtinib, qo‘liga goh u shishani, goh bu shishani oldi-da, go‘yo aybdor odamday kulib va o‘ng‘aysizlanib, yana ularni o‘z joyiga qo‘yib qo‘ydi. Ayol esa Fomaning yoniga yaqin kelib, uning yuziga va titrab turgan qo‘llariga qarab kulimsirab turardi.

– Uyalyapsanmi? – deb shivirladi u birdan.

Foma o‘zining yonog‘ida ayolning iliq nafasini sezib, o‘sha xilda sekingina javob qildi:

– Ha-a...

Shundan keyin ayol qo‘llarini uning yelkasiga qo‘yib ohista bag‘riga tortarkan, muloyimgina pichirladi:

– Hechqisi yo‘q, uyalma...

Uning pichirlab aytgan bu so‘zlaridan Fomaning yig‘lagisi kelar, yuragi orziqib uvushganday bo‘lar, u boshini ayolning ko‘ksiga bosib, uning qo‘llarini mahkam qisgan holda, o‘zi ham ma’nisiga tushunmaydigan, allaqanday so‘zlarni gapirar edi.

– Ket, – dedi Foma bo‘g‘iq ovoz bilan ko‘zlarini katta ochib devorga tikilar ekan.

Ayol uning betidan o‘pib, indamay o‘rnidan turdi-da:

– Yaxshi qol, bo‘lmasa... – dedi va rubkadan chiqib ketdi.

Uning oldida Foma nihoyatda uyaldi, biroq u chiqib ketishi bilanoq, irg'ib turdi-da, divanga o'tirib oldi. Keyin, gandiraklab o'rnidan turarkan, birdaniga juda qimmatli bir narsasini yo'qotganday bo'ldi, lekin shu damgacha bu narsaning borligini hech sezmagan edi... O'sha zahotiyoq unda yangi bir tuyg'u, erkaklarga xos mag'rurlik paydo bo'ldi. Bu mag'rurlik uning uyatini yo'q qilib yubordi, uyat o'rnida, may oyining sovuq kechasida, zim-ziyo qorong'ida allaqayoqqa yolg'iz o'zi chiqib ketgan ayolga nisbatan rahmdillik paydo bo'ldi. U shoshib-pishib rubkadan palubaga chiqdi. Osmon to'la yulduz charaqlar, lekin oy ko'rinmas edi. Muzdek qorong'ilik Fomani qamrab oldi... Qirg'oqda hamon tilladay qizarib cho'g'lar yiltillardi. Foma quloq solib turdi – havoda og'ir jimjitlik hukm surar, faqat suv langar zanjirlariga urilib shildirar va hech yerdan oyoq tovushi eshitilmas edi. U xotinni chaqirgisi keldi, biroq nomini bilmas edi. U keng ko'kraklarini to'ldirib toza havoni simirarkan, bir necha daqiqa palubada turib qoldi, shunda birdan rubka orqasidan, paroxodning tumshuq tomonidan, kimningdir xuddi o'pkasi to'lib yig'layotganday xo'rsingani eshitildi. U seskanib tushdi va ayolning o'sha yerda ekanini payqab, bitta-bitta bosib o'sha yoqqa bordi.

Ayol bort yonida palubada, arqon o'rimiga suyanib, yig'lab o'tirardi. Foma uning yalang'och kiftining oppoq etlari titrayotganini ko'rdi, og'ir xo'rsinganini eshitdi-da, juda xafa bo'lib ketdi.

U engashib, qo'rqa-pisa so'radi:

– Nima bo'ldi senga?

Ayol boshini chayqab, unga javob qilmadi.

– Yo men seni xafa qilib qo'ydimmi?

– Qoch! – dedi u.

– Bu nimasi? – dedi Foma, hayajon bilan uyalib, uning boshini ushlar ekan. – Sen xafa bo'lma... axir o'zing...

– Men xafa bo'layotganim yo'q! – deb javob qildi ayol pichirlab. – Sendan nega xafa bo'lay? Sen buzuq emassan... Pok odamsan! Eh, mening o'tkinchi shunqorim! Qani, yonimga o'tir-chi...

U Fomani qo'lidan ushlab, xuddi go'dak boladek tizzasiga o'tqazdi-da, boshini mahkam ko'ksiga bosarkan, engashib, issiq lablarini uning lablariga bosib uzoq o'pdi.

– Nega yig‘laysan? – deb so‘radi Foma, bir qo‘li bilan ayolning yuzlarini silarkan, ikkinchi qo‘li bilan bo‘ynidan quchoqlab.

– O‘z qadrimga yig‘layman... Sen nega meni haydading? – deb so‘radi u zorlanib.

– Men uyalib ketdim, – dedi Foma bosh egib.

– Jonim! Rostini ayt, men yoqmadimmi senga? – deb so‘radi jilmayib, Fomaning ko‘ksiga hamon uning qatra-qatra iliq ko‘z yoshlari tomib turardi.

– Nimalar deyapsan?! – deya qo‘rquv aralash qichqirib yubordi yigit va uning husni, yoqimtoyligi, unga rahmi kelganligi va uning oldida uyalganligi haqida shosha-pisha allaqanday so‘zlarni aytdi. Ayol esa uning so‘zlariga quloq solarkan, Fomaning betidan o‘pardi.

Foma jim bo‘lib qoldi, shunda ayol, go‘yo xuddi o‘lik to‘g‘risida gapirayotganday, g‘amgin va ohista so‘z boshladi:

– Mening ko‘nglimga boshqa narsa kelgan edi... Sen «ket!» deganingda, turdim-u chiqib ketdim... Sening so‘zing menga nihoyatda alam qildi... Meni bir vaqtlar erkalatishar, tinmay ardoqlashar, yoqimli bir kulishim uchun, nimani istasam shuni muhayyo qilishar edi, deb o‘yladim. Shular esimga tushib yig‘lab yubordim! Men yoshligimga achindim... O‘ttizga kirib qolibman... Bu ayollar uchun so‘nggi kunlar! Eh, Foma Ignatevich! – deb nido qildi ovozini qo‘ng‘iroqday jaranglatib, pastdagi suvning shildirashi esa uning tez-tez gapirishiga hamohang bo‘ldi.

– Quloq sol menga, o‘z yoshligingni ehtiyot qil! Dunyoda bundan yaxshi hech narsa yo‘q. Bundan qimmat narsa ham yo‘q! Yoshlik oltin bilan barobar, nimani xohlasang shuni qila olasan. Sen shunday umr kechirki, qarigan paytingda yoshlik chog‘laring eslashga arziguday bo‘lsin... mana men yoshligimni esladim-u yig‘lab ham oldim, ilgari qanday yashaganim esimga tushishi bilan yuragim o‘rtanib ketdi... Men tag‘in yosharib ketdim, xuddi obihayot ichganday bo‘ldim! Shiringinam sen! Ko‘nglingga yoqib qolgan bo‘lsam, sen bilan rosa o‘ynab-kulay, kuch-quvvatim boricha o‘ynay... Eh! Kuyib kul bo‘lgunimcha yonay!

Ayol shunday derkan, yigitni bag‘riga mahkam bosib, uning lablaridan qattiq o‘pdi.

Barjadagi qorovul mungli tovush bilan:

– Hoy, hushyor bo‘l! – deya ulidi-da, «bo‘l» so‘zini qisqa aytib, shaqildog‘i bilan cho‘yan taxtani ura boshladi... Do‘rillagan qattiq ovozlar tunning tantanali jimligini poymol qildi.

Bir necha kundan keyin, barjalar yuklardan bo‘shatilib, paroxod Permga jo‘nashga tayyor bo‘lganda, Yefim qirg‘oqqa sandiq va allaqanday tugunlar ortilgan bir aravada qora ko‘z Pelageya kelib to‘xtaganini ko‘rib nihoyatda xafa bo‘lib ketdi.

– Narsalarni olib chiqishga matros yubor! – deb buyruq qildi Foma, boshi bilan qirg‘oqqa imo qilib.

Yefim ta’naomuz bosh chayqab qo‘ydi-da, zarda bilan uning buyrug‘ini bajargandan keyin sekin so‘radi:

– U ham biz bilan birga ketadimi?

– U men bilan...

– Albatta-da... hammamiz bilan emas... Yo tavba!

– Nega xo‘rsinasan?

– E, Foma Ignatich! Axir katta shaharga ketyapmiz... U yerda buning urug‘i kam emas-ku?

– Jim bo‘l! – dedi Foma zarda qilib.

– Xo‘p, mayli jim bo‘lay... Lekin bu yaxshi ish emas! Foma vahshat bilan qovoq solib, har bir so‘zini chertib, qat’iyat bilan kapitanga dedi:

– Sen, Yefim, yaxshi uqib ol va boshqalarga ham aytib qo‘y, agar men uning to‘g‘risida bironta shaloq gap eshitib qolgudek bo‘lsam bormi, palyon bilan boshingga tushiraman!

– Do‘qini qara-ya! – dedi Yefim, uning so‘zlariga ishonqiramay, xo‘jayinning yuziga sinchiklab qararkan. Lekin o‘sha zahotiyoq bir qadam orqaga chekindi. Foma Ignatning o‘g‘limasmi, – xuddi bo‘riga o‘xshab tishlarini irjaytirdi, ko‘z qorachig‘lari kengayib ketdi:

– Kul-a, kul! Kulgini ko‘rsatib qo‘yarman, – deb baqirdi.

Yefim biroz qo‘rqqan bo‘lsa ham, lekin pinagini buzmasdan shunday dedi:

– Lekin siz, Foma Ignatich, xo‘jayin bo‘lsangiz ham... menga «ko‘z-quloq» bo‘lish topshirilgan... men esam kapitanman...

– Kapitan?! – deya o‘shqirdi Foma rangi quv o‘chib, titrab. – Men kimman?

– Yaxshisi, siz ko‘p o‘shqirmang! Allaqanday bir arzimas xotin uchun...

Fomaning oqargan yuzlarida qizil dog‘lar paydo bo‘ldi, u oyoqlari bilan depsinib, titrab-qaqshab, qo‘llarini pidjagining cho‘ntaklariga tiqarkan, bir tekisda qat’iy ovoz bilan dedi:

– Sen! Kapitan! Menga qara, agar menga qarshi tag‘in bir og‘iz so‘z aytadigan bo‘lsang, yo‘qol bu yerdan! Jo‘na! Qirg‘oqqa! Men lotsman bilan ham yetib olaman. Uqdingmi? Menga xo‘jayinlik qilolmaysan! Xo‘sh?

Yefim hang-mang bo‘lib qoldi. U nima deb javob qilishini bilmay, ko‘zlarini g‘alati tarzda pirpiratganicha, xo‘jayiniga baqrayib turdi.

– Uqdingmi, deyapman?

– Uqdim, – dedi Yefim cho‘zib. – Axir shunga ham shovqinsuronmi? Shuning uchun ham...

– Ovozingni o‘chir!

Fomaning dahshat bilan chaqnagan ko‘zlari, buzuq avzoyi, kapitanning miyasida xo‘jayin oldidan tezroq jo‘nab qolish kerak, degan fikrni tug‘dirdi, u darhol keta qoldi.

U o‘zini behuda xafa qilgan, deb hisoblab Fomadan qattiq ranjidi, lekin ayni zamonda o‘z tepasida qattiq, haqiqiy xo‘jayin qo‘li borligini his qildi. Yillar bo‘yi itoat qilib o‘rganib qolgan Yefimga tepasida qattiqqo‘l xo‘jayin borligi yoqdi va keksa lotsman kayutasiga kirib, xo‘jayin bilan o‘zi o‘rtasida o‘tgan mojaroni zavq bilan so‘zlab berdi:

– Ko‘rdingmi? – deb yakunladi u o‘z gapini. – Zoti toza kuchuk, birinchi ovdayoq yaxshi it bo‘lib chiqdi... Lekin ko‘rinishidan shunchaki, miyasi g‘ovlagan anchayin odamcha... Mayli, hechqisi yo‘q, o‘ynayversin, bunday fe’li bilan... albatta bundan yomonlik chiqmaydi... U menga biram o‘shqirib berdiki, xuddi karnayning o‘zi, men senga aytsam!.. Darrov bilindi: kattalikni ham, qattiqqo‘llikni ham xuddi suvdek ichgan...

Yefimning gapi rost edi. Shu kunlarda Foma juda o‘zgardi... Unda o‘t olgan hirs uni xotinning jismi va qalbiga ega qildi, Foma bu hukmronlikning o‘tli sharobini ochko‘zlik bilan simirdi va bu hol uni tund, tentaknamo yigit qilib ko‘rsatgan barcha qo‘polliklarni

kuydirib tashladi, uning qalbini yoshlik g'ururi hamda insonlik tuyg'usi bilan sug'ordi. Ayollarga bo'lgan muhabbat, uning qanday bo'lishidan qat'i nazar, erkaklar uchun doim foydali bo'ladi, hatto bu muhabbat azobdan boshqa hech narsa keltirmasa ham, mana shu azoblarning o'zida ham ko'pgina qimmatli tomonlari bo'ladi. Muhabbat – qalbi kasal odam uchun o'tkir zahar bo'lsa, sog'lom odam uchun – po'lat bo'lishni istagan temir uchun olov kabidir...

Yigit quchog'ida o'zining yoshligi bilan vidolashayotgan o'ttiz yashar ayol bilan Fomaning aylanishi uni ishidan qoldirmadi. U ishq-muhabbatda ham, ishda ham o'zini yo'qotmadi, har ikkoviga ham o'zini bag'ishladi. Xotin kishi unga ajoyib may singari ta'sir qilib, unda mehnat va muhabbatga bab-baravar ishtiyoq tug'dirdi, ayol ham yigit bo'salarini tatib yosharib ketdi.

Permda Fomani otaxonidan kelgan xat kutar edi, Mayakin o'z xatida Ignat Fomani sog'inib ichkilikka berilib ketganini va uning yoshidagi odamga bunchalik ichish zararli ekanini yozgan edi. Xatning oxirida ishlarni tezroq bitirib, uyiga qaytishga maslahat berilgan edi. Foma bu maslahat zamirida allaqanday tashvish borligini payqadi, bu uning shod yuragini motamga aylantirdi, lekin ish tashvishlari va Pelageyaning erkalatishlari bu dog'ni tezda yuvib tashladi. Uning hayoti tez oqar daryo to'lqinlari singari oqar, har bir kun yangi taassurotlar va yangi-yangi o'ylar tug'dirardi. Pelageya uni otashin bir dard bilan sevdi, uning yoshidagi ayollar hayot jomidan so'nggi tomchilarni ichish bilan o'zining ishqlarini naqadar kuchli his etsalar, u ham xuddi shunday kuchli bir his bilan sevdi. Biroq goho Pelageyada shunday kuchli va uni Fomaga bundan ham qattiq bog'laydigan, ikkinchi bir tuyg'u uyg'onardiki, bu, onaning o'z sevimli o'g'lini xatolardan asrash, unga turmush hikmatlarini o'rgatish yo'lidagi intilishlariga o'xshash bir tuyg'u edi. Goho tunda, palubada Foma bilan quchoqlashib o'tirgan choqlarida, Pelageya unga yoqimli va g'amgin bir ovoz bilan derdi:

– Sen mening so'zlarimni o'z opang so'zlariga quloq solgandek tingla... Men yashadim, odamlarni ham bilaman... O'z umrimda juda ko'pini ko'rdim!.. Sen hushyor bo'lib o'rtoq tanla, chunki xuddi kasalga o'xshagan yuqumli odamlar ham bo'ladi... Boshda sen uning kimligini bilolmaysan! Basharasi odamga o'xshaydi... Qarabsanki,

uning kasali senga yuqib qolibdi... Xotinlarga – xudo o'zi saqlasin, ehtiyot bo'l... Hali bo'shangsan, hali yuraging uncha chiniqmagan... Senga o'xshaganlarga xotinlar juda o'ch bo'ladi – kuchli, chiroyli va boysan... Hammadan ham yuvoshidan qoch, bundaylar erkaklarga zulukdek yopishib oladi, yopishib olib rosa so'radi, o'zi esa hamon yoqimli va muloyim bo'lib ko'rinadi. U sening shirangni so'rib oladi-yu, o'zini ehtiyot qiladi, yuragingni bekorga o'rtaydi, xolos... Sen – menga o'xshash shaddod xotinlarga ko'proq aylanish! Bundaylar beg'araz bo'ladi...

U chindan ham beg'araz edi. Permda Foma unga har xil kiyim-kechak va mayda-chuydalar olib berdi. U xursand bo'ldi-yu, lekin narsalarni ko'zdan kechirgach, xafa bo'lib dedi:

– Sen pulni ko'p isrof qilaverma... Hushyor bo'l, tag'in otang ranjimasin!.. Men bu narsalarsiz ham... seni yaxshi ko'raman...

Pelageya u bilan to Qozongacha bormoqchi ekanini va u yerda kuyovga chiqqan opasi borligini oldindanoq aytib qo'ygan edi... Foma uning tashlab ketishiga ishonmay yurdi. Qozonga yetishlariga bir kecha qolganda – Pelageya o'zining shu so'zlarini yana takrorlagach, Fomaning avzoyi buzilib tashlab ketmasligini undan yolvorib so'ray boshladi.

– Sen eldan burun qayg'urma, – dedi Pelageya. – Hali butun bir kecha bor... Sen bilan xayrlashganimizda achinsang achinarsan...

Lekin Foma, tashlab ketma, deb avvalgidan ham battarroq yalindi va nihoyat, unga uylanmoqchi ekanini aytdi.

– Ana xolos! – deya Pelageya kulib yubordi. – Erim turib senga tegarmidim?! Obbo tentakkinam-e! Hali uylanmoqchiman degin? Axir mendaqalarga uylanib bo'ladimi? Sening ko'p o'ynashlaring bo'ladi hali... sen qaynovingdan tushganingdan keyin, barcha shirinliklar me'dangga tegib, javdari nonni tusab qolganingdan keyin uylan... Bilishimcha, sog'lom erkak, agar tinch bo'layin desa, erta uylanmasligi kerak... Unga bitta xotin kamlik qiladi, boshqalarga yurib ketadi... Baxtli bo'layin desang, sen o'zingga bitta xotin kifoya ekanini bilganingdan keyingina uylanishing kerak...

Biroq Pelageya gapirgan sari, Fomaning undan ajralmaslik niyati yanada mustahkamlandi.

– Gapimga quloq sol, – dedi ayol astagina. – Masalan, qo‘lingda cho‘pchiroq yonib turibdi deylik, lekin usiz ham senga yorug‘, sen uni darrov suvga pishib ol, shunda u tutamaydi ham, qo‘lingni kuydirmaydi ham...

– So‘zlaringga tushunmadim...

– Sen tushun... Sen menga yomonlik qilganing yo‘q, men ham qilmoqchi emasman... Shuning uchun ham ketmoqchiman...

Agar bu janjalga bir voqea qo‘shilmaganda, bu harxashaning nima bilan tugashini aytish qiyin edi, Foma Qozonda Mayakindan telegramma oldi, u o‘zining tutingan o‘g‘liga: «Tezlik bilan passajir paroxodida yetib kel», deb buyurgan edi. Fomaning yuragi orqasiga tortib ketdi. U bir necha soatdan keyin, rangi o‘chgan, qovog‘i osilgan bir kayfiyatda tishlarini mahkam qisib, pristandan endigina jo‘nagan paroxodning galereyasida turardi. U panjarani mahkam ushlagan holda, qimir etmay, pristan hamda qirg‘oq bilan birga tobora undan uzoqlashib borayotgan jononining yuziga kiprik qoqmay tikilardi. Pelageya unga ro‘molchasini silkib hamon jilmayib turar, biroq Foma uning yig‘layotganini bilar edi. Uning ko‘z yoshlaridan Foma ko‘ylagining ko‘kragi jiqqa ho‘l bo‘lgandi, uning tund hayajon bilan to‘la yuragi beshbattar siqilib, og‘irlashib ketdi. Ayolning gavdasi, go‘yo eriyotganday, borgan sari kichrayib borar, Foma esa undan ko‘zini uzolmay hamon tikilardi, o‘z qalbida otasidan xavotirlik hamda ayoldan judolik alami ustiga yana allaqanday yangi, kuchli va achchiq bir his paydo bo‘layotganini sezdi. Foma bu hisni nima deb atashni ham bilmadi, biroq u kimdandir o‘pkalaganday bo‘lib tuyuldi.

Pristandagi olomon shaklsiz, harakatsiz, jonsiz qora bir dog‘ singari aralash-quralash bo‘lib ketdi. Foma panjaradan uzoqlashdi-da, tumtayib olib, palubada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

Yo‘lovchilar qattiq-qattiq gaplashib, choy ichgani o‘tirishar, xizmatkorlar stollarni tuzash uchun galereya bo‘ylab u yoqdan bu yoqqa zir yugurishar, allaqayerda, paroxodning orqa tomonida, pastdagi uchinchi klassda bir bola kular, garmon nolir, oshpaz pichog‘ini taqillatar, idish-tovoqlar jaranglar edi. Kattakon paroxod to‘lqinlarni yorib, suvni ko‘pirtirib va zo‘r kelganidan titrab, oqimga qarshi shaxdam suzib borardi... Foma paroxod orqasida keng iz solib qu-

turgan to‘lqinlarga qaradi-da, o‘zi ham biron narsani majaqlab, burdalab tashlagisi, xuddi paroxod singari oqimga qarshi suzib, uning qarshiligini ko‘kragi va yelkasi bilan parcha-parcha qilgisi kelayotganini sezdi...

Kimdir uning yonginasida, horg‘in, xirillagan ovoz bilan:

– Taqdir ekan-da! – deb qo‘ydi.

Bu so‘z Fomaga tanish edi. Ammasi Anfisa uning savollariga ko‘pincha shu so‘z bilan javob berardi, shuning uchun ham Foma, mana shu qisqa so‘zda xudoning qudratidek bir kuch bor, deb tasavvur qilardi. U so‘zlashayotganlarga nazar tashladi: ulardan biri sochlari oppoq, nuroniy bir chol bo‘lib, ikkinchisi esa, katta ko‘zlari toliqqanroq, qop-qora cho‘qqi soqol, yoshroq bir kishi edi. Uning kemirchakli katta burni va botiq yonoqlari Fomaga otaxonini eslatdi.

Chol o‘z suhbatdoshining so‘zini takrorlab:

– Taqdir ekan! – dedi-da, kulimsirab qo‘ydi. – Taqdir degan narsa hayot ustida, xuddi daryo bo‘yidagi baliqchiga o‘xshaydi, u bizning olag‘ovur dunyomizga yemish ilingan qarmog‘ini tashlaydi, odam esa darhol ochko‘zlik bilan unga yopishadi... Shunda u qarmog‘ini bir tortadi, qarabsizki, odam gursillaganicha yerga kelib tushadi-yu, tipirchilab qoladi, shundan keyin uning yuragi ham lat yeydi... Shunday, taqsir!

Foma go‘yo oftob nuri tushib ko‘zi qamashganday ko‘zlarini yumdi-da, bosh chayqab turib, qattiq ovoz bilan:

– To‘g‘ri! Juda to‘g‘ri-i! – dedi.

Suhbatdoshlar unga tikilib qarashdi. Chol mayingina oqilona jilmayib qo‘ydi, ko‘zi kattasi esa yoqtirmayroq xo‘mrayib qaradi. Bundan Foma xijolat bo‘lib qizardi va ular yonidan nari ketarkan, taqdir to‘g‘risida o‘ylab o‘yiga yetolmadi: taqdir unga xotin tuhfa etib uni nega erkalatdi-yu, nega uning yuragini o‘rtab, o‘sha ondayoq yana tortib oldi? Shunda Foma ko‘nglini g‘ash qilgan noaniq achchiq hisning nimaligini – u bilan o‘ynashayotgan taqdirdan nolish ekanini tushundi. Hayot uni shu qadar erkalatib yuborgan ediki, hozirgina tatib ko‘rgan jomdagi birinchi tomchi zaharga beparvogina qaray olmadi, u cholning so‘zlarini eslab, taqdirdan o‘pkalab, butun yo‘l bo‘yi mijja qoqmadi. Biroq bu his uni na ma’yuslantirdi va na xafa qildi, aksincha, unda g‘azabli va qasoskor hissiyot uyg‘otdi...

Fomani otaxoni kutib oldi va ikkalasi izvoshga tushganlaridan keyin, Fomaning tashvishlanib, shoshib-pishib bergan savollariga chol, ko'kish ko'zlarini yiltillatib, zo'r hayajon bilan javob berdi:

– Otang aqlidan ozdi...

– Ichyaptimi?

– Undan ham battar! Butunlay esini yeb qo'ydi...

– Rostdanmi? E, xudoyim! Gapiring...

– Bilsang, uning atrofida bitta xonim aylanishib qoldi...

Foma o'zining Pelageyasini eslab:

– U nima qilyapti? – dedi qichqirib va negadir yuragida quvonch paydo bo'lganini sezdi.

– Otangga yopishib olib rosa so'ryapti...

– O'zi yuvoshmi?

– Xotinmi? Yuvosh-a... Xuddi olov... Otangning cho'ntagidan yetmish besh mingni xuddi xamirdan qil sug'urganday sug'urib oldi!

– O-o! Kim bo'ldi ekan u?

– Sonka Medinskaya, arxitektorning xotini...

– Yo tavba! Nahotki, o'sha xotin... Axir otam, nahotki, otam uni o'ynash qilib olgan bo'lsa? – deya so'radi Foma hayron bo'lib.

Otaxoni orqaga tisarildi-da, ko'zlarini g'alati qilib olaytirarkan, quti o'chib so'z boshladi:

– Sen ham deyman, inim, jinni bo'psan! Xudo haqqi, jinni bo'psan! Esingni yig'! Oltmish uch yoshga kirib o'ynash orttirish... yana shuncha pulga-ya! Bu nima deganing, qarab tur, men bu gapingni Ignatga aytmasammi!

Mayakin shunday dedi-yu, qaltiragan ovoz bilan havoni larzaga keltirib qiqirlab kuldi, echki soqoli esa beo'xshov silkindi. Foma anchagacha undan tuzukroq javob ololmadi, chol nihoyatda tashvishli, besaranjom edi. Har doim ravon va silliq gapiradigan odam hozir tutilib, so'kinib gapirar va dam-badam tupurardi. Foma gap nimada ekanligini arang tushundi. Gap bunday ekan: har xil xayrli ishlarni uyushtirishda jonbozlik ko'rsatib butun shaharga dong'i ketgan Sofya Pavlovna Medinskaya, boy arxitektorning xotini Ignatni, boshpanasizlarga tunaydigan joy, xalq kutubxonasi va qiroatxona tashkil etish uchun yetmish besh ming so'm iona qilishga ko'ndiribdi. Ignat pulni beribdi va uning saxiyligini gazetalar maqtab chiqibdi. Foma bu

xotinni ko'chalarda bir necha bor ko'rgan edi, o'zi nozikkina bo'lib, shaharda eng chiroyli ayollardan biri ekanini ham bilardi. Uning haqida bemaza gaplar ham yurardi.

– Bo'lgan gap shumi?! – dedi otaxonining so'zlarini eshitib bo'lgach. – Mening xayolimga boshqa gap kelibdi...

– Sen-a? O'yladingmi? – birdan Mayakinning jahli chiqdi. – Hech narsani o'ylaganing yo'q, hali sen go'daksan!

– Siz nega so'kinasiz? – dedi Foma hayron bo'lib.

– Qani, ayt-chi, yetmish besh ming, seningcha, katta pulmi yo yo'qmi?

– Katta pul, – dedi Foma, biroz o'ylanib. – Axir otamda pul ko'p-ku... Siz muncha endi...

Yakov Tarasovichning butun vujudi qaltirab ketdi, u yigitning betiga nafrat bilan qaradi va allaqanday kuchsiz bir ovoz bilan undan so'radi:

– Buni sen gapiryapsanmi?

– Bo'lmasam-chi.

– Yolg'on! Buni tentak yoshliging gapiryapti, shunday! Mening million marta hayot sinovidan o'tgan keksa tentakligim senga aytyaptiki, sen hali kuchuk bolasan, ovozingni do'rillatib hurishga hali yoshlik qilasan!

Otaxonining haddan tashqari serpiching tili ilgari ham Fomaning ko'pincha g'ashiga tegardi, Mayakin doim u bilan qo'pol gaplashar, hatto otasidan ham o'tkazib yuborardi, biroq endi yigit nihoyatda xafa bo'lganini sezdi-da, o'zini bosib turib qat'iy qilib dedi:

– Bekorga so'kinmasangiz ham bo'ladi, men endi yosh bola emasman...

– Nimalar deyapsan o'zing? – dedi Mayakin, mazax qilib qoshlarini chimirarkan.

Foma tutaqib ketdi. U cholning yuziga tik qarab, salmoq bilan dona-dona qilib:

– Men shuni aytmoqchimanki, bundan keyin sizning bema'ni so'kishlaringizni eshitishni xohlamayman, bas! –

– Him-m... shunday! Kechiring...

Yakov Tarasovich ko'zlarini suzib, lablarini chapillatdi-da, Fomadan yuzini o'girib, bir daqiqacha indamay turdi. Izvosh tor

ko‘chaga kirdi, Foma olisdan o‘z uyining tomini ko‘rib, beixtiyor butun gavdasi bilan olg‘a talpinib qo‘ydi. Shu choq otaxoni, mug‘ambirlik bilan muloyim jilmayib, undan so‘radi:

– Fomka! Ayt-chi, tishlaringni sen nimaga qayrab olding-a? A?

– Nahotki, o‘tkirlashgan bo‘lsa? – deb so‘radi, otaxonining bu so‘zidan quvonib ketgan Foma.

– Chakkimas... Bu yaxshi, inim... bu juda ham yaxshi! Biz otang bilan seni lapashang bo‘larmikin, deb qo‘rqardik!.. Xo‘sh, aroq ichishni o‘rgandingmi?

– Ichdim...

– Darrov-a! Ko‘p ichdingmi?

– Nega ko‘p bo‘lsin...

– Shirinmi o‘zi?

– Unchamas...

– Shundoq degin... Hechqisi yo‘q, bularning hammasi zararsiz... Lekin sen haddan ortiq sodda ekansan, barcha gunohlaringni ro‘para kelgan har bir popga aytib, tavba qilishga tayyorsan... Sen buni o‘ylab ko‘r, inim, hamma vaqt shunday qilish kerakmikin... Vaqti kelganda indamasang, bu bilan kishilarga ham ma’qul tushasan, gunohkor ham bo‘lmaysan. Shundoq! Odamning tili kamdan kam hushyor bo‘ladi. Mana, kelib ham qoldik... Hazir bo‘l, otang kelganingni bilmaydi... Uydamikin o‘zi?

Ignat uyda ekan. Ochiq derazadan ko‘chaga uning biroz xirillagan tovush bilan xaxolab kulgani eshitildi. Uy yoniga kelib to‘xtagan izvoshning taqir-tuquri Ignatni derazadan qarashga majbur qildi va o‘g‘lini ko‘riboq, quvonib:

– A-a! Keldingmi?.. – deya qichqirdi.

Oradan bir daqiqa o‘tgach, Fomani bir qo‘li bilan bag‘riga bosib, ikkinchi qo‘lining kaftini uning peshanasiga qo‘yib, o‘g‘lining boshini orqasiga egib, chaqnab turgan ko‘zlari bilan uning yuzlariga tikildi-da, xursand bo‘lib dedi:

– Qorayibsan... sog‘ayibsan... barakalla! Xonim! O‘g‘lim qalay, yaxshimi?

– Chakki emas, – dedi kumushday jaranglagan yoqimtoy ovoz.

Foma otasining yelkasidan qaradi-yu, uyning to‘ridagi burchakda stolga suyanib o‘tirgan, oltin rang sochlari bashang, nozikkina

bir xotinni ko'rdi. Qop-qora ko'zlari, ingichka qoshlari va qip-qizil do'rdoq lablari oppoq yuzida yaqqol ko'zga tashlanardi. Oromkursining orqasidagi kattakon filodendron gulining kungurador yirik yaproqlari uning tilladay tovlangan boshi ustida osilib turardi.

– Omonmisiz, Sofya Pavlovna, – dedi Mayakin muloyimgina, uning oldiga qo'llarini cho'zib kelarkan. – Hali ham biz bechoralardan jarima to'playapsizmi?

Foma ayolning Mayakinga bergan javobini ham, otasining aytgan so'zlarini ham eshitmay, jimgina unga ta'zim qildi. Xonim unga muloyimgina jilmayib, tikilib qaradi. Uning allaqanday qora mato ko'ylak ichidagi nozikkina gavdasi oromkursining to'q qizil matosi bilan qo'shilishib ketganidan, jingalak oltin sochi bilan oppoq yuzi go'yo qorong'ida nur sochib turganday ko'rindi. U o'sha yerda, burchakda, ko'm-ko'k yaproqlar ostida o'tirarkan, ham gulga, ham ikonaga o'xshar edi.

– Hazir bo'l, Sofya Pavlovna, senga tikilishini qara, xuddi lochin-a! – deb qo'ydi Ignat.

Ayolning ko'zlari suzildi, yonoqlari bilinar-bilinmas qizardi, u xuddi kumush qo'ng'iroqday jaranglagan tovush bilan kulib yubordida, shu zahotiyoq o'rnidan turib dedi:

– Men sizlarga xalaqit bermayin, xayr!

U Fomaning yonidan sekingina o'tib ketayotganida dimog'iga xushbo'y atir hidi urildi va shunda Foma uning ko'zlari o'ta moviy, qoshlari tim qora ekanini ko'rib qoldi.

Mayakin uning orqasidan g'azab bilan qarab qolib:

– Suzib ketdi cho'rtan baliq, – deb qo'ydi astagina.

– Qani, ayt-chi, qalay borib kelding? Ko'p pul isrof qildingmi? – deb do'rilladi Ignat, o'g'lini hozirgina Medinskaya o'tirgan oromkursi tomon itarib. Foma oromkursiga ko'z qirini tashlab qo'ydi-da, boshqasiga o'tirdi.

Mayakin mug'ambir ko'zlari bilan Fomaga sinashta nazar tashlab:

– Xo'sh, oyimcha qalay, durustmi? – deb so'radi kulib turib. – Agar uning oldida anqayib tursang, butun ichak-chovog'ingni yeb qo'yadi...

Foma negadir seskanib tushdi va javob bermay, o‘zining safari to‘g‘risida otasiga jiddiy tusda so‘zlay boshladi. Lekin Ignat uning so‘zini bo‘ldi:

– Shoshma, men konyak chaqirtiray...

– Seni hadeb ichyapti, deyishadi... – xushlamayroq dedi Foma.

Ignat unga taajjub bilan qaradi-da:

– Otaga shunday deb bo‘ladimi, a? – dedi.

Foma uyalib bosh egdi.

– Shundog‘! – dedi Ignat muloyimgina va – konyak olib keling, – deya qichqirdi...

Mayakin ko‘zlarini suzib, Gordeyevlarga qararkan, xo‘rsinib qo‘ydi va ularni kechqurun o‘zining malinazorida choy ichishga taklif qildi-da, xayrlashib chiqib ketdi.

Foma otasi bilan yolg‘iz qolgach, negadir o‘ng‘aysizlanib:

– Anfisa ammam qani? – deb so‘radi.

– Monastirga ketgan... qani, gapir, men ichib olay...

Foma otasiga qilgan ishlari to‘g‘risida bir necha daqiqa ichida so‘zlab berdi va gapining oxirida dangal qilib aytdi:

– O‘zimga... ancha pul sarf qildim.

– Qancha?

– Olti yuz... so‘mcha...

– Bir yarim oyda-ya! Ko‘p... Sen menga gumashta bo‘ladigan bo‘lsang juda qimmatga tushasan... Xo‘sh, sen ularni nimaga sovurding?

– Uch yuz pud g‘alla iona qildim...

– Kimga? Nima uchun?

Foma so‘zlab berdi.

– Bu joyida! – dedi otasi ma’qullab. – Bizning kimligimizni bilib qo‘yishsin!.. Masala ravshan – bu otangning hurmati... firmaning hurmati... Bundan zarar ko‘rmaymiz, chunki yaxshi nom chiqaramiz, bolam, savdo uchun bu eng yaxshi viveska... Xo‘sh, tag‘in nima?

– Shunday... bir nimaga sarf qildim...

Ignat o‘g‘lini sinchiklab jiddiy ko‘zdan kechirarkan:

– Ochig‘ini aytaver... pul to‘g‘risida so‘rayotganim yo‘q, qanday hayot kechirganingni bilmoqchiman, – deb qistadi.

– Yedim... ichdim... – dedi Foma, sirni boy bergisi kelmay, qovog'ini solib yerga qarab.

– Ichding? Aroqmi?

– Aroq ham...

– E! Hali ertaroqmasmi?,

– Yefimdan so'ra, mast bo'lguncha ichdimmikin..

– Nega Yefimdan so'rarkanman? Hammasini sen o'zing aytishing lozim. Demak, sen icharkansan-da?

– Ichmasligim ham mumkin...

– Bu nimasi! Konyak ichasanmi?

Foma otasiga qarab, og'zini katta ochib kulib qo'ydi. Otasi ham unga javoban muloyimgina iljaydi.

– Obbo sen-e... shayton! Ich... lekin hushyor bo'l, ishingni bilib qil... Na iloj? Mast kishi bir uxlab olsa, o'ziga keladi, ahmoq esa, hech qachon... o'zimizni ovutish uchun... hech bo'lmasa mana shuni unutmasligimiz kerak... Xo'sh, qizlar bilan o'ynab-kuldingmi? Mayli, ochig'ini aytaver! Nima, men seni urarmidim?

– O'ynadim... paroxodda bittasi bor edi... Permdan Qozongacha opkelib qo'ydim...

– Be... – dedi Ignat og'ir xo'rsinib va qovog'ini solib turib qo'shib qo'ydi, – o'zingni ertaroq bulg'absan...

– Men yigirmaga kirdim... Sen o'zing, bizning zamonda o'n besh yashar bolalarni ham uylantirardi, derding... – deb javob berdi Foma uyalibroq.

– Uylanish boshqa gap... Xo'p, mayli, bu to'g'rida bas qilaylik, xotin bilan yursang yuribsan-da, nima qilibdi? Xotin baayni chechak kasali, usiz yashab bo'lmaydi... Riyokorlik qilishning hojati ham yo'q... Men xotinlarga sendan ko'ra ilgariroq ilashganman... Lekin ularga ehtiyot bo'l.

Ignat o'yga cho'mib, boshini quyi solganicha qimir etmay, anchagacha sukut saqlab qoldi.

– Menga qara, Foma, – yana gap boshladi u keskin bir ohangda, – men hademay o'laman... Qaridim. Ko'kragim qisadi, nafas olishim qiyin... O'laman... O'shanda butun ish o'zingga qoladi... Boshda senga otaxoning yordam beradi, uning gapiga quloq sol! Sen ishni... chakki boshlamading, hammasini durust bajarding, jilovni qo'lingda

mahkam ushlading... Bundan keyin ham, tangri yor bo'lib, shunday qilgin... Sen shuni yaxshi bilki, ish degan narsa kuchli va tirik bir hayvon, uni bilib boshqarish, mahkam jilovlash lozim, bo'lmasa, u seni yengib qo'yadi... Ishdan yuqori turishga harakat qil... o'zingni shunday tutki, ish sening oyog'ing ostida, ko'z oldingda bo'lsin, har bir kichkina mixi ham senga ko'rinib tursin...

Foma otasining keng ko'kragiga qararkan, uning yo'g'on ovoziga quloq solib turib, ichida:

«Sen, haliveri o'lmaysan», deb qo'ydi.

Bu o'y uning ko'nglini quvontirdi, unda otasiga nisbatan mehribon, iliq bir his uyg'ondi.

– Otaxoningdan qolma... Uning aqli butun shaharga tatiydi! U yuraksiz odam, yo'qsa, juda baland martabali bo'lardi. Shundoq, men senga aytsam, mening umrim oz qoldi... Rostini aytganda, o'limga hozirlik ko'rish kerak edi... Hamma narsani tashlab, odamlar meni yaxshilik bilan eslashlari uchun harakat qilishim kerak edi...

– Eslashadi! – dedi Foma ishonch bilan.

– Esga oladigan ish qilinsa-da...

– Boshpanasizlar tunaydigan uy-chi?

Ignat o'g'liga qaradi-da, kulib yubordi.

– Yakov aytibdi-da! Meni koyigan bo'lsa kerak?

– Biroz koyidi, – deb kulimsiradi Foma.

– Koyimay bo'pti! Men uni bilmasam ekan!

– Bu haqda shunday qilib gapirdiki, go'yo o'zining puli...

Ignat o'zini oromkursi suyanchig'iga tashlab avvalgidan ham battar xaxolab kuldi.

– Obbo, ola qarg'a-yey! Sen rostini aytding... Uning uchun o'z puli ham, meniki ham baribir, mana shuning uchun ham qizg'anadi... Bir niyati bor u kalning, qani ayt-chi, qanaqa niyat?

Foma biroz o'ylab turib dedi:

– Bilmasam...

– E!.. O'z pullarini qo'shmoqchi bo'ladi...

– Qanday qilib?

– O'zing top-chi!..

Foma otasiga qarab turdi-da, keyin topdi.

Uning avzoyi buzilib, oromkursidan turarkan, dangal aytdi:

– Yo‘q, men xohlamayman! Men unga uylanmayman!

– O! Nega endi? Qizi sog‘lom, es-hushlik, otasining yolg‘izi...

– Taras-chi? Yo‘qolib ketgani-chi?

– Yo‘qolgani – yo‘qoldi ketdi, bu haqda gap qotishning ham hojati yo‘q... Vasiyat qog‘ozi bor unda: «Butun mol-mulkim qizim Lyubaniki», deyilgan... Lekin u senga tutingan singil ekanini bir yoqlik qilarmiz...

– Baribir, – dedi Foma qat’iy, – men unga uylanmayman!

– E, bu haqda gapirish ham erta. Xo‘sh, u senga o‘zi yoqmay qoldimi?

– Men bunaqalarini sevmayman...

– Shundoq degin! Obbo, seni qara-ya! Xo‘sh, sizga ko‘proq qanaqasi yoqadi, taqsir?

– Soddarog‘i... U bo‘lsa ko‘proq gimnazistlar-u kitoblar bilan... olima bo‘lib ketgan!.. Meni masxara qiladi... – dedi Foma hayajon bilan.

– Aytaylik, bu gaping to‘g‘ridir, u haddan tashqari o‘ktam qiz... Lekin bu behuda narsa! Agar qo‘l tekkizilsa, har qanday zangni ham ketkizsa bo‘ladi... Lekin otaxoning aqlli chol... hayoti tinchgina o‘tgan, bir yerda o‘tirib olib, hamma narsani o‘ylab chiqqan. Uning gapiga quloq solsang arziydi, u hayotning butun ikir-chikirini biladi... U malika Yekaterina zamonidan qolgan aristokratlardan!.. O‘z qadrini yaxshi biladi... Uning nasli Tarasga kelib tamom bo‘lgach, seni Tarasning o‘rniga qo‘ymoqchi, tushunyapsanmi ?

– Yo‘q men o‘z o‘rnimni o‘zim topib olaman, – dedi Foma qaysarlik bilan.

– Sen hali ahmoqsan... – deb iljaydi otasi.

Anfisa ammasi kelishi bilan ularning so‘zi bo‘linib qoldi...

– Fomusha, keldingmi!.. – deb qichqirdi u eshik orqasidan. Foma o‘rnidan turib, jilmayganicha uni qarshi olgani chiqdi.

...Ignatning hayoti yana asta-sekin bir xil tarzda o‘ta boshladi. O‘g‘liga bo‘lgan istehzoli ko‘ngilchanligini va rag‘batlantiruvchi munosabatini davom ettirsa ham, lekin avvalgiga qaraganda ancha qattiqqo‘l bo‘lib qoldi, o‘g‘lining har bir mayda-chuyda kamchiligi-

ni yuziga solar, uni erkin tarbiyalaganini, hech narsadan kamsitmaganini, hech qachon urmaganini tez-tez pesh qilib turar edi.

– Boshqa otalar sizga o‘xshaganlarni boshiga palyon bilan tushiradi, men esa seni bir chertgan emasman!

– Hech aybim bo‘lmagandir-da, – dedi Foma bir kuni pinagini buzmay.

Ignat o‘g‘lining bu so‘zi va to‘ngligiga achchiqlandi.

– Gapirib ko‘r-chi! – deya baqirdi u. – Indamagan sari haddingdan oshasan!.. Doim so‘zimni qaytarasan. Hushyor bo‘l, qo‘lim yumshoq bo‘lgani bilan shunday changallab ezayki, tovoningdan ko‘z yoshlaring tirqirab chiqsin! Yaramas zamburug‘day tez o‘sib ketding, yerdan bosh ko‘tarish bilanoq sasiyapsan...

– Nega xafa bo‘lasan mendan? – deb so‘radi Foma hayron bo‘lib, otasining kayfi chog‘ mahalida...

– Otang koyiganda chiday olmaysan... darrov gap qaytarasan!..

– Alam qiladi-da... Axir men kimdan kamman... O‘z tengqurlarim nimalar qilayotganini ko‘rib turibman-ku, axir...

– Agar goho seni g‘adablasam, kallang uzilib tushmaydi-ku... Chunki senda qandaydir bir narsa borki, men uchun tamoman yot, shuning uchun g‘adablayman... Ammo nimaligini bilmayman, lekin borligini payqayman... Bu sening uchun zararli...

Otasining bu so‘zlari Fomani chuqur o‘ylantirib qo‘ydi. U tengdoshlaridan ajratib turadigan o‘zida allaqanday bir narsa borligini sezdi-yu, biroq uning nimaligini tushunolmadi. Shuning uchun o‘zidan gumonsirab yurdi...

Unga birjaga borish, minglar bilan ish yuritadigan nufuzli kishilar orasida bo‘lish yoqardi, lekin unchalik badavlat bo‘lmagan hunarmandlarning u bilan – Foma Gordeyev bilan salomlashganda, so‘zlashganda hurmat qilishlari unga nihoyatda xush kelardi. U orachora otasining ishiga aralashib, butun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olib, biron buyruq berish imkoniyatiga ega bo‘lsa va shundan so‘ng otasi uni maqtab kulib qo‘ysa, u o‘zini benihoya baxtli hisoblar va gerdayib yurar edi. Unda o‘zini katta tutish va ishbilarmon qilib ko‘rsatish kabi shuhratparastlik hissi zo‘r edi, biroq u hamon burungidek yolg‘iz yashar va o‘zining tengqurlari – savdogar bolalari bilan har kun uchrashib tursa hamki, do‘st orttirish xohishi borligini

sezmas edi. Ular Fomani bir necha bor bazmga chaqirishdi, lekin ularni mensimasdan bu takliflarini qo'pollik bilan rad etdi va, hatto, masxara qilib kuldi ham:

– Qo'rqaman... Otalaringiz bazmingizni payqab qolib, yana sizlarni kaltaklab yurishmasin, unda mening ham boshimda danak chaqishar...

Otalarining kassalaridan o'g'irlagan yoki katta foiz bilan uzoq muddatli veksel berib qarz olgan pullarga otalaridan yashirincha buzuqchilik va aysh-ishrat qilib yurishlari Fomaga yoqmas edi. Uning bu sipoligini ular ham yoqtirishmasdi, chunki bunday takabburlikdan maqsad, izzat-nafslariga tegish ekanligini his qilishar edi.

U Pelageyani tez-tez eslar va xayolida uning qiyofasi gavdalanganda yuragi jizillab ketar edi... Biroq vaqt o'tishi bilan Pelageyaning ochiq chehrasi asta-sekin unutilib, uning xayolini kichkinagina, farishtasimon Medinskaya band etganini Foma o'zi ham sezmay qoldi. Medinskaya deyarli har yakshanba kuni, umuman, bir maqsad bilan – boshpanasizlar tunaydigan uy qurilishini tezlatish maqsadida turli-tuman iltimoslar bilan Ignat oldiga kelib turardi. Bu xotin huzurida Foma o'zini beso'naqay, bahaybat va zilday og'ir his qilardi, bu holdan u ranjir va Sofya Pavlovnaning nigohlariga – shahlo ko'zlariga bardosh berolmay, qip-qizarib ketar edi. Medinskaya unga har gal qaraganida, ko'zlari qorayganini Foma sezar, ustki labi titrab, mayda-mayda oppoq tishlari yiltirab ketganini ko'rardi. Foma ana shunisidan qo'rqardi. Otasi uning Medinskayaga qaraganini payqab, shunday dedi:

– Sen bu xotinga uncha ko'zingni olaytiraverma. Hushyor bo'l, u qayin ko'miriga o'xshaydi-ya: u ko'rinishidan kamtar, silliq, qoracha bo'ladi, o'zi sovuqqa o'xshaydi-yu, lekin qo'lingga olsang bormi, kuydiradi...

Medinskaya yigitda hirs uyg'otmas, uning Pelageyaga o'xshagan yeri yo'q va umuman, Foma uchun u bir muammo edi. Foma bu xotin haqida behayo gaplar yurganini bilar edi-yu, biroq bularga ishonmasdi. Ammo Medinskayaning kulrang shlapa kiygan va uzun sochlari yelkasiga tushgan, semiz bir barin bilan izvoshda o'tirganini ko'rib, Fomaning unga bo'lgan munosabati o'zgardi. Barinning yuzi xuddi pufakdek shishgan, qip-qizil edi, na soqol bor va na

mo‘ylov. Bu odamning butun qiyofasi erkakcha kiyinib olgan xotinga o‘xshardi... Fomaga shu odam Medinskayaning eri deyishdi. Shunda Fomada g‘arazli va qarama-qarshi tuyg‘ular alangalandi, u arxitektorni xafa qilgisi keldi, lekin shu bilan birga unga nisbatan hasad va hurmat sezdi. Medinskaya Fomaga u qadar chiroyli emasdek va osongina qo‘lga olsa bo‘ladigandek ko‘rindi. Foma unga achindi, lekin shunga qaramay, ichi qoralik qilib:

«Eri uni o‘pganda jirkansa kerak...» deb o‘yladi.

Shularning oqibatida u goho o‘zida qandaydir tubsiz, orziqtiradigan bir bo‘shliq sezar va bu bo‘shliqni kechagi kunning taassurotlari ham, o‘tmishning xotiralari ham to‘ldira olmas edi. Birjani ham, ishlarni ham, Medinskaya haqidagi o‘ylarni ham – hammasini shu bo‘shliq domiga tortib ketardi... U Fomani notinch qilar, uning qorong‘i qa’rida o‘ziga dushman bo‘lgan allaqanday bir kuch, hozircha shaklsiz bo‘lsa ham, lekin izchillik bilan sekin-asta shaklga kirishga intilayotganday edi...

Bu orada Ignat qiyofasi oz o‘zgargan bo‘lsa ham, borgan sari bezovtalanib ming‘illar, betoblikdan nolir edi.

– Uxlayolmaydigan bo‘lib qoldim... bir vaqtlar shunday maza qilib uxlardimki, terimni shilib olishsa ham sezmas edim! Endi bo‘lsa tuni bilan to‘lg‘anib chiqaman, nihoyat, saharga yaqin zo‘rg‘a ko‘zim ilinadi... Yuragim notekis uradi, goh zo‘riqqanday tipirchilab gup-gup-gup qilsa... goho birdan jimib qoladi – go‘yo, hozir uzilib, allaqanday chuqur jarga tushib ketadigandek bo‘ladi... E xudoyo xudovando, o‘zingning rahming kelsin!..

U tavba qilib uh tortarkan, ilgarigi tiyrakligini va chaqnashini yo‘qotgan so‘niq ko‘zlari bilan osmonga qarardi.

– Ajal meni shu yaqin o‘rtada poylab turibdi, – derdi itoatkorona g‘amgin ohangda.

Haqiqatan ham, ajal hademay uning yo‘g‘on, baquvvat gavdasini yerga jo qildi.

Bu voqea avgust oyida, ertalab yuz berdi. Foma dong qotib uxlab yotardi, qo‘qqisdan kimdir uning yelkasidan turtayotganini sezdi-yu, qulog‘ining tagida xirillagan ovozni eshitdi:

– Tur...

U ko‘zini ochib, karavot yonidagi stulda otasining o‘tirganini ko‘rdi. Otasi bir maromda bo‘g‘iq ovoz bilan takrorlardi:

– Tur, tur!..

Quyosh endigina chiqqan va Ignatning oq surp ko‘ylagiga tushib turgan nuri hali pushti rangini yo‘qotmagan.

– Hali erta-ku, – dedi Foma kerishib.

– Keyin uxlab to‘yarsan...

Foma erinib ko‘rpaga burkanarkan, so‘radi:

– Yo biron narsa kerakmi?

– Tura qol, bo‘tam, tura qol! – dedi Ignat va xafa bo‘lib: – Kerak bo‘lmasa uyg‘otmasdim... – deb qo‘ydi.

Foma otasining yuziga tikilib qarab, yuzi oqarganini va horg‘in tus olganini ko‘rdi.

– Tobing yo‘qmi? Yo doktor chaqiraymi?

– Keragi yo‘q, – deya qo‘l siltadi Ignat. – Men yosh emasman... Usiz ham bilaman...

– Nimani?

– E... bilaman o‘zim! – sirli qilib dedi chol, negadir g‘alati qilib uy ichiga ko‘z yugurtirdi. Foma kiyinguncha otasi boshini egib, asta dedi:

– Nafas olishga qo‘rqaman... Agar ko‘kragimni to‘ldirib nafas olgudek bo‘lsam, nazarimda, yuragim yorilib ketadigandek... Bugun yakshanba! Ertalabki ibodatdan keyin popga odam yubor...

– Bu nimasi, otajon! – deya kulimsiradi Foma.

– Hech narsa... yuvinib bog‘chaga chiq... Men samovarni o‘sha yerga keltiringlar degandim... ertalabki salqinda choy icharmiz, deb o‘ylagandim... Qaynoq, achchiq choy ichgim kelyapti.

Chol stuldan arang turdi-da, bukchayib, yalang oyoqlarini zo‘rg‘a bosib, xonadan chiqib ketdi. Foma otasining orqasidan qarab qoldi, qo‘rqqanidan yuragi uvushib, sanchidi. U apil-tapil yuvinib, shoshib bog‘ga chiqdi...

Bog‘da sershoh, keksa olma daraxti tagidagi katta oromkursida otasi o‘tirardi. Quyosh nuri ingichka tasma singari daraxt shoxlari orasidan o‘tib, oppoq tungi ko‘ylakda o‘tirgan cholning gavdasiga tushib turardi. Bog‘cha ichi shu qadar jimjit ediki, etagi tegib ketgan shoxning shitirlashi ham Fomaga qattiq ovozdek tuyuldi. U seska-

nib ketdi... Stol ustidagi samovar xuddi to'ygan mushukdek pishillab, ingichka bug' chiqarib turardi. Bog'chaning sokin qo'ynida va kecha rosa quygan yomg'ir bilan yuvilgan yam-yashil o'tlar orasida bezbetlik bilan yarqirab, vishillab turgan samovar Fomaga mutlaqo keraksiz ko'rindi, chunki ko'm-ko'k barglari orqasiga qip-qizil olmalari yashiringan ana shu daraxt ostida yolg'iz o'zi, oppoq kiyimda bukchayib o'tirgan betob otani ko'rishi bilanoq, o'g'ilda paydo bo'lgan hissiyotga har jihatdan ham mos tushmas edi.

– O'tir, – dedi Ignat...

– Doktorga odam yuborsammi... – deb maslahat soldi o'g'li dudmalroq qilib, uning ro'parasiga o'tirarkan.

– Keragi yo'q... Ochiq havoga chiqqach biroz yengillashganday bo'ldim... Mana, biror qultum choy ichsam, balki yana ham yengillashib ketarman... – dedi Ignat choy quyarkan. Foma otasinig qo'lida choynak titraganini ko'rdi.

Foma indamay stakanni o'z oldiga surdi-da, engashib olib, yuragi achishgan holda, otasining harsillab kalta-kalta nafas olishini eshitib o'tirdi.

Qo'qqisdan bir narsa stolga qarsillab tushdi, hatto idishlar dirillab ketdi.

Foma cho'chib boshini ko'tardi, ko'zlari otasining vahima bosgan telbanamo ko'zlari bilan to'qnashdi. Ignat o'g'liga qarab xirillagan ovoz bilan:

– Olma tushdi... Obbo, qurib ketgur-e!.. Xuddi miltiq otganday bo'ldi-ya... – deb qo'ydi.

– Choyingga konyak quyib beray... – deb taklif etdi Foma.

– Usiz ham bo'laveradi...

Ota-bola jim bo'lib qolishdi... Bir gala sa'va havoni shodiyona chug'ur-chug'uri bilan to'ldirib, bog' ustidan uchib o'tdi. Bog'ning kamolga yetgan chiroyini yana salobatli jimlik chulg'ab oldi. Biroq Ignatning ko'zlaridan qo'rquv hanuz arimagan edi...

– Yo xudo... E Iso! – deya pichirladi chol astoydil cho'qinib. – Shundoq... Mana, keldi umrimning eng so'nggi soatlari...

– Bas, otajon! – dedi Foma pichirlab...

– Bas, nima?.. Choyni ichib bo'lganimizdan keyin, sen pop bilan otaxoningga odam yubor...

– Men yaxshisi, hoziroq...

– Hozir ertalabki ibodat vaqti... pop yo‘q... undan keyin shoshilishning hojati yo‘q, balki o‘tib ketar... Ignat likobchadan xo‘rillatib choy icha boshladi...

– Yana bir-ikki yil yashasam bo‘lar edi... Sen hali yoshsan... Sendan ko‘nglim to‘q emas. Halol bo‘l, insofli va puxta bo‘l... Birovnikiga ko‘z olaytirma, o‘zingnikini mahkam saqla...

U so‘zlashdan qiynalib to‘xtadi-da, qo‘li bilan ko‘kragini siladi.

– Odamlarga ishonma... ulardan ko‘p narsa kutma... Biz hammamiz shuning uchun yashaymizki, berishdan ko‘ra ko‘proq olishni o‘ylaymiz... E xudo! Gunohkor bandangni kechir!

Allaqayerda, olisda daranglagan cherkov qo‘ng‘irog‘ining ovozi ertalabki jimlikni buzdi. Ignat o‘g‘li bilan uch karradan cho‘qinib qo‘yishdi.

Qo‘ng‘iroqning birinchi daranglaganidan keyin ikkinchisi va uchinchisi eshitildi va hademay, har tomondan ibodatga chorlab, salmoq bilan bir maromda chalinayotgan qo‘ng‘iroqlarning darang-durungi hammayoqni bosib ketdi...

– Ana, ertalabki ibodatga jom chalindi, – dedi Ignat, qo‘ng‘iroq ovoziga quloq solib... – Sen qo‘ng‘iroqlarning ovozini taniysanmi?

– Yo‘q, – deb javob berdi Foma.

– Mana buni eshityapsanmi? Ovozi yo‘g‘oni, buni Nikola cherkoviga Petr Mitrich Vagin iona qilgan... Mana bunisi esa – xirillayotgani Praskeva Pyatnitsa cherkoviniki...

Darang-durung qilib kuylayotgan qo‘ng‘iroq sadolari havoni titratib, ko‘m-ko‘k osmon qo‘ynida to‘lqin singari tarqalib ketardi. Foma otasining yuziga o‘ychan tikilib, ko‘zlari jonlanib tashvishi yo‘qolganini, asta-sekin o‘ziga kelayotganini ko‘rdi...

Lekin birdan cholning yuzi qip-qizarib ketdi, ko‘zlari katta ochilib, kosasidan chiqib ketayozdi, og‘zi ajablangansimon ochildiyu, xirillagan g‘alati bir ovoz chiqdi:

– Fu... u... xxx...

Shundan keyinoq Ignatning boshi shilq etib yelkasiga tushdi, yo‘g‘on gavdasi oromkursidan ohista sirpanib, go‘yo yer uni kuch bilan o‘ziga tortganday yiqildi. Foma qo‘rqib, hayron bo‘lib, otasiga tikilganicha bir necha daqiqa qimir etmay jim turgandan keyin,

birdan Ignatga tashlandi, uning boshini ko'tarib yuziga qaradi. Ignatning yuzi qorayib, qotib qolgan, katta ochilib qolgan ko'zlari hech narsani ifoda qilmas edi, na alam-u, na vahima va na quvonchni... Foma atrofiga ko'z tashladi, hali ham boyagidek bog'da hech kimsa yo'q, qo'ng'iroqlarning guvullagan ovozi hamon suzib yurardi... Fomaning qo'llari titrab ketib, otasining boshini qo'yib yubordi, bosh gup etib yerga tushdi... Uning ochilib qolgan og'zidan chiqqan qopqora qon ko'karib ketgan yonoqlaridan sizib oqib tushdi...

Foma ikki qo'li bilan ko'kragiga musht urib, jasad oldida tiz cho'kib, jon-jahdi bilan o'kirib yubordi... U qo'rqqanidan butun vujudi bilan dag'-dag' titrar va ko'zlarini javdiratib, bog'da hamon allakimni qidirar edi...

IV

Otasining o'limi Fomani dovdiratib qo'ydi va uning ko'nglini ajib bir tuyg'u bilan to'ldirdi. Uning ko'ngliga, hayotning barcha sadolarini mutelik bilan hazm qiluvchi, harakatsiz, og'ir bir sokinlik cho'kdi. Atrofida tanishlari o'ralashib qoldi, kelishar, ketishar, unga allanimalar deyishar, Foma ularga javob qaytarar, biroq ularning so'zlari unda hech qanday tasavvur uyg'otmas, aksincha, ko'nglini qamrab olgan qabriston sukunati tubsiz qa'riga cho'kib, nom-nishonsiz g'oyib bo'lar edi. Foma yig'lamas, qayg'urmas, hech narsani o'ylamas edi ham, qovog'i soliq, rangi oqargan, qoshlari chimirilgan holda, butun tuyg'ularni surib chiqargan, qalbini bo'mbo'sh qilib qo'ygan, iskanja kabi miyasini qisgan mana shu jimjitlikka zo'r diqqat bilan quloq solardi, xolos.

Dafn marosimini Mayakin boshqardi. U etigining poshnalarini taqillatib, shosha-pisha, shaxdam qadam tashlab xonadan xonaga yugurar, xizmatkorlarga sarkorlardek baqirar, Fomaning yelkasiga qoqib, uni yupatar edi:

– Sen, yigitcha, nega anqayib qolding? Otang qarib qolgan edi... Hammamiz ham o'lamiz, o'limdan qochib qutulib bo'lmaydi... Binobarin, bemahal zavolga uchramaslik kerak... Xafa bo'lganing bilan u tirilmaydi, sening qayg'ung unga kerakmas, chunki kitobda: «Qachonkim, Azroil bandaning ruhini tanidan judo etgandan keyin,

ruh o‘zining barcha urug‘-aymog‘lari va tanish-bilishlarini unutadi», deyilgan... Demak, endi sen yig‘lasang ham, kulsang ham, uning uchun baribir... tirik odam tiriklar haqida o‘ylashi kerak... Yaxshisi, sen yig‘la, bu odamga xos odat... yuraging bo‘shaydi...

Biroq bu so‘zlar ham Fomaning na miyasiga va na yuragiga ta’sir etdi.

Foma otasi dafn qilinadigan kuni, otaxoni uning ruhini ko‘tarish uchun zo‘r berib nasihat qilavergandan keyingina o‘ziga keldi.

Dafn kuni havo bulut va qorong‘iroq edi. Ignat Gordeyevning tobuti orqasidan chang bulut orasida xaloyiq tirband bo‘lib borardi, ruhoniylarning ridolari oltinday tovlanar, salobat bilan ohista yurib borayotgan odamlarning shov-shuvi arxierey xonishchilarining tantanali xori bilan qo‘shilishib ketardi. Fomani ham orqasidan, ham yonidan turtkilashardi. U otasining oppoq sochli boshidan bo‘lak hech narsani ko‘rmasdi, mungli kuy ko‘nglida g‘amgin sado berib yangrar edi. Uning yonida borayotgan Mayakin esa, qulog‘iga hadeb tinmay shivirladi:

– Qara, qancha odam yig‘ilgan-a, ming-ming! Otangni so‘nggi yo‘lga kuzatib qo‘yish uchun gubernator o‘zi kelibdi-ya... shahar boshlig‘i... butun duma... orqangda esa, o‘girilib qara! Sofya Pavlovna kelyapti... Butun shahar Ignatni hurmat qilmoqda...

Foma boshda otaxonining shivir-shiviriga quloq solmay bordi, biroq Mayakin Medinskayani tilga olgach, u beixtiyor orqasiga o‘girilib qaradi va gubernatorni ko‘rdi. Yelkasiga lenta, ko‘kragiga ordenlar taqib olgan, tobut orqasidan g‘amgin, bitta-bitta qadam bosib kelayotgan bu mo‘tabar odamni ko‘rgach, Fomaning ko‘ngliga allaqanday yoqimli bir narsa tomganday bo‘ldi.

Yakov Tarasovich, yon-veriga qarab, burnini jiyirib:

– Bugun boradigan yo‘ling rohat-farog‘at yo‘lidir, banda, – deya ohista qiroat qildi. Shundan keyin Fomaning qulog‘iga yana shivirladi: – yetmish besh ming so‘m, chakana pul emas, shu pulga shuncha odamni topsa bo‘ladi... Eshitdingmi, Sonka otangning qirqi kuni poydevor qo‘ydirarmish-a?

Foma yana o‘girilib orqasiga qaradi va ko‘zlari Medinskayaning ko‘zlari bilan to‘qnashdi. Foma uning kulib turgan ko‘zlarini ko‘rib chuqur xo‘rsindi-da, shu on yengil tortdi, go‘yo uning ko‘ngliga

yorug‘ nur tushdi-yu, allanarsa erib ketganday bo‘ldi. Lekin Foma boshini u yoqdan bu yoqqa burib alanglayverish yaxshi emasligini shu zahotiyoq payqadi.

Cherkovda janoza marosimining tantanali og‘ir she’riyatidan qattiq ta’sirlangan Foma: «Kelinglar, so‘nggi marta vidolashinglar», degan hayajonli sadoni eshitgandan so‘ng shunday o‘kirib yig‘lab yubordiki, uning bu motamsaro ovozidan butun xaloyiq harakatga keldi.

U o‘kirdi-yu, birdaniga gandiraklab ketdi. Otaxoni o‘sha zahotiyoq uning qo‘ltig‘idan ushlab qoldi va uni jon-jahdi bilan tobut tomon itararkan, ovozi boricha qiroat qila boshladi:

– «Biz bilan uzoq yashamagan bandani o‘pinglar», – o‘p, Foma, o‘p! – «Tobutga solinadi, tosh bilan bostiriladi... qorong‘iga qo‘yiladi, o‘liklar yoniga ko‘miladi...»

Foma otasining peshanasiga labini tegizdi-yu, dahshat bilan tobutdan tisarilib ketdi.

– Sekinroq! Oz bo‘lmasa yiqitib yuborarding... – dedi Mayakin. Past ovoz bilan aytilgan bu sodda va muloyim so‘zlar Fomaga otaxonining qo‘lidan ham ko‘ra ko‘proq dalda bo‘ldi, madad berdi.

– «Mening nafas olmay, churq etmay yotishimni ko‘rgan og‘ainilarim, do‘stlarim, yig‘langlar...» – derdi Ignat cherkov ahlining tili bilan yolvorib. Lekin o‘g‘li Foma endi yig‘lamasdi. Otasining ko‘pchigan qop-qora yuzi uni dahshatga solar va bu dahshat gunohkor bandasi uchun yig‘layotgan cherkov musiqasining nolasiga g‘arq bo‘lgan ko‘nglini ovutib biroz taskin berdi. Uni tanishlari o‘rab olib, nasihatomuz muloyimgina yupatishdi. Foma ularning so‘zlariga quloq solar, hammasining unga rahmi kelganini va o‘zi ular uchun aziz bo‘lib qolganini tushunardi. Otaxoni esa uning qulog‘iga pichirlardi:

– Ko‘rdingmi, ularning senga yaltoqlanganlarini... Mushuklar yog‘ hidini sezyapti...

Bu so‘zlar Fomaga uncha yoqmasdi, lekin qanday bo‘lmasin, uni o‘zicha, biror xulosa chiqarishga majbur etgani uchun ham foydali edi.

Go‘ristonda, qabringda tinch yot, deb kuylashganda, u tag‘in o‘kirib yig‘lab yubordi. Otaxoni o‘sha ondayoq uni qo‘ltiqlab qabrdan nari olib ketdi-da, yuragi achishib dedi:

– Rosa ko'ngling bo'sh ekan-ku, inim! Yo meni achinmaydi deysanmi? Uning qadrini bitta men bilardim, sen faqat o'g'ilsan. Men yig'lamayapman-ku, axir... Biz u bilan o'ttiz yildan ko'proq bir tan, bir jon bo'lib yashadik... Oramizda ne-ne gaplar o'tgan, ne-ne o'ylar... Ne-ne azob-uqubatlarni birga tortganmiz!.. Sen hali yoshsan, qayg'urib nima qilasan? Hali sen ko'p narsalarni ko'rasan... ko'pgina yor-do'st orttirasan... Qartayib qoldim... Yagona do'stimni ko'mdim-u, o'zim gadoga o'xshab qoldim... Endi men ko'nglim bop o'rtoq topolmayman!

Cholning ovozi ajib bir ohangda dirillab ketdi. Uning yuzi qiyshaydi, lablari cho'zilib titradi, ajinlari burushdi-da, kichkina ko'zlaridan mayda-mayda yosh tomchilari duv to'kildi. U o'zini yo'qotib, shu qadar ayanchli bo'lib ko'rindiki, Foma to'xtab qoldida, kuchli odamlar singari uni avaylab bag'riga bosdi va hayajon bilan dedi:

– Yig'lamang, otaxon... Azizim! Yig'lamang...

– Mana shundoq! – dedi Mayakin zaif ovoz bilan, lekin og'ir xo'rsinib olgach, birdan yana qattiqqo'l va aqlli cholga aylandi.

– Obidiyda qilishingning hojati yo'q... – dedi u izvoshda Foma yoniga o'tirarkan, sirli qilib. – Sen endi jangdagi sarkardasan va o'z soldatlaringga mardlik bilan qo'mondonlik qilishing kerak. Sening soldatlaring – so'mlar, ular senda katta bir armiya... Hushyor bo'lib jang qil!

Mayakinning bu qadar tez o'zgarishiga hayron qolgan Foma, uning so'zlariga quloq solib o'tirarkan, nazarida bu so'zlar xuddi Ignatning qabriga – tobuti ustiga odamlar tashlagan tuproqning gursillashini eslatardi.

– Otang senga Mayakin aqlli chol, unga quloq solish kerak demaganmidi?

– Degan edi...

– Unday bo'lsa quloq sol!.. Agar mening aqlim sening yosh kuchingga qo'shilsa, ajoyib g'alabalar qozonish mumkin... Sening otang buyuk odam edi... Lekin uncha uzoqni ko'rolmasdi va mening so'zlarimga quloq osmasdi... Hayotda aqli bilan emas u ko'pincha yuragi bilan muvaffaqiyat qozondi... Eh, sendan boshqacha bir odam chiqadi... Sen menikiga ko'chib kel, yolg'iz uy vahimali bo'ladi.

– Ammam bor...

– Ammang... kasal-ku... u ham bu dunyoda uzoq yashamasa kerak...

– Bunaqa demang-e, – dedi Foma ohista.

– Men gapiraveraman. O‘limdan qo‘rqishingning hojati yo‘q, sen pech ustida jon saqlaydigan kampirmassan! Sen qo‘rqmasdan dadil yasha, peshanangga nima bitilgan bo‘lsa shuni qil. Inson yerda hayot qurish uchun yaratilgan. Odam – kapital... u chaqa va tiyinlardan tashkil topgan so‘mga o‘xshaydi. Tuproqdan yaratilgan deyilgan... U hayotda o‘ralashib yurib, o‘ziga jir bilan et, ter bilan ko‘z yoshini singdirib oladi-da, shunday qilib, unda aql ham, yurak ham paydo bo‘ladi... Shundan keyin u yuqoriga va pastga qarab o‘sa boshlaydi... bir qarasang uning bahosi besh tiyin bo‘ladi, bir qarasang o‘n besh tiyin, bir qarasang yuz so‘m... goho uning bahosi juda balandlashib ketadi... U muomalaga qo‘yilgan ekanmi, demak, hayot uchun foyda keltirishi kerak. Hayot hammamizning qadrimizni biladi va u bizning yurishimizni vaqtidan oldin to‘xtatib qo‘ymaydi... aqlli odam o‘z zarari uchun ish tutmaydi, inim... Quloq solyapsanmi?

– Quloq solyapman...

– Nimani tushunding?

– Hammasini...

– Balki, yolg‘on aytarsan? – dedi Mayakin shubhalanib.

– Lekin nega o‘lish kerak endi? – deb so‘radi Foma ohista.

Otaxoni afsuslanib, uning betiga qaradi, lablarini chapillatib dedi:

– Aqlli odam hech qachon shunday deb so‘ramaydi. Aqlli odam daryoning qayoqqadir oqishini biladi... agar u to‘xtab qolgudek bo‘lsa, botqoqqa aylanardi...

– Bekorga masxara qilyapsiz... – dedi Foma xo‘mrayib. – Axir dengiz hech qayoqqa oqmaydi-ku...

– U butun daryolarni qabul etadi... Unda kuchli dovullar ham bo‘ladi... Shuningdek, hayot dengizi ham odamlar bilan to‘lqinlanib turadi... O‘lim uning suvini yangilab turadi... Sasib qolmasin uchun... Odamlar o‘lgan sari battar ko‘payadi...

– Bundan nima foyda? Mana, otam o‘ldi...

– Sen ham o‘lasan...

– Shunday ekan odamlarning ko‘paygani bilan nima ishim bor? – deya g‘amgin kulimsiradi Foma.

– Eh-he-he! – xo‘rsindi Mayakin. – Bu bilan hech kimning ishi yo‘q... Balki, shiming ham: dunyoda turli-tuman mato bo‘lgani bilan nima ishim bor, deb mulohaza qilsa kerak. Biroq sen unga quloq solmaysan – eskirgach, tashlab yuborasan...

Foma otaxoniga ta’naomuz qaradi va cholning iljayganini ko‘rib hayron qoldi-da, hurmat bilan so‘radi:

– Nahotki siz, otaxon, o‘limdan qo‘rqmasangiz?

– Men, bolaginam, hamma narsadan ko‘ra ahmoqlikdan qo‘rqaman, – deya muloyim qilib zaharli javob qildi Mayakin, – men shunday deb o‘ylayman: ahmoq senga asal bersa, tupur, dono zahar bersa, ich! Men senga aytsam, agar yorsh baliqning tishi o‘tkir bo‘lmasa, bilki joni ham zaif, inim...

Cholning mazaxomuz so‘zlari Fomani xafa qilib jahlini chiqardi. U yuzini o‘girib dedi:

– Siz mana shunaqa piching otmasdan gapirolmaysiz...

– Gapirolmayman, – dedi Mayakin va uning ko‘zlari bezovtalanib alangalandi. – Har kim o‘z tilida gapiradi. Men qo‘polman! Shundaymi?

Foma indamadi.

– Obbo sen-e... Sen shuni bilib qo‘y, yaxshi ko‘rgan odam nasihat qiladi... O‘limni o‘ylama... tirik odam o‘limni o‘ylashi – nodonlik. Bu haqda «ekkleziast» hammadan ko‘ra ko‘proq o‘ylagan, o‘ylab-o‘ylab, o‘lik yo‘lbarsdan tirik it yaxshiroq, degan...

Uyga qaytib kelishdi. Ularning uyi oldidagi ko‘cha faytonlar bilan to‘lgan, ochiq derazalardan shang‘illashib so‘zlagan ovozlar eshitilib turar edi. Foma zalga kirishi bilanoq, uni qo‘ltiqlab olishdida, biron narsa yeb-ichishi kerakligini uqtirib, tuzog‘liq stol yoniga olib kelishdi. Mehmonxona xuddi bozordagidek olag‘ovur, tiqilinch va dim edi. Foma indamay o‘tirib bir ryumka aroq ichdi, undan keyin ikkinchi, uchinchisini ham... Uning atrofidagilar tamshanib ovqat yeyishar, lablarini chapillatishardi, shishalardan quyilayotgan aroqlar qulqullar, ryumkalar jiringlar edi... Baliq haqida va arxierey xoridagi yakkaxon yigitning ovozi haqida, so‘ngra yana baliq haqida

so‘zlashdi, keyin shahar boshlig‘ining nutq so‘zlamoqchi bo‘lganini, biroq arxiereydan keyin yomonroq so‘zlab qo‘yarman, deb botinolmaganini tilga olishdi. Kimdir, ko‘ngli erib gap boshladi:

– Rahmatli shunday qilardi: bir bo‘lak baliq kesib, unga boplab murch separdi, ikkinchi bo‘lagini ustiga yopardi-da, aroq orqasidan liq etkizib yutib yuborardi.

Boshqa bir do‘rillagan ovoz:

– Biz ham shunday qilaylik! – dedi.

Foma qovog‘ini solib, alamiga chidab, mazali taomlarni kavshayotgan do‘rdoq lablar bilan jag‘larga qarab o‘tirdi uning baqirib yuborgisi va o‘zlarining sipoliklari bilan haligina unda hurmat uyg‘otgan mana shu odamlarning hammasini haydab chiqargisi kelardi.

Mayakin uning yoniga kelib:

– Sen muloyimroq, so‘zamolroq bo‘l... – dedi past ovoz bilan.

– Nega ular bu yerda moldek ovqat yeyishadi? Nima, mayxonaga kelishganmi? – dedi baqirib Foma g‘azab bilan.

– Jim... – dedi Mayakin xavotir olib va shu on muloyimgina jilmayib odamlarga qaradi.

Biroq fursat o‘tgan edi. Uning jilmayishidan hech naf bo‘lmadi. Fomaning so‘zini eshitib qolishdi, mehmonxonadagi shov-shuv pasaydi, mehmonlarning ba’zi birlari negadir shoshib, besaranjom bo‘lishdi, ba’zilari esa, xafa bo‘lib, qovoqlarini solib, vilka bilan pichoqlarni qo‘yishdi-da, stoldan nari ketishdi, ko‘plari Fomaga ko‘z qirini tashlab qo‘yishdi.

Lekin Foma bu qarashlarni g‘azab bilan o‘qrayib, indamay qarshi oldi.

– Stolga marhamat! – deb qichqirdi Mayakin odamlar orasidan go‘yo kul orasidagi cho‘g‘day yiltillab. – Marhamat, o‘tiringlar! Hozir quymoq tortishadi...

Foma kiftlarini uchirib, eshikka tomon yurarkan:

– Men ovqatlanmayman... – dedi baqirib.

Orqasidan odamlar uni yoqtirmay shov-shuv ko‘targanini va otaxonining kimgadir:

– Qayg‘udan, axir Ignat unga ham ota, ham ona edi-da!.. – degan ovozini eshitdi.

Foma bog‘ga chiqib, otasi jon bergan joyga borib o‘tirdi. Yolg‘izlik va hasrat tuyg‘ulari uning bag‘rini ezdi. U yengil nafas olmoq uchun ko‘ylak yoqasini yechib, stolga yonboshladi-da, qo‘llari bilan boshini changallaganicha qotib qoldi. Yomg‘ir maydalab tomchilar, olma daraxtining yaproqlari yomg‘ir zarbidan hazin shovullardi. Foma, stol ustiga olma daraxtidan tomayotgan mayda tomchilarga tikilib, qimir etmay anchagacha o‘tirdi. Ichgan arog‘i miyasini g‘ovlatar, odamlarga bo‘lgan g‘azab yuragini kemirar edi. Allaqanday betayin fikrlar paydo bo‘lib va yana g‘oyib bo‘lar edi. Uning ko‘z o‘ngidan qadimiy butlarning basharasiga o‘xshash otaxonining qoraygan yuzlari va atrofi kumushdek sochlar bilan qurshalgan yalang‘och kallasi lipillab o‘tardi. Mana shu og‘zi kemshik va zaharxanda qilib turgan bashara Fomada adovat hamda vahima uyg‘otib, undagi yolg‘izlik hissini yanada kuchaytirib yubordi. Keyin Medinskayaning muloyim ko‘zlari, xipcha bel, nozik qomati xayoliga keldi, biroq negadir, uning yonida lorsillab turgan, oltin sochlari bilakdek qilib o‘rilgan, uzun bo‘yli, yuzlari qip-qizil Lyubov Mayakina kulib turganday bo‘ldi. Havo mungli ovozlarga to‘lgan... Kulrang osmon go‘yo yig‘lar, muzdek ko‘z yoshlari daraxtlar ustida titrar edi. Fomaning dili siyoh va bo‘m-bo‘sh edi, qalbini yetimlikning dahshatli hissi qamrab olgan... Biroq mana shu hisdan:

– Endi qanday yashayman? – degan savol tug‘ila boshlagan edi.

Yomg‘ir kiyim-boshini ivitdi, sovuqdan qaltiray boshlaganini sezgach, uyga kirib ketdi...

Hayot uning o‘y-xayolini bir nuqtaga jamlashga imkon bermay, har tarafdan tortqilardi. U otasining qirqi kuni, ko‘ngli ko‘tarinki va o‘zi bashang kiyingan holda, musofirxonaning poydevorini qo‘yish marosimiga jo‘nadi. Bundan bir kun ilgari Medinskaya Fomaga xat yozib, qurilish nazorati komitetiga uni a’zo qilib olinganligi va o‘zi rais bo‘lgan jamiyatga esa faxriy a’zo qilib saylanganligi haqida xabar qilgan edi. Bu ish Fomaga juda ma’qul tushdi va bugun poydevor qo‘yilishida bajarishi lozim bo‘lgan roli uni nihoyatda hayajonga soldi. U bu ishning oqibati qandoq bo‘larkin, odamlar oldida uyalib qolmaslik uchun o‘zimni qanday tutishim kerak, deb o‘ylab borardi.

– Hoy! To‘xta!

U o‘girilib qarab, tovonigacha tushgan uzun surtuk, boshiga kartuz kiygan, qo‘lida katta soyabon ushlagan Mayakinning yo‘lkadan unga tomon chopib kelayotganini ko‘rdi.

– Qani, meni ham olib ket-chi! – dedi chol, maymundek chaqqonlik bilan faytonga sapchib chiqarkan. – To‘g‘risini aytsam, seni poylab turgan edim, jo‘naydigan vaqti bo‘lib qoldi-ku, deb o‘ylab turuvdim...

– Siz ham o‘sha yoqqami? – deb so‘radi Foma.

– Bo‘lmasa-chi? Do‘stimning pullarini yerga qanday qilib ko‘mishlarini ko‘rish kerak-da.

Foma unga qiya boqib, indamay qo‘ya qoldi.

– Nega xo‘mrayasan? Yo, sen ham odamlarga ehsonparvar bo‘lmoqchimisan?

– Ya’ni masalan? – deb so‘radi Foma bosiqlik bilan.

– Bugun gazetada o‘qidim, seni musofirxona qurilishi bo‘yicha a’zo va Sofyaning jamiyatiga esa faxriy a’zo qilib saylashibdi... Bu a’zolik cho‘ntagingni qoqib olmasaydi! – dedi Mayakin uf tortib.

– Sinib qolmasman balki?!

– Bunisini men bilmayman... – dedi chol piching qilib. – Men, ko‘proq haligi, «jamiyati xayriya»ning ishi unchalik yaxshi ish emas demoqchiman... Ochig‘ini aytsam, bu ish emas, zararli bir narsa...

– Odamlarga yordam qilish zararlimi? – deb so‘radi Foma qizishib.

– Obbo, qovoqbosh, ya’ni oshqovoq-e! – dedi Mayakin kulimsirab. – Sen biznikiga bir kel, men bu haqda sening ko‘zingni bir ochib qo‘yay... Senga o‘rgatib qo‘yish kerak. Kelasanmi?

– Xo‘p bo‘ladi!

– Shunday qil... Sen hozir poydevor qo‘yilishida o‘zingni sipo tut, hammaning ko‘z o‘ngida bo‘l. Agar shunday demasam, sen birontasining orqasiga bekinib olasan...

– Nega bekinib olarkanman? – dedi Foma xafa bo‘lib.

– Men ham shuni aytyapman-da, hech ham bekinish kerakmas. Negaki, pulni sening otang bergan, meros bo‘yicha hurmat senga bo‘lishi kerak. Hurmat ham pul... Hurmating bo‘lsa – savdogar odamga hamma yerda qarz ham tayyor, yo‘l ham ochiq... Shuning uchun sen oldinda bo‘l, zeroki, seni hamma ko‘rsin, agar besh tiyin

sarf qilsang, bir so'mlik hurmat orttirishing kerak... Agar bekinib olsang, ish chatoq bo'ladi.

Ular yetib kelishganda barcha mo'tabar odamlar allaqachon yig'ilishgan va bir to'da odamlar yog'och, g'isht va tuproq uyumlari atrofida turishar edi. Arxierey, gubernator, shaharning kazo-kazolari hamda ma'muriyat vakillari serhasham kiyingan xonimlar bilan dabdabali katta doira yasab, g'isht bilan ohak tayyorlayotgan ikki g'ishtchining ivirsib ishlayotganini kuzatib turishardi. Mayakin Foma bilan o'shalar tomon borarkan, uning qulog'iga shipshidi:

– Qo'rqma... Bularning usti yaltiroq bo'lgani bilan ichi qaltiroq...

Mayakin arxiereydan ham oldin, zo'r izzat-ikrom ila gubernator bilan so'rashdi.

– Salomatmilar, janob oliylari! Fotiha bering, hazrat!

– E, Yakov Tarasovich! – dedi gubernator do'stona kulib turib, Mayakinning qo'lini qisib siltarkan, chol esa arxiereyning qo'lini o'pardi. – Salomatmisiz, tabarruk qariya?

– Tashakkur sizga, janob oliylari! Sofya Pavlovnaga ojizona salom! – dedi Mayakin bidillab, odamlar orasida pildirab yurarkan. U bir daqiqaning ichida, sud raisi bilan ham, shahar boshlig'i bilan ham, prokuror bilan ham, birinchi bor ko'rishishni lozim topgan barcha odamlar bilan ham salomlashdi, xayriyat, bundaylar uncha ko'p emas. U hazillashar, kular va hammaning e'tiborini darrov o'ziga jalb qilar edi. Foma esa uning orqasida boshini egib, zar tikilgan qimmatbaho kiyimlarga burkangan odamlarga yer ostidan qarab turdi, cholning dadilligiga rashki keldi, iymandi, iymanganini sezib beshbattar bo'shashdi. Shu choq otaxoni uning qo'lidan ushlab o'ziga tomon tortdi.

– Mana, janob oliylari, mening tutingan o'g'lim Foma, rahmatli Ignatning yolg'iz farzandi.

– E!.. – dedi gubernator do'rillab. – Juda soz... Musibatingizga qo'shilaman, yigitcha! – dedi u Fomaning qo'lini qisib va yana jim bo'lib qoldi-da, – otadan ayrilish... juda katta baxtsizlik! – deb qo'shib qo'ydi.

Shundan so‘ng u ikki soniyacha Fomaning javobini kutib turdi-da, keyin undan o‘girilib, Mayakinni maqtab so‘zlay boshladi:

– Kecha dumada so‘zlagan nutqingizdan juda mamnun bo‘ldim! Ajoyib, oqilona nutq, Yakov Tarasovich... ular xalqning chin ehtiyojini tushunmaydilar...

– Bundan tashqari, janob oliylari, sarmoya ham kam – shunday ekan, shahar o‘z pulini qo‘shishi lozim-da...

– Mutlaqo to‘g‘ri! Mutlaqo to‘g‘ri!

– Hushyor bo‘lishlik, menimcha, yaxshi gap! Xudo hammaga nasib etsin shuni! Men o‘zim ichmayman... biroq o‘sha qiroatxona nega kerak? Axir, xalq, hatto o‘qishni ham bilmaydi-ku?

Gubernator ma’qullab «him» deb qo‘ydi.

– Shunaqa, men ularga pulni texnika uchun saqlanglar, dedim. Agar ish kichikroq miqyosda boshlansa, shu pulning o‘zi ham yetadi, yetmasa, Peterburgdan ham so‘rash mumkin – berishadi! O‘shanda shahar pul qo‘shmasa ham bo‘ladi, ish ham joyida bo‘ladi.

– Shundoq! Lekin sizga liberallar rosa dag‘dag‘a qilishdimi, a?

– Ularning qo‘lidan keladigani shu.

Sobor cherkovi protodiakonining tomoq qirib yo‘talishi ibodat boshlanishidan darak berdi.

Fomaning yoniga Sofya Pavlovna kelib salomlashdi-da, unga mungli ovoz bilan ohistagina dedi:

– Dafn kuni sizning yuzingizga qarab yuragim ezilib ketdi... «Yo rabbiy, naqadar azobga qo‘yding uni!» deb o‘yladim.

Foma esa uning so‘zlarini go‘yo sharbat ichayotganday rohatlanib tinglar edi.

– Biram o‘kirdingizki, yuragim larzaga keldi... bechora, sho‘rlik bolaginam!.. Men sizga shunday desam bo‘ladi, negaki, men endi qarib qoldim.

– Siz-a! – dedi ohista Foma.

– Nainki shunday bo‘lmasa, a? – deb so‘radi Fomaning yuziga sodda mug‘ambirlik bilan qarab.

Foma boshini egib, indamadi.

– Qarib qolganimga hali ishonmaysizmi?

– Men sizga ishonaman... Lekin bu gapingiz to‘g‘ri emas! – dedi Foma past ovoz bilan yuragidan chiqarib.

– Nima, to‘g‘ri emas? Menga ishonishingizmi?

– Yo‘q! Bu emas... haligi... nima... meni kechiring! Gapirishga chechan emasman! – dedi Foma uyalganidan qizarib. – O‘qimaganman...

– Buning uchun xijolat tortish kerakmas, – dedi Medinskaya unga homiylik qilib. – Siz hali yoshsiz. O‘qish uchun hammaga yo‘l ochiq... Lekin shunday odamlar borki, ularga o‘qish kerakmasligi u yoqda tursin, o‘qish hatto ularni buzib qo‘yishi mumkin... Bu odamlarning yuragi toza... sodda, xuddi bolalardek samimiy... Siz ham shu odamlarga o‘xshaysiz... Shunday emasmi, a?

Bu savolga Foma nima deb javob berishi mumkin edi?! U chin ko‘ngildan:

– Katta rahmat sizga! – deb qo‘ydi.

Uning so‘zlari Medinskayaning ko‘zlarida quvnoq jilva paydo qilganini ko‘rib, Foma o‘zining ayanch va ahmoqona ahvolda qolganini sezdi-da, shu ondayoq o‘zidan ranjib, bosiq ovoz bilan gap boshladi:

– Ha, men shunaqa, dilimdagi – tilimda... Qalloblik qilolmayman... Kulgim kelsa, baralla kulaman... tentakman!..

– Qo‘ying, nega bunday deysiz? – dedi o‘pkalagan bo‘lib xotin, so‘ngra ko‘ylagini tuzatayotib, Fomaning shlapa ushlab turgan qo‘lini beixtiyor silab qo‘ydi, bu esa Fomani o‘z panjalariga qarashga va xijolat aralash suyunib jilmayishga majbur etdi.

– Siz, albatta, ziyofatda bo‘larsiz? – deb so‘radi Medinskaya.

– Ha...

– Ertaga menikida bo‘ladigan majlisda-chi?

– Albatta!

– Balki vaqti kelib... o‘zingiz shunday... menikida mehmon bo‘larsiz, xo‘pmi?

– Men... rahmat sizga! Boraman!..

– Va’dangiz uchun men sizga rahmat aytishim kerak.

Ular jim bo‘lib qolishdi. Havoda, poydevor qo‘yilayotgan tomonga qo‘llarini cho‘zib, ixlos bilan burro qilib duo o‘qiyotgan arxiyereyning muloyim ovozi suzib yurardi.

«...Unga shamol ham, suv ham, boshqa narsalar ham zarar yetkazmasin xudoyo, buni tezroq bitkazgin-u, u yerda turishni istaganlarni tamomiy fisqi-fujurdin xalos et...»

– Bizning duolarimiz biram ma'noli, biram go'zalki... shunday emasmi? – deb so'radi Medinskaya.

– Shunday... – dedi Foma qisqa qilib, uning so'zlariga tushunmay, yana qizara boshlaganini payqab.

Fomadan sal narida, shahar boshlig'ining yonida turgan Mayakin:

– Ular, biz savdogarlarning manfaatlariga doim qarshidirlar, – dedi ishonch bilan qattiq pichirlab. – Ularga nima? Ular bir narsa bilan gazetada maqtalib chiqishsa, shunga xursand, biroq ishning tub ma'nosiga aqllari yetmaydi... Ular hayot qurish uchun emas, o'zlarini namoyish qilish uchun yashaydilar... Ularning topgan mezoni gazeta-yu, Shvetsiya! Kecha doktor kuni bo'yi meni Shvetsiya bilan ensamni qotirdi: «Shvetsiyada xalq maorifi... va boshqa shunga o'xshash narsalar... a'lo darajada!» deydi. Biroq Shvetsiya o'zi nima? Ehtimol, u – Shvetsiya bir uydirmadir... misol uchun tilga olinar... unda, balki, hech qanaqa maorif va shunga o'xshash boshqa narsalar ham bo'lmasa kerak. Biz Shvetsiyani faqat gugurt-u qo'lqop tufayli bilamiz... Undan keyin, axir, biz uning uchun yashamaymiz va u bizni imtihon ham qilmaydi... biz o'z hayotimizni o'z qolipimizga moslab qurishimiz lozim. Shundaymi?

Protodyakon esa boshini orqaga tashlab g'o'ldirar edi:

– Bu binoga asos soluvchini xudo rahmat qilsin! Foma seskanib ketdi, biroq Mayakin allaqachon uning yoniga yetib keldi-da, yengidan tortib:

– Ziyofatga borasanmi? – deb so'radi.

Medinskayaning baxmaldek muloyim, iliq qo'li yana Fomaning qo'lini silab qo'ydi.

Foma uchun bu ziyofat bir azob bo'ldi. Umrida birinchi marta mana shunday bashang odamlar orasiga kirib qolgan Foma, ularning ovqat yeyishlari ham, gaplashishlari ham, butun qiliqlari boshqacha – unikidan yaxshiroq ekanini ko'rdi, ro'parasida o'tirgan Medinskaya bilan uning o'rtasini stol emas, go'yo bir tog' ajratib turganini sezdi. Fomaning yonida o'zi faxriy a'zo bo'lib saylangan jamiyatning kotibi – Uxtishev degan g'alati familiyali yoshgina bir sud chinovnigi o'tirardi. U o'zining familiyasini go'yo bundan ham bema'ni qilib ko'rsatishga intilgandek, chiyillagan ingichka ovoz bilan gapirar

va o‘zi semiz, pakana, yalpoq yuz, sho‘x, so‘zamol bo‘lgani uchun xuddi yangi qo‘ng‘iroqqa o‘xshar edi.

– Bizning jamiyatimizning guli – patronessa, u yerda bizning ixlos bilan qiladigan ishimiz – patronessaning ko‘nglini ovlash, eng mushkuli – patronessaning ko‘ngliga yoqadigan biron luqma tashlash, eng oqilonasi esa, undan hech narsa umid qilmay, jimgina unga mahliyo bo‘lishdir. Shunday qilib, rostini aytsam, siz «jamiyati xayriya» a’zosi emas, balki Sofya Medinskaya huzuridagi Tantallar[1] jamiyatining a’zosisiz.

Foma uning vaysashiga quloq solarkan, politsmeyster yonida allanimalar haqida tashvishlangansimon gaplashib o‘tirgan patronessaga tez-tez qarab qo‘yar, go‘yo ovqat bilan ovora bo‘lgandek, suhbatdoshiga po‘ng‘illab javob berar va bularning hammasi tezroq tugashini istar edi. U hammaning oldida o‘zini ojiz, anqov va kulgili his etar, nazarida hammaning ko‘zi unda bo‘lib, uni aybsitayotganday tuyulardi.

Mayakin esa shahar boshlig‘ining yonida o‘tirib, vilkasini havoda o‘ynatib, ajinlarini burushtirib, unga hamon allanimalarni gapirardi. Oq soch, qizil yuz, bo‘yni kalta shahar boshlig‘i unga xuddi ho‘kizdek tikilib, diqqat bilan tinglab o‘tirardi va goho uning so‘zlarini ma’qullab, bosh barmog‘i bilan stol chetini chertib qo‘yardi. Qizg‘in gap-so‘z va kulgi tovushlari orasida Foma otaxonining jon kuydirib gapirayotgan so‘zlarini eshitolmadi, bundan tashqari, uning qulog‘i ostida kotibning ingichka ovozi tinmay chiyillardi:

– Qarang, ana protodyakon o‘rnidan turdi, o‘pkasini havoga to‘ldirib, hozir Ignat Matveyevichning ruhiga duo qila boshlaydi...

– Men ketsam bo‘larmikan? – deb so‘radi Foma astagina.

– Nega bo‘lmasin? Buni hamma tushunadi.

Dyakonning gumburlagan ovozi zaldagi shov-shuvni bosib, ezib tashlaganday bo‘ldi. Shaharning mashhur savdogarlari katta ochilgan va do‘rillagan ovoz chiqayotgan og‘izga zo‘r ixlos bilan tikilib qolishdi. Foma shu fursatdan foydalanib, stoldan turdi-da, zaldan chiqib ketdi.

---

[1] Qadimiy Yunon mifologiyasida Zevs tomonidan umrbod azobga mahkum etilgan Lidiya podshohi. Bu yerda «Azoblanuvchilar» ma’nosida ishlatilgan.

U bir daqiqadan keyin, erkin nafas olib, o'z faytonida o'tirarkan, mening bu janoblar orasida bo'lishim nomunosib, deb ko'ngliga tugib qo'ydi. O'zicha ularni suvyuqmaslar, deb atadi, ularning hashamlari, yuzlari, kulishlari, hamma narsa to'g'risida bemalol so'zlay olishlari, chiroyli kiyimlari – bularning hammasi ularga nisbatan unda hasad aralash hurmat hissini uyg'otdi. Shu odamlardek ravon hamda ko'p so'zlay olmasligi o'ziga alam qilib, xafa bo'ldi va Lyuba Mayakinaning shu tufayli uni bir necha bor mazax qilgani esiga tushdi.

Foma Mayakinning qizini yoqtirmasdi, ammo otaxoni uni o'z qizi Lyubaga uylantirish niyatida ekanini dadasidan eshitgandan keyin, yosh Gordeyev hatto qiz bilan uchrashmay qochib ham yurdi. Lekin otasining vafotidan keyin u Mayakinlarnikiga deyarli har kuni borib turadigan bo'ldi, bir kuni Lyuba unga:

– Senga bunday qarasam, bilasanmi nima? Sen hech ham savdogarga o'xshamaysan... – dedi.

– Sen ham savdogar boyvuchchaga uncha o'xshamaysan... – dedi Foma, unga shubha bilan nazar tashlarkan.

Foma bu so'z bilan Lyuba uni kamsitmoqchi bo'ldimi yoki shunchaki aytdi-qo'ydimi, buni anglay olmadi.

– Xudoga shukur! – deb javob qildi qiz va unga nihoyatda muloyim jilmayib qo'ydi.

– Nega xursand bo'lasan? – deb so'radi Foma.

– Otalarimizga o'xshamaganimiz uchun.

Foma unga ajabsinib qaradi-da, indamadi.

– Rostini ayt, – dedi qiz shivirlab, – sen mening otamni yaxshi ko'rmaysan-a? U senga yoqmaydimi, a?

– Unchalikmas... – dedi Foma dudmollanib.

– Lekin men juda yomon ko'raman.

– Nima uchun.

– Hamma narsasi uchun... Aqling kirsa, o'zing ham tushunib qolasan... Sening otang yaxshiroq edi.

– Bo'lmasam-chi! – dedi Foma g'ururlanib.

Mana shu suhbatdan keyin, o'sha tobdayoq ular o'rtasida bir-biriga mayl paydo bo'ldi va bu mayl kundan kun kuchayib, garchi, g'alatiroq bo'lsa-da, ko'p o'tmay do'stlik tusiga kirdi.

Lyuba Foma bilan tutingan va tengqur bo'lsa ham, lekin unga opasidek muomala qilardi. Lyuba u bilan o'zini katta olib so'zlashar, ko'pincha uni mazax qilib kular, goho uning gapida Fomaga notanish bo'lgan so'zlar uchrab qolardi, bu so'zlarni u zavq bilan jo'rttaga gapirar edi. Lyuba umrida o'zi hech qachon ko'rmagan akasi Taras haqida gapirishni, ayniqsa, yaxshi ko'rardi, uning to'g'risida shunday hikoya qilardiki, Fomaning nazarida Taras, Anfisa ammasi aytgan qo'rqmas va mard qaroqchilarga o'xshab ketardi. Lyuba goho otasidan zorlanib, Fomaga:

– Sen ham xuddi shunaqa Kashshey[1] bo'lasan, – derdi. Bu gaplar yigitchaga yoqmas va uning nihoyatda nafsoniyatiga tegar edi. Lekin Lyuba goho ochiq va sodda, xususan, unga do'stona munosabatda bo'lardi, mana shunday kezlarda Foma qiz oldida o'z yuragini ochib tashlar va ikkalasi ham anchagacha bir-birlari bilan dardlashar edi.

Ikkalasi ham samimiyat bilan uzoq suhbatlashardi, biroq Lyubaning so'zlaganlari Fomaga yotday va Lyubaning o'ziga ham keraksizday tuyulardi. Shu bilan birga, pala-partish gaplari Lyubani mutlaqo qiziqtirmaganini, qiz uning so'zlariga tushunolmasligini aniq payqardi yigit. Ular nechog'liq uzoq suhbat qilishmasin, bu suhbatlar ularda bir-biriga nisbatan norozilik hissi tug'dirardi, xolos. Go'yo orada birdan anglashilmovchilik devori paydo bo'lardi-yu, ularni bir-biridan ayirib qo'yardi. Ular na bu devorga qo'l tekkizishga jur'at etishar, na oradagi devorni sezayotganini bir-biriga aytishga botinishardi. Lekin qanday bo'lmasin, ularni yaqinlashtira oladigan va birlashtira oladigan allaqanday bir narsa o'zlarida mavjudligini sal-pal tushunishar va shuning uchun ham suhbatni davom ettirishaverardi.

Foma otaxoninikiga kelganida Lyuba uyda yolg'iz edi. U Fomani qarshilagani chiqdi, aftidan, yo kasal yoki xafa ekanligi ko'rinib turardi. Ko'zlari javdirab chaqnar, ko'z atrofida qoraygan dog'lar paydo bo'lgan edi. Qiz junjikib tivit ro'moliga o'ranarkan, jilmayib turib dedi:

– Kelganing soz bo'ldi! Yolg'iz o'tiruvdim... zerikib. Hech yoqqa borgim kelmaydi... Choy ichasanmi?

---

[1] Rus xalq ertaklarida juda ko'p xazinaga ega bo'lgan va o'lmaydigan bir odam.

– Ichaman... Senga nima bo'ldi o'zi, yo tobing yo'qmi?

– Sen yemakxonaga kirib tur, men aytay, samovar olib kirishsin, – dedi Lyuba uning savoliga javob bermay.

Foma ikki derazasi bog'chaga qaragan kichkinagina bir xonaga kirdi. Xona o'rtasida stol, uning atrofida charm qoplangan qadimiy stullar, ikki deraza oralig'iga, eshigi oynavand, uzun qutiga solingan soat osilgan, burchakda esa kumush idishlar terilgan edi.

– Sen ziyofatdan kelyapsanmi? – deb so'radi Lyuba kira solib.

Foma indamay bosh silkib qo'ydi.

– Qalay, juda dabdabali bo'lgandir?

– Chatoq! – deb jilmayib qo'ydi Foma. – Men igna ustida o'tirganday bo'ldim. Hammasi xuddi tovusga o'xshaydi, men esam boyo'g'liga...

Lyuba idishlarni stolga qo'yarkan, indamay qo'ya qoldi.

– Sen chindan ham xafamisan deyman? – deb so'radi Foma, yana uning ma'yus yuziga qarab.

Qiz unga o'girilib, ham quvonib, ham qayg'urib dedi:

– Eh, Foma, biram ajoyib kitob o'qidimki! Agar sen uni tushunsang edi!

– Seni shu holga solgan bo'lsa, yaxshi kitobga o'xshaydi... – dedi Foma kulimsirab.

– Uxlamadim... tuni bilan o'qib chiqdim... O'zing o'yla: o'qigan saring, go'yo ro'parangda allaqanday ikkinchi bir dunyoning eshigi ochilganday bo'ladi... Odamlar ham, gaplar ham va... barchasi boshqacha! Butun hayot...

– Men bunaqasini yaxshi ko'rmayman... – dedi Foma norozi ohangda. – Uydirma, yolg'on. Axir teatrda ham... savdogarlarni mazax qilishadi-ku... axir, ular chindan ham shunaqa ahmoqmi? Bo'lmagan gap! Masalan, otaxonimni ol...

– Teatr ham bir maktab, Foma, – dedi Lyuba. – Shunaqa savdogarlar bo'lgan... Kitobda qanday yolg'on bo'lsin?

– Ertaklardagi singari... Hammasi ham yolg'on...

– Yanglishasan! Axir sen kitob o'qiganmassan, qanday qilib bunday deysan? Aslida, chin narsa mana shu kitoblar. Kitob yashashga o'rgatadi.

– Be! – deb qo'l siltadi Foma. – Qo'ysang-chi... Sening kitoblaringdan hech qanaqa foyda yo'q!.. Ana, otang kitob ham o'qimaydi, lekin juda abjir! Bugun men uni ko'rib juda havasim keldi. U hamma bilan shu qadar bemalol, ustalik bilan muomala qiladiki, har kimning o'ziga yarasha so'z topadi... Ko'rinib turibdiki, istagan narsasini qila oladi.

– Qo'lidan nimayam kelardi! – dedi Lyuba. – Pul topish, xolos... Ammo dunyodagi barcha kishilarga baxt tilaydigan odamlar ham bor... Shuning uchun ular o'zlarini ayamasdan ishlaydilar, azob chekadilar, halok bo'ladilar! Axir otamni shular bilan tenglashtirib bo'ladimi!

– Tenglashtirma!.. Demak, ularga boshqa narsa-yu, otaxonimga boshqa narsa yoqadi...

– Ularga hech narsa yoqmaydi.

– Bu qanaqasi?

– Ular hamma narsani o'zgartirishni istaydilar.

– Axir, ular ham biron narsaning payida harakat qilishsa kerakda? – dedi Foma e'tiroz bildirib. – Biron narsani istaydimi, axir?

– Hammaning baxtli bo'lishini istashadi, – dedi Lyuba qizishibroq.

– Be, bunga aqlim yetmaydi... – dedi Foma boshini chayqab. – Kim ekan, o'sha mening baxtim to'g'risida qayg'uradigan? Bundan tashqari, menga nima kerakligini o'zim bilmay turib, ular meni qanday qilib baxtli qilishsin? Yo'q, sen yaxshisi, ularni – ziyofatga yig'ilgan odamlarni bir ko'rsang bo'lardi...

– Ular odam emas! – dedi Lyuba qat'iy qilib.

– Seningcha ular kim, men buni bilmayman, lekin ular o'z mavqelarini yaxshi bilishadi, buni bir qarashdayoq payqash mumkin! Epchil odamlar... bezbet odamlar...

– Eh, Foma! – deya xitob qildi Lyuba xafa bo'lib. – Sen hech narsani tushunmaysan! Senga hech narsa ta'sir qilmaydi. Allanechuk dangasasan...

– Ana xolos! Men hali hech narsani ko'rishga ulgurganim yo'q...

– Sen qup-quruqsan, xolos, – dedi Lyuba qat'iy va keskin qilib.

– Sen hali mening ichimdagini bilmaysan... – deb bemalol e'tiroz bildirdi Foma. – Mening o'ylarimni bilmaysan.

– Sen nimani o‘ylarding? – dedi Lyuba yelkasini uchirib.

– E-ha! Men yolg‘izmi? Bu bir... Yashashim kerakmi? Bu ikki. Hozirgi qiyofam bilan men mutlaqo yashay olmayman, buni tushunmaydi deysanmi meni? Men odamlarga masxara bo‘lishni istamayman... Men hatto odamlar bilan gaplashishni ham bilmayman... Hatto o‘ylashni ham bilmayman... – deya Foma so‘zini tugatdi-da, uyalinqirab iljayib qo‘ydi.

– O‘qish kerak, o‘rganish kerak, – dedi Lyuba maslahatomuz, xonada u yoqdan bu yoqqa yurarkan.

– Dilimda allanima g‘imirlaydi, – dedi Foma, so‘zini davom ettirib, Lyubaga qaramay, go‘yo o‘ziga o‘zi gapirganday, – lekin uning nimaligini o‘zim ham tushunolmayman. O‘ylab qarasam, otaxonimning aytganlari o‘rinli... Dono gaplar... Biroq meni qiziqtirmaydi... Mening uchun o‘sha odamlar qiziqroq.

– O‘sha aristokratlar-a? – deb so‘radi Lyuba.

– Ha...

– Sening ham o‘rning o‘shalar orasida! – dedi Lyuba nafrat bilan iljayib. – Eh, sen! Ular odammi? Axir ularda qalb bormi?

– Sen ularni qayerdan bilasan? Axir sen ularni tanimaysan-ku...

– Kitoblar-chi?

Oqsoch xotin samovar olib kirdi, ularning so‘zlari bo‘linib qoldi. Lyuba jimgina choy damladi, Foma unga qararkan, Medinskayani o‘yladi. Ha, o‘sha xotin bilan gaplashish kerak!

– Shunday! – dedi qiz o‘ylanibroq, – yashash qiyin ekaniga men kun sayin ko‘proq ishonmoqdaman... Men nima qilsam ekan? Kuyovga chiqsammikin? Kimga? Umri bo‘yi odamlarni talaydigan aroqxo‘r, qartaboz savdogarvachchagami? Istamayman! Men inson bo‘lishni istayman... Men insonman, negaki, hayotning naqadar yomon tuzilganini endi bilaman... O‘qisammi? Otam qo‘yarmidi... qochib ketsammi? Yuragim dov bermaydi... Nima qilsam ekan?

U qo‘llarini qisarkan, stol ustiga engashdi.

– Hammasi naqadar jirkanch ekanini agar sen bilsang edi... Atrofda bironta ham tirik jon yo‘q. Onamning vafotidan keyin otam hammani quvib yubordi. Ba’zilari o‘qishga ketishdi... Lipa ketib qoldi. U: «Kitob o‘qi!» deb yozadi. Ah, men o‘qiyapman! – dedi u noumid bir ovoz bilan va bir muddat jim turdi-da, yana g‘amgin

ohangda davom ettirdi. – Kitoblarda yurakka malham bo‘ladigan narsalar yo‘q... Undan tashqari, kitobdagi ko‘p narsalarga tushunmayman... Nihoyat, siqilaman... doim yolg‘iz kitob o‘qish jonga tegdi! Men odam bilan suhbatlashishni istayman, biroq odam yo‘q! Yuragim siqiladi... dunyoga bir marta kelasan kishi, davr surish vaqti axir... Lekin hamon odam yo‘q... yo‘q! Nima uchun yashash kerak? Men xuddi turmada yashayotgandekman!

Foma o‘z barmoqlarini diqqat bilan ko‘zdan kechirarkan, uning so‘zlariga quloq solib o‘tirdi, bu so‘zlarda hasrat ko‘pligini sezdiyu, biroq ma’nosini tushunolmadi. Qiz qayg‘urgan va yuragi ezilgan holda so‘zini tamomlab, jim bo‘lib qoldi, Foma unga ta’naomuz bir-ikki og‘iz so‘zdan boshqa hech narsa topib aytolmadi.

– Mana, o‘zing-ku, kitoblar hech narsaga arzimaydi deyapsan, lekin menga esa, o‘qi deysan...

Qiz uning yuziga qaradi, ko‘zlarida g‘azab chaqnab ketdi.

– Oh, men tortayotgan mana shu azoblar senda ham uyg‘onishini istardim. Qani endi sen ham menga o‘xshab, kechalari o‘y o‘ylab uxlolmay chiqsang, qani endi hammasi joningga tegsa... o‘zing ham o‘zingdan bezor bo‘lsang edi! Men hammangizni ko‘rarga ko‘zim yo‘q... Nafratlanaman!

Lyuba qip-qizarib, unga shu qadar g‘azab bilan tikilib, biram achitib so‘zladiki, hayron qolgan Foma hatto undan xafa ham bo‘lmadi. Qiz hech qachon u bilan shunday gaplashmagan edi.

– Senga nima bo‘ldi? – deb so‘radi u qizdan.

– Seni ham ko‘rgani ko‘zim yo‘q! Sen... sen nimasan? Jonsiz qup-quruq soyasan... Qandoq qilib yashaysan? Sen odamlarga nima ham bera olarding? – dedi Lyuba ovozini pastlatib, zaharxandalik bilan.

– Hech narsa bermayman, o‘zlari topishsin... – deya javob berdi Foma, bunday javobdan qizning beshbattar jahli chiqishini bila turib.

Qizning pichinglari shu qadar zo‘r ediki, Fomani beixtiyor bu achchiq so‘zlarni diqqat bilan tinglashga majbur etdi. Foma bu so‘zlarda ma’no borligini payqadi. U hatto qizga yaqinroq siljib o‘tirdi, biroq g‘azablangan va jahli chiqqan qiz undan yuzini o‘girdida, churq etmadi.

Hali ko'cha yorug', deraza oldidagi arg'uvon daraxtining shoxlarida esa botayotgan quyoshning shu'lasi tovlanar, lekin xona ichini allaqachon g'ira-shira qorong'ilik bosgan edi. Devor soatining katta kapgiri soniya sayin oyna orqasidan mo'ralab, xiragina yiltillarkan, horg'in va bo'g'iq ovoz bilan goh o'ngga, goh chapga bekinar edi. Lyuba o'rnidan turib, stol ustidagi osig'liq chiroqni yoqdi. Qizning yuzi bo'zargan va nihoyatda g'azabnok edi.

– Menga rosa yopishding, – dedi Foma bosiqlik bilan, – nima uchun? Tushunolmayman...

– Sen bilan gaplashishni istamayman! – deya zarda qilib javob berdi Lyuba.

– Ixtiyoring... Lekin har nechuk... Men nima gunoh qildim?

– Bilsang, juda xunobman! Siqilaman... Axir shu ham hayot bo'ldimi? Shunday yashab bo'ladimi? Men kimman? Otam qaramog'idaman... Meni ro'zg'or ishi uchun asrashadi... Keyin kuyovga berishadi! Yana ro'zg'or...

– Buning uchun menda nima ayb? – deb so'radi Foma.

– Sen ham boshqalardan qolishmaysan...

– Sening oldingda shuning uchun aybdormanmi?

– Sen yaxshiroq bo'lishni istashing kerak.

– Men nima, yaxshi bo'lishni istamaymanmi?! – deya xitob qildi Foma.

Lyuba unga bir narsa demoqchi bo'lgandi, to'satdan allaqayerda qo'ng'iroq jiringlab qoldi, qiz o'zini o'tirgan stulining suyanchig'iga tashlarkan, ohistagina:

– Otam... – deb qo'ydi.

– Biroz kechroq qaytsa ham xafa bo'lmas edik, – dedi Foma – So'zlaringni yana tinglagim bor edi... qiziq gaplar...

– A! Bolalarim, qo'zichoqlarim! – deya qichqirdi Yakov Tarasovich eshik oldida paydo bo'lib. – Choy ichyapsizlarmi? Qani, menga ham quy-chi, Lyubava!

U muloyim jilmayib, qo'llarini ishqab, Fomaning yoniga o'tirdi, hazil qilib uning biqiniga turtarkan, so'radi:

– Ko'proq nima to'g'risida gaplashdinglar?

– Shunchaki arzimas narsalar to'g'risida, – deb javob berdi Lyuba.

– Men sendan so‘rayapmanmi? – dedi otasi unga yuzini burushtirib. – Sen jim o‘tir, uy ishingdan qolma...

– Men ziyofat to‘g‘risida so‘zlab berayotgan edim, – deb Foma otaxonining so‘zini bo‘ldi.

– Aha! Shundoq degin... Xo‘p, bo‘lmasa, men ham shu ziyofat to‘g‘risida gapira qolay... Men hali senga razm solib o‘tirgan edim... Sen o‘zingni bema’ni tutib o‘tirding...

– Ya’ni, masalan? – deb so‘radi Foma norozi bo‘lib, qoshlarini chimirib.

– Ya’ni, o‘zingni bema’ni tutasan, bu yaxshi emas. Masalan, sen bilan gubernator so‘zlashyapti-yu, sen bo‘lsang indamaysan...

– Men unga nima ham deyman? U menga otadan ayrilish – baxtsizlik, deydi... axir men buni usiz ham bilaman-ku!.. Unga nima desam bo‘lardi?

– «Bu baxtsizlik menga parvardigor tomonidan yuborilgan, janob, shuning uchun zorlanmayman...» deyishing kerak edi yo bo‘lmasa shunga o‘xshagan boshqa biron gap qilsang bo‘lardi... Gubernatorlar, men senga aytsam, inim, yuvosh kishilarni yaxshi ko‘rishadi.

– Nima qilay, men unga qo‘ydek qaraymi? – deya kulimsiradi Foma.

– Sen xuddi qo‘ydek qarading, bunday qilish yaxshi emas... Qo‘y ham, bo‘ri ham bo‘lish kerakmas, uning oldida: «Siz bizning otamizsiz, biz sizning bolalaringizmiz...» deb yaltoqlansang, u darhol erib ketadi.

– Buning nima keragi bor?

– Har ehtimol uchun... u – gubernator, biron narsaga asqatib qoladi, inim!

– Siz unga nima o‘rgatyapsiz, otajon! – dedi Lyuba achchig‘lanib asta.

– Xo‘sh, nima?

– Laganbardorlik qilishni...

– Yolg‘on aytasan, o‘qimishli ahmoq! Siyosatni o‘rgatyapman, laganbardorlikni emas, hayot siyosatini... Menga qara, chiqib ket bu yerdan! Yaxshilikcha jo‘na... bor, bizga gazak tayyorla, xudo xayringni bergur!

Lyuba darhol o‘rnidan turdi-da, qo‘lidagi sochiqni stul suyanchig‘iga tashlab chiqib ketdi... Otasi ko‘zlarini qisib, uning orqasidan qarab qoldi va stolni chertib gap boshladi:

– Men senga, Foma, ta’lim beraman. Senga eng yaxshi, haqiqiy falsafa ilmini o‘qitaman... agar sen yaxshilab tushunib olsang, yanglishmay hayot kechirasan.

Foma cholning peshanasidagi ajinlarning qimirlashiga qarab qo‘ydi va ular slavyan harflari bilan yozilgan satrlarga o‘xshab ko‘rindi.

– Avvalo, Foma, agar sen bu dunyoda yashaydigan bo‘lsang, atrofingda bo‘lib turgan barcha narsalar to‘g‘risida o‘ylashga majbursan. Nega? Negaki, tushunmasliging orqasidan zarar ko‘rmaslik va ahmoqliging tufayli odamlarga ziyon yetkazmaslik uchun. Men senga aytsam, Foma, odam qiladigan har bir ishning yuzi ikkita bo‘ladi. Biri hammaning ko‘z o‘ngida – bunisi soxta yuz, ikkinchisi maxfiy yuz – mana shunisi haqiqiy yuzdir. Ishning ma’nosiga yetmoq uchun mana shu ikkinchi yuzni topa bilish kerak... Mana, misol uchun musofirxonalar, mehnatsevarlar uylari, g‘aribxonalar va shunga o‘xshash boshqa muassasalarni ol. O‘ylab ko‘r, bular nimaga kerak?

– Nimasini o‘ylayman? – dedi Foma diqqat bo‘lib. – Nimaga kerakligi hammaga ma’lum... Bechoralar, nogironlar uchun.

– Obbo, inim-e! Birovning muttaham va ablah ekani goho hammaga ma’lum bo‘lsa ham, lekin hamma uni Ivan yoki Pyotr deb chaqiradi va onasining nomi bilan emas, otasining nomi bilan hurmatlaydi...

– Bu bilan nima demoqchisiz?

– Bularning hammasi ishga daxldor... Sen o‘sha uylarni bechoralar, gadolar uchun deyapsan, demak, Iso vasiyatlarini ado etish uchun kerak ekan-da... Xo‘p! Xo‘sh, gado o‘zi kim? Gado? Isoni yodlab turishimiz uchun bizga taqdiri azal tomonidan yuborilgan banda, u Isoning inisi, u xudoning qo‘ng‘irog‘i va u bizning vijdonimizni uyg‘otish, to‘q bandaning halovatini bezovta qilish uchun hayotda jiringlab turadi... U deraza yoniga kelib «Iso yo‘liga xayr qilinglar!» deb kuylaydi va bu bilan u Isoni hamda uning odamlarga xayr-ehson qilinglar, degan muqaddas vasiyatini esimizga tushirib turadi... Biroq odamlar o‘z turmushlarini shunday qurganki, ular Iso

vasiyati bo‘yicha ish tutishlari mumkin emas, shuning uchun ham Iso biz uchun butunlay ortiqcha bo‘lib qolgan. Biz Isoni bir bor emas, balki yuz ming bor dorga osgandirmiz, biroq uni hanuz hayotdan quva olmaymiz, zeroki, uning birodarlari – gadolar, ko‘cha-ko‘ylarda uning nomini kuylashib doim bizning yodimizga tushirib turishadi... Mana endi biz, o‘sha gadolar ko‘chalarda tilanib yurmasliklari va bizning vijdonimizni bezovta qilmasliklari uchun ularni maxsus uylarga qamab qo‘yishni o‘ylab chiqardik...

Foma taajjub bilan ko‘zlarini katta ochib otaxoniga qararkan:

– Ustalikni qarang-a! – deb pichirladi.

– Ha-ha! – deb qo‘ydi Mayakin va uning ko‘zlari tantana bilan chaqnab ketdi.

– Nega otam buni fahmlamadiykin? – deb so‘radi Foma tashvishlanib.

– Sen shoshma! Sen hali quloq sol, bundan ham battarog‘i bor tag‘in! Biz gadolarni har xil uylarga qamab qo‘yishni o‘ylab topdik va ularni asrash qimmatga tushmasligi uchun chollar hamda mayiblarni ishlashga majbur qildik... Endi ularga xayr qilish ham kerak emas, ko‘chalardan har xil juldur kiyimlarni yig‘ib olgach, biz ularning qayg‘u-hasratini va qashshoqligini ko‘rmaymiz, shundan keyin dunyodagi barcha odamlar to‘q, ust-boshi but, deb o‘ylaymiz. Mana, shunaqa har xil uylar haqiqatni yashirish uchun... Isoni turmushimizdan quvish uchun kerak, xolos! Tushundingmi?

Cholning burro so‘zlaridan gangib qolgan Foma:

– Ha-a! – deb qo‘ydi.

Mayakin jonlanib, qo‘llarini paxsa qilib:

– Hali bu hammasi emas... hali ko‘lmakning tagiga yetganimiz yo‘q! – deb nido qildi.

Uning yuzidagi ajinlari pirpiradi, qush burni jiyirildi, ovozi esa jo‘sh urib, qizishib titradi.

– Endi bu ishga boshqa tomondan nazar tashlaylik. Mana shu uylar, yetimxonalar, g‘aribxonalar uchun kambag‘allar foydasiga hammadan ko‘proq kimlar iona beradi? Boylar, bizning savdogarlarimiz... Yaxshi! Xo‘sh, hayotni kim tuzyapti-yu, kim uni idora qilyapti? Dvoryanlar, chinovniklar va shu singari boshqa odamlar, lekin bizning odamlarimiz emas... Qonunlar ham, gazetalar ham, ilm-

lar ham – hammasi o‘shalardan chiqadi. Ular ilgari pomeshchik edilar, endi qo‘llaridan yerlari tortib olingach, ular xizmatga kirishdi... Xo‘sh, hozirgi zamonda eng kuchli odam kim? Davlatda eng kuchli odam – savdogar, chunki uning millionlari bor! Shunday emasmi? – Otaxonining aytib ulgurmagan fikrlari ko‘zlarida yaltillab turganini ko‘rarkan, Foma tezroq eshitishga oshiqib:

– Shunday! – deb ma’qulladi.

– Shunday bo‘lsa, sen ham uqib ol, – dedi chol, so‘zlarini dona-dona qilib, keyin salmoq bilan davom ettirdi, – hayotni biz, savdogarlar tuzganimiz yo‘q, biz uni tuzishda shu kungacha ovozdan ham mahrummiz, unga qatnasha olmaymiz ham. Hayotni boshqalar tuzishdi, undagi turli-tuman qo‘tir, yalqov, badbaxt, g‘ariblarni ham o‘shalarning o‘zi urchitishdi, shunday qilib, ularni ko‘paytirib, hayotni bulg‘ashdi, xarob qilishdi, sirasini aytganda, endi ularning o‘zlari tozalashlari lozim edi! Biroq uni biz tozalayapmiz, bechoralarga yordamni biz beryapmiz, ulardan biz nafratlanyapmiz... O‘zing o‘ylab ko‘r axir, birovlar kiyib yirtgan ko‘ylakning yirtig‘iga nega biz yamoq solishimiz kerak? O‘zimiz yashamagan va bizniki bo‘lmagan uyning shikast-rextini nega biz tuzatishimiz kerak? Yaxshisi, biz bir chetda turib, turli-tuman fasod-u marazlarning tobora ko‘payishini va bizga yot bo‘lgan odamni xippa bo‘g‘ishini tomosha qilsak ma’qulroq bo‘lmasmidi! Unaqa odamning o‘sha fasodni yengishga qurbi yetmaydi, chunki mablag‘i yo‘q. Shunda u bizga murojaat qilib: «Janoblar, marhamat qilib, ko‘maklashinglar!» deb yalinadi. Biz unga: «Marhamat qilib, bizga ishlash uchun imkoniyat beringlar! Bizni mana shu hayot tuzuvchilar qatoriga kiritinglar!» deymiz. U bizni shu qatorga kiritishi bilanoq, biz o‘shanda bir zumda hayotni har xil iflosliklardan, ortiqcha narsalardan tozalashimiz kerak bo‘ladi. Shunda imperator hazratlari nuroniy ko‘zlari bilan kim unga sadoqatliroq ekanini darhol ko‘radi, qo‘limiz bo‘sh kezlarda naqadar aql to‘plaganimizni biladi... Tushundingmi?

– Nega tushunmay! – deb qo‘ydi Foma.

Otaxoni chinovniklar haqida gapirganda, Foma ziyofatda bo‘lgan basharalarni esladi: epchil kotib esiga tushganda xayolidan balki o‘sha girdig‘um odam yiliga ming so‘mdan ortiq topolmas, menda esa million bor, degan fikr lip etib o‘tdi. Biroq bu odam juda

bemalol va erkin yashaydi, u esa yashashni bilmaydi, uyaladi. Bu taqqoslash va otaxonining so'zlari uning fikrlarini chuvaltirib yubordi, lekin Foma bu fikrlardan faqat bittasinigina ushlab qolishga va muayyan shaklda gavdalantirishga ulgura oldi, xolos.

– Chindan ham, faqat pul uchun ishlaydimi kishi? Hukmronlikni qo'lingga olib bermaganidan keyin pulning nima foydasi bor?

– Aha! – dedi Mayakin ko'zlarini qisib.

– Eh! – dedi Foma xafa bo'lib. – Otam nega shunday qildi-a? Siz unga aytmovdingizmi?

– Yigirma yil mobaynida aytaverib...

– Xo'sh, u nima dedi?

– Mening gaplarimga tushunolmadi... Rahmatlining miyasi to'porroq edi... Ko'ngli ochiq edi-yu, biroq aqli kalta edi... Shunaqa, u xato qildi... O'sha pullar behuda ketdi, attang...

– Men pulga achinmayman...

– Sen avval o'sha pulning o'ndan birini top-da, keyin gapir.

– Kirsam maylimi? – eshik orqasidan Lyubaning ovozi eshitildi.

– Mayli... – deb javob berdi otasi.

– Sizlar hozir ovqatlanasizlarmi? – deb so'radi qiz ichkari kirib.

– Olib kel...

Lyuba bufet yoniga borib, taraq-turuq qilib, idishlarni oldi. Yakov Tarasovich, qiziga qarab qo'yib, lablarini tamshanarkan, qo'qqisdan Fomaning tizzasiga urib:

– Shundoq bolaginam! Uqib ol... – dedi. Foma unga javoban jilmayib, ichida o'yladi: «Aqlli chol... otamdan aqlliroq...»

Va shu ondayoq boshqa bir ovoz bilan o'ziga o'zi javob berdi: «Aqllig-u, lekin yomonroq...»

V

Fomaning Mayakinga bo'lgan ikki yoqlama munosabati borgan sari kuchaydi. U cholning so'zlariga diqqat va zo'r qiziqish bilan quloq solarkan, har gal uchrashganda unga nisbatan adovat hissi borgan sari kuchayayotganini payqadi. Goho otaxoni unda vahimaga yaqin bir his uyg'otar, ba'zan bu his nafrat to'la jirkanchga aylanar edi. Odatda cholning biron narsadan xursand bo'lib kulgan kezlari

Fomada jirkanish uyg'otardi. Kulgidan cholning ajinlari titrar, soniya sayin yuzining ifodasi o'zgarib turardi. Qovjiragan yupqa lablari lip-lip o'ynar, og'zining tanobi qochib qop-qora kemshik tishlari ko'rinardi. Sap-sariq soqoli go'yo olovdek tovlanar, kulgisi xuddi zanglagan oshiq-moshiqning g'ijirlashiga o'xshab eshitilardi. Foma o'z tuyg'ularini yashira olmay, ko'pincha qo'pollik qilib Mayakinga oshkora aytib qo'yar, biroq chol uning qo'polligini sezmaganga olar va unga ko'z-quloq bo'lib, har bir qadamini kuzatib turar edi. Chol yosh Gordeyevning paroxodchilik ishlariga butunlay berilib ketib, deyarli o'z do'koniga bormay qo'ygandi, shuning uchun ham Fomaning ko'p vaqti bo'sh bo'lardi. Mayakinning shahardagi obro'si va Volgada tanish-bilishlarining ko'pligi tufayli ish juda yaxshi bordi, biroq otaxonining bu qadar jon kuydirib ishlashiga sabab, uni Lyubaga uylantirishga qat'iy bel bog'lagani ekanini Foma tobora tushuna boshladi va bu narsa uni choldan yanada ko'nglini sovitdi.

Lyuba unga ham yoqar, ham xatarli ko'rinar edi. U hamon kuyovga chiqmas, otasi ham bu haqda og'iz ochmas, ko'ngilochar kechalar tashkil etmas, yoshlardan hech kimni uyiga taklif qilmas va Lyubani ham hech yoqqa chiqarmas edi. Biroq uning hamma dugonalari allaqachon kuyovga chiqqan edi... Foma Lyubaning so'zlariga taajjublanar, lekin otaxonining so'zlarini tinglagandagidek uning ham so'zlarini qiziqsinib tinglar edi, biroq Lyuba Taras haqida muhabbat va sog'inch bilan gapira boshlasa, Fomaga boshqacharoq – go'yo Lyuba bu nom ostida boshqa birovning nomini yashirayotgandek tuyulardi, qizning gapiga qaraganda, nima uchundir universitetni tashlab Moskvadan ketishga majbur bo'lgan o'sha Yejovni yashirayotgan bo'lsa ham ajab emasdi. Lyubada Fomaga yoqadigan soddalik va ko'ngilchanlik kabi fazilatlar ko'p edi, uning so'zlariga quloq solib o'tirgan choqlarida ko'pincha unga rahmi kelardi, uning nazarida Lyuba hayotdan chetda, go'yo o'ngida alahlab yurgandek edi.

Otasining ma'rakasi kuni Fomaning qilgan qilig'i butun savdogar ahli orasiga taralib uni yomonotliqqa chiqardi. U birjaga borgan kezlarida, hamma unga yomon ko'z bilan qarayotganini va u bilan allanechuk g'alatiroq gaplashayotganlarini payqardi. Bir gal hatto uning orqasidan nafrat bilan sekingina:

– Ona suti og‘zidan ketmagan-u, gerdayishini qara... – deganlarini ham eshitdi.

Foma bu so‘zlarni kim aytganini bilmoq uchun orqasiga qayrilib ham qaramadi. Avvallari yuragiga g‘ulg‘ula solgan boy odamlar, endi uning nazaridan qola boshladi. Ular bir necha bor uning qo‘lidan ba’zi bir foydali pudrat ishlarni yulqib ketishdi. Ular bundan keyin ham shunday qilishlarini u endi aniq bilib qoldi, hammasi ham pulga mukkasidan ketgan ochko‘z, bir-birini aldashga doim tayyor odamlar ekanini tushundi. U o‘zining bu mushohadalarini otaxoniga aytganda, chol:

– Bo‘lmasam-chi? Savdo ham xuddi urushga o‘xshaydi, qimordek narsa. Bu yerda faqat so‘m uchun jang qilishadi, hamma gap so‘mda... – dedi.

– Bu menga yoqmaydi, – dedi Foma.

– Menga ham hammasi yoqmaydi, soxtalik ko‘p! Lekin savdo ishida aslo to‘g‘ri ish tutib bo‘lmaydi, bu yerda nayrang ishlatish kerak. Bu ishda, inim, odamga yaqinlashmoqchi bo‘lsang, chap qo‘lingda asal-u o‘ng qo‘lingda pichoq bo‘lsin.

– Bu judayam yaxshi emas, – dedi Foma o‘ychan.

– Yaxshisi keyin keladi... Qachonki, hammadan ustun bo‘lib olsang, ana o‘shanda yaxshi bo‘ladi... Hayot, inim Foma, juda sodda narsa: yo hammani g‘ajib tashlaysan, yoki balchiqda yotib bosh qashlaysan...

Chol iljaydi, uning og‘zidagi kemshik tishlarini ko‘rib Fomaning xayolida: «Aftingdan, sen, ko‘pini g‘ajiganga o‘xshaysan...» degan o‘tkir bir fikr tug‘ildi.

– Bundan tuzukroq hech narsa yo‘qmi? Bo‘lgan-turgani shumi?

– Bundan yaxshi nima bo‘lsin? Hamma o‘zimga yaxshi bo‘lsin, deydi... Xo‘sh, yaxshining o‘zi nima? Odamlardan ilgari ketish, ulardan yuqori bo‘lish degan so‘z. Shuning uchun hamma hayotda birinchi o‘rinni egallashga intiladi... Biri bunday, ikkinchisi unday qiladi... Lekin hammasi ham, xuddi cherkov minorasiga o‘xshab, albatta, uzoqdan ko‘rinib tursam deydi. Shuning uchun ham odam yuqori ko‘tarilish uchun yaratilgan... Hatto Ayubning kitobida ham: «Odam azob-uqubat chekish uchun, alangadek yuqori ko‘tarilish uchun yaratilgan», deyilgan. Mundog‘ bir qarab ko‘r, hatto bola-

lar ham o'yinda doim bir-biridan o'zmoqchi bo'ladi. Har qanday o'yinning ham doim yuqori cho'qqisi bor, shuning uchun ham u qiziq bo'ladi-da... Tushundingmi?

– Buni tushunamanku-ya! – dedi Foma.

– Buni his qilish kerak... Birgina tushunchaning o'zi bilan hech ish bitirolmaysan, sen orzu qilgin, shunday orzu qilki, sening uchun tog' – to'nka-yu, dengiz – ko'lmak bo'lsin! Eh,! Men sendakligimda tog'ni tolqon qilardim! Sen bo'lsang faqat mo'ljalga olasan xolos.

Chol bir maromda va'zxonlik qila-qila ko'zda tutgan maqsadiga tez kunda erishdi: Foma ularga quloq solarkan, hayotdan maqsad nimaligini tushundi. Boshqalardan yaxshiroq bo'lish kerak, degan gapni ko'ngliga tugib qo'ydi, chol tomonidan qo'zg'atilgan manmanlik hissi uning qalbidan chuqur joy oldi... Joy oldi-yu, biroq ko'ngli to'lmadi, chunki Fomaning Medinskayaga bo'lgan munosabati mash'um tusga kirishi muqarrar bo'lgan darajaga yetgan edi. U hamon Fomani o'ziga tortar, Foma uni doim ko'rgisi kelar, biroq uning oldida cho'chibroq, beo'xshov, tentaknamo holga tushib qolardi-da, o'zi buni payqab qiynalar edi. Foma unikiga tez-tez borib turar, biroq uni uyida yolg'iz topish mahol edi, go'yo bir chaqmoq qand ustida uymalashgan pashshadek, uning atrofida bir gala serpardoz oliftalar girdikapalak bo'lib yurishardi. Ular Medinskaya bilan fransuzcha so'zlashar, qo'shiq aytishar, xaxolab kulishardi. Foma esa ularga g'azab va nafrat bilan tikilib, nihoyatda yasatilgan mehmonxonaning bir burchagida oyoqlarini buklab, xo'mrayganicha ularni kuzatib o'tirardi.

Medinskaya uning yonidan, yumshoq gilamlar ustidan, bittabitta bosib o'tarkan, unga muloyim tabassum bilan nazar tashlab qo'yar, orqasidan esa jazmanlari ergashar va ularning hammasi ham, turli-tuman stollar, stullar, shirmalar yonidan, go'yo magazindagidek tartibsiz yotgan, lekin ularga ham, Fomaga ham bir xilda xavfli bo'lgan, chiroyli va nozik buyumlar yonidan xuddi ilondek buralib ohista o'tib ketishar edi. Foma yurganda esa uning oyoq tovushi gilamga singib ketmas, ana shu buyumlar uning surtugiga ilashar, qimirlar, yerga tushib ketar edi. U yerdagi royal yonida, suvga g'arq bo'lganlarni qutqarish uchun tashlanadigan chambarakni irg'itmoqchi bo'lganday quloch yozib turgan bronzali matros hay-

kalchasi bor edi, chambarakda esa simdan qilingan bog'ichlar osilib turar va shu sim bog'ichlar doim Fomaning sochiga ilashib yulqar edi. Bularning hammasi Sofya Pavlovnaning va jazmanlarining kulgisini qistatardi. Lekin bu Fomaga juda qimmatga tushar, uni goh terlatar, goh muzlatar edi.

Biroq Medinskaya bilan tanho uchrashish ham oson emas edi. Medinskaya uni muloyim tabassum bilan kutib olar, u bilan mehmonxonaning shinamgina bir burchagiga borib o'tirardi-da, so'z ochishdan avval, odatda, xuddi mushukdek buralib, eshilib, Fomaning ko'ziga suzilib tikilar, qop-qora ko'zlari esa allaqanday chaqnab ketar edi.

– Siz bilan gaplashishni biram yaxshi ko'ramanki, – dedi Medinskaya, har bir so'zni musiqiy ohang bilan cho'zib. – Anavilar jonimga tegdi... Hammasi diqqinafas, bir-biridan battar siyqasi chiqqan odamlar. Siz esa sofdil va ochiqko'ngilsiz, axir, siz ham ularni sevmaysiz-a?

– Toqatim yo'q! – dedi Foma qat'iy javob qilib.

– Menga-chi? – deb so'radi Medinskaya astagina. Foma ko'zlarini chetga olib, xo'rsinib gapirdi:

– Buni bir necha bor so'ragansiz...

– Aytish qiyinmi sizga?

– Qiyin emas... lekin nima hojat?

– Men buni bilishim kerak...

– Siz meni mazax qilyapsiz... – dedi Foma po'ng'illab.

Medinskaya esa ko'zlarini katta ochdi-da, zo'r taajjub bilan so'radi:

– Nega mazax qilay? Mazax deganingiz nima?

Foma uning farishtalarnikidek yuziga qarab turib, unga ishonishga majbur bo'ldi.

– Men sizni sevaman, yaxshi ko'raman! Axir, sizni yaxshi ko'rmay bo'ladimi? – dedi qizishib, lekin shu ondayoq g'amgin ovoz bilan asta qo'shib qo'ydi. – Lekin siz uchun buning keragi ham yo'q!..

– Nihoyat, aytdingiz! – dedi Medinskaya mamnuniyat bilan xo'rsinib qo'yib va o'zini undan chetga tortdi. – Mana shu xilda

lo'nda qilib gapirishingizni yaxshi ko'raman-da... chunki yoshlik g'ururi bor, maqsad aniq... Mening qo'limni o'pishni istaysizmi?

Foma indamay uning oppoq, nozik qo'lidan ushladi-da, ehtiyotkorlik bilan engashib, qizg'in va uzoq o'pdi. Medinskaya jilmayib, noz-karashma bilan qo'lini tortib oldi, lekin Fomaning hayajoniga aslo parvo qilmadi. Faqat o'ychanlik bilan ko'zlarini yiltillatib, go'yo allaqanday noyob va g'alati bir narsaga tikilgandek, doim Fomani xijolat qiluvchi nazar bilan unga qaradi-da:

– Siz naqadar sog'lom, baquvvat, qalbi pok odamsiz... – dedi. – Bilasizmi, siz savdogarlar, hali mutlaqo yashamagan bir qabilasizlar. Shunday bir yaxlit qabilasizki, o'zlaringizga xos urf-odatga va kuch-qudratga to'lgan ajoyib jism bilan birga bardam ruhga egasizlar... Masalan mana siz, axir, siz asl toshsiz, agar sizni pardozlasa bormi... O!

Medinskaya mana shunday, sizda, sizningcha, savdogarlarcha, deb gapirganda, Fomaga bu so'zlar xuddi uni nari itarayotganday bo'lib tuyulardi. Bu esa qattiq botib uni xafa qilardi. U Medinskayaning doim chiroyli kiyingan, doim guldek xushbo'y va qizlarniki singari nozik qomatiga tikilib, indamay o'tirardi. Goho unda vahshiyona qo'pol bir istak xuruj qilib, shartta uni tutib olgisi va o'pgisi kelardi. Biroq Medinskayaning chiroyli qomati shu qadar nozikligidan uni sindirib-netib yoki mayib qilib qo'yishdan qo'rqardi, lekin uning yoqimli tovushi va go'yo ta'qib etganday chaqnab turgan ko'zlari Fomaning hovurini pasaytirar, nazarida Medinskaya naq uning qalbiga tikilganga va barcha o'ylarini payqaganga o'xshardi... Uning bu qadar tutaqishgan choqlari kamdan kam bo'lar, aslida u Medinskayaning go'zalligiga, gaplariga, kiyimlariga, undagi barcha narsaga hayron bo'lib zehn solar, uni sidqidildan sevar edi. Shu bilan birga Medinskayadan yiroqligini, bu ayol undan ustun ekanini anglab, nihoyatda qiynalar, doim azob chekardi.

Ular o'rtasida sal kundayoq mana shunday munosabat vujudga keldi. Ikki-uch uchrashuvdan keyinoq, Medinskaya yigitni o'ziga rom qilib oldi-da, asta-sekin uni qiynoqqa sola boshladi. Aftidan, Medinskayaga sog'lom va baquvvat yigitni o'ziga bo'ysundirish, bir so'z yoki bir qarash bilan uni yirtqichga aylantirish va darrov tushovlab olish juda yoqar edi, chunki u o'z kuchiga, hukmini yur-

giza olishiga ishonar va shuning uchun ham Foma bilan olib borgan o'yinidan nihoyatda zavqlanar edi. Qattiq hayajonlangan Foma butunlay bo'shashib undan o'pkalagan va o'zidan esa g'azablangan holda uning yonidan ketar edi. Lekin ikki kundan keyin tag'in qiynoqqa tushish uchun kelardi.

Bir kuni u Medinskayadan cho'chibroq so'radi:

– Sofya Pavlovna!.. Siz bola ko'rganmisiz?

– Yo'q...

– O'zim ham biluvdim-a! – deb qichqirib yubordi Foma xursand bo'lganidan.

Medinskaya unga kichkina va sodda bir qiz bola singari qarab qo'ydi-da, dedi:

– Buni siz qaydan bila qoldingiz? Bola ko'rganmanmi, yo'qmi, buning sizga nima hojati bor?

Foma qizarib boshini egdi va go'yo har bittasi bir necha pud keladigan so'zlarni yer ostidan arang tortib chiqarayotganday, bo'g'iq ovoz bilan so'zlay boshladi:

– Bilasizmi... agar xotin kishi... ya'ni tuqqan bo'lsa, uning ko'zlari... mutlaqo boshqacha bo'ladi...

– Rostmi, a? Qanaqa bo'ladi?

– Behayo bo'ladi! – deb g'udrandi Foma.

Medinskaya kumushdek ovozini jaranglatib kulib yubordi. Unga qarab Foma ham kulib yubordi.

– Meni kechiring! – dedi u nihoyat. – Balki, men bo'lmag'ur... beodob gap qildim shekilli...

– O, yo'q, yo'q! Sizning beodob gap qilishingiz mumkin emas. Siz pokiza, yoqimtoy bolasiz. Qani, ayting-chi, mening ko'zlarim behayo emasmi?

– Sizning ko'zlaringiz farishtanikiga o'xshaydi! – dedi viqor bilan Foma chaqnab turgan ko'zlarini tikib.

Medinskaya esa unga mehribon ona – ayol nazari bilan, o'z sevgilisi uchun xavfsiraganday, g'amgin qarab qo'ydi, shu damgacha u Fomaga hech qachon bu xilda qaramagan edi. O'rnidan turarkan, unga qaramay:

– Boring keting, jonginam... Men charchadim, dam olay... – dedi.

U indamay chiqib ketdi.

Medinskaya shu voqeadan keyin, Fomaga achinganday, bir necha vaqtgacha u bilan jiddiy va to'g'ri munosabatda bo'lib yurdi, lekin keyinchalik ularning munosabati yana mushuk-sichqon o'yiniga o'xshash tus oldi. Fomaning Medinskayaga bo'lgan munosabati otaxonidan yashirin qololmadi, bir kuni chol, zahar tomib turgan aftini burushtirib:

– Foma! Sen tez-tez boshingni ushlab ko'r, yana falokat bosib, yo'qolib qolmasin, – dedi.

– Nimaga ishora qilyapsiz? – deb so'radi Foma.

– Sonka to'g'risida aytyapman, sen unikiga juda tez-tez boradigan bo'lib qolding.

– Sizga nima? – dedi Foma dag'allik qilib. – U sizga nega Sonka bo'larkan?

– Menga nima, seni g'ajigani bilan mening bir yerim kamayib qolmaydi. Lekin Sonkaligi hammaga ma'lum... Birovlar qo'li bilan cho'g' ushlashni yaxshi ko'rishini ham hamma biladi.

Foma qovog'ini solib, qo'llarini cho'ntagiga tiqar ekan:

– U aqlli! O'qimishli, – dedi qat'iy qilib.

– Aqlli, to'g'ri! O'qimishli... U senga ham dars beradi. Ayniqsa, uning atrofidagi sayoqlar...

– Sayoqlar emas, ular... ham aqlli odamlar! – deb g'azab bilan e'tiroz bildirdi Foma, o'z fikriga o'zi qarshi chiqib. – Men ham ulardan ta'lim olyapman... Men kim? Na chalish va na o'ynash qo'limdan keladi... Meni nimaga o'rgatdingiz? U yerda hamma narsa to'g'risida gap bo'ladi... Har kim o'z bilganini aytadi. Siz mening odamga o'xshashimga xalaqit bermang!

– Bay-bay-bay! Gapga chechan bo'p qopsan! Ya'ni tomga do'l yoqqanday... zardalik! Xo'p mayli, odamga o'xsha. . Lekin buning uchun mayxonaga kirish xavfsizroq, u yerdagilar Sofyanikiga yig'iladiganlarga qaraganda tuzukroq Sen, yigitcha, shunday qilsang, har nechuk odam tanishni o'rganarding... Masalan, Sofyani olsak... O'zi nima u? Tabiatni bezatish uchun yaratilgan bir hasharot – boshqa hech narsa emas!

Foma nihoyatda g'azablanib, tishlarini qirsillatib, qo'llarini cho'ntagiga yana chuqurroq suqqan holda Mayakinnikidan chiqib ketdi. Lekin chol ko'p o'tmay yana Medinskayadan gap ochdi.

Ular daryo qo'ltig'idagi paroxodlarni ko'zdan kechirib, katta bir chanada, ish haqida do'stona va qizg'in suhbatlashib qaytishardi. Mart oyi edi, chananing qo'shqoraklari ostida suv bilchillar, qor erib ketayozgan, bulutsiz osmonda quyosh charaqlab nur sochar, havo iliq edi.

– Uyga qaytganingdan keyin, avvalo boyvuchchangnikiga borsang kerak deyman? – deb so'radi Mayakin qo'qqisdan, gapni bo'lib.

– Boraman, – deb javob qildi Foma norozi bir tarzda.

– Hm-m... qani, ayt-chi, sen unga tez-tez sovg'a oborib turasanmi? – deb so'radi Mayakin ochiq yuz bilan jo'ngina qilib.

– Qanaqa sovg'a? Nega? – deb hayron bo'ldi Foma.

– Obormaysanmi? Obbo sen-e... Nahotki, u sen bilan shunchaki, yaxshi ko'rgani uchun aloqa qilsa?

Foma tutaqib, uyalganidan lovullab ketdi va cholga shartta o'girilib achitib dedi:

– Eh! Keksa odamsiz-u, gapingizni eshitishga uyaladi kishi! Nahotki, u shunga yursa? Shu ishga-ya?

Mayakin lablarini chapillatib, mungli bir ovoz chiqarib g'ing'illadi:

– Qanday to'ngaksan! Qanday ahmoqsan! – dedi-da, birdan jahli chiqib, tupurdi. – Tuf senga! Tog'aradan suv ichmagan hayvon qolmabdi-ku, tagidagi sarqitini ko'rib bir ahmoq shu iflos tog'orani xudo deb bilibdi! Shayton! Sen uning oldiga bor-da, tik ayt: «Sizga o'ynash bo'lmoqchiman, men yosh yigitman, ko'p olmang», degin.

– Otaxon! – dedi Foma xo'mrayib g'azab bilan. – Men buni eshitishga toqatim yo'q... Agar sizdan boshqa odam bo'lgandami...

– Mendan boshqa seni kim ham ogoh qilib turardi? Yo tavba-a! – Mayakin chapak chalib, qiyqirdi. – O' seni hali butun qish ichi aldab yurdimi? A? Boplapti! Eh, ablah xotin!

Cholning nihoyatda jahli chiqqan edi. Uning ovozida alam, g'azab, hatto yig'i eshitildi. Foma uni hech qachon bu holda ko'rmagan edi, shuning uchun ham indamadi.

– U seni buzadi, axir! Ah, Vavilon fohishasi!

Mayakinning ko'zlari tez-tez pirpirab, lablari titradi, chol g'azabnok bo'lib, kuyib-pishib, Medinskaya to'g'risida qo'pol va behayo so'zlar bilan javray boshladi.

Foma cholning so'zlari to'g'ri ekanini payqadi. Uning nafasi bo'g'ildi. So'ngra, Mayakindan yuzini chetga o'girar ekan:

– Qo'ying endi, otaxon, bas... – deb g'amgin ovoz bilan ohista iltimos qildi.

– Eh, tezroq uylanishing kerak! – deb qichqirdi chol hayajon ichida.

– Xudo haqqi, gapirmang! – deb yolvordi Foma.

Mayakin Fomaga qarab qo'ydi-da, jimib qoldi. Fomaning bo'zargan yuzi cho'zildi. Uning nim ochiq lablarida va g'amgin nazarida og'ir va achchiq bir taajjub bor edi... Yo'lning o'ng va chap tomonida qish uvadasiga burkangan dala yotardi. Qori erib, qorayib qolgan yerlarda go'ng qarg'alar ivirsib, irg'ishlab yurishardi. Chananing qo'shqoraklari ostida suv bilchillar, otlarning tuyoqlari ostidan iflos qor sachrar edi...

– Odam yoshligida tentak bo'ladi! – deb xitob qildi Mayakin ohista. – Ro'parasidagi to'nka ham unga allaqanday hayvonga o'xshab ko'rinadi... O-ho-ho!

– Siz ochig'ini gapiravering, – dedi Foma xo'mrayib.

– Nimasini gapiray? Masala ravshan: qizlar – momaqaymoq, xotinlar – sut; xotinlar yaqin, qizlar yiroq... Shunday ekan, usiz turolmas ekansan, Sonkaga bor, unga ochiq ayt, gap mana bunday degin... Tentak! Nega tersayasan? Nega chiranasan?

– Siz tushunmaysiz... – dedi Foma ohista...

– Men nimani tushunmas ekanman? Hammasini tushunaman!

– Yurakni – odamda yurak bor, axir! – dedi sekingina yigit.

Mayakin ko'zlarini suzib javob qildi.

– Demak, aql yo'q...

VI

Foma shaharga qayg'u-alam va adovat qahri bilan kirib keldi. Uning ko'nglida Medinskayani haqorat etish, xo'rlash istagi nihoyatda qaynab toshdi. U tishlarini mahkam qisib qo'llarini cho'ntaklariga suqqan holda, bir necha soat davomida o'z uyining bo'sh xonalarida, qoshlarini chimirib, ko'kragini oldinga chiqarib, u yoqdan bu yoqqa yurdi. Uning alam to'la yuragiga ko'krak qafasi torlik qilib qoldi. U

go‘yo o‘z g‘azabini toblayotganday pol ustida og‘ir va salmoq bilan qadam tashlardi.

– Sharmanda... farishta libosiga burkanib olibdi-ya...

Umid ora-chora unga hadiksiragan ovoz bilan shivirlardi.

«Balki bularning hammasi bo‘htondir...»

Biroq otaxonining nihoyatda ishonch bilan aytgan achchiq so‘zlarini eslab, u ko‘kragini yana ham oldinroqqa chiqarib, tishlarini g‘ijirlatdi.

Mayakin Medinskayani balchiqqa qorish bilan uni qo‘lga tushirish mumkinligini unga ko‘rsatdi. Foma o‘zi ham buni payqab qoldi.

Bahorgi ish tashvishlari bilan bir necha kun o‘tib ketdi va Fomaning junbish urgan g‘azabi biroz bosildi. Odamni qo‘ldan boy berish to‘g‘risidagi qayg‘u xotinga bo‘lgan g‘azabini o‘tmaslashtirdi, ammo xotinni qo‘lga olish mumkinligi to‘g‘risidagi o‘y esa unga bo‘lgan ishqibozlikni kuchaytirdi. Foma o‘zi ham sezmay, Sofya Pavlovna oldiga borishga va undan nima istaganini ochiqdan ochiq aytishga jazm qildi!

Medinskayaning xizmatchisi Fomaning kelib-ketib yurganiga o‘rganib qolganidan, «xonim uydamilar?» deb bergan savoliga:

– Mehmonxonaga marhamat... – dedi.

Foma cho‘chinqiradi... biroq oynada o‘zining surtuk kiygan basavlat gavdasini, qop-qora maysa soqoli-yu, katta-katta jiddiy qora ko‘zlarini, qorachadan kelgan yuzini ko‘rgach, yelkalarini rostlab, dadil qadam tashlab, zaldan to‘g‘ri o‘tib ketdi...

Uning ro‘parasidan sekingina g‘alati bir ovoz – tor sadosi eshitildi, go‘yo bu sado mayin va g‘amgin bir ovoz chiqarib kuylayotganga, allanarsadan zorlanib unga e’tibor berishni so‘rayotganga, biroq noumid bo‘lib, yurakni chertib o‘tayotganga o‘xshar edi... Foma musiqa eshitishni yoqtirmasdi, musiqa uni doim qayg‘uga solardi. Hatto mayxonadagi «mashina» biror mungli kuyni chala boshlasa uning yuragi siqilib ketar va u «mashina»ni to‘xtatishni so‘rar yoki bu so‘zsiz, ammo qayg‘u-alam to‘la nolalarni bemalol eshita olmasligini payqab, undan uzoqlashar edi. U hozir ham, beixtiyor mehmonxonaning eshigi yonida to‘xtab qoldi.

Eshikka uzun iplarga allaqanday go‘zal bir o‘simlikning ajoyib guliga o‘xshatib, rang-barang, nozik munchoqlar o‘tkazilgan parda

to‘siqlik edi. Iplar ohista tebranib turar, go‘yo havoda oqish gullarning soyalari uchib yurgandek bo‘lardi. Bu shaffof parda mehmonxona ichidagi narsalarni ko‘zdan yashirolmas edi. Medinskaya o‘zi yaxshi ko‘rgan burchakda, kushetkada mandolina chalib o‘tirardi. Devorga o‘rnatilgan kattakon yaponcha soyabon qora ko‘ylak kiygan nozik xotinga o‘zining ola-chalpoq soyasini tashlab turardi. Qizil abajurli baland bronza lampa uni kechki shafaq nuriga chulg‘agan. Xushbo‘y, mayin g‘ira-shira qorong‘ilik ichidagi torgina xonada nozik torlarning nafis ovozi g‘amgin titrar edi. Mana, ayol mandolinani tizzasiga qo‘ydi-da, torlarni ohista chertar ekan, ro‘parasidagi allanarsaga uzoq tikilib qoldi.

Foma unga qarab, Medinskaya o‘zi yolg‘izligida, odamlar oldidagi singari go‘zal emasligini ko‘rdi, hozir uning yuzlari jiddiy va qariganroq ko‘rindi, ko‘zlarida esa dilrabolik va yuvoshlik ifodasi yo‘q. Ular g‘amgin boqardilar. Hatto qiyofasida ham horiganlik sezilar, go‘yo o‘rnidan turmoqchi bo‘lgan-u, biroq turolmay o‘tirganga o‘xshardi.

Yigit yo‘talib qo‘ydi...

– Kim u? – deb so‘radi cho‘chib ayol. Mandolina torlari ham hayajonli tovush chiqarib, titrab ketdi.

– Men, – dedi Foma, nozik pardaning iplarini qo‘li bilan bir tomonga ochib.

– E! Buncha ohista... xush kelibsiz... O‘tiring!.. Nega buncha uzoq kelmay qo‘ydingiz?

U bir qo‘lini Fomaga uzatarkan, ikkinchisi bilan yonidagi kichkina oromkursini ko‘rsatdi, ko‘zlari esa quvonch bilan kulimsiradi.

Foma oromkursini kushetkaga yaqinroq surarkan, o‘zini juda erkin tutib:

– Paroxodlarni ko‘rish uchun daryo qo‘ltig‘iga borgan edim, – dedi.

– Qalay, hali dalada qor ko‘pmi?

– Istaganingizcha... Lekin juda eriyapti. Yo‘llarni – hamma yoqni suv bosib ketgan.

Foma Medinskayaga qarab jilmayib qo‘ydi. Medinskaya uning tortinmay o‘ziga erk berganini va jilmayishidagi o‘zgarishni payqagan bo‘lsa kerak, ko‘ylagini tuzatdi-da, siljib, undan sal nariroqqa

o‘girdi. Ularning ko‘zlari to‘qnashdi, shunda Medinskaya boshini quyi egdi.

Medinskaya jimjilog‘idagi uzugini ko‘zdan kechirarkan, o‘yga botib:

– Eriyapti deng! – deb so‘radi.

– Ha-a... hamma yoqda soydek oqyapti... – dedi Foma o‘z botinkasiga suqlanib qarab.

– Yaxshi... Bahor boshlanyapti.

– Endi hech ham kechikmaydi...

– Bahor keladi, – deya takrorladi Medinskaya ohistagina, go‘yo o‘z tovushiga o‘zi quloq solganday bo‘lib.

Foma kulimsirab:

– Endi odamlar oshiq-ma’shuqlik qila boshlaydilar, – dedi-da, negadir qo‘llarini qattiq ishqab qo‘ydi.

– Siz-chi? – deb so‘radi Medinskaya quruqqina qilib.

– Menga baribir... Men allaqachon!.. Umrbod sevib qolganman...

Medinskaya unga ko‘z qirini tashladi-da, yana eski o‘yinni qo‘zg‘ab, o‘ychan gapira boshladi:

– Naqadar yaxshi, siz endigina yashay boshlayapsiz... Yuragingiz to‘la kuch... va unda hech qanday dog‘ yo‘q...

– Sofya Pavlovna! – deb nido qildi Foma. Ayol muloyim bir imo bilan uni to‘xtatdi.

– Shoshmang, jonim! Bugun men sizga... bir yaxshi narsa aytmoqchiman... Bilasizmi, ko‘p yashagan odamning goho shunday daqiqalari bo‘ladiki, o‘shanda u o‘z yuragiga qarab, unda qo‘qqisdan... ko‘pdan unutilgan biron narsani topadi... O‘sha narsa yillar bo‘yi yurakning allaqaysi bir yerida, juda chuqurida yotgan bo‘lsa ham... lekin yoshlikning muattar hidini yo‘qotmaydi... va qachonki, xotira uni qo‘zg‘atsa bormi... odamga... hayotbaxsh tongning musaffo yeli esadi...

Uning barmoqlari ostidagi torlar titrab yig‘lar, Fomaga bu tovushlar hamda Medinskayaning mayin ovozi yoqar, go‘yo uning qalbini ohista qitiqlayotganday bo‘lar edi... Biroq, o‘z qarorida qat’iy turgan Foma, uning so‘zlarini diqqat bilan tinglasa ham, bu so‘zlarning ma’nosiga tushunolmay o‘yladi:

«Gapiraver! Endi sening hech bir so'zingga ishonmayman...»

Bu esa uning jahlini chiqardi. U Medinskayaning so'zlariga, avvalgidek diqqat qilib, ishonch bilan quloq sololmaganiga achindi.

– Siz qanday yashash kerakligi haqida o'ylaysizmi? – deb so'radi ayol.

– Goho o'ylayman, keyin yana unutaman. Vaqt yo'q, – dedi Foma va miyig'ida kulib qo'ydi. – Nimasini ham o'ylay? Odamlar qanday yashaganini ko'rib turibman... demak, o'shalarga taqlid qilish kerak ekan-da...

– Eh, unday qila ko'rmang! O'zingizga rahm qiling... Siz shunday... biram yaxshi... Sizda qandaydir juda ajoyib bir narsa bor, ammo nimaligini bilmayman! Biroq bu sezilib turibdi... Nazarimda, siz juda qiyin hayot kechirsangiz kerak... Men ishonamanki, siz o'z doirangizdagi odamlar kabi oddiy yo'ldan bormassiz... Yo'q! Pulga hirs qo'ygan hayot sizga manzur bo'lmasa kerak... yo'q! Bilaman, siz allaqanday boshqa bir narsani istaysiz... shundaymi?

U tashvish to'la ko'zlarini javdiratib, tez-tez gapirardi. Foma unga qarab turib o'yladi:

«Bu bilan nima demoqchi u?»

Medinskaya unga yaqinroq surilib, yuziga tikildi-da, ishonarli qilib aytdi:

– Hayotingizni qanday bo'lmasin boshqacharoq quring... Siz baquvvatsiz, navqiron... yaxshisiz!..

Foma hayajonlanayotganini va yuragi tipirchilab urayotganini sezib:

– Yaxshi ekanman, demak, menga ham yaxshi bo'lsin-da, axir! – dedi.

– Ah, dunyoda yomonlarga qaraganda yaxshilarga kun yo'q!.. – dedi Medinskaya g'am ichida...

Uning barmoqlari ostidan yana o'sha titroq musiqa ovozi yangradi. Foma aytmoqchi bo'lgan so'zini hozir aytmasa, bundan keyin, hech qachon ayta olmasligini payqadi...

«Yo xudo, o'zing madad ber!» dedi ichida va keyin tovushini pasaytirib, hayajon bilan so'zlay boshladi:

– Sofya Pavlovna! Yetar endi!.. Men aytishim kerak... Men sizga shu gapni aytish uchun keldim, bas! Endi ishni ochiqchasiga qi-

lish kerak... Meni avvalo, siz o'zingiz mubtalo qildingiz... endi esa mendan qochmoqchisiz... Men sizning nima deyayotganingizga tushunmayman... miyam g'ovlagan... Sezib turibman, mendan yashirinmoqchi bo'lasiz... Men nima uchun kelganimni payqab turganingizni ko'rib turibman!

Fomaning ko'zlari yondi, ovozi esa borgan sayin qizishib, zo'raydi. Medinskaya butun gavdasi bilan olg'a tashlanarkan, hayajonla dedi:

– Oh, qo'ysangiz-chi...

– Yo'q, endi gapiraman...

– Nima demoqchi ekaningizni bilaman...

– Hammasini bilmaysiz! – dedi Foma do'q qilib, o'rnidan turarkan. – Lekin men siz to'g'ringizda hammasini bilaman, hammasini!

– Shundaymi? Bo'lmasa, men uchun juda yaxshi bo'pti! – dedi Medinskaya pinagini buzmay.

Medinskaya ham go'yo biron yoqqa ketmoqchi bo'lganday kushetkadan turdi, lekin bir-ikki soniya tikka turgandan keyin yana o'rniga o'tirdi. Uning yuzi jiddiy, lablari esa mahkam qimtilgan, biroq ko'zlari yerga qaragan edi, Foma uning ko'z qarashlarini ko'rolmadi. Foma unga: «Siz to'g'ringizda hammasini bilaman!» deganimda, u qo'rqib, uyalib ketadi-da, men bilan o'ynashgani uchun o'ng'aysizlanib mendan uzr so'raydi. Shunda men uni mahkam quchoqlayman-u kechiraman, deb o'ylagan edi. Lekin bunday bo'lmadi... U Medinskayaning pinagini buzmay turishini ko'rib, o'zi o'ng'aysizlandi, gapini davom ettirish uchun so'z qidirib, unga jim qarab turdi, lekin so'z topolmadi.

– Juda soz... – deb takrorladi Medinskaya sovuqqina va qat'iy qilib. – Siz hammasini bildingizmi, shundaymi? Meni rosa g'adablagandirsiz, shunday bo'lishi kerak... Men tushunaman... Sizning oldingizda aybdorman... Lekin... yo'q, men o'zimni oqlab o'tirmayman...

U so'zini to'xtatdi-yu, asabiy bir harakat bilan qo'llarini yuqori ko'tardi-da, boshini changalladi... Keyin sochlarini tuzata boshladi...

Foma chuqur xo'rsinib qo'ydi. Medinskayaning so'zlari undagi allaqanday umidni o'ldirdi, Foma yuragida shunday umid borligini

endigina, shu umid o'ldirilgandan keyingina sezdi, u boshini chayqarkan, achchiq bir ta'na bilan dedi:

– Ba'zan, men sizga qarab turib: «Naqadar go'zal, ajoyib xotin... Jonon!..» deb o'ylardim. Siz bo'lsangiz, gunohkorman deyapsiz... E-voy!

U jim bo'lib qoldi. Xotin esa sekingina kuldi:

– Siz juda ham ajoyib va g'alati ekansiz... – deb qo'ydi.

Yigit uning yoqimli so'zlariga va g'amgin jilmayishiga asir bo'lganini sezib, unga boqdi. Ayolning ko'zlarida chaqnab turgan iliq nur, Fomaning yuragida unga nisbatan bo'lgan yomonlikni va berahmlikni eritib yubordi. Medinskaya hozir unga kichkina, homiysiz, xuddi bir go'dakdek bo'lib ko'rindi. Ayol muloyim ovoz bilan, go'yo unga yalinganday, allanarsalarni so'zlar va hamon jilmayar edi, biroq Foma uning so'zlariga quloq solmasdi.

– Men sizning oldingizga, – deya gap boshladi u Medinskayaning so'zini bo'lib, – shafqatsiz bo'lib keluvdim!.. Men sizga hammasini aytaman, deb o'ylovdim. Hech narsa aytolmadim... aytgim ham kelmay qoldi... ko'nglim bo'lmadi... Sizning menga allaqanday nafasingiz tegishi bilan... Eh, men sizni bekor ko'rgan ekanman! Siz menga kimsiz? Ketishim kerakka o'xshab qoldi...

– Shoshmang azizim, ketmang! – dedi Medinskaya shoshib, unga qo'lini cho'zarkan. – Nega bunchalik rahmsizlik-a? Mendan xafa bo'lmang! Men sizga kim? Sizga xuddi o'zingizga o'xshash sodda, qalbi pok, boshqa bir yor zarur... U quvnoq, sho'x bo'lishi kerak... Axir men qarib qolganman-ku. Ko'nglim to'la hasrat... Juda zerikib, nihoyatda ko'ngilsiz hayot kechiraman... biram ma'nosizki! Bilsangiz, agar odam quvnoq hayot kechirishga o'rganib qolgan bo'lsa-yu, lekin quvonolmasa, unga juda qiyin! U kulmaydi, hayot undan kuladi... Ammo odamlar... Quloq soling! Sizga onangizdek bir maslahat beraman, sizdan o'tinib, yolvorib so'rayman, qalbingizdan boshqa hech kimga quloq solmang. Yuragingizning amriga qarab yashang. Odamlar hech narsani bilishmaydi, hech qachon to'g'ri gapirishmaydi... Ularga quloq solmang!

U sodda va tushunarli qilib gapirishga urinib, nihoyatda hayajonlanar, so'zlari ham bir-biriga qovushmay, duv to'kilardi. Lablarida esa hamon hazin jilmayish o'ynar edi.

– Hayot – bag‘ritosh... U butun odamlarni o‘z irodasiga bo‘ysundirishni istaydi, faqat kuchli odamlargina unga qarshi dadil chiqa oladilar... Lekin qo‘llaridan kelarmikin? O, yashash naqadar azob ekanini bilsangiz... Ba’zan odam shu ahvolga tushadiki, o‘zidan o‘zi qo‘rqa boshlaydi... ikkiga bo‘linadi, sudyaga va jinoyatchiga, o‘zini o‘zı sud qiladi va o‘zini o‘zi oqlash uchun chora qidiradi... va yolg‘iz qolmasligi uchun o‘zi yoqtirmagan, o‘zi nafratlangan odamlar bilan kecha-yu kunduz birga bo‘lishga rozi bo‘ladi!

Foma boshini ko‘tarib, ishonqiramayroq, hayron bo‘lib dedi:

– Men hech tushunolmay qoldim, o‘zi nima gap? Lyuba ham shunday deydi...

– Qanaqa Lyuba? Nima deydi?

– Singlim... U ham xuddi shunday, hayotdan zorlanadi. Yashash mumkin emas, deydi...

– O, u hozirdanoq shunday desa, bu katta baxt...

– Bax-xt! Odamlarni zor-zor qaqshatadigan baxtning yaxshiligini birinchi eshitishim...

– Siz quloq soling, odamlarning nolishida doim juda ko‘p donolik bo‘ladi... Donolik – alam degan so‘z...

Foma Medinskayaning ishonch bilan jaranglovchi ovozini tinglarkan, hayron bo‘lib atrofiga alangladi. Xonani to‘ldirib turgan mayda-chuyda buyumlarning hammasi ko‘pdan unga tanish edi, biroq bugun devorlardagi suratlar, tokchalar, har tomondan ko‘zga tashlanib turgan chiroyli va rango-rang buyumlarning barchasi ham negadir boshqacharoq ko‘rindi. Lampaning qizg‘ish shu’lasi ko‘ngilni g‘ash qilib, vahima solar edi. Hamma narsa g‘ira-shira qorong‘ilik ichida, onda-sonda ramalarning zarhallari va oppoq chinni idishlar xiragina yaltillar edi. Eshiklarning og‘ir pardalari qimir etmay osilib turardi. Bularning hammasi bir bo‘lib, Fomani ezar va u o‘zini go‘yo adashib qolgandek his qilardi. U ayolga achindi. Biroq ayol uning g‘ashini keltirardi.

– Men siz bilan qanday gaplashayotganimni bilyapsizmi? Men sizga ona, opa bo‘lishni istardim... Hech qachon va hech kim menda sizchalik iliq bir tuyg‘u uyg‘otgan emas... Siz bo‘lsangiz... Menga xayrixoh emassiz... Siz menga ishonasizmi? Ha-mi? Yo‘q-mi?

Foma, unga qarab qo‘ydi-da, xo‘rsinib dedi:

– Bilmayman! Ishonar edim.

– Endi-chi? – deya oshiqib so‘radi Medinskaya.

– Endi ketganim yaxshiroq! Men hech narsaga tushunmayman... O‘zimga ham tushunmay qoldim... Sizning oldingizga kelayotganimda nima deyishimni bilardim... Lekin hammasi allaqanday chalkash bo‘lib ketdi... Avvalo qiziqtirib qo‘yib, baloga giriftor qildingiz. Endi bo‘lsa men senga onaman deysiz! Demak, ilashma demoqchisiz-da!

– Bilsangiz men sizga achinaman! – dedi ayol astagina.

Fomaning borgan sari xotinga nisbatan g‘azabi oshdi, u gapirgan sayin uning so‘zlaridan zahar tomar edi... u so‘zlarkan go‘yo o‘zini chulg‘ab olgan allanarsani uzayotgandek kiftlarini uchirardi.

– Achinasizmi?.. Buning menga keragi yo‘q... Eh, gapirolmayman-da! Ammo sizga aytardim... Siz menga yaxshi qilmadingiz – odamni yo‘ldan urishning nima keragi bor edi? Yo men sizga o‘yinchoqmi?

– Men sizni faqat yonimda bo‘lishingizni istardim, xolos... – dedi ayol soddagina qilib, gunohkor ovoz bilan.

Foma bu so‘zlarni eshitmadi.

– Gap ishga borib taqalgach, qo‘rqib ketib, mendan o‘zingizni olib qochyapsiz... Pushaymon qilyapsiz... Hayot yomon emish! Nega siz doim hayotdan noliysiz? Qanaqa hayotdan? Odamning o‘zi hayot, odamdan boshqa hech qanday bo‘lak hayot yo‘q... Siz bo‘lsangiz allaqanday dahshatni o‘ylab chiqaribsiz... buni siz ko‘z bo‘yash uchun, o‘zingizni oqlash uchun topgansiz... Qilg‘ilikni qilib har xil uydirmalar ichida yo‘ldan ozasiz-da, keyin oh-voh qilishga tushasiz! «Oh hayot! Voh hayot!» deysiz. Axir, shunday qilgan o‘zingiz emasmi? O‘zingizni shu oh-voh bilan niqoblaysiz-u, boshqalarning tinchligini buzasiz... Xo‘sh, o‘zingiz yo‘ldan ozibsiz, meni nega ozdirmoqchi bo‘lasiz? Yo bu sizdagi bir g‘azabmi. Menga yomon bo‘lgandan keyin senga ham yomon bo‘lsin, der ekansiz-da! Shundaymi? Eh, sizni! Xudo sizni farishtadek qilib yaratibdi-yu, lekin qalb degan narsa bermabdi-da, a?

Foma Medinskayaning ro‘parasida turib butun vujudi bilan qaltirar, unga ta’naomuz boshidan oyog‘igacha ko‘z yugurtirardi. Endi uning so‘zlari ko‘ksidan erkinroq chiqardi, ovozi qattiq chiqmasa

ham, u shijoat bilan gapirar va o‘z gapidan zavqlanar, ko‘zlarini katta ochib, uning yuziga tikildi, lablari titradi va lablarining burchaklarida chuqur ajinlar paydo bo‘ldi.

– Chiroyli ayol, chiroyli yashamog‘i kerak... Sizning to‘g‘ringizda esa olam-jahon gap... – Fomaning ovozi bo‘g‘ildi va u qo‘lini siltadi-da, po‘ng‘illab dedi, – xayr!

– Xayr!.. – dedi Medinskaya sekingina.

Foma unga qo‘lini bermay, shartta burilib, uning yonidan nari ketdi. Biroq zal eshigiga yetgach, unga achinganini sezdi-da, qayrilib unga qaradi. Medinskaya burchakda o‘zi yolg‘iz, qo‘llari osilgan holda boshini egib, jimgina tik turardi.

Foma shunday chiqib ketishi yaxshi emasligini payqadi-da, xijolat tortib, ohista, lekin qilmishiga sira o‘kinmagan ovoz bilan dedi:

– Agar men sizni xafa qiladigan biron gap aytgan bo‘lsam, kechiring! Har nechuk men... sizni yaxshi ko‘raman... – U og‘ir xo‘rsindi, ayol ohista va g‘alati qilib kulib qo‘ydi.

– Yo‘q, meni xafa qilganingiz yo‘q... Keting, xudo yorlaqasin!

– Bo‘lmasa, xayr endi! – deya takrorladi Foma, avvalgidan ham sekinroq.

Ayol ham:

– Xayr... – deya ohistagina javob qildi.

Foma qo‘li bilan nozik munchoq pardani siltab ochdi. Nozik iplar tebranib, shitirlab, uning yonoqlariga tegdi. Foma ularning muzdakligidan seskanib tushdi-da, dilida noaniq og‘ir bir tuyg‘u bilan chiqib ketdi, yuragi esa, go‘yo ustiga mayin, lekin pishiq to‘r tashlagandek, tipirchilab tepa boshladi...

Oydin kecha, ko‘lmaklar betini kumushdek yupqa muz qoplagan edi. Foma yo‘lkadan ketarkan, qo‘lidagi tayoqchasi bilan muzlarni sindirar, ular esa mungli tovush chiqarib qirsillar edi. Yo‘l ustida uylarning soyalari qorayib yotar, daraxtlardan allaqanday kungurador ko‘lankalar tushib turardi. Ba’zilari, yerdan najot so‘rab cho‘zilgan nozik qo‘llarga o‘xshardi...

Foma tor uyning bir burchagida, g‘ira-shira qizg‘ish qorong‘ida yolg‘iz qolgan ayolni ko‘z oldiga keltirib: «Hozir u nima qilyapti ekan?» deb o‘yladi.

«Men uni unutganim yaxshiroq...» degan qarorga keldi u. Biroq unutish mumkin emas, chunki ayol goh juda achintirib, goh achchig'ini keltirib, hatto g'azabini qo'zg'ab uning ko'z o'ngida tik turardi. Ayolning timsoli shu qadar ravshan va u haqdagi o'ylar shu qadar og'ir ediki, Foma go'yo bu ayolni o'z yuragida olib borayotganday edi. Fomaning ro'parasidan, toshlarni qarsillatib va muzlarni qisirlatib, tungi jimlikni buzib fayton kelar edi. Faytonchi bilan faytonda o'tirgan odam irg'ishlab chayqalishar, ikkalasi ham nima uchundir oldinga bukchayib olgan va ot bilan birga kattakon qora dog'ga o'xshab ko'rinardi. Ko'cha esa parcha-parcha shu'la-yu soyaga to'lgandi, lekin olisda zulmat shu qadar quyuq ediki, go'yo u yerdan ko'kkacha cho'zilgan qalin devor ko'chani to'sib turganga o'xshardi. Foma negadir, bu kishilar qayoqqa ketayotganini o'zlari ham bilmasa kerak, deb o'yladi... O'zi ham qayoqqa borishini bilmagandek edi... Ko'z o'ngida katta-katta olti xonali o'z uyi paydo bo'ldi. Anfisa ammasi monastirga ketib qolgan, balki u yerdan qaytmas, o'lib ketar... Uyda – qorovul Ivan, qariqiz – Sekleteya, oshpaz xotin bilan oqsoch qiz, tag'in tumshug'i xuddi laqqa baliqnikiga o'xshash baroq it ham bor. It ham qarib qolgan...

«Yaxshisi, uylanish kerak...» deb o'yladi Foma xo'rsinib.

Lekin uylanish masalasi uning uchun nihoyatda oson ekani esiga tushib o'ng'aysizlandi va, hatto, kulgisi qistadi. Ertagayoq otaxoniga: «Menga qiz toping», deyishi mumkin, bir oy o'tmay u bilan birga uyda bir xotin tura boshlaydi. U kecha-yu kunduz uning yonida bo'ladi. Foma unga: «Yur aylanib kelaylik!» desa u birga boradi... Bordi-yu, xotinga: «Kerakmas, qoch!» desa, u xafa bo'ladi... U bilan nimalar haqida so'zlashish mumkin bo'larkin? U o'ziga tanish qizlarni esladi. Ulardan ba'zi birlari chiroyli edi, qaysinisini xohlasa, o'shanisi jon deb unga tegishga rozi bo'lishini bilardi. Lekin Foma ularning birontasiga ham uylanishni istamasdi... Qiz bola xotining bo'lib qolsa, juda ham uyat, nihoyatda o'ng'aysiz bo'lsa kerak... Yoshlar nikohdan keyin, yotoqxonada o'zaro nimalarni so'zlasharkinlar? Foma shunday paytda o'zim nima derdim, deb o'ylab ko'rdi va bironta qulay so'z topolmay, xijolat bo'lib kulib qo'ydi... Shundan keyin Lyuba Mayakinani esladi. Ehtimol, u avval o'zi gap boshlab, unga yot bo'lgan allaqanday bema'ni so'zlarni

aytgan bo'larmidi... Negadir, Fomaga Lyubaning hamma so'zlari unga begonaday, o'z qiyofasiga, nasl-nasabiga va u yoshdagi qizga yarashmagan so'zlarni aytadiganday tuyular edi...

Shu choq Lyubaning nolishlari uning xayolidan kechdi. U o'ziga yaqin bo'lgan va ko'p vaqt so'zlashib turadigan odamlarning hammasi ham, negadir, u bilan doim hayot to'g'risida so'zlashlariga hayron bo'lib, qadamini sekinlashtirdi. Otasi, ammasi, otaxoni, Lyubov, Sofya Pavlovna – hammasi unga yo hayotni tushuntirmoqchi bo'lishar yoki hayotdan nolishar edi. Shunda u paroxoddagi cholning taqdir haqidagi so'zlarini va hayot to'g'risida turli-tuman odamlardan eshitgan boshqa ko'pgina fikrlarni, hayotdan nolishlarni va unga bo'lgan achchiq ta'nalarni esladi.

«Bu nima degan gap? – deb o'yladi u, – agar hayot bu odamlardan iborat bo'lmasa, hayot o'zi nima? Odamlar esa doim, hayot biz emas deyishadi, go'yo odamlardan boshqa yana allanima bor-u, xuddi o'sha narsa ularning yashashiga xalaqit berayotganday».

Yigitni dahshatli vahm chulg'ab oldi. U seskanib tushdi-da, shoshib atrofiga qaradi. Ko'cha bo'm-bo'sh va jimjit edi. Uylarning qop-qora derazalari tungi g'ira-shira qorong'ida xira ko'rinardi, Fomaning soyasi esa devorlar bo'ylab uning orqasidan ergashib kelardi.

– Izvoshchi! – deb qichqirdi Foma, qadamini tezlatib. Qop-qora soya bir irg'ib tushdi-da, qo'rqa-pisa jimgina uning orqasidan sudralib ketdi.

VII

Medinskaya bilan bo'lgan suhbatdan keyin bir hafta vaqt o'tdi. Medinskayaning timsoli Fomaning yuragini jizillatib, kecha-yu kunduz ko'z o'ngidan nari ketmadi. Foma Medinskayaning oldiga borgisi keldi, ko'rmasa turolmaydigan dardga yana mubtalo bo'lsa-da, lekin bu dardga taslim bo'lishni istamadi, u qovog'ini solib, astoydil ishga berilib, o'zida bu xotinga qarshi g'azab qo'zg'atmoqchi bo'ldi. Agar u Medinskayaning oldiga borsa, uni avvalgi qiyofada ko'rmasligini, o'sha suhbatdan so'ng unda, albatta, biror o'zgarish ro'y bergan bo'lishini, u endi avvalgidek ochiq chehra bilan kutib ol-

masligini, ko'nglida allaqanday ajoyib o'y va umidlar qo'zg'aydigan muloyim jilmayish bilan kulib qaramasligini sezdi. Ilgarigi muomalaning bo'lmasligidan, aksincha, allaqanday boshqacharoq bo'lishidan qo'rqib, Foma o'zini tiyib va azoblanib yurdi...

Ish va sog'inch hissi uning hayot haqida o'ylashiga xalaqit bermadi. Foma yuragida hayajonli his uyg'otgan bu jumboq to'g'risida mulohaza ham qilib ko'rmadi, chunki u mulohaza yuritishni bilmasdi, lekin odamlarning hayot haqidagi aytgan so'zlarini zo'r diqqat bilan tinglardi.

Bu so'zlardan Foma hech narsani aniq tushuna olmas, qaytaga battar taajjublanib, ulardan shubhalanardi. Ular epchil, mug'ambir va aqlli edilar, Foma buni ko'rib turardi, ular bilan ish ko'rganda doim ehtiyot bo'lish kerak edi. Eng muhim masalalarda ularning birontasi ham dilidagini ochiq aytmasligini Foma allaqachon bilib olgan edi. Ularni diqqat bilan kuzatarkan, barcha oh-vohlariga va hayotdan nolishlariga ishongisi kelmaganini sezardi. U indamasdan, shubhali nazar bilan hammani ko'zdan kechirar, o'shanda peshanasini mayda ajin bosardi...

Bir kuni ertalab birjada otaxoni unga shunday dedi:

– Ananiy kelibdi... Seni chaqiryapti... Sen kechqurun uning oldiga bor, lekin tilingga ehtiyot bo'l... Ananiy tilingni qichitib ish haqida gapga soladi... Ayyor u, keksa shayton... taqvodor tulki... ko'zlarini ko'kka tikib, panjasini qo'yningga tiqadi-da, hamyoningni olib qo'yadi... Ehtiyot bo'l!

– Undan qarzimiz bormi? – deb so'radi Foma.

– Bo'lmasam-chi! Barja uchun to'lanmagan, undan keyin yaqinginada ellik sarjin o'tin olganmiz... Agar hammasini bir yo'la so'rasa bormi... Pul – yopishqoq narsa bo'ladi: qo'lingda qanchalik uzoq tursa, unga shunchalik ko'p tiyin yopishadi...

– Axir, qanday qilib bermay bo'ladi, bordi-yu, qistab qolsa-chi?

– Qistasa mayli, yig'lasin, sen ho'ngra, lekin berma! Ananiy Savvich Shurov yog'ochfurush katta savdogar, uning taxta tiladigan katta zavodi bo'lib, barjalar yasar, sol oqizar edi. Ilgari u Ignat bilan ish olib borardi. Foma bu novcha, qarag'aydek tik gavdali, oppoq patak soqolli, qo'llari uzun cholni bir necha bor ko'rgan edi. Foma odamlardan bu «yog'ochfurush»ning halol mehnat orqasida boyi-

maganini, o‘rmonzor uyezdning ovloq bir qishlog‘idagi uyida halol yashamaganini eshitgan bo‘lsa ham, bu cholning kelishgan qaddi-basti, istarasi issiqligi va beg‘araz boqishlari Fomada Shurovga nisbatan zo‘r ehtirom uyg‘otardi... Otasi bir kuni Fomaga, Shurov yoshligida, hali kambag‘al mujiklik vaqtida, tomorqasidagi hammomida bir katorjnikni asraganini, katorjnik unga qalbaki pul yasab berganini gapirgan edi. Ana o‘shandan boshlab Ananiy boyib ketgan emish. Bir kuni uning hammomiga o‘t ketibdi va kul orasidan tanasi ko‘mirga aylanib, bosh chanog‘i yorilgan odam jasadini topishibdi. Qishloqda, uni Shurovning o‘zi o‘ldirgan, o‘ldirib o‘t qo‘yib yuborgan deyishardi. Shahardagi ko‘pgina boylar to‘g‘risida ham xuddi shunday gaplar yurardi, go‘yo ularning hammasi ham o‘g‘irlik, odam o‘ldirish, ayniqsa, qalbaki pul ishlatish orqasida millioner bo‘lib ketgan, deyishardi. Foma bunaqa so‘zlarni bolalik chog‘laridanoq eshitib kelardi-yu, biroq bularning rost-yolg‘onligi to‘g‘risida hech qachon o‘ylamagan edi.

Foma Shurov haqida yana quyidagilarni ham bilardi: bu chol ikki xotinning boshiga yetgan emish, ularning bittasi nikoh kechasiyoq Ananiyning qo‘ynida o‘lganmish. Shundan keyin u o‘z o‘g‘lining xotinini yo‘ldan uribdi, o‘g‘li esa alamiga chidolmay ichkilikka berilibdi va ichkilik orqasida halok bo‘lishiga oz qolibdi, lekin o‘z vaqtida es-hushini yig‘ib, Irgizdagi monastirga kirib ketibdi. Shurov ma’shuqa – kelin o‘lgandan keyin, bir soqov gadoy qizni uyiga olib kelibdi va shu kungacha o‘sha bilan turarmish, soqov unga o‘lik bola tug‘ib beribdi... Foma Ananiyning oldiga, mehmonxonaga ketayotib, shu chol to‘g‘risida otasidan va boshqa odamlardan eshitganlarining hammasini beixtiyor esladi va Shurov uning uchun g‘alati va ajoyib bir kishi ekanini payqadi.

Foma eshikni ochdi-da, birgina derazasidan qo‘shni uyning faqat zanglagan tomigina ko‘rinib turgan kichkina nomerning bo‘sag‘asida hurmat bilan to‘xtadi. Keksa Shurovning endigina uyg‘onib, karavot chetiga qo‘llarini tiragan holda, oppoq soqolini tizzasiga tushirib, polga tikilganicha bukchayib o‘tirganini ko‘rdi. Biroq bukchaygan bo‘lsa ham, nihoyatda katta edi...

– Kirgan kim? – deb so‘radi Ananiy zarda bilan xirillab, boshini ko‘tarmay.

– Men. Salom, Ananiy Savvich...

Chol sekin boshini ko'tardi-da, katta ko'zlarini qisib, Fomaga qaradi.

– Ignatning o'g'limisan?

– Ha, xuddi o'zi...

– E... qani, huv deraza yoniga o'tir-chi, ko'ray-chi, qanday bo'psan! Xo'sh, choy qilsammikin?

– Bo'lsa ichardim.

– Koridorniy! – deb baqirdi chol ko'kragini kerib, so'ngra soqolini tutamlab, indamay Fomani kuzata boshladi. Foma ham unga yer ostidan qarab turdi.

Cholning keng peshanasi ajin bosib, tirishib ketgan, oppoq jingalak soch tolalari uning ikki chakkasi bilan quloqlarini berkitib turardi. Sokin, moviy ko'zlari esa, yuzining yuqori qismiga donolik, nuroniylik tusini berar edi. Biroq lablari nihoyatda qalin, qipqizil bo'lib, uning yuziga mos emasdi. Uzun, ingichka burni oppoq mo'ylovlari orasiga yashirinishga urinayotganday pastga egilgan, chol lablarini pichirlatganda lablari orasidan sariq, o'tkir tishlari yiltillab ketardi. Uning egnida pushti rang chit ko'ylak, belida shoyi belbog', qora cholvorining pochalari etigining qo'njiga tiqilgan edi. Foma uning lablariga qararkan, chol haqidagi gaplarning hammasi to'g'ri bo'lsa kerak, deb o'yladi...

– Bolaligingda otangga ko'proq o'xsharding! – dedi Shurov qo'qqisdan va xo'rsinib qo'ydi. Keyin biroz jim turgach, so'radi: – Otang esingdami? Uni duo qilib turibsanmi? Duo qilish kerak! – deb so'zida davom etdi, Fomaning qisqa javobini eshitib bo'lgach. – Ignat zo'r gunohkor edi... Tavba qilmay o'lib ketdi... bevaqt o'ldi... zo'r gunohkor.

– Boshqalardan ko'ra gunohkor emasdir, – deb javob qildi Foma xo'mrayib, alam qilganidan.

– Masalan, kimdan? – so'radi chol dag'allik bilan.

– Gunohkorlar oz deysizmi?

– Bu dunyoda rahmatli Ignatdan ham gunohkorroq bir odam bor, u ham bo'lsa sening otaxoning, o'sha la'nati, diyonatsiz Yashka... – dedi chol dona-dona qilib.

– Siz buni aniq bilasizmi? – deb so'radi Foma kulimsirab.

– Menmi? Bilaman! – dedi Shurov ishonch bilan boshini chayqab, ko'zlari esa qorayib ketdi. – Men o'zim ham xudoning oldiga... yengil-yelpi bormayman... Uning muqaddas dargohiga nihoyatda og'ir yuk bilan boraman... Mening ham shaytonni quvontirgan vaqtlarim bo'lgan... Lekin men xudoning karamidan umidvorman, ammo Yashka aksa urishga ham, tushga ham, qushlarning sayrashiga ham ishonmaydi... Yashka xudoga ham ishonmaydi. Men buni bilaman! Mana shu kufurligi uchun bu dunyoda hali u ko'p azob tortadi.

– Buni ham bilasizmi? – deb so'radi Foma.

– Buni ham... Sen o'ylama, – so'zlarimga nega kulib o'tirganingni ham bilib turibman... Naqadar donolik qilyapti, deb o'tiribsan!.. Lekin ko'p gunoh qilgan odam, doim aqlli bo'ladi... Gunoh o'rgatadi... Shuning uchun ham Yashka Mayakin topilmaydigan aqlli odam...

Foma cholning xirillab va ishonch bilan aytgan so'zlariga quloq solib o'tirib:

«Aftidan, o'lishini sezyapti...» deb ko'nglidan o'tkazib qo'ydi.

Rangi oqargan, yuzining siyqasi chiqqan pakanagina koridorniy samovar olib kirib qo'ydi-da, mayda qadam tashlab, darrov nomerdan chiqib ketdi. Chol deraza tokchasidagi allaqanday tugunchalarni titkilarkan, Fomaga qaramay gapga tushdi:

– Qo'rssan... ko'zing ham qora... Ilgari ko'zi ko'k odamlar ko'p bo'lguvchi edi... Ilgari dillar ham ravshan bo'lguvchi edi... Ilgari hamma narsa sodda edi – odamlar ham, gunohlar ham... Endi esa hech narsaga tushunib bo'lmaydi... eh-he! U choy damlab, Fomaning ro'parasiga o'tirdi-da, yana gapga tushib ketdi:

– Otang sening yoshingda... bizning qishloq yonida kemalar karvonida suv quyuvchi edi... Sening yoshingda ignat oynadek ravshan edi. . Bir qarashdayoq, uning qanaqa odam ekanini darrov bilib olarding. Lekin senga shuncha qarasam ham bilolmayman – nimasan? Kimsan? O'zing nani, yigitcha, buni bilmaysan... Shu sababdan ham xarob bo'lasan... Hozirgi odamlarning hammasi ham xarob bo'lishi kerak, chunki ular ham o'zlarini bilishmaydi... Hayot esa bir chakalakzorki, unda o'z yo'lingni topa bilishing kerak... Qayda o'sha yo'l? Hamma adashib yuribdi... Shayton esa xursand... Uylanganmisan?

– Yo'q hali, – dedi Foma.

– Mana shunaqa-da... Uylanmagansan-u, lekin allaqachon nopok bo'lgandirsan... Xo'sh, o'z ishingda ko'p ishlaysanmi?

– Ishlayman ham... Hozircha otaxonim bilan birgamiz.

– Hozirgi ishingiz ishmi? – dedi chol boshini chayqab. Uning ko'zlari goh chaqnab, goh yana qorayib alanglardi. – Sizlarda mehnat qilish yo'q! Burungi zamonda savdogar ish bilan otda yurardi... Bo'ronda ham, tunda ham... yurardi!.. Uni yo'lda qaroqchilar to'sib o'ldirishardi... U o'zining gunohlarini qoni bilan yuvib, azob chekib o'lardi... Endi esa, vagonlarda yurishadi... telegrammalar yuborishadi... yana tag'in, eshitdingmi, allanima o'ylab chiqarishibdi, kishi o'z kontorida o'tirib gapirarmish-u, so'zi esa besh chaqirimdan eshitilarmish... bu shaytonning aqli bilan bo'lgan, albatta!.. Odam qimir etmay... tek o'tiraveradi... Mana shuning uchun ham gunoh qiladi, zerikadi-da, chunki qiladigan ishi yo'q, uning uchun hamma ishni mashina qiladi... Unga ish yo'q, ishsiz odam halok bo'ladi! U mashina sotib olib, endi yaxshi bo'ldi! – deb o'ylaydi. Axir o'sha mashina sen uchun iblis tuzog'i-ku! Ish qilganda gunoh qilishga vaqt qolmaydi, mashina bo'lsa, vaqt bemalol! Yer ostining maxluqi chuvalchang quyoshda halok bo'lgandek, odam ham erkinlikdan halok bo'ladi... Odamzod erkinlikdan halok bo'ladi!

Chol Ananiy har bir so'zini dona-dona qilib aytarkan, o'z so'zlarini tasdiqlab, barmog'i bilan stolni to'rt marta urib qo'ydi. Uning yuzi yovuz quvonch bilan porladi, ko'ksi ko'tarilgan sayin soqolining kumushsimon tolalari qimirlardi. Uning so'zlari. Fomani dahshatga soldi, bu so'zlarda qat'iy ishonch bor edi va bu ishonchning kuch-qudrati Fomani xijil qildi. U endi chol haqida eshitgan va o'zi yaqinginada rost deb ishonib yurgan narsalarning hammasini unutdi.

Ananiy Fomaga biram g'alati qilib qaradiki, xuddi Fomaning orqasida yana kimdir birov bor-u, go'yo u cholning so'zlariga yuragi ezilib dahshat bilan quloq solib turganday, go'yo chol uning yuragi ezilganini, mana shu alam chekishini, vahimaga tushganini ko'rib qaytaga quvonayotganday edi... Sizlar, hozirgilar, hammangiz ham erkinlikdan halok bo'lasiz... Sizlarni shayton ozdirgan... U sizlarni mehnatdan mahrum qilib, uning o'rniga qo'lingizga o'zining mashina va telegrammalarini tutqazib qo'ydi... Qani, ayt-chi, nima uchun

bolalar otalaridan yomonroq? Erkinlikdan! Shuning uchun ichishadi, xotinlar bilan buzuqlik qilishadi...

– E, – dedi Foma ohista, – ilgari ham kam ichib, kam buzuqchilik qilishgan emas.

– Ovozingni o'chir! – deya qichqirdi Ananiy, ko'zlarini ola-kula qilib. – U vaqtda odamlarning kuchi ko'p edi... kuchiga qarab gunoh qilishgan! U vaqtda odamlar emanga o'xshardi... Xudo ham ularni kuchiga qarab jazolaydi... Ularning jasadlari tarozida tortiladi: maloikalar ularning qonlarini ham o'lchashadi va maloikalar ular qilgan gunohlarning vazni o'z jasad va qonlarining og'irligidan oshmaganligini ko'rishadi... Tushundingmi? Bo'ri qo'y yegani bilan, xudo uni jazolamaydi... bordi-yu, la'nati kalamush qo'yni yeb, gunohkor bo'lsa, kalamushni jazolaydi!

– Xudo odamni qandoq jazolashini odamlar qaydan bilsin? – deb so'radi Foma o'ylanibroq, – oshkor sud lozim...

– Qanaqa oshkor?

– Odamlar tushunadigan...

– Menga xudodan boshqa kim sudya bo'la oladi?

Foma cholga qarab qo'ydi-da, boshini egib jim bo'ldi.

Shurov o'ldirib, o't qo'yib yuborgan qochoq katorjnik esiga tushib, haqiqatan shunday bo'lganiga ishondi. Bu chol, ehtimol, o'sha xotinlarni – xotini bilan o'ynashini – o'zining qo'pol erkalatishlari bilan go'rga tiqqan, ularni suyakdor ko'kragi bilan ezib tashlagan, tomirlari bo'rtib chiqqan mana shu uzun qo'llarida o'lgan, mana shu qalin, do'rdoq lablari bilan jirlarini so'rib olgan xotinlarning qonlari hali ham ketmagani uchunmi, lablari qip-qizil edi. Endi esa u yaqinlashib kelayotgan ajalni kutib qilgan gunohlarini eslarkan, odamlarni qoralaydi: «Menga xudodan boshqa kim sudya bo'la oladi?» deydi.

«U qo'rqyaptimi?» o'ziga o'zi savol berdi-da, Foma cholni yer ostidan kuzatarkan, o'ylanib qoldi.

– Shundog', yigitcha, shundog'! O'yla... – dedi Shurov boshini chayqab. – Qandog' yashashni o'yla... O-o-xo-xo! Juda uzoq umr ko'rdim! Daraxtlar o'sib kesildi, ulardan uylar qurildi... Hatto uylar ham nuradi... bularning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rdim, lekin hamon tirikman! Ba'zan o'tgan umrimni eslab: «Nahotki, bir odam shuncha ish qilsa? Nahotki, bularning hammasini boshimdan

o‘tkazganman?..» deb o‘ylab qo‘yaman... – Chol Fomaga xo‘mrayib qarab qo‘ydi-da, boshini chayqab, jim bo‘lib qoldi.

Oraga jimlik cho‘kdi. Deraza orqasidagi tomda nimadir ohista shitirladi, pastdan, ko‘chadan o‘tgan arava g‘ildiraklarining ovozi bilan odamlarning gangir-gungur gaplashgani eshitilardi. Stol ustidagi samovar mungli qo‘shiq aytardi. Shurov soqolini silab, stakandagi choyga tikilardi, uning ko‘kragida bir narsa g‘ijirlagani eshitilardi...

– Otasiz yashash senga qiyin bo‘lsa kerak? – dedi u.

– Ko‘nikyapman... – deb javob berdi Foma.

– Sen boysan... Yakov o‘lsa bundan ham boy bo‘lasan... Hammasini senga qoldiradi. Uning birgina qizi bor. Qizini ham sen olishing kerak... U senga tutingan, bir ko‘krakdan sut emgan singil bo‘lsa ham hechqisi yo‘q! Uylansang bo‘lardi... Bunday yashashdan nima foyda, yo qizlar bilan yurishga o‘rgangansanmi?

– Yo‘q...

– Gapir-a! Eh-he! Savdogar tabaqasi o‘lyapti... Buni menga bir o‘rmonchi aytib bergan edi, rostmi, yolg‘onmi, burungi zamonlarda hamma itlar bo‘ri bo‘lgan ekan, keyin it bo‘lib ketganmish... Bizning savdogar ahli ham shunga o‘xshaydi, hademay hammamiz ham it bo‘lib ketamiz... Ilm o‘rganamiz, boshimizga modabop shlapalar ilib olamiz, basharamizni o‘zgartirish uchun nima zarur bo‘lsa hammasini qilamiz... Shundan keyin bizni boshqa odamlardan hech kim ajratolmaydi... Shunday bir g‘alati tartib o‘rnatishibdiki, hamma bolalarni gimnazistlikka oborib berish kerak... Savdogarlarni ham, dvoryanlarni ham, meshchanlarni ham – hammani bir qolipga tortadilar endi... Kulrang kiyim kiydirib, hammaga bitta ilm o‘qitishadi... Odamni daraxtni o‘stirgandek o‘stirishaveradi. Bu nima uchun kerak? Buni hech kim bilmaydi... G‘o‘lani ham bir biridan butog‘iga qarab ajratsa bo‘ladi, ammo endi odamlarni bir xilda qilib randalab yo‘nmoqchi bo‘ladilar... Hademay biz qariyalarning kunimiz bitadi... shunday! Ellik yillardan keyin bu yorug‘ dunyoda Savvich o‘g‘li Shurov laqabli Ananiy yashaganiga balki hech kim ishonmas ham... Shundog‘! Men Ananiy xudodan boshqa hech kimdan qo‘rqmaganimga... yoshligimda mujik bo‘lganimga, ikki desatina-yu, chorak yerim bo‘lib, qarigan chog‘imda o‘n bir ming desatina

o‘rmon... Ikki millionga yetar chamasi pul yiqqanimga ham ishonmaydilar...

– Hamma pul to‘g‘risida gapiradi, – dedi Foma ta’bi xira bo‘lib. – Odamzod puldan nima shodlik ko‘radi?

– Hm-m... – deb po‘ng‘illadi Shurov. – Pulning kuchini fahmlamasang, sendan yaxshi savdogar chiqmaydi...

– Kim uni fahmlaydi? – deb so‘radi Foma.

– Men, – dedi Shurov qat’iy qilib, – har bir aqlli odam ham... Yashka fahmlaydi... Pul?! Bu zo‘r narsa-ya, yigitcha! Avval uni oldingga qator tizib qo‘y-da, unda nimalar borligini bir o‘ylab ko‘r! O‘shanda, odamning kuchi ham, odamning aqli ham – hammasi shunda ekanini payqaysan... Pul uchun minglab odamlar o‘z hayotini tikib qo‘ygan. Sen shularning hammasini – ana shu pulni yonib turgan pechkaga tashlay olasan va ularning qanday yonishini tomosha qilsang... Ana shu paytda o‘zingni hukmron deb hisoblaysan...

– Bunday qilib bo‘lmaydi...

– Shu vajdan ahmoqlarda pul bo‘lmaydi-da... Pul ishga solinadi... Ish bilan xalq to‘yadi... Sen bo‘lsang shu xalq ustidan xo‘jayinsan... Xudo odamni nima uchun yaratgan? Odam unga sig‘insin deb... Xudo yakka-yu yagona bo‘lgan, yolg‘iz o‘zi zerikkan... Shundan keyin hokim bo‘lishni istab qolgan... Ana shuning uchun odam xudoning shakli-shamoyilida yaratilgan, deyiladi, shu sababdan odam ham hukmron bo‘lishni xohlaydi... Hukmronlikka puldan boshqa nima yetishtirsin?.. Mana shunaqa... Xo‘sh, sen menga pul olib keldingmi?

– Yo‘q... – deb javob qildi Foma, cholning so‘zlaridan uning boshi g‘ovlab ketdi va gap, nihoyat, ish ustiga ko‘chganidan xursand bo‘ldi.

– Chakki bo‘pti! – dedi Shurov, qovog‘ini solib. – Muddati o‘tdi – to‘lash kerak...

– Ertaga yarmini olasiz...

– Nega yarmini? Hammasini ber!

– Hozir o‘zimizga juda ham pul zarur...

– Pul yo‘qmi? Lekin menga ham zarur...

– Biroz sabr qilib turing!

– E, inim, kutolmayman! Sen otang emassan... Sizdaqangi go'daklarga ishonib bo'lmaydi... Bir oy o'tmay butun ishning chatog'ini chiqarishing mumkin... Unda men zarar ko'raman... Sen menga ertagayoq hammasini ber, bo'lmasa veksellarni protestga beraman... Bu ish qo'limdan keladi!

Foma Shurovga qarab hayron qoldi. Bu haligina donolik bilan shayton haqida gapirgan cholga o'xshamas edi... O'shanda uning yuzi ham, ko'zlari ham boshqacha edi, hozir esa u qahr bilan tikilib qarab turardi va uning yonoqlarida, burun teshiklari yonida allaqanday tomirchalari dir-dir titrar edi. Foma, agar unga o'z muddatida to'lamasa, u chindan ham veksellarni protestga berib, firmaning rasvosini chiqarishi mumkinligini tushundi...

– Xo'sh, hali ishlar chatoqmi, – deya Shurov iljaydi. – Qani, rostini ayt-chi, otangning pullarini qayerga sovurding?

Foma cholni sinab ko'rmoqchi bo'ldi.

– Ishlar judayam ko'ngildagidek emas... – dedi u xo'mrayib, – ish yo'q... bay puli olganimiz yo'q... Ish chatoqroq...

– Shunaqami? Yordam beraymi bo'lmasa?

– Bir yaxshilik qiling... Qarz muddatini sal cho'zing,– deb so'radi Foma, odob bilan yerga qarab turib.

– Hm... otangga do'st bo'lganim tufayli yordam qilaymi? Xo'p, mayli...

– Muddatini qancha vaqtga cho'zasiz! – deb so'radi Foma.

– Yarim yilga...

– Ko'p rahmat...

– Hechqisi yo'q... O'n bir ming olti yuz qarzing bor... Unday bo'lsa, sen menga veksellarni o'n besh mingga qayta yoz, mana shu summaning foizini oldin to'lab qo'y... Lekin men ishonishim uchun ikkita barjangni garovga olib turaman...

Foma stuldan turarkan, kulimsirab dedi:

– Ertagayoq veksellarni yuboring... Men sizga hammasini birato'la to'layman...

Shurov ham stuldan zo'rg'a turdi-da, mazax qilib unga qarab turgan Fomaga tikilarkan, ko'kragini qashib turib dedi:

– Unday bo'lsa yana soz...

– Rahmat... Iltifotingiz uchun!

– Bo‘sh kelmayapsan-da, bo‘lmasa senga ancha iltifot ko‘rsatardim! – dedi chol erinibgina, tishlarini irjaytirib.

– Ha-da! Sizning qo‘lingizga tushgach...

– Issiq bo‘ladi...

– Ha, issig‘imizni chiqarib qo‘yarsiz...

– Qo‘y endi, yigitcha, bas! – dedi Shurov zarda qilib. – Sen o‘zingni ahmoqmasman deb o‘ylaysan-u... lekin hali erta... O‘yinni durang qilding-u darrov maqtanganing ortiqcha!.. Avval sen meni yutib ol... ana o‘shanda suyunib o‘yinga tush... Xayr bo‘lmasa... Ertaga pulni tayyorlab qo‘y...

– Xotirjam bo‘ling, xayr!..

– Yaxshi bor!

Foma nomer eshigidan chiqishi bilanoq, cholning qattiq va cho‘zib esnaganini, keyin esa xirillagan yo‘g‘on ovoz bilan duo o‘qiganini eshitdi.

«Karaming eshigini och... Yo Bibi Maryam...»

Foma chol yonidan ikki xil tuyg‘u bilan chiqib ketdi: unga Shurov ham yoqardi va ayni zamonda undan jirkanardi.

U cholning gunoh to‘g‘risidagi so‘zlarini esladi, xudoning marhamatiga ishonchi zo‘rligini o‘ylarkan, chol unda hurmatga yaqinroq bir his uyg‘otdi.

«Bu ham hayot to‘g‘risida gapiryapti... Mana, o‘z gunohlarini bilib tursa ham, lekin yig‘lamaydi, nolimaydi... Gunoh qildimmi, javobini o‘zim beraman, deydi... U-chi?» Medinskayani esladi-da, yuragi o‘rtanib ketdi. «U tavba qilyapti... tushunib bo‘lmaydi, u jo‘rttaga shunday qilyaptimi, yo chindan ham yuragi achishadimi...»

Foma Ananiyga havasi kelganini sezdi-yu, lekin o‘sha zahotiyoq chol uni aldamoqchi bo‘lganini esladi. Bu esa unda Shurovga nisbatan jirkanish hissini qo‘zg‘adi, bu qarama-qarshi hislarni murosaga keltirolmay, hayron bo‘lib, miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Shurovning oldiga ham bordim, – dedi u Mayakinlarnikiga kelib, stol yoniga o‘tirarkan.

Yog‘ bosgan xalat kiygan va qo‘lida schet ushlagan Mayakin, o‘z charm oromkursisida toqatsizlik bilan tipirchilab qo‘ydi-da, jonlanib so‘zga tushdi.

– Bunga choy quy, Lyubava! Gapir, Foma... to‘qqizda dumaga borishim kerak, tezroq gapir.

Foma Shurovning veksellarni qaytadan yozib berishni taklif qilganini kula-kula so‘zlab berdi.

– E-eh! – deya xitob qildi Yakov Tarasovich afsus ichida bosh chayqab. – Sen mening butun toat-ibodatimni bir pul qilding, inim! Axir odam bilan ishni shunaqa ochiqdan ochiq olib borib bo‘ladimi? Tuf! Qayerdanam yubordim seni! O‘zim borishim kerak edi... Men uni xo‘b o‘ynatardim.

– O‘ynatib bo‘psiz! U: «Men emanman», deydi.

– Eman? Men esa arraman... Eman – yaxshi daraxt-u, lekin mevasini cho‘chqa yeydi... Demak, eman – yomon...

– Axir, baribir to‘lash kerak-ku...

– Bunday ishda aqlli odamlar oshiqmaydilar!.. Sen bo‘lsang, pulni chopqillab oborib bermoqchisan... Savdogar!

Yakov Tarasovich Fomadan juda norozi bo‘ldi. U aftini burushtirarkan, jimgina choy quyib o‘tirgan qiziga zarda bilan buyruq qildi:

– Qandni yaqinroq surib qo‘y, ko‘rib turibsan-ku, qo‘lim yetmayapti...

Lyubaning rangi oqardi, ko‘zlari xiralashdi, qo‘llari esa qovushmay, arang qimirlardi... Foma unga qarab: «Otasining oldida biram yuvoshki...» deb qo‘ydi ichida.

– U sen bilan nimalarni gaplashdi? – deb so‘radi Mayakin.

– Gunohlar to‘g‘risida...

– Shunaqa-da! Har kim o‘z ko‘machiga kul tortadi... O‘zi esa gunohlar fabrikanti... uni katorgada ham, do‘zaxda ham ko‘pdan orziqib kutishyapti, qachon kelarkin, deb ko‘zlari to‘rt...

– U salmoqli gap qildi, – deb qo‘ydi Foma o‘ylanibroq, stakandagi choyni aralashtirib.

– Meni so‘kdimi? – deb so‘radi Mayakin, basharasini burushtirib:

– Ha...

– Sen nima deding?

– Menmi... eshitib o‘tirdim...

– Hm... nimani eshitib o‘tirding?

– «Kuchli odamning gunohi kechiriladi, zaif odamga kechirim yo‘q», deydi...

– Shu ham aqlli gap bo‘ldi-yu!.. Buni burgalar ham biladi...

Otaxonining Shurovga bo‘lgan nafratomuz munosabati negadir Fomaning g‘ashiga tegdi va u Mayakinning yuziga qarab turib kulgi aralash dedi:

– U sizni yaxshi ko‘rmaydi...

– Meni, inim, hech kim yaxshi ko‘rmaydi! – dedi Mayakin g‘urur bilan. – Meni yaxshi ko‘rishning hojati ham yo‘q, men qiz bola emasman... Lekin hurmat qilishadi... Odamlar kimdan qo‘rqsa, faqat o‘shani hurmat qilishadi...

Chol maqtanib Fomaga ko‘z qisib qo‘ydi...

– U salmoqli gapirdi... – deya takrorladi Foma. – Zorlandi... «Haqiqiy savdogarlar o‘lib tamom bo‘lyapti, deydi... Hamma odamni faqat bitta ilmga o‘qityaptilar... hamma barobar bo‘lsin uchun... bir qiyofada bo‘lsin uchun...» deydi.

– Bu yaxshi emas, dedimi? Ahmoq! – dedi Mayakin nafrat bilan.

– Buning nimasi yaxshi? – deb so‘radi Foma, otaxoniga shubha bilan qarab.

– Agar biz har xil odamlarni bir yerga yig‘ib, hammasiga bir fikrning uqtirilganini ko‘rsak, biz buni oqilona ish deb iqror bo‘lishimiz lozim... Chunki davlatda odam o‘zi nima degan gap? Bir oddiy g‘isht degan so‘z, lekin hamma g‘isht bir qolipda bo‘lishi shart, uqdingmi? Bo‘yi ham, vazni ham bir xil bo‘lgan odamlarni, qandoq istasam, shundoq quyaman.

– Oddiy g‘isht bo‘lish hech kimga yoqmasa kerak, – dedi Foma qovog‘ini solib.

– Gap kimga yoqishida emas, ish ustida... Har kimning ham tanobini tortib bo‘lmaydi, lekin ba’zilarni to‘qmoqlasang, oltin bo‘ladi... Bordi-yu, boshi yorilsa nachora? Demak, zaif ekan...

– U mehnat haqida ham gapirdi... «Hamma ishni mashina qilyapti, shuning uchun ham odamlar taltayib ketgan...» – deydi.

– Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga! – dedi Mayakin mensimay qo‘l siltab. – Hayronman senga, bo‘lmagan bema’ni gaplarga doim ishtahang karnay! «Mashina!» O‘sha keksa to‘nka,

mashina nimaligini hech o‘ylaganmikin? Axir, mashina temir-ku! Shunday bo‘lgach, uni qizg‘anib bo‘ladimi, yurgizib yuborsang, u senga pul ishlab beradi... So‘zsiz, mashaqqatsiz... yurgizdingmi, aylanaveradi! Odam degan serg‘alva va ojiz... goho juda ham ojiz bo‘ladi!.. Hangraydi, noliydi, yig‘laydi, tilaydi... ichib mast bo‘ladi... Odamzodda menga yoqmaydigan ortiqcha narsa juda ko‘p! Mashina esa, baayni gazga o‘xshaydi, unda ish uchun nima talab qilinsa hammasi bor... Xo‘p, men borib kiyinay... vaqt bo‘lib qoldi.

U o‘rnidan turdi, tuflisini polda shaloplatib sudrab, chiqib ketdi. Foma uning orqasidan qarab qoldi-da, qovog‘ini chimirib, past ovoz bilan dedi:

– Lekin bu so‘zlarga shayton ham tushunolmaydi, biri bunday deydi, ikkinchisi unday...

– Kitoblarda ham shunaqa, – dedi Lyubov ohistagina.

Foma unga muloyimgina jilmayib qarab qo‘ydi. Qiz unga noaniq tabassum bilan javob qildi. Uning ko‘zlari horg‘in va g‘amgin boqardi...

– Hali ham o‘qiysanmi? – deb so‘radi Foma.

– Ha-a... – deb hazin javob berdi qiz...

– Zerikasanmi?

– Juda... chunki yolg‘izman... Bir og‘iz gaplashgani odam yo‘q...

– Ishing chatoq ekan bo‘lmasa...

Qiz unga hech narsa demadi, faqat boshini egdi va barmoqlari bilan sochiqning popuklarini taray boshladi.

– Kuyovga chiqsang bo‘lardi... – dedi Foma, qizga rahmi kelayotganini payqab.

– Qo‘ysang-chi... – dedi Lyubov, peshanasini burushtirib.

– Nimani qo‘yay? Baribir, tegasan-da...

– Mana! – dedi qiz xo‘rsinib ohistagina. – O‘zim ham kerak deb o‘ylayman-u... Lekin qandoq qilib? Bilasanmi, nazarimda, men bilan odamlar orasida... qalin tuman borga o‘xshaydi... Judayam qalin tuman!

– Hammasi ko‘p kitob o‘qiganingdan, – deb qo‘ydi Foma.

– Shoshma! Nima bo‘layotganiga o‘zim ham tushunolmayapman... Menga hech narsa yoqmaydi, hamma narsa yotga o‘xshaydi...

Hamma narsa joyida emas, g'alatiroq... Men bunga tushunaman, lekin nima joyida emas, nima g'alati ekanini aytolmayman!

– «Unday emas, unday emas...» – dedi Foma bidirlab. – Bularning hammasi kitobdan... Lekin men ham unday emasligini sezaman... Balki bu bizning hali yoshligimizdandir.

– Avvallari men, – dedi Lyubov uning so'zlariga quloq solmay kitobdagi hamma narsaga tushunaman, deb o'ylardim...

– Qo'y shu kitoblaringni! – deya maslahat qildi Foma, mensimay.

– Bas endi! Axir, buni qo'yib bo'ladimi? Bilasanmi, dunyoda necha turli fikr bor! Yo, tavba! Shundaylar ham borki, boshni yondiradi... Bir kitobda, dunyoda bor narsaning hammasini o'rinli deyilgan...

– Hammasi-ya? – so'radi Foma.

– Hammasi! Boshqa kitobda – teskarisi.

– Shoshma! Axir, bu bemaza gap emasmi?

Uzun surtuk kiygan, ko'kragiga va bo'yniga allaqanday medallar taqib olgan Mayakin eshik oldida paydo bo'lib:

– Nima haqida gapirishyapsizlar? – deb so'radi.

– Shunday... – deb qo'ydi Lyubov tumtayib.

– Kitoblar haqida, – deb qo'shib qo'ydi Foma.

– Qanaqa kitoblar?

– U o'qigan kitobda dunyoda hamma narsa o'rinli deyilganmish...

– Be!

– Men yolg'on deyapman!

– Ha-da... – deya Yakov Tarasovich, soqolini chimdilarkan, ko'zlarini suzib o'ylanib qoldi va biroz jim turgach:

– Bu qanaqa kitob? – deb so'radi u qizidan.

– Kichkinagina... sariq kitob... – dedi Lyubov xushlamayroq.

– Sen uni mening stolimga keltirib qo'y... Bu yer yuzidagi hamma narsa o'rinli, deb bekorga aytilmagan. Uni qara-ya... Kimnidir aqli yetibdi... Ha-da... bu juda ustalik bilan aytilgan. Agar ahmoqlar bo'lmaganda bu juda ham to'g'ri bo'lardi... Lekin ahmoqlar har vaqt ham o'z o'rnida bo'lmaganligi uchun yer yuzidagi hamma narsa

ham o‘rinli deb aytib bo‘lmaydi... Xayr, Foma! Hali o‘tirasanmi yo eltib qo‘yaymi?

– Biroz o‘tiraman...

Lyubov bilan Foma yana yolg‘iz qolishdi.

– Otangni qara-ya, – dedi Foma, otaxonining orqasidan bosh irg‘ab.

– Nima qilibdi?

– Hech narsadan qolmaydi, hamma narsani so‘zi bilan ko‘mib yuborgisi keladi...

– Shuna-qa... aqlli!.. Biroq mening holim og‘ir ekanini tushunmaydi... – dedi Lyubov qayg‘u ichida.

– Men ham tushunmayman... O‘zingcha ko‘p narsani to‘qiyverasan...

– Nimalarni to‘qiyman? – deb qichqirdi qiz zarda bilan.

– Shunday, bularning hammasi... sening o‘z fikrlaring emas, birovlarniki!

– Birovlarniki... birovlarniki...

Lyubov shartta bir narsa demoqchi bo‘ldi-yu, biroq dami ichiga tushib indamadi. Foma unga qararkan, uni Medinskaya bilan tenglashtirib, g‘amgin o‘ylab qo‘ydi:

«Hamma narsa har xil... odamlar ham, xotinlar ham... har xilligini doim sezib turasan...»

Tashqari qorong‘ilashdi, uy ichi ham allaqachon qorong‘ilashgan edi. Shamol arg‘uvon daraxtini silkitar, shoxlari go‘yo sovqotganday devorni tatalar, uyga kirmoqchi bo‘lib yolvorishar edi...

– Lyuba! – dedi Foma ohista. Lyuba boshini ko‘tarib unga qaradi.

– Bilasanmi... Men Medinskaya bilan xafalashib qoldim...

– Nima uchun? – deb so‘radi Lyubov qiziqib.

– Shunday!.. U meni xafa qildi...

– Urishib qolganlaring yaxshi bo‘libdi, – dedi qiz ma’qullab, – bo‘lmasa u sening burningdan ip o‘tqazib olardi... U yomon xotin, yengiltabiat... Uh, uning to‘g‘risida juda g‘alati gaplar eshitganman!

– U hech ham yomon emas, – dedi Foma qovog‘ini solib. – Sen hech narsani bilmaysan... Hammalaringizning gapingiz yolg‘on!

– Yo‘q, kechirasan!

– Yo‘q... men senga aytsam, Lyuba, – dedi Foma sekin yolvorib, – sen menga uning haqida yomon gap gapirma... Men hammasini bilaman... Xudo haqqi! Uning o‘zi aytdi...

– O‘zi-ya?! – dedi Lyuba hayron bo‘lib. – Bu juda g‘alati-ku! Nima dedi o‘zi?..

– Ayb menda, dedi... – Foma arang javob berdi-da, labini qiyshaytirib kulib qo‘ydi.

– Faqat-a? – qizning savolida umidi puchga chiqqani sezilib turardi.

Foma buni eshitgach, umid bilan so‘radi:

– Ozmi hali?

– Sen uni juda yaxshi ko‘rasanmi?

Foma indamadi, derazaga qarab qo‘ydi-da, xijolat tortib javob berdi.

– Bilmayman... nazarimda... ilgarigiga qaraganda hozir ko‘proq shekilli...

– Hayronman, qanday qilib shunday xotinni sevib bo‘ladi? – deb so‘radi qiz yelkalarini qisib.

– Sevganda qanday! – dedi Foma.

– Tushunmayman... Yo‘q, sen unga ilashib qolganing uchungina undan yaxshirog‘ini ko‘rmagansan, shuning uchun...

– Ko‘rmaganman! – deya iqror bo‘ldi Foma va biroz jim turgach, ikkilanib aytdi: – Balki undan yaxshisi yo‘qdir... u menga juda kerak! – O‘ylanqirab sekin davom etdi. – Men undan qo‘rqaman, ya’ni mening haqimda yomon fikrda bo‘lishini istamayman... Goho yuragim tars yorilgudek bo‘ladi! Tomir-tomirlarimga yetguncha bir miriqib mayxo‘rlik qilsam, deb o‘ylaysan kishi. Biroq shunda u esingga tushadi-yu, shaxtingdan qaytasan... Hamma narsada shunday. «Bordi-yu bilib qolsa-chi», deb o‘ylaysan. Shundan keyin bir ish qilishga hayiqasan...

– Ha-ha, – dedi qiz, o‘ychanlik bilan cho‘zibroq, – demak, uni sevarkansan-da... Men ham... agar sevsam, u nima derkin, deb o‘ylardim...

– Uning hamma narsasi o‘zgacha, – Foma davom etdi. – Gapirishi ham o‘ziga yarashadi... Yo tavba, biram chiroyliki! Biram nozik... xuddi go‘dak bolaga o‘xshaydi...

– Orangiz nega buzildi? – deb so‘radi Lyubov.

Foma stulini surib unga yaqinroq o‘tirdi-da, engashib, negadir ovozini pastlatib, hikoya qila boshladi. Medinskayaning aytgan so‘zlari esiga tushgan sari shu so‘zlarga sabab bo‘lgan tuyg‘ular ham yana jonlana boshladi.

– Men unga: «Eh, sen! Nega bo‘lmasa, men bilan bekinmachoq o‘ynading?» dedim, – dedi Foma g‘azab va ta’na bilan.

Lyuba esa yonoqlariga qon yugurib, ma’qullab bosh chayqarkan, uni rag‘batlantirdi:

– Yaxshi bo‘pti! U nima dedi? Foma xafa bo‘lib:

– Indamadi! – dedi yelkalarini uchirib. – Yo‘g‘-a, gapirdi... Lekin nima foydasi bor?!

U qo‘l siltab, jim bo‘lib qoldi. Lyuba ham sochlarini o‘ynab, jim o‘tirardi. Samovar allaqachon o‘chgan edi. Xonada qorong‘ilik borgan sayin quyuqlashib, derazalardan allanima mo‘ralab turganga o‘xshardi.

– Chiroqni yoqsang bo‘lardi! – dedi Foma.

– Ikkovimiz ham juda baxtsizmiz... – deb Lyuba xo‘rsinib qo‘ydi.

Fomaga bu gap yoqmadi.

– Men baxtsizmasman... – dedi u qat’iy e’tiroz bildirib. – Men hali yashashga ko‘nikkanimcha yo‘q...

– Ertaga nima qilishini bilmagan odam baxtsiz! – dedi Lyuba qayg‘urib. – Men bilmayman. Sen ham... Mening qalbim bir zum tinch turmaydi, qandaydir bir orzu doim titrab turadi...

– Menda ham shunday, – dedi Foma. – Eh!.. Lekin klubga borish kerak...

– Ketma... – deb so‘radi Lyuba.

– Borish kerak, u yerda meni birov kutadi... Xayr!

– Xayr! – qiz unga qo‘l uzatdi va uning ko‘ziga g‘amgin tikildi.

– Uxlaysanmi? – deb so‘radi Foma uning qo‘lini mahkam siqarkan.

– Biroz kitob o‘qiyman...

– Sen kitobga, xuddi aroqxo‘r aroqqa berilganday yopishgansan, – dedi u afsuslanib.

– Bundan yaxshi nima ham bor, axir?

Foma ko'chada ketayotib, uyning derazalariga qaradi va bu derazalardan birida Lyubaning yuzini ko'rdi, yuzi ham so'zlari va orzulari kabi xira edi. Foma unga bosh irg'ab:

«Bu ham o'shanga o'xshab, adashgan...» deb o'yladi.

Medinskaya esiga tushgach, uning haqidagi o'ylarini haydamoqchi bo'lgandek, Foma boshini siltadi-da, qadamini tezlashtirdi.

Odamni tetiklantiradigan muzdek shamol ko'chadagi axlatlarni uchirib, o'tkinchilarning basharalariga chang-to'zon urardi. Qorong'ida allaqanday odamlar shoshib-pishib borishar edi. Foma changdan aftini burushtirib, ko'zlarini qisib o'yladi:

«Agar hozir menga xotin kishi yo'liqsa, demak, Sofya Pavlovna meni burungidek yaxshi qarshi oladi... Ertaga uning oldiga boraman... Bordi-yu, erkak kishi yo'liqib qolsa, ertaga bormayman, sabr qilaman...»

Yo'lda it uchrab, shunday jahlini chiqardiki, kaltagi bilan bir solmoqchi bo'ldi...

Klub bufetida u quvnoq Uxtishevga duch kelib qoldi. U eshik yonida allaqanday semiz va mo'ylovdor bir odam bilan gaplashib turgan edi, lekin Gordeyevni ko'rib qolib, jilmayib, unga ro'para borarkan:

– Salom, kamtar millioner! – dedi.

Foma xushchaqchaqligi uchun uni yoqtirar va doim ochiqko'ngillik bilan qarshi olardi. Foma xursand bo'lib, Uxtishevning qo'lini mahkam siqarkan undan so'radi:

– Mening kamtarligimni qayerdan bilasiz?

– Yana so'raydi-ya! Darveshga o'xshab, ichmay, o'ynamay, xotinlarni sevmay kun kechirgan odam... eh, eh! Bilasizmi, Foma Ignatich? Ertaga bizning bebaho murabbiyamiz butun bir yozga chet elga jo'nab ketyapti.

– Sofya Pavlovna-ya? – deb so'radi Foma salmoq bilan.

– Ha-ha! Mening umrim quyoshi botmoqda... balki, sizniki ham?

Uxtishev aftini kulgili burushtirib Fomaning yuziga qaradi.

Foma uning ro'parasida turarkan, boshi ko'ksiga egilib tushayotganini, lekin boshini tutib qolishga madori yo'qligini sezdi...

– Medinskaya ketyaptimi? – dedi kimdir do'rillagan ovoz bilan. – Yaxshi bo'pti? Xursandman...

– Xo‘sh, nega? – dedi Uxtishev.

Foma tentaksimon jilmaydi va Uxtishevning suhbatdoshi – mo‘ylovli odamga hang-mang bo‘lib qaradi. U esa, zo‘r bir tamanno bilan mo‘ylovlarini burab qo‘ydi va shu mo‘ylovlar ostidan Fomaning ustiga og‘ir, behayo, shalaq so‘zlarni yog‘dirdi:

– Negakim, shaharda bitta satang kamayadi.

– Fi, Martin Nikitich! – dedi Uxtishev ta’naomuz qoshlarini chimirib.

– Uning satangligini qayoqdan bilasiz? – deb so‘radi Foma tumtayib, mo‘ylovli janobga yaqinlashib... Mo‘ylovli kishi mensimaganday unga qarab qo‘ydi-da, boshqa tomonga o‘girildi, oyog‘ini bir siltab, cho‘zib dedi:

– Men satang demadim.

– Shunday xotin to‘g‘risida bunday deyish yaxshi emas, Martin Nikitich... – deb dadillik bilan gap boshladi Uxtishev. Lekin Foma uning gapini bo‘ldi:

– Shoshmang! Men bu janobdan so‘ramoqchiman, u aytgan so‘zning ma’nosi nima?

Foma shu so‘zlarni bosiqlik bilan qat’iy qilib aytdi-da, qo‘llarini shimining cho‘ntagiga tiqdi, ko‘kragini kerdi, shundan keyin uning qomati jangari bir tus oldi... Mo‘ylovli janob yana bir bor uni ko‘zdan kechirib, mazax qilib iljaydi...

– Janoblar! – deya ohista qichqirdi Uxtishev.

– Men satang dedim... – dedi mo‘ylovli kishi, go‘yo bu so‘zning ta’mini tatiyotganday lablarini chapillatib. – Agar siz buni tushunmasangiz, tushuntirib beray.

– Ha-da, – dedi Foma chuqur nafas olarkan, undan ko‘z uzmay, – tushuntirib bering...

Uxtishev chapak chalib qo‘ydi-da, o‘zini ulardan allaqayerga olib qochdi.

– Satang, men sizga aytsam, buzuq xotin... – dedi mo‘ylovli kishi ovozini pasaytirib, yuzini Fomaga yaqinlashtirarkan.

Foma sekingina irilladi va mo‘ylovli kishi o‘zini chetga olgunga qadar, o‘ng qo‘li bilan uning oqara boshlagan jingalak sochiga chang soldi. Uning boshini va zilday gavdasini g‘azab bilan silkita

boshladi, chap qo'lini esa yuqori ko'tardi va har bir silkitishda bir niqtab, bo'g'iq ovoz bilan:

– Orqasidan so'kma, o'zining oldida so'k, o'zining oldida, o'zining oldida... – deb ura boshladi.

Foma mo'ylovli kishining yo'g'on qo'llari havoda kulgili tarzda likillaganini, oyoqlari chalishib polda sudralganini ko'rib, nihoyatda zavqlandi. Cho'ntagidan chiqib zanjiriga osilib qolgan tilla soati, yumaloq qorni ustida salanglardi. O'z kuchidan va bu salobatli odamni oyoq osti qilganligidan mast bo'lgan Foma zavqlanib, uni polda u yoqdan bu yoqqa sudrab, qasos olishning gashtini surar, vahshiyona irjayib, g'azabnok ovoz bilan irillardi. Shu damda u ko'pdan beri yuragini siqib kelgan dardi alam va lohaslikning og'ir yukidan qutulayotganini his qilardi. Uni orqasidan, belidan, yelkasidan ushlashdi, qo'llarini qayirishdi, kimdir uning oyoq panjalarini bosdi, biroq ko'zlari qonga to'lgan Foma qo'llari ostida buralib ingrayotgan og'ir va qop-qora gavdani kuzatarkan, u hech narsani ko'rmasdi... Nihoyat, uni ajratib olishdi, uning ustiga yopirilishdi va u go'yo qizg'ish tutun orasidan o'zi kaltaklagan odamning polda, oyog'i ostida yotganini ko'rdi. Uning ust-boshi dabdala bo'lgan, sochlari hurpaygan edi. O'rnidan turmoqchi bo'lib oyoqlarini qimirlatardi, ikkita qora odam uning qo'ltig'idan ushlab turar, qo'llari esa xuddi singan qanotdek shalvirab qolgan edi. U xo'rligi kelganidan xirqiragan ovoz bilan Fomaga o'kirdi:

– Meni urish... mumkinmas! Mumkinmas! Mening ordenim bor... ablah! Ey, ablah! Mening bolalarim bor-a... Meni hamma taniydi!.. Razil!.. Vahshiy.:. O-o-o! Duelga!

Uxtishev esa Fomaning naq qulog'iga qichqirib:

– Ketdik! Azizim, xudo haqqi... – dedi.

– Shoshma! Men uning basharasiga bir solay... – dedi Foma. Lekin uni allaqayoqqa olib ketishdi. Uning quloqlari zing'illar, yuragi tez-tez urar, biroq u o'zini yengil va yaxshi his qilar edi. Klubning eshigi oldiga chiqqach, bemalol chuqur nafas olib, muloyimgina kulimsirab Uxtishevga dedi:

– Uning rosa adabini berdimmi, a?

– Menga qarang! – dedi o'pkalanib quvnoq sekretar. – Kechirasiz, bu vahshiylik! O'lay agar... bunaqasini birinchi ko'rishim!

– Aziz do‘stim! – dedi unga Foma yoqimli qilib. – U kaltakka loyiq emasmidi! U razil emasmi? Birovning orqasidan shunday deb bo‘ladimi? Yo‘q, gaping bo‘lsa borib o‘ziga ayt... O‘ziga ochiq, dangal ayt!

– Shoshmang, jin ursin sizni! Axir siz uni faqat o‘sha xotin uchun urmagandirsiz?

– Xo‘sh, nega uning uchun emas ekan? Bo‘lmasa kim uchun? – Foma hayron bo‘ldi.

– Kim uchun? Bilmayman... aftidan, unda qasdingiz borga o‘xshaydi! Yo tavba! Buni qarang-a! Umrbod unutmayman!

– U o‘zi asli kim? – deb so‘radi Foma va qo‘qqisdan kulib yubordi. – Biram o‘kirdiki, ahmoq!

Uxtishev uning yuziga tikilib qaradi-da, so‘radi:

– Rost ayting, urgan odamingizni chindan ham tanimaysizmi? Chindan ham faqat Sofya Pavlovna uchunmi?

– Xudo haqqi, o‘shaning uchun! – qasam ichdi Foma.

– Bu nimasi bo‘ldi!.. – Uxtishev to‘xtadi, hayron bo‘lib yelkalarini qisdi va qo‘lini siltab, Fomaga ko‘z qiri bilan qarab qo‘ydi-da, trotuardan yurib ketdi. – Siz buning uchun javob berasiz hali, Foma Ignatyevich.

– U meni mirovoy sudyaga olib boradimi?..

– Qani endi shunday qilsa... Axir u vitse-gubernatorning kuyovi bo‘ladi-ya...

– Rostdanmi, a?! – deb so‘radi Foma va uning yuzlari cho‘zilib ketdi.

– Shunday! Insof bilan aytganda u ablah va muttaham odam... Mana shuni nazarga olganda, u kaltakka loyiq odam... Biroq siz himoya qilgan xonimni nazarga olganda, u ham, axir...

– Barin! – dedi Foma Uxtishevning yelkasiga qo‘lini qo‘yib. – Sen menga doim yoqarding... Mana, hozir men bilan birga ketyapsan... Men buni tushunaman va qadriga yetaman... Lekin u xotin to‘g‘risida menga yomon gap gapira ko‘rma. Sizningcha u qanday bo‘lmasin, lekin u menga aziz... Men uchun undan yaxshi xotin yo‘q! Shuning uchun ham men ochiq gapiraman... Agar sen men bilan birga bo‘larkansan, unga til tegiza ko‘rma... Men uni yaxshi derkanman, demak u yaxshi...

Uxtishev Fomaning ovozida zo‘r hayajon borligini payqab, unga qaradi va o‘ylanibroq dedi:

– Rostini aytsam, g‘alati odam ekansiz...

– Men sodda, yovvoyi odamman! Uni urganimga xursandman... Keyin nima bo‘lsa bo‘laversin...

– Yomon bo‘lmasin, deb qo‘rqaman... Bilsangiz, siz ochiq gapirganingiz uchun men ham ochiq aytaman, o‘zingiz menga yoqasiz... Lekin siz bilan ham... xatarli... pahlavonligingiz tutib ketib, yana kaltaklab qolmang tag‘in...

– Qo‘ying-e! Axir men birinchi marta... Har kuni odam urarmidim... – dedi Foma xijolat tortib. Uning hamrohi kuldi.

– Biram dahshatli maxluqsizki! Axir, mushtlashish vahshiylik... Uyat, kechiring meni... Lekin sizga rostini aytsam, shu safar uni juda bopladingiz... Siz buzuq, behayo tekinxo‘rni... o‘z jiyanlarini talab, jazosiz qolgan odamni urdingiz...

– Unday bo‘lsa, xudoga shukur! – dedi Foma mamnun bo‘lib. – Men uning biroz adabini berdim...

– Yaxshi, faraz qilaylik, biroz bo‘lsin... Lekin menga quloq soling, qo‘zim!.. Bir maslahat berishga ruxsat eting... Men sud xodimiman...U, o‘sha Knyazev, yaramas, ablah odam! Lekin ablahni ham urib bo‘lmaydi, chunki u qonun himoyasidagi ijtimoiy unsur hisoblanadi. Jazo qonunlari chegarasidan chiqmaguncha unga tegib bo‘lmaydi... O‘shanda ham, uni siz emas, biz sudyalar jazolaymiz... Siz, marhamat qilib, sabr etib turing...

– U yaqin orada qo‘lingizga tushadimi, o‘zi? – deb so‘radi Foma soddalik bilan.

– Ma’lum emas... Chunki u anoyi odamlardanmas, ehtimol, hech qachon tushmas... Lekin umrining oxirigacha men va siz bilan birga qonun oldida teng huquqli bo‘lib yashayveradi. E tavba, men nimalar deyapman! – Uxtishev masxarabozlar singari xo‘rsinib qo‘ydi.

– Sirlarni ochyapsanmi? – deya kuldi Foma.

– Yo‘q, faqat sirlarni emas-da... Lekin mening bu qadar yengiltak bo‘lishim yaxshi emas... Eh shayton! Axir meni bu voqea qiziqtirib qo‘ydi... To‘g‘ri Nemezida[1], hatto otga o‘xshab tepganda ham haqli bo‘ladi...

---

[1] Qadimiy Yunon mifologiyasi bo‘yicha qasos xudosi.

Foma yo'lida xuddi allaqanday g'ovga duch kelgandek, birdan to'xtab qoldi.

– Hammasi o'sha gapdan boshlandi-da, – dedi Foma sekin va bo'g'iq ovoz bilan, – siz Sofya Pavlovna ketadi, dedingiz...

– Ha, ketadi... Xo'sh!

U Fomaning ro'parasida, ko'zlari kulib, unga qarab turardi. Gordeyev boshini egib, tayog'ini yo'lkadagi toshga tirab, indamay turardi.

– Ketdikmi?

Foma beparvogina:

– Ketsa ketar... – dedi-yu, yo'lga tushdi.

Uxtishev tayoqchasini o'ynatib, hamrohiga qaradi, hushtak chala boshladi.

– Men usiz yashay olmaymanmi? – deb so'radi Foma allaqayoqqa – to'g'riga qarab, keyin biroz jim turgach, mujmalroq qilib o'zi asta javob berdi: – Shunday yashayki...

– Menga qarang! – dedi Uxtishev, – men sizga bir yaxshi maslahat beray... Odam o'z qadrini bilishi kerak... Siz epik odamsiz, men sizga aytsam, sizga lirika yarashmaydi. Bu sizning janringiz emas...

– Sen, barin, men bilan soddaroq qilib gaplash, – dedi Foma uning so'zlarini diqqat bilan tinglagandan keyin.

– Soddaroq? Men sizga, o'sha xonimni o'ylab nima qilasiz, demoqchiman... siz uchun u zaharli ovqat...

– Buni menga o'zi ham aytgan edi, – deb qo'ydi Foma tumtayib.

– Aytgan edi?.. – yana so'radi Uxtishev. – Hm... Sizga aytsam... Kechki ovqatga bormaymizmi, a?

– Boramiz, – deb rozi bo'ldi Foma va birdan qo'llarini musht qilib o'ynatdi-da, bo'kirib yubordi: – Borsak boraylik! Men bir ish ko'rsatay... Shundan keyin, ko'rib biram hayron qolginki, – deb xirilladi.

– Buning nima keragi bor? Biz – soddagina...

– Yo'q, shoshma! – dedi g'amgin holda Foma uning yelkasidan ushlab. – O'zi nima gap? Axir odamlardan mening nimam kam? Har kim o'z holicha yashayapti... U qiladi, bu qiladi, har kim o'z pakkasini biladi... Men esa zerikaman... Hamma o'zidan mamnun, lekin

yolg'ondan nolishadi, la'natilar! Ular yaxshi ko'rinish uchun ayyorlik qiladilar... Men mug'ambirlik qilolmayman – ahmoqman. Men, og'ayni, hech narsaga tushunmayman... O'ylash qo'limdan kelmaydi... Biri unday desa, boshqasi bunday deydi... bezor bo'ldim... Xonim esa... Eh! Koshki sen bilsang... axir, undan umidvor edim-da... Umid qilardim. Biroq nimani umid qilardim? Bilmayman!.. U hammadan yaxshi... Men unga shu qadar ishonardimki, u menga bir kunmas bir kun... ajoyib so'zlar aytadi, deb o'ylardim. Uning ko'zlari, og'ayni, biram chiroyliki! Yo rabbiy!.. Ko'ziga qarashga uyalasan... Axir men uning yoniga yolg'iz muhabbatim tufayligina emas, butun vujudim bilan borgandim... Shunday go'zal parivashning yonida odam bo'lib qolarman, deb o'ylovdim!

Uxtishev Fomaning og'zidan otilib chiqayotgan poyma-poy so'zlarga quloq solarkan, hamrohi o'z fikrini bayon qilmoqchi bo'lib jon kuydirganidan yuzining etlari titraganini ko'rib, bu so'zlar zamirida jiddiy va zo'r qayg'u borligini payqadi. Trotuardan birdaniga katta-katta qadam tashlab tez-tez yura boshlagan bu azamat va yovvoyi yigitning ojizligida zo'r ta'sirli bir narsa bordek edi. Uxtishev kalta oyoqlari bilan uning orqasidan yo'rg'alab borar edi, nima qilib bo'lsa ham Fomani ovutishni o'zining burchi deb bilardi. Fomaning shu kecha qilgan ishlari va aytgan so'zlari xushchaqchaq kotibni juda qiziqtirib qo'ygan, buning ustiga, yosh boyvachchaning o'z sirlarini yashirmay unga aytib bergani uchun boshi osmonga yetgan edi. Fomaning bu qadar samimiyligi undagi qora kuch Uxtishevni ezib tashladi va bu kuchning iskanjasi ostida dovdirab qoldi, o'zi yoshligiga qaramay, hayotdagi har bir voqeaga hozirjavob bo'lsa ham, biroq darhol javob topolmadi.

– Obbo, birodar-e! – dedi u Fomani muloyimgina qo'ltiqlab. – Bu yaramaydi! Hayotga endigina qadam qo'ydingiz-u, darrov falsafa sotyapsiz! Yo'q, bunday qilish yaramaydi! Bizga hayot yashash uchun berilgan! Demak, o'zing yasha, boshqalarning ham yashashiga yo'l qo'y... Falsafa mana shu! U xotin esa... be! Dunyoda bundan boshqasi qurib ketganmi axir? Agar istasangiz, men sizni shunday bir ajoyib kimsa bilan tanishtirib qo'yayki, bu falsafangizdan o'sha ondayoq dilingizda asar ham qolmasin! O, biram ajoyib jonon! Hayotning qadrini shu qadar biladiki! Bilsangiz, u ham o'shanaqa epik

bir narsa! Juda go'zal!.. U sizga judayam par tushadi! Eh, shayton! Bu chindan ham yaxshi fikr, men sizni tanishtirib qo'yaman! Ponani pona bilan urib chiqarish kerak...

– Iymanaman... – dedi Foma qovog'ini solib g'amgin ohangda. – U tirik ekan, men umuman, xotinlarga qaray olmayman...

– Shunday azamat, shunday sog'lom odam-a, ho-ho! – deb qichqirdi Uxtishev, so'ngra aysh-ishrat vositasi bilan hislarga orom berish zarurligi to'g'risida Fomaga ustozlar singari nasihat qila boshladi.

– Bu juda soz bo'ladi va siz uchun bu nihoyatda zarur, ishoning! Vijdon esa, siz meni kechiring! Siz buni biroz noto'g'ri ta'riflar ekansiz. Sizga xalaqit berayotgan narsa vijdon emas, yuraksizlik! Siz jamiyatdan chetda yashaysiz, uyatchansiz, qovushmaysiz! Siz bularning hammasini noaniq tushunasiz-da... ana shu tushungan narsangizni vijdon deb bilasiz... Bu o'rinda vijdon to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas, odam uchun ko'ngil ochish tabiiy, bu uning talabi va haqi bo'lgandan keyin, vijdonning nima daxli bor?

Foma hamrohining qadamiga qadamini moslab, yo'l bo'ylab qarab bordi. Ikki tomonga tizilgan binolar o'rtasidan cho'zilib ketgan yo'l katta zovurga o'xshardi va zulmatga to'lgan edi. Go'yo uning poyoni yo'qdek va unda nafas olishga xalaqit berayotgan bitmas-tuganmas qop-qora bir narsa olislarga sekin oqib ketayotgandek edi. Uxtishevning gap ma'qullovchi yoqimtoy ovozi Fomaning qulog'i ostida bir maromda jaranglardi, lekin Foma uning so'zlariga unchalik quloq solmasa ham bu so'zlar allaqanday yopishqoqlik bilan yopishib, beixtiyor xotirasida qolayotganini sezardi. Yonida odam borligiga qaramasdan, Foma o'zini yolg'iz va zulmat qo'ynida adashib qolgan kimsadek his qilardi. Foma zulmat uni chulg'ab olganini, orqasidan ergashtirib, allaqayoqqa sudrab ketayotganini sezardiyu, biroq o'zini to'xtatishni istamas edi. Allaqanday horg'inlik o'ylashiga xalaqit berar, loaqal hamrohining o'gitlariga qarshilik ko'rsatish istagi ham yo'q edi, u nimaga ham qarshilik ko'rsatardi?

– Dunyoga odam bir marta keladi, – dedi Uxtishev o'z donoligidan mast bo'lib, – shuning uchun yashab qolish kerak... Xudo haqqi, shunday! Buni gapirib o'tirishning hojati yo'q, sizni bir yengillatib

kelishga ruxsat etasizmi? Hozir bir uyga boramiz... U yerda opa-singillar turadi... ah, biram ajoyib yashashadiki! Hal qiling!..

– Nima ham deyman? Boraman... – dedi Foma ohista va esnab qo'ydi. – Bemahal emasmi? – deb so'radi bulutlar bilan qoplangan osmonga qarab.

– Ularnikiga qachon borsangiz ham bo'laveradi! – dedi Uxtishev xursand bo'lib.

VIII

Klubda yuz bergan voqeaning uchinchi kuni Foma shahardan yetti chaqirim narida, savdogar Zvansevning yog'och oqizadigan pristanida, Uxtishev bilan birga, tepa sochi to'kilgan bakenbardli, qizil burun allaqanday ulug'sifat bir barin, to'rtta xotin va Zvansevning o'g'li bilan bir kompaniyada bo'ldi... Yosh Zvansev pensne taqib yurar, o'zi ozg'in, rangpar yigit edi, tik turganda hadeb boldirlari qaltirar, egniga kapyushonli uzun katak palto, kichkinagina g'alati boshiga chavandozlar kiyadigan kartuz kiyib olgan zaif gavdani ko'tarib yurishdan jirkanayotganga o'xshardi. Bakenbardli kishi uni Jan deb atar va bu nomni u ko'pdan tumov bilan azoblanayotgan kishidek aytar edi. Janning xonimi ko'krakdor va uzun bo'yli xotin edi. Uning ikki chakkasi qisilgan, tor peshanasi biroz orqaga moyil, uzun burni esa, yuzini allaqanday qush yuziga o'xshatib ko'rsatardi. Bu xunuk bashara toshday qotib qolgandi, faqat kichkina, yumaloq sovuq ko'zlarigina ziyraklik va mug'ambirlik bilan doim kulib turar edi. Uxtishevning xonimi Vera ismli novcha, rangpar, sochlari sariq bir xotin edi. Uning sochi shu qadar qalin ediki, go'yo bu xotin boshiga katta shapka kiyib olganga o'xshar va sochlari esa quloqlari, yonoqlari va keng peshanasini bosib ketgan edi, mana shu keng peshana ostidan uning katta ko'k ko'zlari erinchoqlik bilan xotirjamgina boqib turar edi.

Bakenbardli janob, lo'ppigina lobar yosh bir qiz yonida o'tirar va uning yelkasiga engashib qulog'iga pichirlagan sayin, qiz hadeb qiqirlab kular edi.

Fomaning xonimi esa, qora kiyingan, qorachadan kelgan, kelishgan bir ayol edi. Patila sochli, qoracha yuzli bu xotin boshini bu

qadar baland, mag'rur tutishidan va atrofidagi narsalarga mensimay qarashidan, o'zini bu yerda birinchi deb hisoblagani ko'rinib turardi.

Ulfatlar daryoning bo'm-bo'sh, olis bir yeriga eltib qo'yilgan solning eng chekkasida edi. Sol ustiga taxta terilgan, o'rtasiga qo'pol qilib ishlangan bir stol qo'yilgan bo'lib, hamma yerda bo'sh shishalar, ovqat solingan savatchalar, konfet qog'ozlari, apelsin po'choqlari sochilib yotardi... Solning bir burchagiga tuproq to'kilib, ustiga gulxan yoqilgan edi, kalta po'stin kiygan allaqanday bir mujik gulxan yonida cho'kkalab, qo'llarini o'tga tovlab o'tirar va yer ostidan janoblar tomonga tez-tez qarab qo'yardi. Ular sterlyad balig'idan pishirilgan sho'rvani hozirgina ichib bo'lishgan, endi ularning oldidagi stol ustida vino bilan ho'l mevalar turardi.

Ikki kundan beri davom etgan aysh-ishratdan va hozirgina yeyilgan ovqatdan toliqqan ulfatlarning shashti past edi. Hammalari daryoga qarab gaplashib o'tirar, biroq gaplar qovushmas, tez-tez bo'linib turardi. Havo ochiq va salqin edi. Daryoning keng yoyilib oqayotgan loyqa suvi ustida muzdek tiniq osmon jilva qilardi. Olisdagi tog'li qirg'oqni g'ira-shira ko'kish tutun kabi tuman chulg'ab olgan, u yerda, qirg'oq ustida, kattakon yulduzlarga o'xshab, cherkovlarning krestlari yiltillar edi. Daryoning tik sohil tomoni gavjum, u yerdan paroxodlar tinmay o'tib turar, ularning shov-shuvi bu yoqqa, to'lqinlarning ohista mavji havoni mayin ovozlarga to'ldirgan o'tloqqa, og'ir xo'rsinishday bo'lib eshitilar edi. U yerda birin-ketin katta barjalar, xuddi bahaybat cho'chqalar suv betini qo'porib ketayotganday, oqinga qarshi suzib borardilar. Paroxodlarning mo'rilaridan o'qtin-o'qtin quyuq qora tutun chiqar va sof havoda asta-sekin erib ketardi. Goho go'yo og'ir mehnatdan toqatsizlanib o'kirgan bahaybat hayvonday, chinqirardi. O'tloqlar jimjit va sokin. Suv bosib ketgan yakkam-dukkam daraxtlar yamyashil yaproqlar bilan qoplangan. Suv ularning tanalarini ko'mib, uchlarini o'zi-da aks ettirib, ularni xuddi bir sharga o'xshatib qo'ygan va odamning nazarida bu daraxtlar sal-pal shamol esishi bilanoq, oynadek tip-tiniq daryo betida ajoyib shakllarga kirib oqib ketadiganga o'xshar edi.

Sariq xotin olislarga o'ychan boqib, sekin va g'amgin kuylay boshladi:

Volga daryosi bo'ylab
Qayiq yengil su-za-di.

Qorachadan kelgan xotin, katta-katta va jiddiy ko'zlarini nafratomuz suzib, unga qaramay:

– Busiz ham o'zimiz xunobmiz... – dedi.

Foma o'z xonimining yuziga qarab: – Qo'y, mayli, aytaversin, – deb o'tindi. Uning rangi o'chgan, ko'zlarida allaqanday uchqunlar chatnar, yuzlarida noaniq va erinchoq tabassum aks etardi.

– Kelinglar, hammamiz baravar aytaylik!.. – deb taklif qildi bakenbardli janob.

– Yo'q, yaxshisi, anavi ikkovi aytsin! – deya qichqirdi Uxtishev, hushyor tortib. – Vera, ayt, haligi bor-ku? «Tong chog'ida bo-rarman...» Pavlenka, aytinglar!

Kulong'ich qiz qorachadan kelgan xotinga qarab, hurmat bilan so'radi:

– Maylimi aytsak, Sasha?

– O'zim aytaman! – dedi Fomaning xonimi va qush yuzli xonimga qarab buyurdi: – Vassa, boshla!

Vassa shu choq tomog'ini siladi-da, yumaloq ko'zlarini opasining yuziga tikdi. Sasha o'rnidan turdi, qo'li bilan stolga tayandi-yu, boshini ko'tarib, erkakcha, kuchli ovoz bilan kuylab ketdi:

Kimning qayg'u g'ami bo'lmasa,
Sho'x yuragida ishqi bo'lmasa,
Yaxshi yashaydi o'sha dunyoda!

Singlisi boshini siltab, ingichka ovoz bilan cho'zib nola qiladi:

Eh, men go'-zal bir qiz e-dim!..

Sasha ko'zlarini chatnatib, past ovoz bilan aytdi:

Ko'kat kabi so'ldi yura-gi-m-m!

Ikki ovoz quchoqlashib, kuchi zo'rligidan titrab-qaltirab, daryo uzra chiroyli va shirali ohangda suzib ketdi. Biri yuragining benihoya azob chekkanidan nolir va o'z zorining zahriga mast bo'lib, o'z azob-uqubatlarining o'tini ko'z yoshlari bilan o'chirishga urinarkan, yuraklarni ezib ho'ngrardi. Ikkinchisi – past va yo'g'on ovoz esa, alamli hislarga to'lib havoda salobat bilan suzardi. U har bir so'zni dona-dona qilib aytar, so'zlari qudratli oqim kabi quyular va har bir so'zidan o'ch olish niyati borligi sezilib turar edi.

Buning uchun undan qasos olaman.

Zorlanib kuylardi Vassa ko'zlarini yumib.

Sarg'aytirib somon qilaman... –

deya ishonch, dahshat bilan havoga kuchli va achchiq so'zlarni tashlardi Sasha... Birdaniga qo'shiq sur'atini o'zgartirib, ovozini baland ko'tarib, singlisiga o'xshab cho'zib, hirsli do'q bilan kuylay ketdi:

Dovuldan, shamoldan quruq,
Urilgan o'landan quruq.
Eh, o'rilgan, qurilgan o'lan...

Foma stolga tirsagini qo'yib, xotinning yuziga, chala yumuq qora ko'zlariga qaradi. Uning olislarga tikilgan ko'zlari shu qadar ichi qoralik bilan yiltillardiki, uning yuragidan otilib chiqayotgan ipakday mayin ovoz ham Fomaga xuddi ko'zlari singari qorayib yiltillab turganday tuyuldi. Foma uning erkalashlarini eslarkan:

«Bu nega shunaqa ekan? Hatto u bilan birga bo'lish ham xavfli...» deb o'yladi.

Uxtishev, o'z xonimining pinjiga kirib, qo'shiqqa zavq bilan quloq solib, kayf qilib o'tirardi. Bakenbardli janob bilan Zvansev esa, engashib, bir-biriga allanarsa to'g'risida pichirlashar va vino ichishardi. Sariq sochli xotin Uxtishevning kaftini qo'liga olib, unga o'ychan holda tikilardi, quvnoq qiz esa, mung'ayib, boshini egib, go'yo sehrlanganday qimir etmay ashulaga quloq solar edi. Mujik

gulxan yonidan qo'zg'aldi. U oyog'ining uchi bilan yurib, ohista taxtalarni bosib, ular tomonga keldi. U qo'llarini orqasiga qilib olgan, soqol bosgan keng yuzi esa, azbaroyi taajjublangani va yosh boladay quvongani uchun g'alati bo'lib tirjayar edi.

Vassa boshini chayqab, mungli ovoz bilan yolvorardi:

Eh, angla holim, azamat yigit!

Opasi boshini yana ham baland ko'tarib, qo'shiqni tugatdi:

Qalay ekan oshiq hasrati-i!

U qo'shiqni tamomlagach, atrofiga mag'rur qarab qo'ydi-da, Fomaning yoniga o'tirib, baquvvat qo'llari bilan uning bo'ynidan quchoqladi.

– Qalay, yaxshi qo'shiqmi? Foma unga jilmayib:

– Juda yaxshi! – dedi.

– Barakalla! Barakalla, Aleksandra Savelyevna! – deb qichqirdi Uxtishev, boshqalar esa chapak chalishdi. Biroq Sasha ularga parvo ham qilmay Fomani mahkam quchoqlab dedi:

– Sen qo'shiq uchun menga biron narsa hadya qil...

– Xo'p, hadya qilaman... – deya rozi bo'ldi Foma.

– Nima?

– O'zing ayt...

– Shaharda aytaman... Agar men istagan narsani hadya qilsang, o, men seni juda-juda sevgan bo'lardim!

Foma ishonqiramagandek kulimsirab:

– Hadya uchun-a? – deb so'radi. – Shundoq ham sevsang ekan...

Xotin unga beparvogina qarab qo'ydi-yu, bir lahza o'ylanib, qat'iy qilib dedi:

– Shunday sevishga hali erta... Men yolg'on gapira olmayman, ochig'ini aytaman, pul uchun, hadyalar uchun sevaman... Shunday ham sevsa bo'ladi... Ha, sen hali shoshma, avval men seni bir sinab ko'ray, balki shunday ham sevib qolarman... Hozircha, ayb sanamaysan... Mening yashashim uchun juda ko'p pul kerak...

Foma uning so‘zlariga quloq solarkan, hadeb jilmayar va uning badani yaqinligidan seskanib tushardi. Bu orada uning qulog‘iga Zvansevning allaqanday xirqiragan yoqimsiz ovozi chalindi:

– Men shu maqtalgan rus qo‘shig‘ining go‘zalligiga sira tushuna olmayman... Nimasi yaxshi? Allaqanday och qolgan yovvoyi bo‘rining ulishiga... xuddi it g‘ingshishiga o‘xshaydi... na sho‘xlik bor va na go‘zallik... Fransuz yoki italyanning kuylaganini bir eshitsangiz edi!..

Uxtishevning jahli chiqib:

– Nimalar deyapsiz, Ivan Nikolayevich?.. – deb baqirdi.

– Men bunga qo‘shilaman, rus qo‘shig‘i bir xil va tuzsiz... – dedi bakenbardli janob, vinodan ho‘plab.

Quyosh botmoqda, u olislarga o‘tloq tomonga botayotib qoraydi, muzdek suv betiga pushti rang oltin dog‘lar tashladi. Foma quyosh nurlarining o‘yiniga qarab, ularning tekis suv betida jimirlab tovlanayotganini kuzatib turdi va shu bilan birga ulfatlarining so‘zlari ora-sira qulog‘iga chalinarkan, bu so‘zlarni havoda uchib yurgan qop-qora kapalaklar galasiga o‘xshatib ko‘z oldiga keltirdi. Sasha Fomaning yelkasiga boshini qo‘yib, uning qulog‘iga ohista pichirladi, Foma bu so‘zlardan qizarib xijolat tortdi-yu, lekin bu so‘zlar unda shu xotinni quchoqlash va tinmay o‘pish orzusini qo‘zg‘adi. Bu yerda yig‘ilgan kishilar orasida shu xotindan boshqa hech kimsa Fomani qiziqtirmas edi. Zvansev bilan barindan esa nafratlanardi.

Foma Uxtishevning:

– Nega anqayib turibsan bu yerda? – degan qo‘pol ovozini eshitdi.

Uxtishev mujikka o‘shqirgan edi. Mujik boshidan kartuzini oldida, kartuzi bilan tizzasiga bir urib qo‘yib, jilmayib turib javob qildi:

– Men barinyaning qo‘shig‘ini eshitgani kelgandim...

– Yaxshi aytdimi?

– Yaxshi bo‘lganda qandoq! – dedi mujik Sashani zavq bilan ko‘zdan kechirarkan. – Ovozi nihoyatda kuchli ekan!

Uning so‘zlaridan xonimlar kulishdi, erlar esa qochiriq gaplar qotishdi. Sasha mujikdan:

– Sen ham qo‘shiq aytasanmi? – deb so‘radi.

– Bizning aytganimiz nima bo‘lardi! – dedi mujik qo‘l siltab.

– Qanaqa qo‘shiqlarni bilasan?..

– Har xilini... Men qo‘shiq aytishni yaxshi ko‘raman... – u gunohkor odamday kulib qo‘ydi.

– Kel, birga aytamiz.

– Yo‘g‘-e! Men sizga jo‘r bo‘la olarmidim?

– Qani, boshla!

– Rosa maza qilar ekanmiz-da! – deya qichqirdi Zvansev aftini burushtirib.

Sasha unga ko‘zlarini o‘qraytirib:

– Agar sizga malol kelsa, o‘zingizni suvga tashlang! – dedi zarda bilan.

– Yo‘q, suv sovuq... – deb javob qildi Zvansev, uning tikilishiga bardosh berolmay junjikib.

– Allaqachon paytingiz kelgan! Hozir suv ham ko‘p, chirigan taningiz bilan daryoni butunlay iflos qilmasdingiz...

– Fu, biram o‘tkir gap bo‘ldiki! – deb qichqirdi yigit va nafrat bilan qo‘shib qo‘ydi: – Rossiyada hatto tannozlar ham dag‘al...

U o‘z qo‘shnisiga murojaat qildi, qo‘shnisi esa, mastlik bilan jilmayib qo‘ya qoldi. Uxtishev ham mast edi. U suzilgan ko‘zlarini o‘z xonimiga tikib, bir nima deb valdirardi. Qush yuzli xonim esa, qo‘lidagi qutichani naq burnining ostiga olib borib, konfet cho‘qilardi. Pavlenka solning bir chetiga borib o‘sha yerdan suvga apelsin po‘choqlarini irg‘itardi.

– Men hech qachon bunaqa ahmoqona sayrga chiqqan emasman, – dedi Zvansev sherigiga zorlanib.

Foma iljayib Zvansevni kuzatarkan, mana shu mayib odamning diqqat bo‘layotganidan va uni Sasha xafa qilganidan nihoyatda xursand bo‘ldi. Sashaning hamma bilan dag‘al so‘zlashi va o‘zini chinakam barinyalarday mag‘rur tutishi Fomaga yoqdi, u Sashaga muloyimgina nazar tashlab qo‘ydi.

Mujik Sasha yonida turib:

– Barinya! Dadil bo‘lib olishim uchun menga quyib bersang bo‘lardi? – dedi.

– Foma, bunga bir stakan quyib ber!

Mujik ichib olgach, maza qilib tomog'ini qirib qo'ygandan keyin, Sasha buyruq qildi:

– Boshla...

Mujik og'zini bir tomonga qiyshaytirib, ingichka ovoz bilan cho'zib ketdi.

Ichkim ham yo'q, yegim ham-m...

Xotin titroq ovoz bilan jo'r bo'ldi:

Ko'nglim vino ista-ma-s...

Mujik muloyimgina jilmayib boshini chayqadi-da, ko'zlarini yumib ingichka ovozini jaranglatib, havoni titratib yubordi:

O, mening vidolashish vaq-tim yet-di.

Xotin esa, nola qilib, yig'lay boshladi:

Oh, tug'ishganlar-dan ayrilish ke-rak...

Mujik ovozini pastlatib, nihoyatda zo'r qayg'u bilan kuylab aytdi:

Eh, yot el-larga ketsammikan...

Ikki ovoz bo'zlab, muzdek oqshom sukunatiga singib ketarkan, go'yo tevarak-atrof iliqroq va yaxshiroq bo'lib qolganday edi: tamomiy narsa go'yo jilmayib turganday – yovuz kuch dahshatidan o'zining jonajon uyasidan ayrilib yot ellarga jabr-u jafo tortish, og'ir mehnat qilish uchun ketishga majbur bo'lgan kishining qayg'u-alamiga sherik bo'lganday edi. Go'yo ovoz emas, qo'shiq ham emas, balki shu oh-zorlar qaynab chiqayotgan yurakning qaynoq yoshlari – shu ko'z yoshlarining o'zi havoni namlaganday edi. Shu sodda, qo'pol so'zlar, kurashda horigan yurakning hasratini ham, muhtojlikning temir qo'li vujudga keltirgan jarohatlar azobini ham – hammasini o'z ichiga qamrab olib nihoyatda g'amgin ovoz bilan hech kimga va hech narsaga aks sado bermaydigan yiroqdagi bo'm-bo'sh osmonga intilar edi.

Foma kuylayotganlardan o'zini chetga tortdi-da, qo'rquvga yaqin bir his bilan ularga qarab turdi, qo'shiq uning qalbiga qaynoq to'lqin kabi quyilib, qo'shiqdagi hasratning dahshatli kuchi yuragini o'rtab yubordi. U hademay ko'zlaridan tirqirab yosh oqishini sezib zo'rg'a turardi, tomog'i qichishganday bo'lar, yuzlari pir-pir uchardi. U Sashaning qop-qora ko'zlarini arang ko'rar, nazarida bu ko'zlar qotib qolganga va tobora kattalashib ketayotganga o'xshardi, borgan sayin katta bo'layotganday tuyuldi. Go'yo ikki kishi emas, balki butun atrof kuylayotganday, atrofdagi hamma narsa azob-uqubat qo'ynida tipirchilab yig'layotganday va barcha tirik jon umidsizlik bilan birbirini mahkam quchoqlaganday bo'lib ko'rinardi.

Qo'shiq tamom bo'lgach, Foma hayajondan seskanib, ko'z yoshidan ho'l bo'lgan yuzini ularga o'girib jilmayib qo'ydi.

– Qalay, ta'sir etdimi? – deb so'radi Sasha. U charchaganidan rangi oqarib, og'ir va tez-tez nafas olardi. Foma mujikka ko'z tashladi, mujik, go'yo nima bo'lganini tushunmaganday, atrofiga alanglab, ter bosgan peshanasini artardi.

Atrof jimjit. Hammalari ham qimir etmay jimgina o'tirishardi.

– E, tavba! – dedi Foma xo'rsinib, o'rnidan turayotib. – E, Sasha! Mujik! Sen kimsan o'zing? – deb qichqirdi.

– Stepan... – deya javob berdi mujik, gunohkor odamday iljayib.

– Muncha ham yaxshi aytasan, a? – deya qichqirdi Foma taajjub bilan turgan joyida hayajon-la depsinib.

– Eh, janob oliylari! – deb xo'rsindi mujik. – Qayg'u-alam ho'kizni ham bulbulday sayratadi... Xo'sh, nega barinya shu qadar mungli kuylaydi... bu birgina xudoning o'ziga ayon... U biram boplab aytdiki, joningni bersang ham arziydi! Ana, barinya!

– Judayam yaxshi aytdi! – deb qo'ydi Uxtishev mast ovoz bilan.

– Axir bu nima qiliq! – deb qichqirdi Zvansev birdan, stol yonidan irg'ib turib. – Men o'ynagani kelganman, men xursand bo'lmoqchiman, menga esa janoza o'qishyapti! Shu ham ish bo'ldimi! Endi bas, ketaman!

– Jan! Men ham ketaman... – dedi bakenbardli kishi.

– Vassa! – deb baqirdi Zvansev. – Kiyin!.. Uxtishevning sariq sochli xonimi:

– Ha, endi ketish kerak, – dedi unga asta. – Sovuq... Hademay qorong‘i tushib qoladi...

– Stepan! Hamma narsani yig‘ishtir, – deya buyruq qildi Vassa.

Hammalari taraddudga tushib, allanarsa to‘g‘risida so‘zlasha boshladilar, Foma ularga hayron bo‘lib qarar, lekin hamon titrardi. Rang-quti o‘chgan, horigan odamlar sol ustida chayqalib yurishar va bir-birlariga ma’nosiz, poyma-poy so‘z qotishar edi. Sasha narsalarini yig‘ishtirayotib, ularni beandishalik bilan turtar edi.

– Stepan, ayt! Otlarni olib kelishsin...

– Men yana konyak ichaman, men bilan kim konyak ichishni istaydi? – deb sayradi qo‘lida shisha bilan bakenbardli kishi.

Vassa Zvansevning bo‘yniga sharf o‘radi. Zvansev aftini tirishtirib, lablarini noz bilan cho‘chchaytirib uning oldida turar, boldirining etlari esa dir-dir titrar edi. Foma ularga qaragisi ham kelmay, boshqa solga o‘tib ketdi. Bu odamlarning hammasi ham o‘zlarini go‘yo qo‘shiqni eshitmaganday tutishlari Fomani ajablantirdi. Bu qo‘shiq unda nimanidir qilish, nimadir aytishga undab, bezovta qilar, ko‘ksini tatalardi.

Quyosh botgan, olislarni moviy tuman chulg‘ab olgan, Foma o‘sha yoqqa bir qarab qo‘ydi-da, keyin boshqa tomonga burildi. Uning bu odamlar bilan birga shaharga qaytgisi yo‘q edi. Ular esa hamon gandiraklab, poyma-poy gap sotishib, sol ustida u yoqdan bu yoqqa yurishardi. Xotinlar esa erkaklarga qaraganda hushyorroq edi, faqat sariq sochli xotingina anchagacha o‘rnidan turolmadi va nihoyat, bir amallab turdi-da:

– E, mast bo‘lib qopman-ku... – deb qo‘ydi.

Foma g‘o‘laga o‘tirib, mujik gulxan yoqish uchun o‘tin yorgan boltani qo‘liga oldi-da, uni irg‘itib o‘ynay boshladi.

– Ko‘p bema’nilik bo‘ldi-da! – deb qichqirgan Zvansevning injiq ovozi eshitildi.

Foma Zvansevdan nafratlanganini va Sashadan boshqa hammasini yomon ko‘rib qolganini sezdi. Sashadan esa, kutilmaganda dahshatli biron narsa qilib qo‘ymasaydi, degan vahimali xayol ichida xavotir olar, ham allaqanday taajjublanganini noaniq sezardi.

– Hay-von! – deya chiyilladi Zvansev, Foma uning mujikni itarib yuborganini, mujik esa, boshidan shapkasini olib, gunohkor odamday indamay undan nari ketganini ko‘rdi.

– Ah-moq! – deya qichqirdi Zvansev uning orqasidan borarkan, qo'lini do'laytirib.

Foma irg'ib o'rnidan turdi-da, tahdid bilan baqirdi:

– Hoy! Unga tega ko'rma!

– Ni-ma?! – Zvansev unga qayrilib qaradi.

Foma kiftlarini rostlab unga tomon yurdi. Shunda birdan xayoliga boshqa bir fikr keldi. U zaharxanda qilib, Stepandan sekingina so'radi:

– Sol uch joydan bog'langanmi?

– Uch joydan, albatta!

– Kesib tashla arqonni.

– Ular nima bo'ladi?..

– Jim! Kesaver...

– Axir...

– Kes deyman! Sekinroq, bilib qolishmasin!

Mujik qo'liga boltani olib, shoshmay, sollar bir-biriga matashtirilgan yerga bordi-da, bolta bilan bir necha bor urib, yana Foma yoniga qaytib keldi.

– Men javobgarmasman, janob oliylari, – dedi u.

– Qo'rqma...

– Ketdik!.. – deb pichirladi mujik va apil-tapil cho'qinib oldi. Foma esa ohista kulimsirar, allaqanday bir dahshatli fikr yuragini g'alati tarzda yoqimli va shirin vahima aralash qitiqlaganini seza boshladi.

Soldagi odamlar esa hamon ivirsib, bir-birlarini turtishib, xotinlarga kiyinishga ko'maklashib, kula-kula so'zlashishar, sol esa suvda sekin burilmoqda edi.

– Agar ularni kema karvoni tomon oqizib ketsa bormi, – deb shivirladi mujik, – ish tamom, kemaga borib urilib, chilparchin bo'ladi... – Jim... Qayıq yetkazıb berasan...

– Shunaqami!.. Ular ham odam-ku!

Mujik xursand, kulimsiragan holda soldan solga irg'ishlab, qirg'oqqa tomon ketdi. Fomaning sol ustida turgan o'sha odamlarga qichqirgisi keldi-yu, biroq sol biroz nari ketsin va undagi mast odamlar qirg'oqqa bog'lab qo'yilgan solga o'tib ololmasin, degan o'y bilan o'zini tiydi. U solning suvda ohista qalqib tur-

ganini va soniya sayin o‘zidan yiroqlashib borayotganini ko‘rib zavqlanardi. Shungacha uning qalbini to‘ldirib turgan og‘ir va qora tuyg‘ular ham go‘yo shu soldagi odamlar bilan birga oqib ketayotganday bo‘ldi. U sof havo bilan birga, sog‘lom va hushyor qiluvchi allaqanday bir narsa bilan nafas oldi. Oqib ketayotgan solning eng chetida Fomaga orqasini qilib Sasha turardi. Foma uning chiroyli qomatini ko‘rib, beixtiyor Medinskayani esladi. Medinskayaning bo‘yi pastroq edi... Medinskaya esiga tushgach, Fomani allanarsa chimchilaganday bo‘ldi-da, u ovozini baralla qo‘yib, mazax qilib:

– Hoy! Xayr sizlarga... – deb baqirdi.

Odamlarning qora soyalari, qo‘qqisdan hammasi birdan unga qarab intilib, so‘ngra solning o‘rtasiga to‘planishdi. Biroq ular bilan Fomaning o‘rtasida kengligi bir sajen keladigan muzdek suv yaltirab turardi. Bir necha soniya jimlik hukm surdi...

Shunda birdan Fomaning ustiga, hayvoniy dahshatga to‘lgan, chiyillab zorlangan xunuk ovozlar do‘l kabi yog‘ildi, hammadan ham Zvansevning chinqirgan ingichka ovozi quloqni yorgudek bo‘ldi:

– Qutqaringlar!..

Allakim, bakenbardli basavlat janob bo‘lsa kerak, yo‘g‘on tovush bilan o‘shqirdi:

– G‘arq qiladi... odamlarni g‘arq qiladi...

O‘qday sanchilayotgan ularning chinqiriqlaridan jahli chiqqan Foma:

– Sizlar ham odammi? – deb qichqirdi g‘azab bilan.

Dahshatga tushgan odamlar sol ustida u yoqdan bu yoqqa yugurishar sol ularning oyoqlari ostida chayqalib, borgan sari tez oqib borardi. Sol ostidagi suvning chapillashi va to‘lqinlanib uning ustiga otilishi eshitilardi. Chinqirgan ovozlar havoni yorar, odamlar irg‘ishlar, qo‘l siltashar, faqat Sashaning chiroyli gavdasigina qimir etmay, jimgina sol chetida turar edi.

– Qisqichbaqalarga salom denglar! – deb qichqirdi Foma. Sol yiroqlashgan sayin u o‘zini yengil his qilar, quvonar edi.

Uxtishev titragan, lekin hushyor ovoz bilan:

– Foma Ignatich! Menga qarang, axir bu qaltis hazil-ku!.. Men arz qilaman, – deb baqirdi.

– Cho‘kkaningdan keyinmi? Arz qilaver! – deya javob berdi Foma, xursand bo‘lib.

– Sen odamxo‘rsan! – deya qichqirdi Zvansev ho‘ngrab. Biroq, shu choq suv xuddi qo‘rqib yoki ajablanib, voy deganday, qattiq shaloplab ketdi. Foma bir cho‘chib tushdi-yu, qimirlamay qoldi. Xotinlar dahshatli qiy-chuv, faryod ko‘tarishdi, erkaklarning dahshatli ovozlari yangradi va soldagilarning hammasi ham turgan joyida qotib qoldi. Foma ham suvga qarab, toshday qotib qoldi. Suv ustida atrofiga suv sachratib, allaqanday qora narsa unga tomon suzib kelardi...

Foma beixtiyor, darhol sol yog‘ochiga ko‘kragini qo‘yib yotdida, suv ustiga engashib, qo‘llarini cho‘zdi. Nihoyatda uzoq tuyulgan bir necha soniya o‘tib ketdi... Uning qo‘liga muzdek ho‘l panjalar kelib yopishdi, ro‘parasida nursiz ko‘zlar miltillab ko‘rindi.

Fomani chulg‘ab olgan qo‘rquv zo‘r quvonch bilan almashinib yo‘q bo‘lib ketdi. Xotinni ushlab suvdan chiqardi-da, bag‘riga bosib, nima deyishini ham bilmay, hayron bo‘lib uning ko‘zlariga tikildi. Bu ko‘zlar unga muloyim jilmayib qo‘ydi...

– Sovuq! – dedi Sasha seskanib.

Foma uning ovozini eshitgach, xursand bo‘lib kuldi-da, uni dast ko‘tarib, chopganicha qirg‘oqqa tomon ketdi. Sasha baliqday sovuq va ho‘l bo‘lsa ham, nafasi issiq edi. Uning nafasi Fomaning yonog‘ini kuydirib, yuragini quvonch to‘lqinlari bilan chulg‘ab oldi. Sasha unga mahkam yopishib:

– Meni cho‘ktirvormoqchimiding? – dedi. Foma chopib borayotib:

– Sen juda yaxshi qilding, – deb g‘udrandi.

– Sen ham chakana o‘ylamabsan... aftingdan yuvoshga o‘xshaysan-u...

– Ular hali ham o‘shqirishyapti!..

– Xudo ko‘tarsin ularni! Cho‘kib ketishsa, biz sen bilan Sibirga ketamiz... – dedi Sasha. U qaltiray boshladi, Foma uning titrayotganini sezib, tezroq chopa boshladi. Ularning orqasidan, daryodan yordam so‘rab dodlagan va uligan ovozlar eshitildi. U yerda, sokin suv betida, g‘ira-shira qo‘ynida, qirg‘oqdan uzoqlashib,

daryoning o‘rtasiga qarab, kichkinagina bir orolcha oqib borar, uning ustida esa odamlarning qop-qora soyalari u yoqdan bu yoqqa zir yugurardi.

Ularning ustiga tun bostirib kelmoqda edi.

IX

Bir yakshanba kuni tush mahalida Yakov Mayakin o‘zining bog‘chasida choy ichib o‘tirardi. U ko‘ylagining yoqasini yechib, bo‘yniga sochiq o‘rab olib, olcha daraxtlari ostida o‘rindiqda o‘tirar, qo‘llarini havoda to‘lg‘ab, yuzidagi terlarini artarkan, bidillab so‘zlar edi.

– O‘z nafsiga qul bo‘lgan odam ahmoq va razil! Cholning ko‘zlari tajanglikdan g‘azab bilan yaltirar, lablari nafratomuz qiyshayib, qoraygan yuzidagi ajinlari titrar edi.

– Agar Foma o‘z o‘g‘lim bo‘lganda, men uning adabini berardim.

Lyubov akatsiya shoxini o‘ynarkan, otasining tajang va titrab turgan yuziga diqqat bilan tikilib, so‘zlariga jimgina quloq solib o‘tirardi. Qiz ulg‘aygan sayin, o‘zi ham sezmagan holda, cholga nisbatan sovuq muomalasini, unga inonmasligini o‘zgartirdi. Doim ish ichida qaynagan epchil va aqlli chol o‘z yo‘lidan yolg‘iz borardi, qizi esa, otasining yolg‘izligini ko‘rgach, buning naqadar og‘ir ekanini payqab, otasiga muloyimroq muomala qila boshladi. U orachora otasi bilan bahslashar, otasi uning e’tirozlarini doim mensimas va mazax qilar, lekin har gal e’tibor berib muloyimroq qaraydigan bo‘lib qolgan edi.

Mayakin mushti bilan stolni urib:

– Agar rahmatli Ignat o‘g‘lining shu yaramas qiliqlarini gazetada o‘qiganda, u Fomkani o‘ldirardi! Rosa rasvo qilib yozibdimi? Sharmandalik-ku! – dedi.

– Bekorgamasdir-da! – dedi Lyubov.

– Men bekorga deyayotganim yo‘q-ku! Rosa boplashibdi-da... Bunchalik dabdabali qilib yozgan kim ekan, a?

– Sizga baribir emasmi? – deb so‘radi qiz.

– Qiziq-da... Fomkaning qiliqlarini rosa boplab yozibdi, muttaham... Aftidan, o'zi ham birga bo'lgan, uning barcha yaramas qiliqlarini o'z ko'zi bilan ko'rganga o'xshaydi...

– Yo'q, u Fomka bilan yuradigan odammas! – dedi Lyubov ishonch bilan va otasining sinchkov nazari ostida qip-qizarib ketdi.

– Obbo, sen-e! Yaxshi tanishlaring bor ekan-da, Lyubka! – dedi Mayakin zaharxanda bilan. – Xo'sh, kim yozdi buni?

Lyubaning aytgisi kelmadi, biroq otasi uni qistab qo'ymadi, uning ovozi borgan sari dag'al va jahl bilan chiqa boshladi. Shunda qiz bezovtalanib so'radi:

– Siz uni hech narsa qilmaysizmi?

– Menmi? Men uning boshini g'ajiyman! Tentak! Men nima qila olardim? Ular, o'sha yozuvchilar, ahmoq odamlarmas... zo'r kuch, bachchag'arlar! Men gubernator emasman... Lekin u ham ularning qo'lini sindirolmaydi, tilini ham tiyolmaydi... Ular sichqonga o'xshab, asta-sekin kemirishadi... Shunaqa! Xo'sh, kim u o'zi?

– Esingizdami, men o'qib yurganimda biznikiga Yejov degan bir gimnazist kelib yurardi? Qorachadan kelgan...

– Ha, ko'rganman! Hali o'shami? Sichqonvachcha!.. Uning bebosh chiqishi o'shandayoq ma'lum edi... Men o'sha vaqtda uni qo'lga olsam bo'larkan... Ehtimol, odam bo'lib qolardi...

Lyubov otasiga qarab kulimsirab qo'ydi-da, g'urur bilan so'radi:

– Gazetaga yozadigan odam odam emasmi?

Chol o'yga cho'mgan holda barmoqlari bilan stolni chalib, nihoyatda yaltiratib tozalangan samovarda aks etgan yuzini tomosha qilib, anchagacha qiziga javob bermadi.

Keyin boshini ko'tarib, ko'zlarini suzib va kuyib-pishib salmoq bilan dedi:

– Ular odam emas, ular chipqon! Rus kishisining qoni buzilgan va shu harom qon tufayli mana shunaqa kitobchi-gazetachilar, yaramas munofiqlar paydo bo'ldi... Ular hamma yoqda chipqondek yorilyapti va borgan sari ko'proq toshmoqda... Qon nimadan buziladi? Harakatning sustligidan... Chivin qayerda paydo bo'ladi? Botqoqlikda... Ko'lmak suvda har xil hasharotlar uchraydi... Tartibga solinmagan hayotda ham xuddi shunday...

Lyubov muloyimgina qilib:

– Unaqa emas, otajon! – deb qo‘ydi.

– Nega unaqa emas ekan?

– Yozuvchilar juda xolis odamlar... Ular pokiza odamlar! Ularga hech narsa kerakmas. Ularga faqat adolat, faqat haqiqat kerak, xolos! Ular chivin emas...

Lyubov o‘zi sevgan odamlarni zo‘r hayajon bilan maqtadi, uning yuzi qizardi, otasini ishontira olmaganidan, ishonishga da’vat etuvchi his bilan otasiga qaradi.

– E-eh seni! – dedi chol xo‘rsinib, uning so‘zini bo‘lib, – o‘qib-o‘qib, yetgan joyingni qara! Qani, sen menga ayt-chi, kim ular? Noma’lum! Axir Yejov o‘zi kim? Xudo oldida ikki pul! Ularga faqat haqiqat kerak emish, uni qaranglar-u?! Obbo, sodda odamlar-e?! Bordi-yu, o‘sha haqiqat hamma narsadan qimmat bo‘lsa-chi!.. Bordi-yu, uni, har kim o‘zicha indamay qidirayotgan bo‘lsa-chi? Sen gapimga ishon, odam beg‘araz bo‘lolmaydi... U boshqalar uchun jon kuydirmaydi... bordi-yu, jonkuyarlik qilsa, uni ahmoq deyish kerak va undan hech kimga bir naf tegmaydi! Odam o‘zini o‘zi himoya qila olishi kerak... O‘z ishini... ana o‘shanda o‘z maqsadiga erishadi! Haqiqat! Men qariyb qirq yildan beri bitta gazeta o‘qiyman va ko‘zim yaxshi ko‘radi... Mana, ro‘parangda mening basharam, ro‘paramdagi samovarda ham mening basharam, lekin u boshqacha... Gazetalar ham har bir narsaning xuddi samovardagi basharasini ko‘rsatadi, haqiqiy basharani esa ko‘rmaydi... Sen bo‘lsang ularga ishonib o‘tiribsan... Men bilaman, samovar mening basharamni buzib ko‘rsatadi.

– Otajon! – dedi Lyubov g‘amgin bir holda. – Axir kitob va gazetalarda barcha odamlarning umumiy manfaatini himoya qilishadi-ku!

– Sening hayotdan zerikkaning va allaqachon kuyovga chiqishing kerakligi to‘g‘risida qaysi gazetada yozilgan?

Mana, sening manfaatingni yoqlashmayapti-ku! Menikini ham yoqlashmaydi... Mening nima istaganimni kim bilsin? Mening manfaatimni o‘zimdan boshqa kim tushunadi?

– Yo‘q otajon, bu unday emas, unday emas! Men sizga e’tiroz qilolmayman, biroq shunday emasligini sezib turibman! – dedi Lyubov kuyib-pishib.

– Xuddi o‘shanday! – dedi chol qat’iy qilib. – Rossiya alg‘ovdalg‘ov bo‘lib ketdi va unda mustahkam hech bir narsa qolmadi hamma narsaning tagi bo‘shab qoldi. Hech kim to‘g‘ri yashamaydi, hamma qing‘ir yo‘lga kirib ketdi, hayotda sira tartib qolmadi... Faqat hamma har xil ovoz bilan baqiradi. Kimga nima kerak, hech kim tushunmaydi! Hamma narsani tuman chulg‘ab olgan... Hamma tuman bilan nafas oladi, shuning uchun ham odamlarning qoni buzilgan... chipqonlar ham shundan... Odamlarga falsafa sotishga keng yo‘l qo‘yilgan-u, ammo biron ish qilishga ruxsat etilmaydi, shuning uchun ham odam yashamaydi, balki chirib, sasib yotadi...

Lyubov stolga bag‘rini berib, otasi tomon engasharkan:

– Nima qilish kerak axir? – deb so‘radi. Chol qizishib gapirdi:

– Hammasini! Hamma narsani qilish kerak! Kimning qo‘lidan nima kelsa, shuni qilsin! Buning uchun odamlarga erk, ozodlik berish lozim! Har bir qalang‘i-qasang‘i o‘zini, men hayotni istagan ko‘yimga solish uchun yaratilganman, qo‘limdan har narsa keladi, – deb o‘ylarkan, o‘sha la’natiga erk berish kerak! Ma, itvachcha, ol, yasha, deyish kerak! Qani, yashab ko‘rsin-chi? Ha, a! Ana o‘shanda, shunday komediya boshlanadi. O‘sha bachchag‘ar tushovi olinganini payqab, baland parvoz qilish orzusiga tushadi-da, pat singari har tomonga ucha boshladi... o‘zini avliyo deb hisoblaydi-da, o‘libtirilib bor kuchini ishga solmoqchi bo‘ladi...

Chol biroz nafasini rostlagandan so‘ng, ovozini pastlatib, zaharxanda bilan so‘zini davom ettirdi:

– Ammo unda biror narsa yarata oladigan kuch nihoyatda oz, zig‘irdakkina! U bir-ikki kun chiranib, kekkayib yurgandan keyin, hademay holdan ketadi sho‘rlik. Chunki o‘zagi chirik-da... Ana shunda hayotning chinakam egasi bo‘lishga loyiq odamlar... qaysiki, hayotni tayoq va qalam bilan emas, barmoq va aql bilan quruvchi odamlar, bunaqa taviyalarni mahkam ushlab oladilar. Xo‘sh, janoblar, charchadingizmi, deb so‘raydilar. Xo‘sh, haqiqiy issiqqa qora jigarlaringiz bardosh qilolmay qoldimi, deb surishtiradilar. – Chol ovozini baland qilib, amirona ohang bilan so‘zini shunday tugatdi: – Xo‘sh, endi siz, falon-pismadonlar, tek turinglar, chiyillamanglar! Bo‘lmasa, sizlarni daraxt qurtlarini quritgandek yer yuzidan butun-

lay supurib tashlaymiz! Tek turinglar! Xuddi mana shunday bo'ladi, Lyubavka! Xe-xe-xe!

Cholning kayfi chog' edi. Uning ajinlari qimirlab ketdi, o'z so'zidan mast bo'lib, a'zoyi badani titrab, ko'zlarini yumib, allanarsaning ta'mini totiyotganday, lablarini chapillatdi:

– Ana shunda mana shu to's-to'polonda ustun bo'lib olgan odamlar hayotni o'z bilganlaricha, aql bilan tuzib oladilar... Ish o'ldajo'lda bo'lmaydi, bir tartib bilan boradi! O'sha zamonni ko'rolmay o'lib ketamiz-da, attang!..

Otasining har bir so'zi Lyubov ustiga xuddi pishiq to'rning tugunidek birin-ketin jamlanib, o'rab-chirmab olar, qiz esa o'zini xalos qilolmay, otasining so'zlaridan miyasi g'ovlab, indamay o'tirardi. U cholning yuziga astoydil tikilarkan, uning so'zlaridan o'ziga madad izlar va bu so'zlar bilan o'zi kitoblarda o'qigan va unga chinakam haqiqat bo'lib ko'ringan narsalar orasida allaqanday o'xshashlik borligini sezar edi. Biroq otasining zaharxanda qilib, tantanali kulishi uning yuragini tirnar va otasining yuzlarida kichkina qora ilonlar singari o'rmalab yurgan ajinlar esa qiz ko'nglida qo'rquv uyg'otar edi.

Uning uchun shu qadar sodda, shu qadar ravshan bo'lib ko'ringan narsalardan otasi uni allaqanday boshqa tomonga chalg'itayotganini payqadi.

Lyubov qo'qqisdan paydo bo'lgan o'y va orzusiga bo'ysunib, birdan choldan so'rab qoldi:

– Otajon! Otajon! Sizningcha, Taras kim?

Mayakin seskanib tushdi. Uning qoshlari jahl bilan chimirilib, o'tkir ko'zlari bilan qizining yuziga tikildi, sovuqqina qilib:

– Bu yana qanday gap bo'ldi? – deb so'radi.

– Uning to'g'risida gapirish mumkin emasmi? – dedi Lyubov uyalib, ohistagina.

– Men uning to'g'risida gapirishni istamayman... Senga ham maslahatim shu!.. – dedi chol, barmog'i bilan qiziga tahdid qilib va xo'mrayib boshini egdi.

Biroq, u o'g'lim to'g'risida gapirishni istamayman, deb o'zini, ehtimol, noto'g'ri tushungan bo'lsa kerak, chunki bir daqiqa chamasi jim turgandan keyin, xo'mrayib zarda bilan so'z boshladi.

– Taraska ham chipqon... Siz ona suti og'zidan ketmagan shumtakalarga hayot ajoyib nafasini purkaydi, siz bo'lsangiz, uning haqiqiy toza hidini ajrata olmaysiz, bo'lmagan iflosliklarni ichingizga yutasiz, shuning uchun ham miyangiz aynaydi... Taraska... hozir u o'ttizdan oshdi...U mening uchun o'lgan!.. Sho'rtumshuq...

Lyubov cholning so'zlarini berilib tinglarkan:

– U nima qilgan? – deb so'radi.

– Buni kim bilsin? Hozir o'zi ham nima bo'lganini bilmas... agar aqli kirib qolgan bo'lsa... Lekin aqli kirib, dono bo'lib qolgan bo'lishi kerak... chunki ahmoq odamning o'g'li emas-ku... rosa azob ham tortdi... O'sha nigilistlarni erkalatib yuborishdi!.. Ularni menga topshirishsa bormi, men ularga rosa ish ko'rsatardim... Odamsiz sahrolarga, cho'llarga jo'natardim!.. Qani, xo'sh, donolar, mana shu yerda o'zingizga bop hayot qurib olingiz-chi! Qani, ko'raylik-chi! Ularga eng baquvvat mujiklarni boshliq qilib qo'yardim... Xo'sh, vijdonli janoblar, sizlarni yedirdilar, ichirdilar, o'qitdilar, qani, sizlar nimani o'rgandingiz? Marhamat qilib qarzingizni uzing... Men ularga qora chaqani ham sarf qilmas edim, lekin butun jirlarini so'rib olardim – ber derdim! Odamga beparvo bo'lish kerak emas, uni turmaga tiqish ozlik qiladi! Sen qonunni buzdingmi, buning ustiga barinmisan? Yaxshisi, sen menga ishlab ber... Bir dona urug'dan butun boshli boshoq paydo bo'ladi! Shunday ekan, odamning befoyda – bekor yotishi yaxshi emas!.. Ishning ko'zini bilgan duradgor har bir payrahadan foydalanadi – odamdan ham ishda xuddi shunday foydalanish lozim. Har qanday xasning ham hayotda o'z o'rni bor, odam xas-cho'p emas-ku... Eh! Kuchning aqlsiz bo'lgani yomon, aql bo'lib kuch bo'lmasa ham yaxshi emas. Mana endi Fomka... Kim kelyapti, qara-chi!

Lyubov o'girilib, bog' yo'lkasidan kelayotgan «Ermak» kapitani Yefimni ko'rdi. Yefim hurmat bilan kartuzini olib, boshini egib kelardi, uning afti kechirib bo'lmaydigan gunoh qilib qo'ygandek xomush edi... Yakov Tarasovich uni tanidi-da, xavotir bo'lib:

– Nima gap? – deb qichqirdi.

Yefim stol yonida to'xtab, boshini egib ta'zim qildi:

– Sizning oldingizga keldim!

– Mening oldimga kelganingni ko'rib turibman... Nima gap? Paroxod qayerda?

– Paroxod u yerda! – deb Yefim qo'li bilan allaqaysi yoqni ishora qilib ko'rsatdi-da, depsinib qo'ydi.

Chol g'azab bilan o'kirdi:

– Qayerda, jin urgur! Ayt, nima bo'ldi?

Yefim ko'kragini to'ldirib chuqur nafas oldi-da, ohista gap boshladi:

– To'qqizinchi nomerli barja majaqlandi. Bir odamning umurtqasi sindi, bittasi butunlay yo'q bo'lib ketdi, balki, cho'kib ketgan bo'lsa...

Mayakin g'azab bilan kapitanni ko'zdan kechirarkan:

– Shunday degin! – dedi. – Menga qara, Yefimushka, men sening teringni shilaman...

– Men emas, axir! – dedi Yefim shoshib.

– Sen emas! – deb baqirdi chol va vujudi titrab ketdi. – Bo'lmasa kim?

– Xo'jayinning o'zi...

– Fomka?! Sen-chi, sen nima qilding?

– Men lyukda yotuvdim...

– A-a! Yotuvdingmi...

– Oyoq-qo'lim bog'langan...

– Nima? – deb chinqirdi chol.

– Bir boshdan aytib berishga ruxsat eting... O'zlari ichib olgan edi, «Yo'qol bu yerdan! O'zim komanda beraman!» deb baqirdi. Men: «Yo'q, bo'lmaydi! Kapitan menman!..» dedim. U: «Boylanglar buni!» dedi. Shunday qilib, meni bog'lab lyukka – matroslar oldiga tushirib qo'yishdi... O'zlari ichib olgani uchun hazil qilmoqchi bo'ldi... Ro'paramizdan «Chernogorets» oltita bo'sh barjani sudrab kelardi. Foma Ignatich ularning yo'lini to'sdi... Ular gudok chalishdi... bir necha bor... to'g'risini aytish kerak, chalishdi!

– Be!

– Lekin eplay olmadilar... oldindagi ikkitasi tikkasiga bizning ustimizga bostirib keldi... Ular kelib barjamizning bortiga urilishi bilanoq, biz chilparchin bo'ldik... Ikkalasi ham majaqlandi... Bizga yomonroq bo'ldi...

Mayakin stuldan turdi va qaltiragan ovoz bilan achchiq kuldi. Yefim esa xo'rsinib, qo'llarini kerib gapirdi.

– U kishining fe'li juda yomon ekan... Hushyorligida jimgina o'ylanibroq yuradi-yu, biroq prujinalarini aroq bilan moylab olsa bormi, ko'kka sapchiydi... Shunday paytlarda na o'zini eplaydi va na ishni, o'ziga o'zi g'irt dushman bo'lib oladi, kechirasiz! Ketmoqchiman, Yakov Tarasovich! Men xo'jayinga o'rganib qolganman, xo'jayinsiz turolmayman...

– Ovozingni o'chir! – dedi Mayakin do'q qilib. – Foma qayerda?

– O'sha yerda... Shu voqeadan keyin darhol o'ziga kelib, o'sha zahotiyoq ishchilarga odam yubordi... Barjani chiqarmoqchilar... balki, allaqachon boshlagandirlar ham...

– Bir o'zimi? – deb so'radi Mayakin boshini egib.

Yefim ko'z qiri bilan Lyubovga qarab qo'yib, ohistagina javob berdi:

– Unaqa... emas... yonlarida... qorachadan kelgan... oyimcha bor... Aftidan o'sha xotinning es-hushi joyidamasga o'xshaydi... – dedi Yefim entikib. – Ashula aytgani aytgan... juda chiroyli aytadi... Mast qilib qo'yadi kishini!..

– Men sendan uni so'rayotganim yo'q! – deb baqirdi Mayakin zarda bilan. Uning yuzidagi ajinlari alam bilan burushdi. Lyubovga otasi shu tobda yig'lab yuboradiganday tuyuldi.

– O'zingizni bosing, otajon! – deb muloyimgina iltimos qildi qiz. – Unchalik katta zarar bo'lmagandir...

Yakov Tarasovich ovozini jaranglatib o'shqirdi:

– Zarari katta emas deysanmi? Sen ahmoq nimani tushunasan! Mayli edi barjaning o'zi majaqlangan bo'lsa. Tentak! Odam majaqlandi, odam! Uqtingmi! U menga kerakli odam edi, jin urgur, anqovlar!

Chol g'azab bilan boshini siltab qo'ydi-da, tez-tez qadam tashlab, bog' yo'lkasi bilan yurib uyiga kirib ketdi...

...Foma bu vaqtda to'rt yuz chaqirim narida, Volga bo'yidagi bir qishloqda edi. U hozirgina uyqudan uyg'onib, uy o'rtasidagi yangi poxol ustida yotar, derazadan surrang uvadaga o'xshash bulutlar qoplangan osmonga xo'mrayib qarar edi.

Foma ichkilikdan og'irlashgan boshini qimirlatmay yotarkan, go'yo uning ko'ksida ham sokin bulutlar suzib yurgandek, ulardan esgan rutubat yuragini qisayotganday bo'lardi. Ko'kdagi bulutlarning suzishida allaqanday holsizlik va hadiksirash bor edi... Foma o'zida ham xuddi ana shunday bir holni sezdi... U o'ylamasdanoq, so'nggi oylarda boshidan kechirgan hodisalarni bir-bir esladi.

Nazarida go'yo qaynoq loyqa oqimga tushib ketganga va ko'kdagi mana shu bulutlarga o'xshagan qop-qora to'lqinlar uni qamrab olib allaqayoqlarga oqizib ketayotganga o'xshardi. Foma o'zini chulg'ab olgan zulmat va olag'ovur ichida u bilan birga, har kuni yangi-yangi, lekin hammasi ham bir xilda ayanchli, jirkanch, allaqanday odamlar ham oqib borayotganini arang ko'rardi. O'sha badmast, to'polonchi, ochko'z odamlar uning atrofida aylanishar, uning puliga aysh-ishrat qilishar, uni so'kishar, bir-birlari bilan mushtlashar, bir-birlariga o'shqirishar va, hatto, ba'zan yig'lashardi ham. Foma ularni urardi. U allakimning yuziga tushirganini, allakimning surtugini yechib olib suvga tashlaganini va allakim, baqanikiga o'xshagan jirkanch, ho'l, muzdek lablari bilan uning qo'llarini o'pganini esladi... U Fomaning qo'lini o'parkan, yig'lab turib, meni o'ldirib qo'ymang, deb unga yolvorgandi... Fomaning xotiridan allaqanday basharalar lipillab o'tdi, ovozlar, so'zlar jarangladi... Sariq shohidan ko'kragigacha ochiq kofta kiygan xotin yig'lamsiragan ovoz bilan kuylardi:

Davr kelganda o'ynab qolaylik,
Bizdan keyin nima bo'lsa bo'lar!..

...Mana shu odamlarning hammasi ham Foma singari, o'sha qora to'lqin qa'riga tushib qolib, go'yo bir xasdek oqib borardilar. Ular ham shu quturgan dahshatli to'lqin o'zlarini qayoqqa olib ketayotganini ko'rish uchun olg'a qarashga qo'rqsalar kerak. Ular shu qo'rquvlarini aroq bilan bostirish uchun urinishar, o'kirishar, allaqanday bema'ni ishlar qilishar, jinnilik qilib shovqin-suron ko'tarishar, biroq hech qachon xursand bo'lishmas edi. Foma ham shularning hammasini qilib ko'rdi. Nazarida bu ishlarni hayotning qorong'i bosqichidan tezroq o'tib olish uchungina qilayotgandek tuyulardi.

To‘s-to‘polon, aysh-ishratlar ichida, sho‘xlik hirslariga nihoyatda berilib esankiragan va o‘zlarini unutish uchun telbalik darajasiga yetgan odamlar orasida yolg‘iz Sashagina o‘zini doim tinch va sipo tutar edi. U mast bo‘lguncha ichmas, odamlar bilan doim amirona va shaxdam so‘zlashar, uning har bir harakati o‘ziga bo‘lgan ishonchidan dalolat berib turar, go‘yo bu oqim uni qamrab ololmagandek, aksincha, o‘zi shu quturgan oqimni boshqarayotgandek tuyular edi. Fomaning nazarida u o‘z atrofidagi odamlar orasida eng aqllisi ham, to‘s-to‘polon va kayf-safoga eng o‘chi ham shu edi. U hammaga buyruq qilar, har doim biron yangi narsa o‘ylab topar va hamma bilan bir me’yorda, o‘zining dugonalari va Fomaning o‘zi bilan ham qanday so‘zlashsa, izvoshchi bilan ham, xizmatkor bilan ham, matros bilan ham xuddi o‘shanday so‘zlashar edi. Sasha Pelageyaga qaraganda chiroyliroq va yoshroq bo‘lsa ham, uning noz-karashmalari unsiz, sovuqroq edi... Foma Sasha to‘g‘risida bu ayol yuragining eng chuqur yerida allaqanday qo‘rqinchli bir narsani hammadan yashirib yursa kerak va hech qachon, hech kimni sevmasa, o‘z sirini hech kimga ochmasa kerak, deb o‘ylardi. Sashadagi bu sir, bu maxfiy xislat Fomani o‘ziga jalb etar, unda qo‘rquv aralash qiziqish paydo qilar, uning ko‘zlariday qop-qora, doim xotirjam muzdek ko‘ngli esa, uni bezovta qilib o‘ziga tortardi. Bir kuni Foma unga:

– Biz sen bilan pulni rosa isrof qildik-da, – dedi. Sasha unga qarab qo‘yib:

– Asrab nima qilarding? – deb so‘radi.

Uning shunday sodda mulohaza qilishidan hayron bo‘lgan Foma: «Rostdan ham asrab nima qilardim?» deb o‘yladi.

– Sen o‘zing kimsan? – deb so‘radi Foma yana bir safar.

– Nahotki mening ismimni unutgan bo‘lsang?

– Nega unutay!..

– Bo‘lmasa nega so‘raysan?

– Men sening tag-tugingni so‘rayapman...

– A! Men yaroslavlikman. Uglichdan, meshshanka... Arfistka... Xo‘sh, mening kimligimni bilsang, men senga shirinroq bo‘lamanmi?

– Shu bilan meni bildi, deb o‘ylaysanmi? – deb so‘radi Foma kulimsirab.

– Hali bu senga ozlik qiladimi? Men ortiq hech narsa demayman... Nima hojat?.. Hammamiz yerdan paydo bo'lganmiz – odamlar ham, hayvonlar ham... Bu gaplar hammasi behuda... Yaxshisi, bugungi kunni qandoq o'tkazishni o'ylaylik.

Shu kuni ular orkestr olib paroxodda sayr qildilar, shampanskiy ichdilar, mast-alast bo'ldilar. Sasha allaqanday yoqimli, nihoyatda ajoyib, mungli bir qo'shiq aytdi. Foma esa, ko'ngli buzilib, xuddi go'dakdek yig'ladi. Keyin u Sasha bilan «russkaya» raqsiga o'yinga tushdi, charchadi, o'zini suvga otdi, cho'kib ketishiga oz qoldi.

Hozir shularni va boshqa ko'pgina narsalarni o'ylab, Foma o'zidan xijil va Sashadan xafa bo'ldi. U Sashaning chiroyli qomatini nazaridan o'tkazib, uning tinchgina nafas olib yotganini eshitdi va bu xotinni yaxshi ko'rmaganini va bu xotin unga kerakmasligini payqadi. Uning g'ovlagan miyasida asta-sekin allaqanday og'ir, xira o'ylar paydo bo'la boshladi. Uning so'nggi vaqtlarda boshdan kechirganlarining barchasi go'yo og'ir va chigal kalava ip singari ko'kragida turib qolgan-u, hozir shu kalava uning ko'ksida aylanib yurib, asta-sekin yozilib, ingichka surrang iplar uni chirmab olayotgandek bo'lardi.

«Menga o'zi nima bo'lyapti? – deb o'yladi Foma. – Men o'zim kimman?»

Bu savol uni hayratda qoldirdi va shuning ustida to'xtalib: «Men nega boshqalarga o'xshab xotirjam va dadil yasholmayman?» degan savolga javob topishga tirishdi. Shu fikrdan battarroq uyalib ketdi, u poxol ustida anchagacha to'lg'anib yotgach, keyin zarda qilib tirsagi bilan Sashani turtdi.

– Sekinroq!.. – dedi Sasha uyqusirab.

– Obbo, barinyaligingni qara-yu! – deb g'udrandi Foma.

– Nima?

– Hech nima...

Sasha unga orqasini o'girib, maza qilib esnab olgach, erinchoqlik bilan so'zlay boshladi:

– Tushimda go'yo yana arfistka bo'lib qolganmishman. Yakka o'zim ashula aytyapman-u, ro'paramda katta bir iflos it tishlarini irjaytib, ashulani tugatishimni kutib turganmish... Men undan qo'rqarmishman... Ashulani tugatishim bilanoq, meni yeb qo'yishini sezib turganmishman... Shuning uchun tinmay ashulani

aytarmishman... Shunda birdan ovozim xippa bo‘g‘ilib qolganmish... Nihoyatda qo‘rqibman! It esa tishlarini g‘ijirlatarmish... Nima bo‘larkin bu?

Foma uning so‘zini bo‘lib:

– Ko‘p valdirama! – dedi xo‘mrayib. – Sen menga ayt, mening to‘g‘rimda nimalarni bilasan?

– Shuni bilamanki, hozir sen uyg‘onding! – dedi Sasha unga o‘girilmay.

– To‘g‘ri, men uyg‘ondim, – dedi Foma o‘ychan va qo‘llarini boshining ostiga qo‘yib so‘zini davom ettirdi. – Shuning uchun ham sendan men qanday odamman, deb so‘rayapman-da?

– Kayfing bor, – deb javob berdi Sasha esnab.

– Aleksandra! – deya qichqirdi Foma yolvorib. – Hazillashma! To‘g‘risini ayt, mening haqimda nimalarni o‘ylaysan?

– Hech narsani o‘ylamayman! – deb javob berdi Sasha quruqqina qilib.

Foma og‘ir nafas olgach, jimib qoldi. Sasha ham bir lahzagina jim yotgach, o‘z odaticha beparvo ovoz bilan so‘z boshladi:

– Uni qaranglar-u! Nega endi men allakimlar to‘g‘risida o‘ylar ekanman? O‘z haqimda o‘ylashga ham vaqtim yo‘g‘-u... Ehtimol, istamasman...

Foma qo‘polgina kulib:

– Koshki men ham istamasam!.. – deb qo‘ydi.

Ayol boshini yostiqdan ko‘tarib, Fomaning yuziga qarab qo‘ydida, gapira-gapira yana yotdi:

– Ko‘p donolik qilaverma... Menga qara, bundan senga naf yo‘q... Sening to‘g‘ringda hech narsa aytolmayman... Xo‘sh, boshqalardan ko‘ra sen yaxshiroqsan desam... bundan senga nima foyda?

– Nega yaxshiroq? – so‘radi Foma o‘ylanqirab.

– Shunday! Yaxshi ashula aytilsa, yig‘laysan... biron kishi yomonlik qilsa, urasan... Xotinlarga yaxshi muomala qilasan, ularni masxara qilmaysan... Xo‘sh, keyin, mardlik ham qila olasan...

Bu gaplardan Foma qanoatlanmadi.

– Gapni boshqa yoqqa burib ko‘nglingdagini aytmayapsan! – dedi u sekingina.

– Senga nima kerak o‘zi, bilmay qoldim... Barjani chiqarishgandan keyin nima qilamiz?

– Nima qilaylik? – deb so‘radi Foma.

– Nijniyga boramizmi yo Qozonga?

– Nima uchun?

– O‘ynab-kulib aysh qilib kelamiz...

– Men endi aysh qilib bo‘ldim...

Ular bir-birlariga qaramay, anchagacha jim yotishdi.

– Sening fe’ling juda og‘ir, – dedi Sasha nihoyat. – Diqqinafassan.

– Bundan keyin hech ham ichkilikbozlik qilmayman! – dedi Foma qat’iy qilib.

Sasha pinagini buzmay:

– Yolg‘on aytasan! – deya e’tiroz bildirdi.

– Ko‘rasan! Sen nima deb o‘ylaysan, shunday yashash yaxshimi?

– Ko‘raman.

– Yo‘q, sen ayt, yaxshimi?

– Bo‘lmasa nima yaxshi?

Foma unga qiya qarab, jahl bilan dedi:

– So‘zlaring biram qo‘lansaki!

Sasha kulimsirab:

– Bunisi ham yoqmadi shekilli! – deb qo‘ydi. Foma alam bilan aftini burushtirib gapirdi.

– Xalq! Yashaydi... Lekin qandoq? Qayoqqadir o‘rmalaydi... Suvarak ham o‘zining qayoqqa va nima uchun o‘rmalab ketayotganini biladi, sen-chi, sen? Qayoqqa ketayotganingni bilasanmi?

Sasha pinagini buzmay uning so‘zini bo‘ldi:

– Shoshma! Men bilan nima ishing bor? Sen mendan istaganingni olyapsan, lekin mening ko‘nglimga qo‘l sola ko‘rma!

Foma nafratlanib:

– Ko‘ngil, – deya cho‘zib qo‘ydi. – Qanaqa ko‘ngil? Sasha xonada yurib, sochilib yotgan kiyim-boshlarini yig‘ishtira boshladi. Foma uni kuzatib yotdi va ko‘ngil haqidagi so‘zlariga Sashaning jahli chiqmaganiga xafa bo‘ldi. Aksincha, uning yuzi har vaqtdagidek beparvo edi. Foma uni insoniy bir qiyofada, jahli chiqqan yoki xafa bo‘lgan qiyofada ko‘rgisi kelardi.

– Ko‘ngil! – deya qichqirdi u o‘z maqsadiga erishmoq uchun. – Axir ko‘ngil egasi bo‘lgan odam senga o‘xshab yashaydimi? Unda o‘t yonadi... Nomus, oriyat bo‘ladi...

Shu vaqt Sasha o‘rindiqda o‘tirib paypoq kiyardi: Fomaning so‘zlarini eshitgach, boshini ko‘tardi-da, unga o‘qrayib qaradi.

– Nega o‘qrayasan? – dedi Foma.

– Nega bunday deysan? – deb javob berdi Sasha undan ko‘zini uzmay.

Uning savolida allanechuk do‘q bor edi. Foma undan cho‘chib, biroz popugi pasayib:

– Nega demas ekanman? – dedi.

– Eh, sen! – deya xo‘rsindi Sasha va yana kiyina boshladi.

– Menga nima qipti? – so‘radi Foma.

– Shunday... Sen go‘yo ikkita otadan bo‘lganga o‘xshaysan... Bilasanmi, men odamlarda nimalarni payqadim?

– Xo‘sh?

– O‘zi uchun o‘zi javob berolmagan odam o‘zidan qo‘rqadi, demak, unday odam ikki pulga arzimaydi!

– Sen buni mening to‘g‘rimda aytyapsanmi? – deb so‘radi Foma biroz jim turgach.

Sasha keng pushti xalatni yelkasiga tashlab, uy o‘rtasida tik turganicha, oyog‘i ostida yotgan Fomaga qarab, past va bo‘g‘iq ovoz bilan:

– Mening ko‘nglim to‘g‘risida gapirishga haqing yo‘q... – dedi. – Ko‘nglim bilan sening ishing bo‘lmasin... Men gapirsam mumkin! Agar istasam, sizlarga shunaqa gaplarni aytar edimki, eh! Sizlarning to‘g‘ringizda... har biri bolg‘adek so‘zlarim bor! Agar shular bilan boshingizga tushirsam bormi... jinni bo‘lib qolardingiz... Biroq sizlarni so‘z bilan davolab bo‘lmaydi... Sizlarni, tovalarni qatronlash uchun qanday kuydirilsa, xuddi shunday o‘tda kuydirish kerak...

U qo‘llarini ko‘tarib, sochlarini tezda yozarkan, qop-qora sochlari tola-tola bo‘lib yelkalariga yoyildi, shunda u mag‘rur boshini bir siltab qo‘ydi-da, nafratomuz dedi:

– Sen mening buzuqligimga qarama! Ipak kiygan odamlardan ko‘ra, balchiqqa qorilgan odamlar orasida ham pokizalari

bo‘ladi... Siz ayg‘irlar haqida men qanday fikrda ekanimni, sizlarga nisbatan yuragimda naqadar g‘azab borligini bilsang edi! Kamoli g‘azabnokligimdan indamayman... chunki, agar gapirib qo‘ysam, yuragim bo‘shab qolib... keyin nima bilan yashayman deb qo‘rqaman...

Endi u yana Fomaga yoqib qoldi. Uning so‘zlarida Fomaning kayfiyatiga yaqinroq allanarsa bordek edi. Foma kulimsirab, ochiq chehra bilan xursand bo‘lib:

– Men ham yuragimda allanarsa kuchayib borayotganini sezyapman... Eh, vaqti kelar, men ham o‘z so‘zimni aytarman... – dedi.

Sasha parvo qilmay:

– Kimga qarshi? – deb so‘radi.

Foma o‘rnidan irg‘ib turarkan:

– Hammaga qarshi! – deb qichqirdi. – Soxtalikka qarshi! Men so‘raymanki...

– So‘ra-chi, samovar tayyormikin? – deya buyruq qildi Sasha, beparvolik bilan.

Foma unga qarab qo‘ydi-da, g‘azab bilan baqirdi:

– Yo‘qol, shayton! O‘zing so‘ra...

– Nima deb akillayapsan!

Sasha uydan chiqib ketdi...

...Daryo ustida shamol shiddat bilan uchib yurar, surrang to‘lqinlar qoplab olgan daryo esa, g‘azabidan ko‘piklanib, shaloplab, shamolga qarshi jon-jahdi bilan tashlanar edi. Qirg‘oq bo‘ylaridagi tollarning shoxlari shamol zarbiga chiday olmay, qaltirab-qaltirab yerga egilardilar. Havoda hushtak, ulish va o‘nlarcha odamlarning ko‘ksidan otilib chiqqan, do‘rillagan, yo‘g‘on ovozlar yangrar edi:

– Ha, ol! Ha, bo‘l

Tik sohil bo‘yida ikkita bo‘sh barja langarda turar, ularning osmonga cho‘zilgan baland machtalari havoda ko‘z ilg‘amas naqshlar chizib, vahima bilan u yoqdan bu yoqqa larzanglar edi. Barjalarning palubalarida yo‘g‘on-yo‘g‘on xodalar qalashib yotar, hamma yerda ungurlar osilib turar, zanjirlar va sim arqonlar havoda chayqalar, zanjir halqalari sekingina shiqirlar edi... Ko‘k va qizil ko‘ylak kiygan bir gala mujiklar oyoqlarini tap-tup bosib, palubada yo‘g‘on to‘sinni sudrab, bor kuchlari bilan:

– Ha, ol! Ha, bo‘l! – deb o‘kirishar edi.

Go'yo yog'ochlarga ko'k va qizil narsalar yopishganday edi. Shamol odamlarning ko'ylak-ishtonlarini shishirib, ularni goh bukri, goho pufakka o'xshatib, yumaloq qilib, g'alati bir shaklda ko'rsatardi. Yog'ochlarning ustidagi va palubalardagi odamlar nimanidir bog'lashar, kesishar, arralashar, mix qoqishar, hamma yerda yengi bilagigacha shimarilgan zabardast qo'llar lipillab ko'rinar edi. Shamol esa daryo ustida har xil ovozlarni uchirib yurar, arra ichiqoralik bilan quvonib, entikib yog'och kesar, bolta zarbidan jarohatlangan to'sinlar inqillar, zarb ostida yorilgan taxtalar qarsillab nola qilar, randalar zaharxandalik bilan qirtillar edi. Zanjirlarning sharaqlashi va chig'irlarning ingrab g'ijirlashi to'lqinlarning shovullashiga qo'shilib ketar, shamol guvullab, uli tortib, osmondagi qora bulutlarni quvib yurar edi.

– Qani, yigitlar, qani, ha!

– Qani, yigitlar, yana bir marta, ha! – deya kimdir ingichka ovoz bilan iltimos qilardi.

Kalta drap pidjak va qo'nji uzun etik kiygan, basavlat gavdali, chiroyli Foma, machtaga suyanib, qaltiragan qo'li bilan soqolini chimdilab, ishlayotganlarga havas bilan qarab turardi. Atrofidagi shov-shuv unda ham qichqirish, mujiklar bilan birga ishlash, daraxt kesish, og'ir yuklarni ko'tarish, buyruq qilish – xullas, hammani o'ziga qaratish, hammaga o'z kuchini, chaqqonligini, jonsarakligini ko'rsatish orzusini tug'dirar edi. Lekin u o'zini bosib indamay, qimir etmay turar, uyalar edi. Bu yerda u hammaga xo'jayin, agar xo'jayin ishga tutinsa, uning o'z xohishi bilan ishlayotganiga hech kim ishonmasligini, aksincha, o'rnak ko'rsatish, ularni ishga qiziqtirish uchungina ishlayapti, deb o'ylashlari mumkinligini tushunardi.

Jingalak sariq sochli, ko'ylagining yoqasi ochiq bir yigit goh qo'lida bolta bilan, goh yelkasida taxta bilan bir necha bor Fomaning yonidan o'tdi. U xuddi sho'x takaday irg'ishlab, atrofini quvnoq kulgi-qahqahaga to'ldirib, hazil-mutoyiba gap otib, goh qattiq so'kinib, yog'och va payraha bosib ketgan palubada pildirab chopib yurarkan, goh unga, goh bunga yordamlashib, charchamay-tolmay ishlar edi. Foma undan ko'zini uzmay qarab turdi va unga nisbatan ko'nglida hasad uyg'onganini sezdi.

«Baxtli bo'lsa kerak...» deb o'yladi Foma. Bu fikr unda yigitni tiyib qo'yish va uni xijolat qilish istagini tug'dirdi. Atrofdagi hamma odam shoshilinch ish bilan band edi. Cho'kib ketgan barjani suv ostidan chiqarish uchun hamjihat bo'lib epchillik bilan g'altak qurar, to'sinlarni mustahkamlar edilar, ularning hammasi g'ayratga mingan, quvnoq edi. U esa qo'lidan hech ish kelmasligini va mana shu katta ishga foydasi tegmasligini payqab, nima qilishini bilmay bir chetda turardi. U o'zini shu kishilar orasida ortiqcha ekanini sezib, nihoyatda alam qilib ketdi va shu odamlarga qaragan sayin alami kuchayib bordi. Bu ishlar hammasi men uchun qilinyaptiyu, biroq mening bu ishda hech ahamiyatim yo'q, degan o'y uni sanchib oldi.

«Axir mening o'rnim qayerda? – deb o'yladi, u xafa bo'lib. – Mening ishim qaysi?..»

Cho'qqi soqoliga oq tushgan, rangpar yuzi burushgan, qisiq ko'z, pakanagina pudratchi uning yoniga kelib, so'zlarini dona-dona qilib, sekingina dedi:

– Hammasini tayyor qildik, Foma Ignatich, endi hammasi joyida... Fotiha bersangiz, boshlasak!..

Foma mujikning qisiq ko'zlarining o'tkir nazaridan yuzini chetga olib, qisqagina qilib:

– Boshla!.. – dedi.

Pudratchi shoshmasdan burmali kamzulining tugmalarini qadab, qaddini rostlab olgach:

– Xudoga ming qatla shukur! – dedi, keyin ohista boshini burib, barjadagi chig'irlarni ko'zdan kechirgach, baland ovoz bilan:

– Joy-joylaringga, yigitlar! – deb baqirdi. Mujiklar darhol to'da-to'da bo'lib, barja labidagi charxlar, chig'irlar yoniga to'plandilar va birdan hamma jimib qoldi. Ba'zilari epchillik bilan yog'ochlar ustiga chiqib olib, arqonni ushlab, o'sha yerdan qarab turishar edi.

– Hushyor bo'linglar, yigitlar! – pudratchining o'tkir va vazmin tovushi jarangladi. – Hammasi taxtmi? Ayolni to'lg'oq tutib qolsa, ko'ylak tikishga fursat qolmaydi... Qani, bir ibodat qilib olaylik!

Pudratchi kartuzini palubaga irg'itib tashlab, yuzini osmonga ko'tardi-da, astoydil cho'qina boshladi. Mujiklar ham boshlarini bu-

lutlar tomon ko'tarib, qo'llarini keng yoyib cho'qinishga kirishdilar. Ba'zilari ovozini chiqarib duo o'qirdi, bo'g'iq, bosinqi, g'ovirg'uvur tovushlar to'lqinlarning shov-shuviga aralashib ketdi:

– O'zing madad ber, xudoyim!.. Bibi Maryam... Avliyo Nikola...

Foma bu nidolarni eshitdi va bular uning ko'ngliga og'ir toshday botdi. Hamma boshyalang, u esa kartuzini yechishni ham unutgan edi, pudratchi ibodat qilib bo'lgach, salmoq bilan unga nasihat qildi:

– Siz ham ibodat qilsangiz bo'lardi...

– O'z ishingni bil, menga o'rgatma! – deb javob berdi Foma jahl bilan qarab. Ish qizigan sayin o'z kuchlariga nihoyatda ishongan va suv ostidan uning necha o'n ming pud keladigan narsasini chiqarishga shaylangan odamlar orasida o'zining ortiqcha ekanini ko'rish Foma uchun juda og'ir va qiyin edi. Ularning muvaffaqiyatsizlikka uchrashini, ularning o'z oldida qizarishlarini istardi, uning miyasidan:

«Balki zanjirlar uzilib ketar...» degan yovuz o'y lip etib o'tdi.

– Hoy, quloq solinglar! – deb qichqirdi pudratchi. Keyin birdan qo'llarini siltab, ingichka ovoz bilan chiyillab yubordi:

– Ha, ko'tar!

Ishchilar uning ovoziga qo'shilib, hayajon bilan, zo'r berib baravar baqirishdi:

– Ha, qo'zg'aldi, chiqyapti...

Chig'irlar chiyillab g'ijirlar, birdaniga uchlaridagi og'irlik tazyiqi ostida zanjirlar sharaqlab, chig'ir qulog'iga ko'kraklari bilan yopirilib olgan ishchilar palubada og'ir-og'ir qadam tashlab, xirillar edilar. Barjalar orasidagi to'lqinlar qo'llariga tushgan o'ljani odamlarga qaytarib berishni istamagandek, shaloplab chayqalardi. Fomaning atrofida – hamma yerda arqonlar bilan zanjirlar titrab, tarang bo'lib tortilar, ular katta ko'kish chuvalchangday bo'lib, Fomaning oyog'i yonidan paluba bo'ylab allaqayoqqa ketar, halqa-halqa bo'lib yuqoriga ko'tarilar, u yerdan sharaqlab pastga tushar, biroq ishchilarning quloqlarni kar qiluvchi hayqiriqlari hamma tovushni bosib ketar edi.

Ular dabdaba bilan baravariga:

– Ko‘chdi! Qani, ha... Qani, ha... – deb qichqirishardi. Pudratchining chiyillagan ovozi, mana shu yo‘g‘on ovozlar to‘lqiniga xuddi nonga sanchilgan pichoqday sanchilib, uni kesib o‘tardi:

– Yi-git-lar! Baravariga...

Fomani allaqanday hayajon chulg‘ab oldi, unda ishchilarning hayajon bilan daryo kabi keng va qudratli o‘kirishlariga, zanjirlarning odamning g‘ashiga tegadigan sharaq-shurug‘i va g‘ijir-g‘ijiriga, to‘lqinlarning quturib shaloplashiga qo‘shilib ketish orzusi tug‘ildi. Bu orzu shu qadar kuchli ediki, uning yuzlarida ter paydo bo‘ldi va u birdaniga machta yonidan qo‘zg‘alib, katta-katta qadamlar bilan rangi o‘chgan holda chig‘ir yoniga tashlandi.

U vahshiyona bir ovoz bilan:

– Qani, ha!.. Ol-dik! – deb qichqirdi. Keyin u chig‘ir qulog‘i yoniga chopib bordi-da, unga ko‘ksi bilan yopishdi va ko‘kragining og‘riganini ham sezmasdan, oyoqlarini zo‘r berib palubaga tirab, o‘kirib, chig‘irni aylantira boshladi. Uning ko‘kragiga allaqanday qaynoq narsa quyilib, chig‘ir aylantirishga sarf bo‘lgan kuchini to‘ldirar edi. Uning yuragida nihoyatda kuchli quvonch to‘lqinlandi va bu quvonch hayajonli hayqiriq bo‘lib tashqariga otilib chiqdi. Fomaning nazarida butun og‘irlikni o‘z zimmasiga olganday, chig‘irni bir o‘zi, birgina o‘zining kuchi bilan aylantirayotganday va borgan sari kuchi ham ko‘payib borayotganday tuyuldi. U bukilib, boshini engashtirib, uni orqaga itarib tashlayotgan og‘irlikka qarshi xuddi ho‘kizday bosib borar va, albatta, uni yengar edi. Foma olg‘a bosgan sari uning hayajoni ortar, sarf qilgan kuchi o‘rnini shu ondayoq g‘urur hissi bosar edi. Uning boshi aylanar, ko‘zlarini qon bosardi. U hech narsani ko‘rmas va faqat qarshisida turgan kuchning unga bo‘ysunayotganini, uni yengayotganini, yo‘lini to‘sib turgan juda katta bir narsani hozir u o‘z kuchi bilan ag‘darib tashlashini, ag‘darib tashlab, uni yenggandan so‘ng ko‘ngli to‘la quvonch bilan yengil va erkin nafas olishini sezardi. U umrida birinchi marta ko‘nglini ko‘targan mana shunday shifobaxsh tuyg‘uni boshdan kechirdi va uni ochko‘zlik bilan sharob singari simirib, mast bo‘ldi-da, quvonchini oshkor qilib, ishchilarga qo‘shilib, baqirib-chaqirdi:

– Ko‘chdi, tagidan ko‘chdi, ha!..

– To‘x-ta! Bog‘la! To‘xtanglar, yigitlar!..

Chig‘ir qulog‘i Fomani ko‘kragidan orqaga itarib tashladi.

– Ishning muvaffaqiyatli bitishi bilan qutlayman, Foma Ignatich! – deb tabrikladi uni pudratchi, uning yuzidagi ajinlari quvonch bilan porlab ketdi. – Xudoga shukur! Ha, charchadingizmi?

Fomaning yuziga muzdek shamol kelib urildi. Uning atrofida shodiyona shov-shuvlar eshitilardi. Yuzlarini ter bosgan quvnoq mujiklar, bir-birlari bilan beozor so‘kishib, iljayishib, Fomaning yoniga kelib, uni o‘rab olishdi. U esa xijolat chekib kulardi, uning hayajoni hali bosilganicha yo‘q va shuning uchun ham u nima bo‘lganini va atrofdagi bu odamlarning nima uchun bu qadar shod va mamnun ekanini tushunolmay turar edi.

– Yuz yetmish ming pudni, xuddi polizdan sholg‘omni sug‘urgandek chiqarib oldik-a!

Foma arqon uyumi ustida turib, ishchilarga tepadan qararkan, ikki barja o‘rtasidan qalqib chiqqan va zanjirlar bilan chirmalgan qop-qora silliq uchinchi barjani ko‘rdi. Barja go‘yo allaqanday dahshatli kasaldan shishganday, hamma yeri ezilgan, shumshaygan ahvolda o‘zining ikki dugonasiga suyanib suv ustida turardi. Singan machtasining yarmi o‘rtada qaqqayib qolgandi. Paluba ustidan qonga o‘xshash qip-qizil suv sizib oqardi. Palubaning hamma yerida temir-tersaklar, ho‘l yog‘och parchalari uyulib yotar edi.

Foma bu beo‘xshov qo‘pol narsani ko‘rgach, nima deyishini bilmay:

– Chiqardik, a? – deb so‘radi va shu ondayoq, mana shu iflos, majaqlangan, mayib barjani suvdan chiqarish uchun o‘zining shu qadar jon kuydirganini va shu qadar quvonganini o‘ylab xafa bo‘ldi...

Foma chuchmalroq qilib:

– Bu yog‘i nima bo‘ldi... – deb qo‘ydi pudratchiga.

Pudratchi uni yupatmoqchi bo‘lib:

– Hechqisi yo‘q! Tezroq bo‘shatish kerak, yigirma chog‘li duradgorni ishga solinsa, ular barjani darrov asliga keltirishadi! – dedi.

Sariq sochli yigit Fomaning basharasiga qarab, og‘zini katta ochib, quvonch bilan kularkan:

– Aroq quyib berasizmi? – deb so‘radi. Pudratchi unga zarda qilib:

– Ulgurasan hali! – deya xitob qildi pudratchi. – Ko‘ryapsanmi, odam charchadi...

Shu chog‘ mujiklar gapga kirishdi:

– Qanday qilib charchamaylik!

– Oson ishmidi!

– O‘rganmagandan keyin, albatta, charchaysan kishi...

– Ko‘nikmasang shovla yeyish ham qiyin...

– Charchaganim yo‘q... – dedi Foma xo‘mrayib, borgan sari uni o‘rab olayotgan mujiklarning hurmat bilan aytgan so‘zlari yana eshitila boshladi.

– Ishni yaxshi ko‘rgan odamga ish hamma vaqt ko‘ngilli...

– Bir o‘yindek gap...

– Xuddi xotin kishi bilan o‘ynashgandek...

Lekin sariq sochli yigit hamon o‘z fikrida qattiq turdi:

– Janoblar! Bir chelakkina bersangiz, xo‘pmi? – kulib qo‘ydi u entikib.

Foma ro‘parasida turgan soqolli yuzlarga qarab, ularga bironta achchiq gap qilmoqchi bo‘ldi. Biroq uning boshida hamma narsa chuvalashib ketganidan u hech narsa o‘ylab topolmadi va andisha qilib o‘tirmay, jahl bilan dedi:

– Sizlarga ichkilik bo‘lsa bas! Sizlarga qanaqa ish bo‘lsa ham baribir! Axir, sizlar, nega, nima uchun, deb o‘ylab ko‘rganmisizlar?.. Eh sizlar! Tushunish kerak!..

Fomani o‘rab olgan odamlarning yuzlarida taajjub alomati paydo bo‘ldi, ko‘k, qizil kiyingan sersoqol mujiklar xo‘rsina, qashina, depsina boshladilar. Ba’zilari Fomaga noumid qarab, teskari o‘girilib oldi.

– Shun-doq! – dedi pudratchi xo‘rsinib, – bu gapning zarari yo‘q! Ya’ni o‘ylab olish yaxshi! Bu dono odamning... gapi!

Sariq sochli yigit boshini siltab:

– Nahotki tushunish bizning ishimiz bo‘lsa! – deb qo‘ydi. Uning Foma bilan so‘zlashgisi ham kelmay qoldi, u, Foma aroqqa pul berishni istamayapti, deb o‘ylab biroz xafa bo‘ldi.

Foma yigitning unga yon berganidan xursand bo‘lib, mujiklarning masxaraomuz, g‘azabli qarashlarini payqamasdan, nasihat qilib gapirdi.

– Shuna-qa! Tushungan odam... abadiy ish qilish kerakligini payqaydi!

Pudratchi mujiklarga ko‘z yugurtirgach:

– Demak, xudo yo‘lida! – deb tushuntirdi va odob bilan xo‘rsinib qo‘shib qo‘ydi, – bu haq gap, eh, bu juda haq!

Foma esa, bu odamlar menga butunlay boshqacha nazar bilan qarashi kerak, degan xayolda ularga qandaydir salmoqli va ma’noli so‘zlar aytmoqchi bo‘lar, sariq sochli yigitdan boshqa hammaning jim turishi va unga dushman nazari bilan yer ostidan xo‘mrayib xunuk tikilishi mutlaqo yoqmasdi.

U qoshlarini uchirib turib:

– Shunday ish qilish kerakki, odamlar ming yildan keyin ham, buni Bogorodskiy mujiklari ishlagan deyishsin... Ha!.. – deb qo‘ydi.

Sariq sochli yigit Fomaga taajjub bilan qarab:

– Yo Volgani ichib tamomlaylikmi? – deb so‘radi. Keyin, piq etib kulib yubordi-da, boshini chayqab: – Buni qilolmaymiz, hammamiz yorilib o‘lamiz!.. – dedi.

Foma uning so‘zlaridan xijolat tortib, atrofiga ko‘z yugurtirdi: mujiklar mensimaganday qovoqlarini solib, iljayib turishardi. Bu iljayishlar unga ignaday sanchildi.

Shu damgacha indamay turgan, allaqanday kulrang soqolli, jiddiy bir mujik Fomaga yaqinlashib, birdan tilga kirdi va salmoq bilan gapira boshladi:

– Agar biz Volganing bir tomchisini ham qoldirmay ichib, ustidan bostirmasiga mana bu tog‘ni yutib yuborganimizda ham baribir unutiladi, janoblar. Hammasi unutiladi, umr degan narsa uzun-da... Balandparvoz ulug‘ ishlarni qilish bizga nasib bo‘lmagan...

U shunday dedi-yu, oyog‘i ostiga tupurib, pinagini buzmay Fomaning oldidan nari ketib, xuddi yog‘ochga qoqilgan ponaday, odamlar orasiga kirib ketdi. Uning so‘zlari Fomani yer bilan yakson qildi. Mujiklar uni ahmoq qilib kulib turganlarini sezdi. Ularning oldida o‘zining xo‘jayinlik obro‘sini saqlab qolish va charchagan mujiklarning e’tiborini yana o‘ziga qaratish uchun zo‘r berib chiranib, yonoqlarini g‘alati qilib shishirib, ta’sirli ovoz bilan:

– Uch chelak aroqqa pul beraman! – deb g‘o‘ldiradi.

Kalta gap doim ma’noli bo‘ladi va odamga kuchli ta’sir qiladi. Mujiklar Fomaning saxiyligiga minnatdorlik bildirib, hammasi birdan guvullab, iljayib, ta’zim qilib unga yo‘l bo‘shatib berdilar.

Foma o‘zida yangidan paydo bo‘layotgan bu ko‘tarinki ruh ko‘pga bormasligini payqab:

– Meni qirg‘oqqa o‘tkazib qo‘yinglar-chi, – dedi. Uning yuragini allaqanday qurt kemirardi.

U uyga kirgach, stol atrofida vino bilan ovqat tayyorlab, ivirsib yurgan, chiroyli qizil ko‘ylak kiyib olgan Sashaga qarab:

– Xunob bo‘lib ketdim, Aleksandra! Hech bo‘lmasa sen menga biron narsa desang bo‘lardi... a? – dedi.

Sasha unga sinchiklab qaradi va uning yonidagi o‘rindiqqa o‘tirib:

– Agar yuraging siqilsa, demak, biron narsa qilishni istaysan... nima kerak senga? – dedi.

Foma g‘amgin boshini chayqab:

– O‘zim ham bilmayman! – deb javob qildi.

– O‘ylab ko‘r...

– Men o‘ylay bilmayman...

Sasha undan nariroq surilib, mensimayroq va ohistagina:

– Obbo, bolasi tushmagur-e! Boshing og‘irlik qilyaptimi deyman... – deb qo‘ydi.

Foma uning gap ohangini tushunmadi, harakatini payqamadi, qo‘llarini o‘rindiqqa tirab, olg‘a engashib polga qarab turdi-da, butun gavdasi bilan tebranib dedi:

– Goho o‘ylanib-o‘ylanib ketasan-da... o‘ylaring xuddi qora mumday yuragingga yopishib oladi... Birdan yer yorilib, hamma narsang yer ostiga kirib ketganday g‘oyib bo‘ladi... Shunda dilingni yerto‘laday qorong‘ilik bosadi... Juda-juda dahshat... Go‘yo sen odam emas tubsiz jarga o‘xshaysan...

Sasha unga ko‘z qiri bilan qarab qo‘ydi-da, o‘yga cho‘mib, muloyimgina kuylay boshladi:

Eh, shamol esar – dengizdan tuman kelar...

– Aysh-ishrat qilishni istamayman... Hammasi ham bir qora go‘r, odamlar ham, aysh-ishrat ham, vino ham... Borgan sari rahmsiz bo‘lyapman, hammasini kaltaklagim keladi... Odamlar menga yoqmaydi... Nega yashaydilar, hech tushunib bo‘lmaydi.

Sasha ro‘parasidagi devorga qarab turib kuyladi:

Oy, sensiz ham jonimga tegdi yashash...

Foma esa hamon chayqalib so‘zlardi:

– Lekin hamma yashayapti, shovqin-suron qilyapti, faqat mengina anqayib turibman... Yo meni onam shunday hissiz qilib tug‘dimikin? Otaxonim: – Onang muzdek sovuq xotin edi, – deydi... U doim allaqayga intilib turar ekan... Odamlar oldiga borib: «Og‘aynilar, yordam beringlar! Toqatim toq bo‘ldi!» degim keladi. Bunday o‘girilib qarasam, aytadigan odam yo‘q... Hammasi ham muttaham!

Foma nihoyatda shaloq so‘kindi-da, jim bo‘lib qoldi. Sasha qo‘shig‘ini to‘xtatib, undan yana nariroq surilib o‘tirdi. Shamol quturib, deraza oynalariga chang solardi. Pechka ustidagi tarashalar orasida suvaraklar shitirlardi. Hovlida esa, buzoq mungli ovoz bilan ma’rardi.

Sasha Fomaga masxaraomuz kulib qarab qo‘ydi-da:

– Ana, yana bitta sho‘rlik ma’rayapti... Sen o‘shaning oldiga chiqsang bo‘lardi, balki ikkovingiz chiqishib qolarsiz... – dedi-yu, keyin Fomaning jingalak sochli boshiga qo‘lini qo‘yib, hazilomuz turtdi. – Nega ijirg‘anasan? Aysh-ishrat joningga tekkan bo‘lsa ish bilan shug‘ullan, – dedi.

Foma boshini chayqab:

– E, tavba, odamlarga tushuntirib gapirish naqadar qiyin-a... Juda qiyin! – dedi-da, g‘ashi kelib baqirdi: – Qanaqa ish? Ish deganing nimasi o‘zi? U faqat nomigagina ish-ku, agar bunday sinchiklab qarasang, ma’nosiz gap u! Ishdan nima manfaat? Pulmi? Usiz ham menda pul ko‘p. Seni oyog‘ingdan boshinggacha pul bilan ko‘mib o‘ldirish qo‘limdan keladi... O‘sha ish deganing nayrangdan boshqa gap emas... Savdogar korchalonlarni ko‘rib yuribman, ular nimalar qilishmaydi deysan? O‘zlarini o‘zlari fosh qilib qo‘ymaslik uchun ataylab ish atrofida girdikapalak bo‘lishadi. Bekinishadi iblislar... Qani, shu yugur-yugurdan ularni xorij qilib ko‘r-chi, nima bo‘larkin? Xuddi ko‘rlarga o‘xshab biri unga, biri bunga borib turtinadi... aqldan ozib, jinni bo‘ladi! Sen, ishi bor odam baxtli bo‘ladi,

deb o'ylaysanmi? Yo'q, yolg'on aytasan! Bu hali hammasi emas!.. Daryo ustida suzib yurish uchun oqadi, daraxt foyda yetkazish uchun o'sadi, it uy qo'riqlaydi... Dunyodagi barcha narsalarni oqlash uchun vaj topish mumkin! Ammo odamlar, xuddi suvaraklarga o'xshaydi, yer yuzida butunlay ortiqcha... Hamma narsa odamlar uchun ekan, xo'sh, ularning o'zlari nima uchun? Ularni nima bilan oqlash mumkin?

Foma xursand edi. Nazarida, o'zi uchun eng yaxshi odamlarga qarshi eng kuchli, lekin bir narsa topganday bo'ldi. U xaxolab kulib yubordi.

Sasha uning yuziga sinovchan nazar tashlab, g'amxo'rlik bilan:

– Boshing og'riyaptimi? – deb so'radi.

Foma esa tutaqib:

– Qalbim og'riyapti! – deb baqirdi. – Kamoli kelisholmaganimdan og'riydi! Qalbimga javob ber, qanday yashash kerak? Nima uchun yashash kerak? Mening otaxonim juda aqlli odam. Hayotni o'z qo'ling bilan qur, deydi. Ammo boshqalar esa hayot sillamizni quritdi, deyishadi!

– Quloq sol! – dedi Sasha jiddiy. – Menimcha, sen uylanishing kerak, vassalom!

– Nega? – deb so'radi Foma yelkalarini uchirib.

– Senga bo'yincha kerak.

– Mayli! Sen bilan turaman... Axir, hammangiz ham bir go'r emasmisiz? Bir-biringizdan qolishmaysiz... Sengacha, o'shanaqalardan menda bittasi bor edi. Yo'q, u o'z ixtiyori bilan... Men unga yoqib qoldim, u esa... yaxshi edi... Qisqasi, u ham xuddi senga o'xshardi, lekin sen undan husnlisan... Biroq, menga bir barinya yoqib qoldi... Haqiqiy barinya, dvoryanka! Odamlar uni, yuradi deb aytishdi menga... Lekin unga yetisha olmadim... Shunday... Aqlli, o'qimishli, go'zallik ichida yashardi... Men, goho mana endi haqiqiysiga erishdim, deb o'ylardim... biroq, yetisholmadim... Agar yetisholganimda, balki ish butunlay boshqacha bo'lib ketardi... O'sha doim meni o'ziga jalb qilib turardi... Mana, endi bo'lsa uni unutish uchun ichganim-ichgan... Bu yaxshi emas... Eh, odamzod! Rostini aytganda, sendan qabih narsa yo'q...

Foma o'ylanib, jim bo'lib qoldi. Sasha esa o'rindiqdan turdida, labini tishlab, xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Keyin Fomaning ro'parasiga kelib to'xtadi-yu, qo'llarini boshi ustiga qo'yib:

– Bilasanmi? Men sendan ketaman... – dedi.

– Qayoqqa? – deb so'radi Foma boshini ko'tarmay.

– Bilmayman... baribir! Bo'lmagan gaplarni vaysaysan... Sen bilan odam zerikadi...

Foma boshini ko'tarib unga qaradi va g'amgin kulib:

– Nahotki? Rostdanmi? – dedi.

– Men ham o'shandaylardan-ku... Mening ham vaqtim kelar – o'ylab ko'raman... Ana o'shanda xarob bo'laman... Lekin hozircha erta... Yo'q, hali men yashayman... Keyin nima bo'lsa bo'lar!

Foma gapirib charchaganidan:

– Men-chi, men ham halok bo'lamanmi? – deb so'radi uncha parvo qilmay.

– Bo'lmasam-chi! – deb javob qildi Sasha ishonch bilan. – Bunday odamlarning hammasi ham xarob bo'ladi.

Ular bir-birining ko'ziga tikilishib, bir daqiqacha jim qolishdi.

– Bo'lmasa nima qilamiz? – deb so'radi Foma.

– Ovqatlanib olish kerak.

– Yo'q, umuman, aytaman? Keyin-chi?

– Bilmayman...

– Demak, ketasanmi?

– Ketaman... Kel, ketar jafosi qilib, bir o'ynaylik! Qozonga borib o'sha yerda shunday aysh-ishrat qilaylikki, hamma hayron qolsin! Keyin men sening marsiyangni o'qiyman.

– Xo'p bo'ladi! – deya Foma ko'ndi. – Xayrlashuv jafosi qilsak arziydi!.. Obbo sen, shayton-e!.. Menga qara, Sasha, senga o'xshash buzuq xotinlarni pulga o'ch va o'g'ri bo'ladi, deyishadi...

– Deyishsa deyishar... – dedi Sasha pinagini buzmay.

– Axir senga alam qilmaydimi? – deb so'radi Foma qiziqsinib. – Mana sen uncha ochko'z emassan-ku, men bilan tursang senga foyda, men boyman, sen bo'lsang ketmoqchisan... Demak, pulga o'ch emassan...

– Menmi? – Sasha biroz o'ylanib turib, qo'l siltab dedi: – Balki o'ch emasdirman, bundan nima naf? Axir men butunlay... ko'chada yurgan pastkash xotinlardan emasman-ku... Kimdan xafa bo'lay? Nima deyishsa deyishaversin... Gap qilsa odamlar qiladi, odamlarning avliyoligi menga ma'lum! Agar meni sudya qilib saylashsa faqat o'lganlarnigina oqlar edim, xolos! – Sasha xunuk qilib so'zini davom ettirdi. – Bekorchi gaplarni gapirishni bas qil, stolga o'tir!.. – dedi.

...Ertasiga ertalab Foma bilan Sasha Ustedagi pristanga yaqinlashib kelayotgan paroxodda yonma-yon turishardi. Sashaning oq pat qadalgan va cheti oliftanamo qaytarilgan kattakon qora shlapasi hammaning e'tiborini o'ziga tortdi. Foma Sashaning yonida turgani uchun o'ng'aysizlanar, odamlar qiziqsinib yuziga tikilishganini sezib turardi. Paroxod vishillab, titrab, rang-barang kiyingan odamlar to'la platformaga yoni bilan yaqinlasharkan, Foma pristandagi turlituman odamlar orasida allaqanday bir tanishini ko'rganday bo'ldi, odamlar orqasiga yashirinib tursa hamki, lekin Fomadan ko'zini uzmay qarab turgandek tuyuldi.

Foma tashvishlanib, Sashaga:

– Yur, kayutaga kiraylik! – dedi. Sasha kulimsirab javob qildi:

– Sen gunohingni odamlardan yashirishga odatlanma! Yo biron tanishingni ko'rib qoldingmi?

– Kimdir meni poylab turibdi...

U pristandagi olomonni ko'zdan kechirib chiqqach, rangi o'zgarib, sekingina:

– Otaxonim... – deb qo'ydi.

Yakov Mayakin pristan qirg'og'ida, ikkita barvasta xotin o'rtasiga qisilib, ikonadagi avliyolarga o'xshash yuzini baland ko'tarib, zaharxanda tavoze bilan kartuzini silkitib turardi. Uning soqoli titrar, boshi yaltirar, ko'zlari esa xuddi parmaday Fomani teshar edi.

– Obbo, qarchig'ay-e! – deb g'udrandi-da, Foma kartuzini olib, bosh qimirlatib, otaxoniga imlab qo'ydi.

Uning salomi Mayakinga juda yoqib ketgan bo'lsa kerak, chol negadir eshilib, depsinib qo'ydi, yuzi esa zaharxanda bilan chatnab ketdi.

– Aftidan, bola bechoraning adabini beradiganga o'xshaydi! – dedi Sasha Fomaning g'ashiga tegib.

Uning bu so'zlari otaxonining jilmayishi bilan qo'shilib, Fomaning yuragini cho'g'day jazillatdi. Foma tishining orasidan:

– Qani, ko'raylik-chi, nima bo'larkin... – dedi-yu, birdan jahli chiqib, tarashadek qotib qoldi. Paroxod to'xtadi, odamlar to'lqinday pristanga oqib tusha boshladi. Olomon orasida qolib ketgan Mayakin bir daqiqagina ko'zdan g'oyib bo'ldi-da, keyin viqor bilan iljayib, ko'prikdan sekin tushib, unga tomon boraverdi. Uni itarishar, qisishar, unga osilishar – bular hammasi battar jahlini chiqarar edi. Mana u, nihoyat, cholga ro'para bo'ldi, chol uni hurmat bilan ta'zim qilib qarshi oldi-da:

– Safarlari qayoqqa, Foma Ignatich? – deb so'radi.

Foma otaxoni bilan ko'rishmay qat'iy qilib:

– O'z ishim bilan... – deb javob qildi.

– Juda soz, afandim! – dedi Yakov Tarasovich, chehrasi ochilib. – Pat taqqan xonimcha sizga kim bo'ladi?

Foma otaxonining o'tkir nazaridan ko'zini uzmay baland ovoz bilan:

– O'ynashim, – dedi.

Sasha uning orqasida edi, uning yelkasidan osha qarab, boshi Fomaning iyagidan ham pastroqda ko'ringan kichkina cholni bemalol kuzatib turardi. Fomaning o'shqirig'ini eshitgan xaloyiq janjal chiqishini sezib, ularga tikilardi. Mayakin ham janjal chiqishi mumkinligini, Fomaning fe'li ayniganini darhol payqadi. U yuzidagi ajinlarini uchirib, lablarini tamshab, Fomaga muloyimgina dedi:

– Sen bilan gaplashadigan gapim bor... Mehmonxonaga boramizmi?..

– Mayli... tezroq bo'lsa... Cholning jahli chiqib dedi:

– Demak, vaqting yo'q ekan-da? Aftidan, yana bironta barjani majaqlashga oshiqyapsan, deyman?

Foma jizzakilik bilan qat'iy qilib:

– O'zlari majaqlangandan keyin, nega majaqlamaslik kerak? – dedi.

– Albatta!.. O‘zing topmagandan keyin iching achimaydi-da? Qani, yur... xonimingni vaqtincha bo‘lsa ham... gumdon qilish mumkin emasmi? – dedi chol sekingina.

– Sasha, sen shaharga borib, Sibirsk qo‘rasidan nomer ol, men tezda boraman! – dedi Foma va Mayakinga burilib, chapanilarcha: – Men tayyor! – deb qo‘ydi.

Mehmonxonagacha ikkovlari jim borishdi, Foma otaxonining undan orqada qolmaslik uchun irg‘ishlab kelayotganini ko‘rib, ataylab katta-katta qadam tashladi, cholning u bilan baravar qadam tashlab yurolmagani uning yuragida to‘lib turgan va hozir arang bosib turgan qarshilik tuyg‘usini yana ham kuchaytirib yubordi.

Mayakin mehmonxona zaliga kirgach, xoli bir burchakka qarab yurdi-da, yoqimli bir ovoz bilan:

– Hoy, odam! Menga bir shisha klyukva kvasidan keltir-chi... – dedi.

– Menga konyak, – deb buyurdi Foma.

Mayakin unga masxaraomuz maslahat berdi:

– Shun-doq... qartang yomon bo‘lsa ham hamma vaqt kozerdan yur!

Foma stolga o‘tirarkan:

– Siz mening o‘yinimni bilmaysiz! – dedi.

– Maqtanma! Ko‘plar shunaqa o‘ynaydi. Foma qizishib:

– Men shunday o‘ynaymanki yo boshim majaqlanadi, yo devorni yoraman! – dedi va mushti bilan stolni urib qo‘ydi.

Mayakin kulib turib:

– Bugun bosh og‘rig‘i qilganing yo‘qmi? – deb so‘radi. Foma stulga o‘rnashib o‘tirib olgach, aftini burushtirib so‘zlay ketdi:

– Otaxon!.. Siz aqlli odamsiz... Aqlingiz uchun sizni hurmat qilaman...

Mayakin o‘rnidan turib, qo‘llarini stolga tirab:

– Rahmat o‘g‘lim! – deb egilib qulluq qildi.

– Men shuni aytmoqchimanki, endi men yigirma yoshda emasman... Kichkina bola emasman...

– Bo‘lmasam-chi! – dedi Mayakin ma’qullab. – Oz umr ko‘rganing yo‘q, nimasini aytasan! Agar pashsha shunchalik umr ko‘rsa tovuq bo‘lardi...

– Hazilingizni qo‘ying!.. – deb o‘shqirdi Foma va bu so‘zni shu qadar bosiqlik bilan aytdiki, Mayakin hatto allanechuk bo‘lib ketdi, uning yuzlaridagi ajinlari hayajondan titradi.

– Siz nega bu yerga keldingiz? – deb so‘radi Foma.

– A... bu yerda ishning pachavasini chiqarib qo‘yibsan-ku... Nimalar qilganingni ko‘rmoqchiman. Men, bilasanmi, qarindoshing bo‘laman-a... Mendan boshqa hech kiming yo‘q...

– Bekorga tashvish tortmang... Men sizga aytsam, otaxon... Yo siz meni butunlay o‘z erkimga qo‘yib bering, yo bo‘lmasa hamma ishimni o‘z qo‘lingizga oling – hammasini oling! Hammasini, oxirgi so‘mgacha!

Bu so‘zlar Fomadan beixtiyor ravishda otilib chiqdi, ilgari u bunaqa gapni sira ham xayoliga keltirmagan edi. Endi otaxoniga bu so‘zlarni aytib qo‘yganidan keyin, agar otaxoni uning butun molmulkini o‘z qo‘liga olsa, butunlay erkin odam bo‘lib olishini, istagan joyiga borishi, istagan ishini qilishi mumkinligini anglab qoldi... Shu vaqtgacha uni allanarsa chirmab olgan bo‘lsa-da, biroq bu narsani ko‘rmas, ularni o‘zidan uzib tashlashni bilmas edi, mana endi, hozir esa, ular uning gardanidan osongina uzilib tushmoqda. Uning ko‘ksida hayajon va shodlik umidi qaynab toshdi, u palapartish g‘udrandi:

– Eng yaxshisi shu! Hammasini oling – vassalom! Men boshim oqqan tomonga ketay!.. Men bunday yashay olmayman... Go‘yo oyog‘imga og‘ir toshlar osilgandek... Men erkin yashashni istayman... Hamma narsani o‘zim bilgim keladi... O‘zim uchun hayot izlashim kerak... Yo‘qsa, men kimman? Bir mahbus... Siz hammasini oling... Hammasi qurib ketsin! Men ham savdogarmi? Men hech narsani sevmayman... Odamlardan qochsam deyman... biron ish topib ishlasam... Bo‘lmasa, ichganim-ichgan... Xotinga ilashib yurganim-yurgan...

Mayakin Fomaga qarab, diqqat bilan quloq solib turdi, uning yuzi g‘azabdan toshday qotib qolgan edi. Ularning ustida mayxonaning bo‘g‘iq olag‘ovuri suzib yurar, ular yonidan u yoqdan bu yoqqa allaqanday odamlar o‘tib turar, Mayakinga salom berishar, biroq u hech kimni ko‘rmas, hamon Fomaning goh parishon, goh quvnoq va

ayni zamonda zorlanib, kulib turgan hayajonli yuziga astoydil tikilib o'tirar edi...

Mayakin Fomaning so'zini bo'lib xo'rsindi-da:

– Eh, mening nordon maymunjonim! Adashib qolding sen! Bo'lmagan gaplarni qilyapsan... Bu gapni konyakning kayfi bilan aytyapsanmi, yo tentakligingdan? Buni tushunish kerak, – dedi.

– Otaxon! – dedi Foma nido qilib. – Mol-mulkini tashlab ketgan... odamlar ham bo'lgan-ku!

– Bunaqangisini ko'rganim yo'q... Menga yaqin odamlar bunday qilgani yo'q! – dedi Mayakin dag'al qilib. – Bo'lmasa, men ularning adabini berardim!

– Ko'pgina odamlar shundoq qilib avliyo bo'lib ketishgan...

– Hm-m... Mening qo'limda bo'lsa keta olmasdi!.. Nima qilib, men sen bilan jiddiy gaplashib o'tiribman? Tfu!..

– Otaxon! Nega siz istamaysiz? – dedi Foma jon-jahdi bilan.

– Quloq sol! Agar sen mo'ri tozalaydigan bo'lsang, tomga chiq, itvachcha!.. O't o'chiruvchi bo'lsang, kalanchada tur! Odamzodning har bir urug'i hayotda o'z tartibiga ega bo'lishi kerak... Buzoq ayiq bo'lib bo'kira olmaydi! O'z bilganingcha yashaydigan bo'lsang, yashayver! Lekin valdirama, kerakmas yerga suqilma! Hayotingni o'zingga moslab quraver!

Cholning og'zidan Fomaga tanish bo'lgan dadil va jonli so'zlar xuddi bir irmoqday yiltirab, qaltirab oqa boshladi. Erkinlik to'g'risida o'yga tolgan Foma bu so'zlarga quloq solmadi, nazarida erkinlikni osonlik bilan qo'lga kiritish mumkinday tuyuldi. Bu o'y uning miyasiga joylashdi va uning yuragida mana shu loyqa, diqqinafas hayot bilan, otaxoni bilan, paroxodlar, aysh-ishratlar bilan, shular orasida yashash qiyin bo'lgan hamma narsa bilan aloqani uzish niyati borgan sari kuchayib bordi.

Cholning so'zlari unga olisdan eshitilayotganday tuyulib, idish-tovoqlarning shaqir-shuquri, xizmatkorlarning sudrab bosgan oyoqlarining shapillashi va kimningdir o'kirishi bilan qorishib ketgan edi.

Mayakin stolni urib qo'ydi:

– Miyangdagi mana shu yaramas o'ylarning bari, yoshlik g'ururidan kelib chiqadi! Sening chiranishlaring g'irt ahmoqlik,

hamma gaping ikki pulga arzimaydi... Yo monastirga kirsangmikin, a? – deb so'radi.

Foma indamay quloq solib o'tirdi. Atrofda qaynab turgan shovqin-suron borgan sari qayoqqadir yiroqlashib ketayotganday tuyulardi. Foma xayolan o'zini bezovtalangan olomon o'rtasida qolgandek faraz etdi. Odamlar nimaligini o'zlari ham bilmasdan u yoqdan bu yoqqa chopishar, bir-birini bosib, ko'zlarini ola-kula qilib o'kirishar, yiqilishar, bir-birini toptar edilar, lekin hammasi bir yerda uymalashar edi. Foma ularning nima istaganini tushunmaydi, so'zlariga ishonmaydi va shuning uchun ham ular orasida bo'lish unga nihoyatda qiyin tuyuldi. Agar shu odamlar orasidan erkinlikka, hayotning bir chekkasiga chiqib olib, o'sha yerdan turib ularga qarasang bormi, o'shanda hamma narsa tushunarli bo'lardi va shular orasida o'z o'rning qayerda ekanini bilib olasan.

Mayakin Fomaning o'y surib qolganini ko'rib, endi ancha muloyimroq so'zlay boshladi:

– Axir men tushunaman, sen o'zing baxtli bo'lishni istaysan... Biroq bunga osonlik bilan muyassar bo'lmaysan... Baxtni o'rmonda qo'ziqorin izlaganday izlash kerak, uning uchun ancha belni og'ritish lozim... Topgandan keyin ham mundog' qarash kerak, yaramasi bo'lmasin tag'in!

Foma birdan boshini ko'tarib:

– Xo'sh, meni ozod qilasizmi? – deb so'radi. Mayakin uning o'tday yonib turgan qarashidan ko'zlarini chetga oldi. – Nafas olishga erk bering... Meni hammasidan ozod qiling! Men olamda nimalar bo'layotganini ko'ray... ana shundan keyin... Bo'lmasa, ichib xarob bo'laman...

– Bo'lmagan gaplarni gapirma! Nega jinnilik qilasan? – dedi Mayakin jahl bilan o'shqirib.

Foma bosiqlik bilan javob berdi:

– Unday bo'lsa yaxshi! Siz buni istamaysizmi? Unaqa qilsangiz, hech narsa bo'lmaydi! Hammasini sovurib tashlayman! Boshqa aytadigan gapim qolmadi, xayr bo'lmasa! Mana, endi ishga tushaman! Kulini ko'kka sovuraman!..

Foma pinagini buzmay, ishonch bilan gapirardi, agar u shunday qilishga jazm etgan bo'lsa, otaxoni unga xalaqit berolmaydiganday

tuyulardi. Lekin Mayakin ham, stulda o'tirgan joyida qaddini rostlab, xotirjamlik bilan, soddagina qilib dedi:

– Bilasanmi, men seni nima qila olaman?

Foma qo'lini siltab:

– Xohlaganingizni qiling! – dedi.

– Shunday de. Unday bo'lsa, men hozir shaharga borib, seni jinni bo'lib qopti, deb e'lon qilaman va jinnixonaga qamab qo'yishlarini so'rayman...

Foma ishonqiramay, lekin cho'chigan ovoz bilan:

– Mumkinmi shunday qilish? – deb so'radi.

– Bizda, azizim, har narsa qilish mumkin!

Foma boshini egib, otaxonining yuziga yer ostidan qarar ekan: «Qamatadi... ayamaydi...» deb o'yladi-yu, seskanib tushdi.

– Agar sen chinakam ahmoqlik qilsang, men ham sen bilan boshqacha gaplashishim kerak... Men seni odam qilaman, deb otangga so'z berganman... Men seni odam qilmay qo'ymayman! Odam bo'lmasang, kishanga solib qo'yaman... Ana o'shanda aqling kiradi... Bilaman, bularning hammasi ko'p ichganingdan... Agar sen otang topgan dunyoni to'qlikka sho'xlik qilib sovurib yuboradigan bo'lsang, kallangni uzib tashlayman... Ustingda qo'ng'iroq chaldiraman... Men bilan hazillashib bo'lmaydi!

Mayakinning yonoqlaridagi ajinlari yuqori ko'tarildi, qoramtir xaltachalar ichidagi ko'zlari masxaraomuz sovuqqina iljaydi. Peshanasidagi chiziqlar esa, yarg'og'igacha ko'tarilib, allaqanday g'alati naqshga o'xshab ketdi... Yuzida o'jarlik va rahmsizlik aks etar edi.

Foma qovog'ini solib:

– Demak, menga yo'l yo'q ekan-da? Siz mening yo'llarimni to'sarkansiz-da? – dedi.

– Yo'l bor! Men o'zim senga yo'l ko'rsatib beraman... Ana shu yo'ldan yursang xuddi o'z o'rningdan chiqasan...

Mayakinning o'ziga bu qadar ishonchi zo'rligi, uning o'taketgan maqtanchoqligi Fomaning g'ashiga tegdi. U cholni urib yubormaslik uchun qo'llarini cho'ntagiga tiqib o'tirgan joyida qaddini rostladida, tishlarini mahkam qisib, uning yuziga tik qarab gapira ketdi.

– Nega muncha maqtanasiz? Nimang bilan maqtanasan? O'g'ling qayerda! Qizing kim? Eh, sen... Hayot quruvchi! Xo'p, aqllisan, hamma narsani bilasan. Qani, ayt-chi, nima uchun yashaysan?

Hali o‘lmayman, deb o‘ylaysanmi? Sen hayot uchun nima qilding? Seni nima bilan eslaydilar?..

Mayakinning ajinlari titrab, pastga tushdi, uning yuzi alamli, yig‘lamsiragan qiyofaga kirdi. U og‘zini ochdi-yu, lekin indamadi, qo‘rquv aralash taajjub bilan Fomaga qarab turdi-da, nihoyat:

– Og‘zingni yum, itvachcha! – dedi u sekingina.

Foma stuldan turdi, kartuzini boshiga kiydi-da, cholga nafrat bilan qarab:

– Aysh qilaman! Hammasini sovuraman!.. – dedi.

– Mayli, ko‘ramiz!..

– Xayr! Qahramon! – deb mazax qilib kulib qo‘ydi Foma.

Mayakin go‘yo nafasi bo‘g‘ilgandek sekingina:

– Xayr, tezda ko‘risharmiz yana! – dedi.

Yakov Mayakin mayxonada o‘zi yolg‘iz qoldi. U stol ustiga engashib, titrab turgan barmog‘ini to‘kilgan kvasga ho‘llab, patnisga gul solib o‘tirdi. Uning cho‘zinchoq boshi, quruq barmog‘i bilan patnisga chizilgan narsaning nimaligini anglay olmayotganday, borgan sari stolga engashardi.

Uning yarg‘oq boshida ter tomchilari yiltillar, yonoqlaridagi ajinlari esa, odatdagicha, hayajon bilan titrab turar edi.

Yakov Tarasovich, boshi bilan imo qilib xizmatkorni chaqirdida, savlat bilan:

– Qancha to‘lash kerak? – deb so‘radi.

X

Mayakin bilan bo‘lgan mojaroga qadar Foma zerikkanidan, o‘zi ham uncha maza topmay, aysh qilib yurardi, endi esa u o‘chakishib, o‘ch olish hissi bilan yonib, odamlarga allaqanday qo‘rs muomala qilib, goho bu qo‘rsligidan o‘zi ham hayron qolib, hamma narsadan noumid bo‘lgan holda icha boshladi. U o‘z atrofidagi odamlarning hushyorlari baxtsiz va ahmoq, mastlari esa jirkanch va o‘ta ahmoq ekanini ko‘rdi. Ulardan birontasi ham uni qiziqtirmas, u hatto, ularning nomlarini ham so‘ramas, ular bilan qachon va qayerda tanishganini ham bilmasdi, lekin ularni ranjitish uchun doim biron narsa degisi, biron narsa qilgisi kelib turganini sezardi. Qimmatbaho ajoyib

restoranlarda uni allaqanday muttahamlar, kupletchilar, nayrangbozlar, artistlar, aysh-ishrat orqasida singan pomeshchiklar o'rab olardi. Oldiniga bu odamlar o'zlarining nozik didlari, ovqat bilan vino tanlashga usta ekanliklari bilan Fomaning oldida maqtanib, unga homiylik qilishardi, keyinroq esa unga laganbardorlik qilib, Foma o'zi veksel orqali olgan puldan qarz so'rashardi. Arzonbaho mayxonalarda esa, uning atrofida sartaroshlar, allaqanday chinovniklar, yallachilar kalxat singari aylanishardi. Bu odamlar orasida Foma o'zini yaxshiroq, erkinroq his qilar, ular unchalik fosiq emas, soddaroq, lekin goho ularda ham sog'lom, baquvvat tuyg'ular borligi ko'rinib qolar va doim ularda allaqanday insoniy fazilatlar ko'proq uchrar edi. Lekin bular ham, «asilzodalar» singari, pulga o'ch bo'lib, uni surbetlik bilan talashar, Foma buni payqar va ularni mazax qilar, xo'rlar edi.

Albatta, xotinlar ham bo'lardi. Jismoniy sog'lom bo'lgan Foma ularning bahosini ham, chiroylilarini ham, xunuklarini ham sotib olar, ularga ko'p pul berar, ularni qariyb har haftada o'zgartib turar va umuman, ularga, erkaklarga qaraganda yaxshiroq muomala qilar edi. Ularni mazax qilib, shaloq va beodob so'zlar aytar, biroq doim, hatto shirakayf vaqtlarida ham, ular oldida allanarsadan uyalib-qimtinib turar edi. Fomaga ularning hammasi, eng orsiz va uyatsizi ham, go'dak boladay zaif, himoyasiz ko'rinardi. Har qanday erkakni urishga doim tayyor bo'lishiga qaramay, goho biron narsadan jahli chiqqan paytlarda nihoyatda shaloq so'zlar bilan so'ksa ham, u hech qachon xotinlarga qo'l ko'tarmasdi. U o'zini xotinlarga nisbatan beqiyos darajada kuchli sezar, xotinlarni esa, o'ziga qaraganda nihoyatda baxtsiz deb bilar edi. Sayoq yurishlarini mardlikka yo'yib, buzuqligi bilan maqtangan xotinlar Fomada xijolat tuyg'usini qo'zg'ardi, bunday kezlarda Foma tortinar va o'ng'aysizlanar edi. Bir kuni shunaqa sharmanda xotinlardan biri, kechki ovqat mahalida Fomaning yonida o'tirib, mast-alast holda sho'xlik qilib, Fomaning betiga qovun po'chog'i bilan tushirdi. Foma shirakayf edi, bu haqoratdan uning rangi bo'zarib, stuldan irg'ib turdi-da, qo'llarini cho'ntagiga solib, g'azabidan qaltiragan ovoz bilan:

– Manjalaqi! Yo'qol ko'zimdan! Boshqa odam bo'lganda bu qilig'ing uchun kallangni majaqlardim... Sen mening xotinlarga nis-

batan yuvosh ekanimni, sizlarga qo'l ko'tarmasligimni bilasan-da... Haydab chiqaringlar buni! – deb o'shqirdi.

Qozonga kelganlaridan keyin oradan bir necha kun o'tgach, Sasha, Foma bilan birga sanqib yurgan yigitga – allaqanday bir aroq zavodi xo'jayinining o'g'liga o'ynash bo'lib oldi. U yangi xo'jayin bilan qayoqqadir – Kama tomonga ketayotib, Fomaga:

– Xayr, jonginam! Balki yana uchrashib qolarmiz, chunki yo'limiz bir! Ko'nglingga judayam erk berma, maslahatim shu... Orqa-oldingga qaramay o'ynab qol, bo'tqasini yeb bo'lgach, kosasini sindir... Xayr! – dedi.

U Fomaning labidan qattiq o'pdi va shu on uning ko'zlari yana ham qorayibroq ketdi.

Foma uning ketishidan xursand edi, chunki u ko'ngliga tekkan va Sashaning hamma narsaga beparvoligi uni cho'chitar edi. Biroq Sashaning shu so'zlaridan keyin Fomaning yuragiga g'ulg'ula tushib qoldi. U chetga burilib, astagina:

– Agar chiqisholmasang... yonimga qaytib kel!.. – deb qo'ydi.

– Rahmat! – deb javob berdi Sasha, lekin negadir, o'zgacha xirillagan ovoz bilan kulib qo'ydi.

Kunlar birin-ketin o'ta boshladi, Foma shu olag'ovurdan qutulib, hayotning bir chetiga chiqib ketish to'g'risidagi noaniq umid bilan ovunib yurdi. Kechalari o'zi yolg'iz qolgan chog'larda, ko'zlarini mahkam yumib, azbaroyi ko'pligidan bahaybat ko'ringan qop-qora odamlar galasini ko'z oldiga keltirardi. Chang-to'zon buluti bilan qoplangan allaqanday katta bir chuqurga to'plangan bir gala odam, shovqin-suron solib bir joyda gir aylanar va xuddi tegirmon do'lidagi donga o'xshardi. Go'yo oyoq ostlaridagi ko'zga ko'rinmas tegirmon tosh ularni yanchib kukunga aylantirardi-yu, biroq odamlar hadeb to'lqinsimon chayqalishardi xolos, na kukun bo'lib tezroq yo'qolib ketish uchun pastga intilayotganini, na berahm toshdan qutulib qolish uchun yuqoriga sakrayotganini bilib bo'lardi.

Foma olomon orasida ko'pgina tanish odamlarni ko'rdi. Yo'lida uchraganlarni itarib, turtib, ag'darib, ko'kragi bilan surib, xaxolab kulib, Fomaning otasi kelardi... Keyin u birdan odamlarning oyog'i ostiga yiqilib, g'oyib bo'lib ketadi. Mana goh odamlarning yelkasiga sakrab, goh odamlar orasidan bilanglab o'tib, payga aylanib ketgan

egiluvchan gavdasini ilonday eshib otaxoni ko'rinadi... Uning orqasidan, goh otasidan orqada qolib, goh yetib olib, baqirib-hayqirib, qizi Lyubov kelyapti... Pelageya shoshib-pishib allaqayga ketyapti... Mana, Sofya Pavlovna, so'nggi marta o'zining mehmonxonasida qanday turgan bo'lsa, xuddi ana shunday, qo'llarini behol solintirib turibdi... Uning katta ko'zlarida vahima chaqnaydi. Sasha turtkilashlarga ham ahamiyat bermay, shahlo ko'zlari bilan hammaga beparvo qarab, olomonning naq o'rtasiga kirib bormoqda. Fomaning qulog'iga shovqin-suron, dod-voy, kulgi, mast-alast baqirishgan, bahslashib talashgan ovozlar eshitiladi. Chuqur ichida tiqilishib yotgan, g'ivirlashgan tirik tanalar ustida qo'shiq va yig'i ovozlari yangraydi. Tanalar o'rmalaydi, biri birini toptaydi, biri ikkinchisining yelkasiga osiladi, ko'rlarga o'xshab timirskilanadi, hamma joyda o'ziga o'xshagan tanaga to'qnashib kurashadi va yiqilib ko'zdan g'oyib bo'ladi. Odamlarning boshi ustida, xuddi uchib yurgan ko'rshapalakday pullar sharaqlaydi va odamlar ochko'zlik bilan unga qo'llarini cho'zadi, oltin bilan kumush jaranglaydi, shishalar jiringlaydi, po'kaklar paqillaydi, kimdir uv tortib yig'laydi, ayol kishining mungli ovozi eshitiladi:

Davr kelganda, sevib qolaylik,
Keyin nima bo'lsa bo'lar!

Bu manzara Fomaning miyasiga qattiq o'rnashib, borgan sari ravshanroq, kattaroq, jonliroq bo'lib ko'z oldida gavdalanar, yuragida mujmal bir tuyg'u uyg'otib, bu tuyg'uga xuddi daryoga har xil irmoqlar qo'shilganidek vahima, g'azab, rahm-shafqat, dardli alam va boshqa ko'pgina narsalar kelib qo'shilar edi. Bular hammasi Fomaning yuragida qaynab, zo'r bir orzuga aylanardi. Bu orzuning kuchidan Fomaning nafasi bo'g'ilar, ko'zlaridan yoshlar oqardi va uning qichqirgisi, bo'riday uvlagisi, odamlarni qo'rqitib, bema'ni tentirashlardan to'xtagisi, hayotdagi ola-g'ovurga, yugur-yugurga o'zidan nimanidir qo'shgisi, allaqanday o'tkir va qat'iy so'z aytgisi, odamlarni bir-biriga qarshi qo'yish emas, balki hammasini ham bir tomonga yo'naltirgisi kelar edi. Odamlarni boshlaridan ushlab bir-biridan ajratib qo'ygisi, birini boplab kaltaklagisi, ikkinchisini

erkalatgisi, hammasini koyib, hammasini allaqanday bir nur bilan yoritgisi kelardi...

Biroq unda hech narsa yo'q edi, na kerakli so'z va na nur, faqat o'zigagina ravshan bo'lgan, lekin bajarib bo'lmaydigan orzusigina bor edi, xolos... U o'zini odamlar mindi-mindi bo'lib yotgan chuqurdan tashqarida tasavvur etar, oyoqda mahkam bosib, indamay turganini ko'rardi. Foma o'sha odamlarga:

«Shu ham yashashmi? Uyat emasmi», – deb qichqirishi mumkin edi.

Bordi-yu, uning ovozini eshitib, ular:

«Xo'sh, qandoq yashash kerak?» – deb so'rab qolishsa-chi!..

U bunday savoldan keyin, o'zi ham yuqoridan odamlar oyog'i ostiga, tegirmon tosh yoniga o'mbaloq oshib tushib, halok bo'lishiga aqli yetar, odamlar kulib tomosha qilishini yaxshi bilar edi.

Goho u ko'p ichganimdan aqlim ozyapti, shuning uchun ham xayolimga mana shunday dahshatli narsalar kelmoqda, deb o'ylardi. U iroda kuchi bilan bu manzarani yo'q qilar edi-yu, lekin o'zi yolg'iz qolganda va uncha mast bo'lmagan kezlarida, tag'in alahlay boshlar va uning og'ir ta'siri ostida yana holdan ketar edi. Lekin undagi ozod bo'lish orzusi kundan kunga kuchayib, tobora mustahkamlanardi. Biroq u o'z boyligining kishanlaridan sira qutula olmas edi.

Butun ishni boshqarishga undan to'la vakolat olgan Mayakin shunday harakat qilardiki, Foma o'z zimmasidagi vazifalarning og'irligini har kun deyarli sezib turardi. Unga goh qarz qistab murojaat qilishar, goh yuk tashitishga kelishimni taklif qilishar, xizmatchilar esa, ilgari unga mutlaqo aloqasi bo'lmagan, doim o'zlari bajarib kelgan mayda-chuyda ishlar bilan ham uni bezovta qilishar edi. Uni mayxonalardan qidirib topib, nima qilish va qandoq qilish kerakligini so'rashardi, goho u mutlaqo o'zi ham tushunmagan holda ishni qandoq qilish kerakligini aytib berardi-yu, biroq xizmatchilar uni mensimaganini o'zi sezar va ishni u aytganidek emas, aksincha, boshqacharoq va puxtaroq bajarganliklarini har doim ko'rib turar edi.

Foma bu ishda otaxonining mohir qo'li borligini va uni o'z yo'liga solib olish uchun chol uni iskanjaga olayotganini sezar edi. Shu bilan birga u o'z ishiga xo'jayin emasligini, faqat uning arzimas

bir qismigina ekanini ham payqardi. Bu esa Fomaning achchig'ini keltirib, uni choldan yana ham uzoqlashtirar, hatto ishni xarob qilish hisobiga bo'lsa ham, ishdan butunlay qutulib olish ishtiyoqi unda battar avj olar edi. U jon-jahdi bilan pullarini mayxona-yu, fohishaxonalarda sovurib yurdi, lekin bu ish uzoqqa cho'zilmadi. Yakov Tarasovich banklardagi hamma pulni olib qo'yib, schyotni bekitdi. Tez orada Foma veksel bilan pul berishganda ham, avvalgidek bemalol emas, balki og'rinibroq berayotganlarini payqay boshladi. Bu narsa izzat-nafsiga tegib ketdi va otaxoni unga vasiy belgilash kerak bo'lar, deb gap tarqatganini eshitib, fig'oni oshdi va nihoyatda qo'rqdi. Foma otaxonining hukmfarmonligini bilar, shuning uchun ham bu to'g'rida birov bilan maslahat qilishga botinolmasdi. U cholning savdo olamida katta kuch ekanini va istagan narsasini qila olishiga aqli yetardi. Oldiniga o'z tepasida doim Mayakinning qo'li borligini sezish nihoyatda azob bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ko'nikib qoldi-da, bebosh, mast-alast hayotini davom ettiraverdi, bu hayotda uni faqat bir narsagina – odamlargina ovutar edi. Foma borgan sari odamlarning o'ziga nisbatan bema'niroq va har jihatdan yomonroq ekaniga, ularning hayotga xo'jayin emas, balki malay ekaniga, hayot ularni istagan ko'yiga solishiga, xohlaganicha egib, sindira olishiga ko'proq ishondi.

Shunday qilib, Foma har qadamda loyga, balchiqqa botib ketish xavfi bo'lgan botqoqlik ustida ketayotganday vahima bilan yashar, otaxoni esa, quruq va qattiq yerda quyunday eshilib, o'tkir ko'zlari bilan Fomaning hayotini olisdan kuzatib turardi.

Foma bilan bo'lgan mojarodan keyin, Mayakin qovog'i solingan, o'ychan holda uyiga qaytib keldi. Uning ko'zlari yiltirar, gavdasi esa tarang qilib tortilgan torday kekkayib qolgan edi. Ajinlari tirishgan, yuzi go'yo battar kichrayib, qorayib ketgandek edi. Lyubov otasini shu ahvolda ko'rdi-yu, qattiq kasal bo'lsa kerak, deb o'yladi. Chol indamay, xona ichida asabiy holatda yurar ekan, qizining savollariga sovuqqina, qisqa-qisqa javob qilardi, nihoyat, uni jerkib:

– Bas qil! Sen ham bormiding... – dedi.

Otasining o'tkir, ko'm-ko'k ko'zlari g'amgin va mungli qarab turganini ko'rgach, Lyubov unga achindi va otasi ovqat stoli yoniga

o‘tirgandan keyin darrov uning yoniga bordi-da, qo‘llarini yelkasiga qo‘yib, yuziga tikilib, muloyim va hayajonli ovoz bilan:

– Otajon! Tobingiz bo‘lmasa ayting, – deb yalindi.

Lyubov otasini kamdan kam erkalatar edi. Uning yoqimli erkalashi yolg‘iz qolgan cholning ko‘nglini ko‘tarar, lekin u nima uchundir bunga e’tibor bermasdi, shunday bo‘lsa-da, chol qizining erkalatishlarini yaxshi ko‘rardi. Hozir ham u yelkalarini uchirib qizining qo‘llarini olib tashladi-da:

– Bor, bor o‘z joyingga... Nima, Momo Havoning dardi seni ham tutdimi... – dedi.

Biroq Lyubov otasi oldidan ketmadi, otasining ko‘ziga tikilib, o‘pkalagan ovoz bilan:

– Otajon, nega siz men bilan doim shunaqa gaplashasiz, yo meni kichkina bola, yoki juda ahmoq deb o‘ylaysizmi? – deb so‘radi.

– Negaki, katta bo‘lsang ham, uncha aqling yo‘q... Shunaqa! Gap tamom, vassalom! Bor o‘tir, ovqatingni ye...

Lyubov nari ketdi va xafa bo‘lib, lablarini qimtib, otasining ro‘parasiga borib indamay o‘tirdi. Mayakin likopchadagi karam sho‘rvani qoshiq bilan uzoq kovladi va unga diqqat bilan tikilib, har vaqtdagidan ko‘ra imillab icha boshladi. Keyin, negadir hushtak aralash xo‘rsinib:

– Qani endi sening mag‘zava aqling otangning o‘y-fikrlarini tushuna olsa! – deb qo‘ydi.

Lyubov qo‘lidagi qoshiqni bir chetga uloqtirdi-da, yig‘lamsirab gapirdi:

– Nega meni xafa qilasiz, otajon? O‘zingiz ko‘rib turibsizki, men yolg‘izman! Doim yolg‘izman! Hayotim naqadar og‘ir ekanini bilasiz-ku axir, hech qachon menga bir og‘iz shirin so‘z aytmaysiz... Axir, o‘zingiz ham yolg‘izsiz, sizga ham qiyin... – dedi.

– Ana xolos, Valaamning eshagi ham tilga kirdi! – dedi chol kulimsirab. – Xo‘sh? Keyin nima bo‘ladi?

– Siz aqlim bor deb juda kekkayasiz...

– Yana nima deysan?

– Yashash emas bu! Nega meni doim turtkilaysiz? Axir, sizdan boshqa mening kimim bor...

Lyubovning ko'zlari yoshlandi, otasi buni ko'rib yuz-ko'zlari pir-pir uchdi.

– Agar sen qiz bo'lmaganingda edi! – dedi u. – Agar aqling... loaqal Marfa Posadnitsaning aqlicha bo'lsaydi, eh, Lyubov! Hammasiga tupurardim... Fomaga ham... Bas, yig'lama!

Lyubov ko'zini artib:

– Fomaga nima qildi? – deb so'radi.

– To'polon qilyapti... Ho-ho! «Barcha mol-mulkimni oling-u, meni erkin qo'ying...» deyapti. O'zini qutqarmoqchi... mayxonalarda!.. Bizning Fomaning o'ylab topganini qara...

Lyubov dudmollanib:

– A... bu nimasi? – deb so'radi.

Mayakin tutaqib, titrab gapira boshladi:

– Bu nimasi deysanmi? Bu uning ko'p ichganidan, yo bo'lmasa, xudo saqlasin, ona meros – eski din ta'siri... Bordi-yu, bu ona meros bo'lsa, u bilan ko'p jang qilishga to'g'ri keladi! U menga ko'krak kerib qarshi chiqdi... Katta odobsizlik qildi... Yosh hali, ayyorlikni bilmaydi... «Hammasini ichib bitiraman», deydi. Men senga ichirib qo'yaman!

Mayakin, qo'lini musht qilib, boshi uzra ko'tardi-da, g'azab bilan do'q qildi.

– Nima haqqing bor? Dunyoni kim topgan, ishni kim yo'lga qo'ygan? Senmi? Otang... Qirq yillik mehnati singan, sen esa buni sovurmoqchimisan? Biz hammamiz, vaqti kelganda qo'lni qo'lga berib, inoq bo'lib, vaqti kelganda ehtiyot bo'lib, bir-birimizning ortimizdan tizilishib, o'z joyimizga borishimiz kerak... Biz savdogarlar, ahli tijorat, Rossiyani asrlar bo'yi o'z gardanimizda ko'tarib kelganmiz, bundan keyin ham ko'tarib boramiz... Buyuk Pyotr ajoyib, aqlli podsho edi, u bizning qadrimizga yetar edi! U bizni qanday himoya qilardi, a? Bizga ish o'rgatish uchun ataylab kitoblar bostirib chiqargan edi... Mana, menda uning amri bilan bosilib chiqqan, Polidor Virgiliy Urbinskiyning «Ixtirochilar to'g'risida», degan kitobi bor. Yetti yuz yigirmanchi yilda bosilgan... Ha! Buni tushunmoq kerak!.. U bizga yo'l ochib berdi... Mana, hozir biz oyoqqa turib oldik... Bizga yo'l beringlar! Hayotning poydevorini biz qurganmiz, g'isht o'rniga o'zimizni qo'yganmiz, endi biz ust-

ki qavatlarini qurishimiz kerak... bizni o‘z erkimizga qo‘yinglar! Bizning savdogar ahli mana shunday ish tutishi lozim... Butun gap shunda! Foma buni tushunmaydi!.. U tushunishi va ishni davom ettirishi lozim... Otasining dunyosi uning qo‘lida... Men o‘lsam, meniki ham qo‘shilib ketadi. Ishla, itvachcha! U bo‘lsa sanqib yuribdi, yo‘q, sen hali shoshmay tur! Men senga boradigan joyingni shunday ko‘rsatib qo‘yayki!

Cholning g‘azabi qaynaganidan nafasi bo‘g‘ildi, u chaqnagan ko‘zlari bilan qiziga shu qadar o‘qrayib qaradiki, go‘yo uning o‘rnida Foma o‘tirgandek edi. Otasining g‘azabi Lyubovni vahimaga soldi.

– Ota-bobolaring solgan yo‘ldan sen ham borishing kerak. Ellik yil men nima uchun ishladim?.. Bolalarim! Qani, mening bolalarim?

Chol mung‘ayib boshini egdi, uning ovozi bo‘g‘ildi, u go‘yo o‘ziga o‘zi gapirayotganday, bo‘g‘iq ovoz bilan sekin dedi:

– Biri yo‘q bo‘lib ketdi... Ikkinchisi ichkilikka berildi!.. Qizim... O‘limim oldidan ishimni kimga topshiraman!.. Kuyov qilarman devdim... Men, Foma hushiga kelib, aqli kirib qolar, seni va sen bilan qo‘shib bor-yo‘g‘imni unga berarman, deb o‘ylagandim! Foma yaramas chiqdi... Uning o‘rniga boshqasi ko‘rinmayapti... G‘alati odamlar paydo bo‘lyapti-da!.. Ilgari odamlar temirdek edi, endi esa, nihoyatda mo‘rt... Bu nima? Nega shunday?

Mayakin tashvish bilan qiziga qarab qo‘ydi, Lyubov indamadi.

– Ayt, senga nima kerak o‘zi? – deb so‘radi ota. – Seningcha qandoq yashash kerak? Nima istaysan? Bilim olding, kitoblar o‘qiding, senga nima kerak?

Kutilmaganda Lyubov ustma-ust yog‘ilgan savollardan dovdirab qoldi. U otasining bu haqda so‘ragani uchun quvonsa-da, lekin otamning oldida ohorim to‘kilmasin, deb o‘ylab, unga javob qilishdan cho‘chib turdi. Nihoyat, go‘yo stol ustidan sakrab o‘tmoqchi bo‘lganday, butun vujudi bilan intilib, qaltiragan ovoz bilan qo‘rqapisa gapira boshladi:

– Hamma baxtli... mamnun bo‘lishi uchun... hamma odamlar teng bo‘lishi uchun... hammaga erkinlik kerak... xuddi havodek kerak... hamma ishda tenglik bo‘lishi shart!..

Chol xotirjam qiyofada nafrat bilan dedi:

– O‘zim ham bilgandim-a, sirti yaltiroq ahmoqsan!

Lyubov boshini egdi, lekin o‘sha zahotiyoq boshini shartta ko‘tarib, alam bilan qichqirdi:

– O‘zingiz aytyapsiz-ku, erkinlik kerak deb...

– Ovozingni o‘chir! – deb baqirdi chol. – Sen hatto odamlarning ko‘ziga yaqqol ko‘rinib turgan narsani ham ko‘rmaysan... Har bir odam boshqasidan ustun bo‘lishga intilib tursa-yu, qandoq qilib hamma baxtli va teng bo‘la oladi? Hatto gadoning ham o‘ziga yarasha nafsoniyati bor va doim boshqalar oldida biron narsasi bilan maqtanadi... Yosh bola ham o‘z tenglari orasida birinchi bo‘lishni istaydi... Odam odamga hech qachon yon bermaydi, faqat ahmoqlargina shunday o‘ylashi mumkin... Har kimning o‘z joni bor... Faqat o‘z qadrini bilmagan odamlarnigina bir qolipga tortish mumkin... Eh, sen!.. Bo‘lmagan narsalarni o‘qib topgan aqling shumi...

Cholning yuzida achchiq ta’na, zaharli nafrat paydo bo‘ldi. U oromkursini stol yonidan taraqlatib orqaga surib, o‘rnidan irg‘ib turdi-da, qo‘llarini orqasiga qilib, boshini siltab-siltab zarda bilan allanimalarni o‘zicha pichirlab-g‘udranib, mayda qadam tashlab xonada u yoqdan bu yoqqa yugura boshladi... Hayajonidan va alamidan rangi bo‘zargan Lyubov, otasi oldida o‘zini tentak va zaif sezib, uning pichirlashlariga quloq solar, yuragi esa tipirchilar edi.

– Yolg‘iz o‘zim qoldim... E tangrim!.. Nima qilay? Yo aqlim yetmaydimi? Yo makrim kamlik qilyaptimi?

Lyubov otasiga rahmi kelib, yuragi tuz sepganday achishdi, unga yordam qilgisi, dardiga malham bo‘lgisi keldi.

Lyubov otasini mehribon ko‘zlari bilan kuzatib turib, birdan unga ohistagina dedi:

– Otajon... aylanay! Ko‘p qayg‘urmang... axir, hali Taras tirikku... Balki u...

Mayakin qoqqan qoziqday birdan to‘xtadi va sekin boshini ko‘tardi.

– Daraxt yoshligidaki qiyshayib, o‘zini tutolmadimi, qariganda sinib tushishi turgan gap... Lekin Taras ham endi menga xas-cho‘p... Biroq Fomadan nimasi ortiq... Gordeyevning o‘ziga yarasha xarakteri bor... Unda otasining g‘ayrati, tavakkalchiligi bor... U ko‘p yuk

ko'tarishi mumkin... Ammo Taraska... Sen uni juda vaqtida esimga solding...

Shundan bir daqiqa ilgari, ruhi tushib, nolish darajasiga borib yetgan va xuddi qopqonga tushib qolgan sichqonday tipirchilab, xonada u yoqdan bu yoqqa borib kelgan chol, endi tashvishli yuz bilan bemalol va dadil yana stol oldiga bordi-da, oromkursini yaxshilab stol yoniga surib o'tirarkan, gap boshladi.

– Taraskani izlashga to'g'ri keladi! Usoledagi allaqaysi bir zavodda turarmish... Savdogarlardan eshitgan edim, soda chiqaradigan zavod deyishgandi shekilli... Yaxshiroq surishtirarman...

Lyubov suyunganidan qaltirab, qizarib, sekingina iltimos qildi:

– Ruxsat etsangiz, men unga xat yozardim, otajon! – dedi.

Mayakin unga bir qarab qo'ydi-da:

– Sen-a? – deb so'radi va o'ylanib, biroz jim turgandan keyin, – mayli! Juda yaxshi bo'ladi! Yoz... So'ra. Uylanmaganmikin? Ahvoling qalay? Nima qilmoqchisan? Deb yoz. Nima yozishni payti kelganda men aytaman.

– Tezroq ayta qoling-da, otajon! – dedi qizi.

– Tezroq seni erga berish kerak... Men shu yerda bir sariq sochli yigitni ko'z ostimga olib yuribman. Aftidan, ahmoq yigitga o'xshamaydi... Lekin chet el tarbiyasini olgan...

Lyubov hovliqib, qiziqib:

– Smolinmasmi, otajon? – deb so'radi.

– O'sha bo'lsa, nima qipti? – dedi Yakov Tarasovich jiddiy tusda.

– Hech narsa... Men uni tanimayman... – deya Lyubava mujmal javob berdi.

– Tanishtirib qo'yamiz... Vaqti keldi, Lyubov, vaqti! Fomadan umid qilib bo'lmaydi... Lekin undan qo'limni yuvib qo'ltiqqa urmasam ham...

– Fomani men xayolimga ham keltirgan emasman...

– Chakki qilasan... Agar aqlli bo'lganingda ehtimol, yo'ldan ozmagan bo'lardi!.. Men ikkovingizni birga ko'rgan chog'larimda: «Qizim yigitni qo'lga olar!» deb o'ylagan edim. Attang, yanglishgan ekanman...

Lyubov otasining salmoqli so'zlariga quloq solib, o'y surib ketdi. Sog'lom va dirkillagan bu qiz keyingi vaqtlarda kuyovga chiqish to'g'risida tez-tez o'ylab yurar, chunki yolg'izlikdan qutulishiga shundan boshqa hech iloj topolmas edi. Qiz otasini tashlab biron yerga ketish, biron kasb o'rganish, biron ish qilish to'g'risida ilgari o'ylagan bo'lsa-da, lekin bu orzusini ham ko'pgina yuzaki orzulari singari, allaqachon unutib yuborgan edi. O'qigan turli-tuman kitoblaridan uning dilida faqat loyqa quyqum qolgan edi xolos. Lekin bu quyqum allaqanday tirik bir narsa, protoplazma singari jonli edi. Bu quyqum qizning qalbida o'z hayotidan qanoatlanmaslik hissini, mustaqil yashashga intilish va otasidan qutulish istagini urchitardi, ammo bu orzularni amalga oshirish uchun unda kuch yo'q va bularni qandoq qilib amalga oshirishni ham o'zi bilmas edi. Ammo tabiat o'z ta'sirini o'tkazar, Lyubov bola ko'targan yosh juvonlarni ko'rganida xafa bo'lib, yuragi orziqib ketardi. Goho u oyna oldiga kelib, qovoqlari qoraygan, lorsillab turgan tarang yuziga g'amgin nazar tashlardida, o'ziga o'zi achinardi. Hayot uni allaqaysi bir chetda qoldirib, unutib o'tib ketmoqda edi. Hozir u otasining so'zlariga quloq solib turib, o'sha Smolinning qanaqa ekanini ko'z oldiga keltirishga urindi. Lyubov uni gimnazist ekanligida ko'rgan edi, u paytda Smolin yuzlarini sepkil bosgan, puchuq, ozoda, basavlat va kamgap bir o'spirin edi. U og'ir va qo'pol, gapga no'noq edi... O'shandan buyon ancha vaqt o'tdi, u chet elda bo'ldi, u yerda allanarsaga o'qidi, lekin hozir qanday ekan? Qiz Smolinni o'ylab turib akasi esiga tushdi va yuragi uvishib – xatga nima deb javob qaytararkin? – deb o'ylanib qoldi... Ko'z oldiga keltirgan akasining qiyofasi otasini ham, Smolinni ham to'sib qo'ydi va shundan keyin qiz, to Taras bilan maslahat qilmagunicha, o'lsa ham kuyovga chiqmaslikka ahd qildi, shu on birdan otasi:

– Hoy, Lyubavka! Nega o'ylanib qolding? Nimalarni o'ylayapsan? – deb qichqirdi.

Lyuba kulib turib javob berdi.

– Shunday, hamma narsa tez o'tyapti...

– Nima tez o'tyapti?

– Hammasi... bundan bir hafta burun siz bilan Taras to'g'risida gaplashib bo'lmas edi, mana endi...

– Muhtojlik, qizim! Muhtojlik shunday bir kuchki, hatto po'lat simni ham bukib prujina qiladi, po'lat esa pishiq narsa!.. Ko'ramiz! Odamning qadr-qimmati, hayot kuchiga qarshilik ko'rsata olishi bilan o'lchanadi, agar hayot uni bukolmasa, u hayotni istagan yo'liga sola oladi, men ana shunday odamni hurmat qilaman! Ehh, qarib qoldim-da! Hayot ilgariga qaraganda judayam serharakat bo'lib qoldi! Hayotda yildan yilga ajoyib narsalar ko'payib, borgan sari u shirin bo'lib ketyapti! Qani endi o'lmay yashasam-u, tinmay ishlasam!..

Chol lablarini chapillatib, qo'llarini bir-biriga ishqab qo'ydi va uning ko'zlari suqlik bilan chaqnab ketdi.

– Sizlar qoni suyuq odamsizlar! Hali voyaga yetmay turib, keksayib, so'ligan turpday bujmayib qolgansizlar... Sizlar hayotning kundan kun chiroyli bo'lib, ochilib borayotganini tushunmaysizlar... Mana, men oltmish yetti yildan buyon yer yuzida depsinib yuribman, bir oyog'im yerda, bir oyog'im go'r og'zida turibdi, yoshligimda gullar ham oz edi va unchalik chiroyli ham emas edi... Hamma yoqqa husn kirmoqda! Qurilgan binolarni ko'ringlar! Har xil ish qurollari, savdo qurollari... Katta-katta paroxodlar! Bu narsalarga ne-ne aqllar sarflangan! Qarab turib: «Insonga barakalla!» deb o'ylaysan. Hammasi ma'qul, hammasi yoqimli, faqat bizning merosxo'rimiz bo'lgan sizlargina har qanday jonli hissiyotdan mahrumsizlar! Meshshandan chiqqan har qanday qallob ham sizlardan uddaburonroq... Anavi... Yejov degan kim o'zi u? U o'zini, go'yo butun hayotning sudyasidek tutadi, bachchag'ar dovyurak! Sizlar-chi, tfu! Qashshoqlik bilan yashaysizlar... Teringizni shilib, go'shtlaringizga tuz sepganda, xo'p irg'ishlardingizlar!

Kichkinagina, yuzlari tirishgan, qoqsuyak, yakkam-dukkam kemtik tishlari qop-qora, boshi tepakal, go'yo hayot olovida toblanganday qorayib ketgan Yakov Tarasovich, o'tday tutaqib, titrab-qaqshab, barvasta, lobar, navqiron Lyubovga hadeb nafratli so'zlarni yog'dirardi. Qiz esa, gunohkor odamday xijolat bo'lib, otasiga jilmayib qarab turar va uning qalbida, o'z maqsadi yo'lida hech narsadan toymaydigan bu tirishqoq cholga nisbatan hurmat hissi o'sib borardi...

Foma esa hamon aysh-ishrat qilib, sanqib yurardi. Shahardagi qimmatbaho restoranlardan birida aroqfurushning o'g'li bilan –

Sashani o'ynash qilib olib ketgan yigit bilan uchrashib qoldi, u quvonib, Fomani eski qadrdonday quchoqlab oldi.

– Xo'p uchrashdik-da! Uch kundan beri bu yerda yolg'izlikdan rosa ich-etimni yedim-da... Nahotki, butun bir shaharda bironta tuzuk odam bo'lmasa, kecha men hatto gazetchilar bilan ham tanishib oldim... Chakki emas, xushchaqchaq odamlar ekan... Boshda o'zlarini aristokrat qilib ko'rsatib katta tutishdi, meni masxara qilib kulishdi ham, lekin keyin hammasi o'lgudek ichib mast bo'ldi... Men sizni o'shalar bilan tanishtirib qo'yaman... Ular orasida bir felyetonchi bor, esingizdami, sizni yozgan-chi... Hah, ismi nimaydi? Juda quvnoq yigit, jin urgur!

Chipor kostum kiygan, uzun bo'yli va o'taketgan bu shaloq yigitning baqirib so'zlashidan quloqlari bitgan Foma:

– Aleksandra qalay? – deb so'radi.

Yigit aftini burushtirib turib:

– E, men sizga aytsam, Aleksandrangiz yaramas xotin ekan! Allaqanday g'alati, ichimdagini top, deydiganlar xilidan, odamni diqqat qilib yubordi, padariga la'nat! Xuddi baqadek sovuq!.. Bo'lmaydi, uning javobini berib yuboraman...

– Sovuqligi to'g'ri! – dedi Foma va o'ylanib qoldi.

Aroqfurushning o'g'li unga nasihat qilgan bo'lib:

– Har kim o'z ishini juda yaxshi bilib qo'yishi kerak, – dedi. – Agar sen yaxshi xotin bo'lsang, birovga o'ynash tutinganingdan keyin, o'z vazifangni yaxshi ado etishing kerak... Xo'sh, aroq ichamizmi? – deb so'radi.

Ichishdilar. Turgan gap, mast ham bo'ldilar.

Kechqurun mehmonxonaga bir talay xushchaqchaq ulfatlar yig'ilishdi. Foma esa mast, ammo g'amgin va yuvosh bir qiyofada, tutila-tutila so'zladi:

– Men shunday deb o'ylayman, ba'zi odamlar chuvalchang bo'lsa, ba'zilari chumchuq... Chumchuqlar – savdogarlar... Ular chuvalchanglarni cho'qigani-cho'qigan... Ularning kasbi shu... Ular kerak... Mana, biz hammamiz hech narsaga kerakmasmiz... Bizning hech narsaga foydamiz tegmaydi... Bizning mutlaqo keragimiz yo'q... Lekin ular ham... Hammasi nima uchun kerak? Buni tushunmoq lozim... og'aynilar!.. Men nima uchun kerakman? Mening keragim yo'q!.. O'ldiringlar meni... Men o'lay... o'lgim keladi.

U mastlik bilan ho'ngrab yig'ladi. Uning yoniga allaqanday bir kichkina qora odam kelib o'tirib, nimanidir uning esiga soldi-da, Foma bilan o'pisha ketdi va pichoq bilan stolni taqillatib qichqirdi:

– Jim! So'z g'o'rakka! Hayot noqulay yaratib qo'ygan fillar bilan mamontlarga so'z beringizlar! Rus kishisining g'o'r vijdoni muborak so'zlar aytmoqda! O'kir, Gordeyev! Ovozing boricha o'kir!..

U yana Fomaning yelkasiga osilib, pinjiga kirib tap-taqir qirilgan, u yoqdan bu yoqqa aylanib likillab turgan yumaloq, qop-qora boshini hadeb uning yuziga taqayverdi, Foma uning yuzini ko'rolmay jahli chiqib, uni turtib nari itardi-da, g'azab bilan qichqirdi:

– Yopishma! Aft-basharang qayoqda sening?

Ularning atrofida mast odamlar quloqlarni batang qilib, xaxolab kulishardi, aroqfurushning o'g'li esa, bu shov-shuvdan bo'g'ilib, allakimga xirillab:

– Menga xizmatga kel! Bir oyga yuz so'm, ovqat, kvartira beraman! Rost aytaman! Kel! Rost gap! Tupur gazetaga, men ko'proq beraman! – deya o'kirardi.

Hamma narsa to'lqinga o'xshab, salmoq bilan tebranardi. Odamlar Fomadan goh yiroqlashar, goh yaqinlashar, shift pastga tushar, pol yuqori ko'tarilardi, go'yo ular hozir uni ezib, majaqlab tashlaydigandek tuyular edi. Shundan keyin Foma o'zini quturib oqayotgan poyonsiz keng daryoda allaqayoqqa suzib ketayotganday sezib dahshat bilan qichqirdi:

– Qayoqqa ketyapmiz? Kapitan qani?

Bu savolga mast odamlar bema'ni kulgi bilan baqirib, kichkina qora odam esa chiyillagan xunuk ovoz bilan chinqirib javob berishdi:

– Rost-a! Qani, kapitan!

Foma ikki derazali kichkinagina bir uyda bu dahshatli tushdan uyg'ondi va dastlab qurigan bir daraxtga ko'zi tushdi. Daraxt deraza yonida edi. Po'stloqlari shilinib ketgan yo'g'on tanasi yorug'ni to'sib turar, yaproqlari to'kilib ketgan, qop-qora, egri-bugri shoxlari esa har tomonga tarvaqaylab, mungli ohangda g'ijirlab tebranishardi. Yomg'ir quyar, deraza oynasidan sizib oqar, tomdan sharillab quyilgani va yerga tushganda yig'lamsirab hiqillagani eshitilib turar edi. Mana shu yig'lamsiragan tovushga boshqa bir nozik ovoz –

qog‘oz ustida shoshib-pishib qitirlagan peroning ovozi qo‘shilib, o‘qtin-o‘qtin to‘xtab qolardi, ora-sira ming‘illagan ovoz eshitilar edi.

Foma og‘irlashgan boshini yostiqda arang burib, kichkina qora odamni ko‘rdi. U stol yonida peroni qirtillatib, qog‘ozga nimadir shoshib-shoshib yozar, o‘zicha nimanidir ma’qullab yumaloq boshini silkitar, chor atrofga aylantirar, kiftlarini uchirib qo‘yardi va butun vujudi bilan, yolg‘iz tungi ko‘ylak-ishton kiygan kichkina gavdasi bilan, go‘yo cho‘g‘ ustida o‘tirib o‘rnidan turolmayotgandek, stulda hadeb tipirchilar edi. U ozg‘in, ingichka chap qo‘li bilan goh peshanasini qattiq ishqar, goh havoda allaqanday anglab bo‘lmas ishoralar qilar, yalang oyoqlari bilan polni shitirlatar, bo‘yni hadeb lipillar, tomiri va, hatto, quloqlari ham qimirlar edi. U Fomaga yuzlanganda Foma uning allanima deb pichirlayotgan yupqa lablarini, uzun burnini, siyrak mo‘ylovini ko‘rdi. Bu kichkina odam har gal iljayganda mo‘ylovi lip etib yuqori ko‘tarilar edi... Yuzi sap-sariq, ajin bosib ketgan, yaltirab turgan qop-qora ko‘zlari esa, yuziga mutlaqo mos emasdi.

Foma unga tikilib charchagach, xona ichiga ko‘z yugurtirdi. Devorga qoqilgan katta mixlarga dasta-dasta gazetalar osib qo‘yilgan, shuning uchun ham devor go‘yo shish bosib ketganga o‘xshab ko‘rinardi. Shiftga bir vaqtlar oq qog‘oz yopishtirilgandi, hozir esa, hammasi pufakcha singari shishib chiqqan va yirtilib, mog‘orlab, parcha-parcha bo‘lib osilib yotardi. Polda kiyim-boshlar, etiklar, kitoblar, yirtilgan qog‘oz parchalari sochilib yotar edi... Butun xona go‘yo qaynoq suvga pishganga o‘xshardi.

Kichkina odam ruchkani qo‘yib, stol ustiga engashdi-da, barmoqlari bilan stol chetini chertib, zaif ovoz bilan sekingina kuylay boshladi:

Barabanni ol – qo‘rqma sira!
Markitankani o‘p jaranglatib!
Eng chuqur fanning ma’nosidir bu,
Eng o‘tkir falsafaning mazmunidir shu!

Foma og‘ir xo‘rsinib:

– Zelterskiy ichsak bo‘lardi... – deb qo‘ydi.

– Aha! – deb qichqirdi kichkina odam va stuldan sakrab turdi-da, Foma yotgan divan yoniga keldi. – Qalaysan, o'rtoq? Zelterskiy deysanmi? Konyak deysanmi? Konyak bilanmi yo quruq o'zinimi? – deb so'radi.

Foma uning quruq va issiq qo'lini qisarkan, yuziga diqqat bilan tikilib turib:

– Konyak bilan bo'lsa, yaxshi bo'lardi... – deb qo'ydi. Haligi odam eshikka qarab:

– Yegorovna! – deb qichqirdi-da, Fomaga o'girilib: – Tanimayapsanmi, Foma Ignatich? – deb so'radi.

– Nimadir... esimda bor... Ehtimol, uchrashgan bo'lsak...

– Bu uchrashuv to'rt yil davom etgan... lekin bunga ko'p vaqt bo'ldi! Yejov...

Foma yotgan yerida turib o'tirdi-yu, dong qotib qichqirib yubordi:

– Yopirim-e... senmisan hali?

– Men, og'ayni, bunga goho o'zim ham ishonmayman, biroq fakt shunaqa narsaki, har qanday shubha ham undan temirga tegib sapchib ketgan rezinka koptokday sapchib ketadi...

Yejovning yuzi g'alati bo'lib qiyshaydi, qo'llari esa negadir ko'kragini piypaslay boshladi.

– E-e-e! – dedi Foma cho'zib. – Juda qarib qolibsan-ku! Necha yoshga kirding?

– O'ttizga...

– Xuddi ellikka kirganga o'xshaysan-a... Qoq suyaksan, ranging sap-sariq!.. Aftingdan, yaxshi yashamaganga o'xshaysan-a?

Foma quvnoq va abjir maktabdosh o'rtog'ining bu qadar xarob bo'lib, katakka o'xshagan uyda turishini ko'rib achindi. U ko'zlarini pirpiratib Yejovga g'amgin qaradi va Yejovning yuzi uchayotganini, ko'zlari g'azab bilan yonib turganini ko'rdi. Yejov shisha ochayotgani uchun indamadi, u shishani tizzalari orasiga qisib, zo'r berib uning po'kagini chiqarishga urinardi. Uning darmonsizligi ham Fomaning rahmini keltirdi.

– Attang, hayot senga o'z ta'sirini o'tkazibdi... o'qigan eding... – dedi Foma o'ychan.

Yejov charchaganidan hatto rangi oqarib ketdi, unga suvni uzatib:

– Ich! – dedi. Keyin u peshanasini artib qo'ydi-da, Foma yoniga, divanga o'tirib so'zga kirishdi:

– Ilmni qo'y! Ilm bir muqaddas sharob... biroq hozircha uni iste'mol qilib bo'lmaydi. Oldin aroqning zararli moyini tozalagandek, uni tozalab olish kerak. Ilm-u fan odamzod baxti uchun xizmat qilishga hali tayyor emas, do'stim... va uni iste'mol qilgan odamlarning faqat boshlari og'riydi, xolos... Xuddi sen bilan menga o'xshab... Sen nega orqa-oldingga qaramay ichasan-a?

Foma kulimsirab:

– Bo'lmasa nima qilay? – deb so'radi.

Yejov sinovchan nazar bilan Fomaga qarab qo'ygandan keyin:

– Men bu savolingni kecha aytgan barcha so'zlaring bilan solishtirib ko'rib, sening yurish-turishing, hayoting yaxshi bo'lmaganidan deb sezdim, do'stim... – dedi.

Foma divandan turib, og'ir xo'rsinib qo'ydi:

– Eh! Qanaqa hayot? Tushunib bo'lmaydi... Allaqanday betayin narsa... Bir o'zim yashayman... Hech narsaga tushunmayman... Hammasiga tupurib, biron joyga bosh olib ketgim keladi! Qaniydi, hammasidan kechib qochsam... Diqqatpazlik xolos!

Yejov qo'llarini ishqab, qilpillab:

– Bu qiziq gap! – dedi. – Agar rostdan shunday bo'lsa, bu judayam qiziq, chunki bu hayotdan norozilikning muqaddas ruhi yog'liq sho'rva-yu, choy va boshqa ichimliklar botqog'ida yotgan o'likdan battar savdogarlarning yotoqxonalariga ham kirib borganidan dalolat beradi. Sen menga hammasini batartib so'zlab ber... Men, og'ayni, roman yozaman...

– Menga aytishgan edi, sen mening to'g'rimda allanarsa yozganmishsan, shu rostmi? – deb so'radi Foma qiziqsinib. Bu qadar sho'rpeshona odam nima ham yozishi mumkinligiga tushunolmay, qadrdon o'rtog'iga yana bir bor diqqat bilan nazar tashladi.

– Yozgan edim! Sen o'qimadingmi?

– Yo'q, o'qishga to'g'ri kelmadi...

– Senga nima deyishdi?

– Go‘yo, boplab so‘kkan emishsan meni. Yejov Gordeyevga tik qarab so‘radi:

– Hm.. Sen o‘zing o‘qishga qiziqmaysanmi?

Foma Yejovning yozganlarini pisand qilmay, go‘yo uni xafa qilib qo‘yadiganday, uning oldida o‘ng‘aysizlandi-da:

– O‘qiyman, albatta! – dedi uni umidvor qilib. – Agar mening to‘g‘rimda yozilgan bo‘lsa, chinakam qiziq bo‘lsa kerak, – deya qo‘shib qo‘ydi, do‘stiga samimiy kulib qarab.

Bu uchrashuv Fomada osoyishta va olijanob hissiyotlar paydo qilib, bolalik chog‘larini eslatdi va bu esdaliklar uzoq o‘tmishdan miltillab turgan kichkina oddiy chiroq singari uning xotiridan qo‘rqapisa yilt-yilt etib o‘ta boshladi.

Yejov qaynab turgan samovar keltirib qo‘yilgan stol yoniga borib, ikki stakanga achchiq choy quydi-da, Fomaga:

– Kel choy ich... gapirib ber! – dedi.

– Mening gapirishga arziydigan hech nimam yo‘q... Hayotim ma’nosiz va bo‘m-bo‘sh! Yaxshisi, sen o‘z to‘g‘ringda so‘zlab ber... Har holda, sen mendan ko‘ra ko‘proq narsa bilasan...

Yejov hamon boshi va gavdasini qimirlatishini qo‘ymay, o‘yga cho‘mdi. U o‘yga tolganda faqat yuzigina qotib qolar, lekin hamma ajinlari ko‘zining atrofiga yig‘ilardi-da, quyosh tig‘lariga o‘xshab qurshab olar, ko‘zlari esa yanada ichiga botib ketardi... U boshini siltab:

– Ha, men ko‘p narsalarni ko‘rdim, og‘ayni... – deya gap boshladi. – Va men bilishim zarur bo‘lganidan ko‘ra ko‘proq narsalarni bilaman, biroq keragidan ko‘ra ko‘proq narsani bilish ham kerak bo‘lgan narsalarni bilmaslikday, odam uchun zararlidir. O‘zimning qanday yashaganimni senga aytib beraymi? Xo‘p, urinib ko‘raman... Hech qachon, hech kimga o‘z to‘g‘rimda gapirgan emasdim... Chunki men haqimda bilishga qiziqqan odam bo‘lmadi... Dunyoda odamlarni o‘zingga qiziqtirmay yashash juda alam qiladi!..

Foma o‘rtog‘ining ham hayoti shirin emasligidan quvonib:

– Hayoting yomon bo‘lganini aftingdan va butun qiyofangdan ko‘rib turibman! – dedi.

Yejov choyni bir ho‘plashdayoq tamomlab, stakanni likopchaga tashlagandan keyin, oyoqlarini stul chetiga qo‘yib, tizzalarini

quchoqlab, iyagini tizzasiga tiradi. Bu rezinkaday abjir va kichkina odam shu ahvolda o'tirib gap boshladi:

– Men bir vaqtlar Sachkov degan studentda o'qiganman, hozir u meditsina doktori, o'zi qartaboz, o'lgudek laganbardor edi, men darsimni yaxshi tayyorlagan chog'larimda menga: «Barakalla, Kolya! Sen qobiliyatli bolasan. Biz – raznochinslar, hayotning orqa eshigidan chiqqan bechora odamlarmiz, hammadan oldin bo'lishimiz uchun tinmay o'qishimiz kerak... Rossiya aqlli va vijdonli odamlarga muhtoj, sen shunday bo'lishga tirish, ana o'shanda o'z taqdiringga o'zing ega, jamiyatga foydali odam bo'lasan. Hozir mamlakatning eng yaxshi orzu-umidlari biz raznochinslarda, biz unga nur va haqiqat olib kirishimiz kerak...» der edi. Men o'sha hayvonga ishonardim... O'sha vaqtdan buyon yigirma yil o'tdi, biz raznochinslar o'sdik, biroq na aqlimiz kirdi va na hayotga nur sochdik! Rossiya hali ham eski kasalidan, yaramas odamlarning ko'pligidan azob chekadi va biz raznochinslar ularning qatoriga kirib sonini to'ldirmoqdamiz. Mening ustozim, yana takrorlayman, xushomadgo'y, na yuzi va na zaboni bor betayin bir maxluq, faqat shahar boshlig'ining buyrug'i bilangina yuradi, men esam, jamiyat xizmatidagi bir masxarabozman. Bu shaharda mening rosa dong'im ketgan, og'ayni... Ko'chada ketayotib, orqamdan izvoshchining o'z o'rtog'iga: «Ana Yejov ketyapti! Xo'p qopog'on-da! Pashshalarga yem bo'lib yuribdi!» deganini eshitaman. Shunday! Bunga ham erishmoq kerak...

Yejovning yuzi alam bilan burushib unsiz, faqat lablari bilangina kulib qo'ydi. Foma uning so'zlariga tushunmadi va biron narsa deyish uchungina, tavakkal qilib:

– Demak, o'ylaganingga yetolmabsan-da... – dedi.

– Shunday, men kattaroq odam bo'larman, deb o'ylagandim.. Lekin bo'lardim ham!..

Felyetonchi sapchib stuldan turdi-da, xona ichida u yoqdan bu yoqqa zir yugurib, chiyillab gapirdi:

– Biroq hayot uchun o'zingni butun saqlab qolishga nihoyatda ko'p kuch kerak! Bunday kuch bor edi... Menda abjirlik ham, epchillik ham bor edi... Men ularning hammasini biron narsa o'rganish uchun sarf qildim... O'rgangan narsalarimning endi menga mutlaqo keragi yo'q. Men va menga o'xshash ko'pgina odamlar yashash

uchun biron narsa to‘playmiz, deb o‘zimizni o‘zimiz taladik... O‘ylab ko‘r, men o‘zimni foydali odam qilaman deb, o‘z qadrimni o‘zim yer bilan yakson qildim... O‘qish uchun va ochdan o‘lmaslik uchun, olti yil mobaynida allaqanday ahmoqlarni o‘qitib yurdim va har xil ota-onalarning meni tahqirlab, uyalmay-netmay menga bergan dashnomlarini yutib keldim... Non bilan choy pulini topsam ham, etik uchun pul topishga vaqtim yo‘qligidan, qarz so‘rab «jamiyati xayriya»larga yalinib murojaat qildim... Agar o‘sha ehsonchilar, odam tanasini o‘limdan saqlab qolamiz, deb uning ruhini naqadar poymol qilganlarining hisobiga yetsalar edi! Agar ular non puli, deb bergan har bir so‘mining to‘qson to‘qqiz tiyini jon oluvchi zahar ekanini bilsalar edi! Agar ular mana shu saxiyliklari bilan savob ish qilyapmiz, deb kekkayishlari ichlariga sig‘may yorilib ketsalar edi! Dunyoda xayr qiluvchidan yaramas va jirkanch odam yo‘q, uni oluvchidan ham baxtsiz odam bo‘lmasa kerak!

Yejov xuddi jinni bo‘lgan odamday, xona ichida u yoqdan bu yoqqa yugurardi, uning oyog‘i ostidagi qog‘ozlar shitirlab, yirtilib, parcha-parcha bo‘lib, har tomonga sochilib ketardi. U tishlarini g‘ijirlatar, boshini to‘lg‘ar, qo‘llarini xuddi qushning qayrilgan qanotidek havoda silkitar edi. Foma unga ajablanib, allanechuk ikkilangan g‘alati hissiyot-la qarab turardi, u ham Yejovga achinar, ham uning azoblanayotganini ko‘rib quvonar edi.

Yejovning bo‘g‘zida yog‘lanmagan oshiq-moshiqday allanarsa g‘ij-g‘ij qilar edi.

– Meni odamlarning yaxshiligi zaharladi, odam bo‘lishga intilgan har bir kambag‘alga o‘xshab, men ham ko‘pni kutib, oz bilan qanoatlanganim tufayli halok bo‘ldim... O! Sen bilasanmi? Odamlar sil kasalidan ko‘ra ham o‘zlarining qadriga yetmaganidan ko‘proq halok bo‘ladilar, shuning uchun ham, ehtimol, ommaning yo‘lboshchilari daha nazoratchisi bo‘lib ishlayotgan bo‘lsa ham ajab emas!

– Padariga la’nat, o‘sha nazoratchilarning, – dedi Foma qo‘l siltab. – O‘z to‘g‘ringda gapir...

Yejov uyning o‘rtasida to‘xtab:

– O‘z to‘g‘rimda! Bo‘lgan-turganim shu! – deb qo‘li bilan ko‘kragiga urdi. – Qo‘limdan kelgan hamma ishni qilib bo‘ldim...

Nihoyat, odamlarni kuldiradigan masxaraboz darajasiga yetdim, endi qo'limdan boshqa hech narsa kelmaydi!

– Shoshmasang-chi! – dedi Foma jonlanib. – Sen menga ayt-chi, tinch yashash uchun, ya'ni o'zingdan mamnun bo'lish uchun nima qilmoq kerak?

– Buning uchun notinch yashamoq kerak, hatto o'zingdan mamnun bo'lish imkoniyatidan xuddi yuqumli kasaldan qochganday qochmoq kerak!

Bu so'zlar Fomaga bekorchi gap singari eshitilib, yuragida hech qanday his uyg'otmadi, miyasida ham bironta fikr tug'dirmadi.

– Doim o'zing erisholmaydigan biron narsaning ishqida yashamoq kerak... Odam yuqori intilgan sari bo'yi cho'ziladi...

Yejov endi o'zi haqida gapirishdan to'xtab, boshqacha ohangda muloyimroq so'zlay boshladi. Uning ovozi qat'iy va ishonch bilan chiqardi, yuzi esa jiddiy tus oldi. U uyning o'rtasida turarkan, qo'lini yuqori ko'tarib, barmog'ini bigiz qilib, xuddi o'qiyotganday gapira boshladi.

– O'ziga bino qo'ygan odam, jamiyat ko'ksida qotib qolgan bir shishga o'xshaydi... U o'zining kallasini ikki pulga arzimaydigan haqiqat bilan g'ajib tashlangan sassiq hikmatlarning sarqitlari bilan to'ldirib oladi-da, mumsik xotinning o'ziga mutlaqo keraksiz va hech narsaga arzimaydigan turli-tuman qaqir-ququrlarni yig'ib qo'ygan omboriga o'xshab yashayveradi... Bunday odamga taqilib, eshigini ochib qo'ysang, dimog'ingga allaqanday chirigan hid uriladi va nafas olayotgan havongga allaqanday badbo'y hid kelib qo'shiladi... Qizig'i shundaki, bu baxtsizlarni tag'in, ruhan tetik, mustahkam prinsipli, e'tiqodli odamlar, deb hisoblaydilar... Lekin e'tiqod ular uchun faqat qashshoq ruhlarining aybini bekitadigan bir ishton ekanini hech kimning tushungisi kelmaydi... Bunday odamlarning tor peshanalarida doim hammaga ma'lum bo'lgan «osoyishtalik va mo'tadillik» degan so'zlar yaltirab turadi – soxta so'zlar! Ularning peshanalarini qattiq qo'llaring bilan artib tashlasang, haqiqiy yozuvni ko'rasan, unda: «haftafahm va berahm» deb yozilgan bo'ladi.

Yejov g'azab va dahshat bilan qichqirdi:

– Bunday odamlarning qanchadan qanchasini ko'rdim! Hamma yoqni lattafurushlar bosib ketgan! Ularda kafanlik uchun kolenkor

ham, qora moy ham, novvot ham, suvarak o'ldiradigan dori ham topiladi, lekin bironta yangi, jo'shqin, sog'lom narsa topolmaysan! Sen ularning yoniga yolg'izlikdan horib, yuragingdagi dardingga malham bo'larli bironta iliq so'z izlab kelasan... Biroq ular senga allaqanday ilimiq saqichga o'xshagan, o'zlari chaynayverib iyig'ini chiqargan va eskirib achib-bijib ketgan kitobiy fikrlarni tavsiya qiladilar... Bu quruq va dag'al fikrlar har doim shu qadar ma'nosiz bo'ladiki, bularni tushuntirish uchun juda ko'p balandparvoz va bekorchi so'zlar kerak! Mana shunday odam gapirayotganda, o'zi to'q, qo'ng'iroqlar taqilgan aravada shahardan ortib ketayotgan va o'z taqdiridan mamnun bo'lgan sho'rlik qirchang'i ko'z oldimga keladi...

– Demak, ular ham ortiqcha odamlar ekan-da... – dedi Foma.

Yejov uning ro'parasida to'xtab, lablarida zaharxanda bilan dedi:

– Yo'q, ular ortiqcha emas, yo'q! Ular, men o'shalarday bo'lmasligim uchun, bir namuna sifatida yashaydilar. Ochig'ini aytganda, ularning joyi har xil dardga chalingan nogironlar, turli-tuman mayiblar saqlanadigan anatomiya muzeylarida bo'lishi kerak... Hayotda, og'ayni, hech bir narsa ortiqcha emas... Hayotda hatto, men ham kerakliman! Faqat ko'ksida jonsiz yurak o'rnida fasod bog'langan manmanlikning kattakon shishi bo'lgan odamlargina ortiqchadirlar... Lekin o'z nafratimni shularga yog'dirib turishim uchun hatto ular ham kerak...

Yejov kuni bo'yi, to kechgacha tutaqib, o'zi yomon ko'rgan odamlarni rosa koyidi va undan qaynab chiqayotgan zaharli so'zlar Fomaga ham yuqdi va unda ham jangovar hissiyot uyg'otdi. Lekin goho u Yejovga ishonmasdi, nihoyat, bir marta undan:

– Xo'sh... sen shu so'zlaringni odamlarning yuziga ayta olasanmi? – deya dangal so'radi.

– Har bir qulay payt kelganda... Va har yakshanba kuni gazetada... O'qib beraymi, xohlaysanmi?

U Fomaning javobini ham kutmay, devordan bir nechta gazetani yulib oldi-da, xona ichida yugurib o'qiy boshladi. U irillar, g'ingshir, kular, tishlarini irjaytirar va zanjirini uzishga intilgan qopog'on itga o'xshab talpinar edi. Foma o'rtog'ining asarlaridagi ma'noni tushunolmadi, lekin undagi o'ta dadillikni, achchiq kulgini, olovdek

g‘azabni payqadi va hammomda issiq supurgi bilan savalangandek rohat qildi.

U biron jumlani payqab qolib:

– Joyida! Boplabsan! – deb qichqirib qo‘yardi. Unda goh tanish savdogarlarning, goh shahardagi mo‘tabar kishilarning nomlari chiqib qolar, Yejov ularni goh dadil va qattiq masxara qilar, goh hurmat bilan, nozik so‘zlar bilan, igna sanchganday sanchib olar edi.

Fomaning ma’qullashi va azbaroyi rohatlanganidan chaqnab, yonib turgan ko‘zlari Yejovni yana ham ilhomlantirib yubordi. U goh horigandan divanga o‘zini tashlab, goh yana o‘rnidan turib, chopib Fomaning oldiga kelib, borgan sari qattiqroq ovoz bilan irillar edi.

– Qani, mening to‘g‘rimda yozganingni o‘qi-chi? – deb qichqirdi Foma.

Yejov bir to‘da gazetalar orasidan bir sahifani sug‘urib oldi-da, uni ikki qo‘li bilan ushlab, oyoqlarini kerib, Fomaning ro‘parasida turdi, Foma esa, o‘rtasi cho‘kib ketgan oromkursida taltayib kulimsirab quloq solib o‘tirdi.

Foma to‘g‘risidagi maqola soldagi kayf-safoni tasvirlash bilan boshlangan edi. Yejov uni o‘qiganda, Foma maqolaning ba’zi bir so‘zlari pashshadek chaqib olayotganini payqadi. Uning yuzi jiddiylashdi, boshini bir yoqqa egib, xo‘mrayib, indamay qoldi. Pashshalar borgan sari ko‘paymoqda edi.

Foma, xijolat tortib, xafa bo‘lib:

– Juda haddingdan oshib ketibsan! Axir odamni masxara qilishni bilish bilangina xudoga yaxshi ko‘rinib bo‘lmaydi-ku... – dedi.

Yejov unga qisqa qilib:

– Jim tur! Shoshma! – dedi-da, o‘qishini davom ettirdi.

Yejov o‘z maqolasida, savdogar xalqining har xil janjallar va yaramas ishlar ijod etishda boshqa tabaqadagi odamlarga qaraganda oshib tushganligini isbotlab berganidan keyin: «Nima uchun shunday?» deb so‘raydi-da, bunga o‘zi javob beradi:

«Menimcha, bu vahshiyona qiliqlar bir tomondan, madaniyat yetishmaganligidan kelib chiqsa, ikkinchi tomondan, buning asosiy sababi kuchning ko‘pligida, bekorchilikda. Bizning savdogar ahlining ko‘pchiligi, ba’zi bir mustasnoga ko‘ra – salomatlik jihatidan

eng baquvvat va ayni zamonda eng kam mehnat qiladigan tabaqa ekanligiga shubha bo'lishi mumkin emas...»

Foma mushti bilan stolga urib:

– Rost gap bu! – deya qichqirdi. – Shunday! Mening ho'kizdek kuchim bor, ishim esa chumchuqnikidek...

«Savdogar o'z kuchini qayerga qo'ysin? Barjada uncha ko'p sarf bo'lmaydi, shuning uchun ham u kuchini boshqa yerga, hayot uchun foydaliroq yerga sarf qilishning nimaligini tushunmay, muskul kapitalining ortiqchasini mayxonalarda kayf-u safoga sarf qiladi. U hali yirtqich, hayot esa uning uchun bir qafas bo'lib qolgan. U sog'lom bo'lgani hamda erkin quloch otib o'rganib qolgani uchun bu qafas unga torlik qiladi... U madaniyat jihatidan qisilgan bo'lib, ba'zan beboshlik qilib quturadi. Savdogarning urish-janjali, tor qafasga qamalgan yirtqichning isyoniga o'xshaydi. Shubhasiz, bu yaxshi emas... lekin, eh, agar bu yirtqich o'z kuchining yoniga yana biroz aql to'plab, uni intizomga o'rgatsa, bundan ham battarroq bo'ladi! Ishoninglar, o'shanda ham janjal-to'polonni tashlamaydi, biroq endi bu janjallar tarixiy hodisaga aylanadi! Xudoyo, bunday voqealardan bizni o'zing saqla! Chunki bunday voqealar aslida savdogarlarning hokimiyatga intilishlaridan kelib chiqadi, ularning maqsadi birgina tabaqaning hukmronligini o'rnatishdir va bu maqsad yo'lida savdogar hech narsadan toymaydi...»

Yejov gazetani o'qib bo'lib, uni bir chetga uloqtirib tashlagach:

– Xo'sh, nima deysan, to'g'rimi? – deb so'radi.

– Men oxirini tushunolmadim... – deya javob qildi Foma. – Ammo kuch masalasi juda to'g'ri!

Foma Yejovga o'zining dili alg'ov-dalg'ov bo'lganini, hayot va odamlar to'g'risidagi doimiy fikrlarini zo'r hayajon bilan shoshib-pishib to'kib soldi-da, o'zini divanga chalqancha tashlab, jim bo'lib qoldi.

– Shun-day! – dedi Yejov cho'zib. – Sen ham yetar yeringga yetibsan!.. Bu, og'ayni, yaxshi ish! Xo'sh, sen kitob o'qishga qalaysan? Biron kitob o'qiysanmi?

– Yo'q, yoqtirmayman! O'qiganmasman...

– O'qimaganing uchun ham yoqtirmaysan-da...

– Mening hatto o'qishga ham yuragim bormaydi, qo'rqaman... Bitta kitobxon qizni ko'rganman... kashandadan ham battar edi... Kitobdan nima foyda? Bir odam allanàrsalarni o'ylab chiqaradi, boshqalar esa o'qiydi... Agar qiziq bo'lsa, koshkidi-ya... Lekin yashashni o'rganaman, deb kitob o'qish bo'lmagan gap!.. Axir uni xudo emas, odam yozgan-ku, odam qandoq qilib o'ziga o'zi qonun va tartib yarata olsin?

– Injil-chi? Uni ham odamlar yozgan-ku.

– Ular sahobalar... Endi ular qolmagan...

– Yaxshi, to'g'ri e'tiroz qilding! Rost, og'ayni, dunyoda sahobalar qolmagan... Faqat Iudalar qolgan, lekin ular ham eng yaramaslari.

Foma har bir so'zini Yejov go'yo taroziga solib o'lchayotgandek zo'r diqqat bilan tinglab o'tirganini ko'rib, nihoyatda ko'ngli ko'tarildi. U o'ziga nisbatan bunday munosabatni umrida birinchi marta ko'rgani uchun, o'rtog'i oldida o'z o'ylarini sira tortinmay, dadil to'kib tashladi, bularni aytish uchun so'z qidirib o'tirmadi ham, chunki Yejov uni tushunishi mumkinligini va tushunishga intilayotganini sezdi.

Shu uchrashuvdan bir-ikki kundan keyin Yejov unga:

– Lekin qiziq yigit ekansan! – dedi. – Og'ir gapirsang ham yuraging dadilligi bilinib turibdi! Hech bo'lmaganda hayot tartibini salgina bilganingda edi! Ana o'shanda... ovozing boricha... baqirib gapirarding, deb o'ylayman... Shunday! – dedi.

– So'z bilan o'zingni ozod qilolmaysan-da! – dedi Foma xo'rsinib. – Sen bir vaqt menga o'zlarini bilimdon va hamma ish qo'llaridan keladigan qilib ko'rsatadigan odamlar haqida gapirib bergan eding... Men ham ana shunday odamlarni bilaman... Masalan, mening otaxonim... Mana shularga qarshi chiqish lozim... ana shularni fosh qilish kerak... Juda zararli odamlar!..

Yejov o'ylanib turib:

– Yuragingda bunchalik darding bor ekan, Foma, bundan keyin qanday qilib yashashingga aqlim yetmay qoldi, – deb qo'ydi.

Hayotdan kuygan bu kichkina odam ham ichardi. Uning kuni shunday boshlanardi. U ertalab choy mahalida mahalliy gazetalarni qarab chiqib, ulardan felyeton uchun material topardi-da, o'sha ondayoq, stolning bir chetiga o'tirib darrov yozib tashlardi. Shun-

dan keyin redaksiyaga chopib borardi, u yerda, boshqa shaharlarda chiqadigan gazetalardan kesib olib, shu parchalardan «Provinsiya manzaralari» kolonkasini tuzardi. Juma kuni u gazetaning yakshanba kungi soniga felyeton yozishi kerak. Bularning hammasi uchun oyiga yuz so'm to'laydilar. U juda tez ishlar va shulardan qolgan vaqtini «g'aribxonalarni o'rganish va ularni yoritishga» bag'ishlar edi. U Foma bilan yarim kechagacha klublarda, mehmonxonalarda, mayxonalarda yurib, hamma yerda ham yozish uchun material to'plar va yozgan narsalarini «jamiyat vijdonini tozalovchi shchetka» deb atar edi. Senzorni u «hayotga haqiqat va adolat tarqatuvchi mudir» deb, gazetani esa «gazetxonlarni zararli ideyalar bilan tanishtiruvchi qo'shmachi xotin» deb, o'zining gazetadagi ishini esa «yurakni chakanalab sotish» va «muqaddas muassasalarga qarshi shakkoklik qilish» deb atar edi.

Foma Yejovning hazilini ham, chin gapirganini ham yaxshi tushunmas edi. Yejov astoydil kuyib-pishib, hamma narsa to'g'risida qattiq qoralab gapirar edi, bu esa Fomaga yoqardi. Lekin Yejov gapni jon-jahdi bilan qizishib boshlardi-yu, biroq xuddi ana shunday qizg'inlik bilan o'zini o'zi rad etar yoki gapini allaqanday kulgili qilib tugatar edi. Ana shunday kezlari Fomaga, bu odamning dunyoda yaxshi ko'rgan hech narsasi, uning yuragiga mahkam o'rnashib olgan va uni idora qiluvchi hech narsasi yo'qday tuyular edi. Faqat o'z to'g'risidagina g'alati bir ovoz bilan nechog'liq qizishib so'zlasa, hammani va hamma narsani shu qadar ayamay so'kar edi. Fomaga nisbatan uning munosabati ikki xil edi, goho kuyib-pishib, uni ma'qullab:

– Kuching yetgan hamma narsani rad qil va ag'darib tashla! Shuni bir bilki, dunyoda odamdan aziz hech narsa yo'q! Jon-jahding bilan: «Ozodlik! Ozodlik!..» deb qichqir, – der edi.

Foma uning so'zlaridagi otashin uchqundan o't olib, o'z foydasini ko'zlab hayotni kengaytirishni istamagan odamlarni qandoq qilib daf qilish va uloqtirib tashlash kerakligini o'ylay boshlagan kezlarida Yejov ko'pincha uning so'zlarini bo'lib:

– Qo'y! Qo'lingdan hech narsa kelmaydi! Senga o'xshaganlar, kerakmas. Sizning davringiz – zo'ravonlar, aqlsizlar davri o'tib ket-

gan, og'ayni! Sen kechikib qolding... Senga hayotda o'rin yo'q... – derdi.

Foma uning bir-biriga zid so'zlariga jahli chiqib:

– O'rin yo'q? Yolg'on aytasan! – deb qichqirardi.

– Xo'sh, bo'lmasa qo'lingdan nima keladi?

– Seni o'ldirish keladi! – derdi Foma g'azab bilan mushtini qisib.

Yejov yelkalarini qisib, afsus va nadomat bilan:

– Obbo, tasqara qo'riqchi-ey! Shu ham ish bo'ldimi? Busiz ham men o'lgudek mayiblanganman, – deb javob qilardi.

Shu on birdan qayg'uli g'azab bilan tutoqib, titrab-qaqshab turib so'zlardi:

– Mening peshanam sho'r ekan! Nega men o'n ikki yil xuddi bir mashinadek ishladim? O'qish uchun... nega men o'n ikki yil dam olmay, gimnaziya va universitetda, menga keragi bo'lmagan, quruq, diqqinafas va bir-biriga zid bekorchi narsalarni kavshadim? Felyetonchi bo'lish uchunmi, xaloyiqning ko'nglini ko'tarib, bu narsa xaloyiqqa kerak, foydali deb o'zimni o'zim kun sayin ishontirish uchunmi, masxarabozlik qilish uchunmi?.. Men yuragimdagi o'qimning barini, har bir otishimga uch tiyindan olib bo'shatdim... Xo'sh, o'zim qanday e'tiqod orttirdim? Bu dunyoda hamma narsa uch pulga arzimaydi, hammasini buzish, yemirish kerak, degan fikrga keldim... Men nimani sevaman? O'zimni... biroq sevgan narsam muhabbatimga noloyiq ekanini o'zim bilaman.

U yig'lamsirab, ingichka, nozik qo'llari bilan nima uchundir tinmay ko'kragi va bo'ynini tirnardi.

Goho ruhi tetiklanib, butunlay boshqacha ohangda so'zlardi:

– Yo'q, men hali ashulamni aytib bo'lganim yo'q! Yuragimda dardim ko'p, men hali qamichdek bir ovoz chiqaraman! Mana qarab tur, men gazetani tashlab, chinakam ish qilaman va bir kitobcha yozaman... Men unga «Jon taslim», deb nom qo'yaman, jon berayotgan odam tepasida o'qiladigan shunday bir duo bor. Qarg'ish tegib ichidan lat yegan mana shu la'nati jamiyat o'z o'limi oldidan mening kitobimni bir mushk-anbar kabi qabul qiladi.

Foma Yejovga nazar solib va uning so'zlarini taqqoslab ko'rarkan, uni ham o'ziga o'xshash zaif va adashgan bir kishi ekani-

ni bildi. Biroq Yejovning so'zlari Fomaning tilini boyitardi; ba'zan Foma biron fikrni boplab bayon qilganini payqab qolardi-da, nihoyatda quvonib ketardi.

U Yejovnikida bir necha marta allaqanday g'alati odamlarni uchratdi. Fomaga ular hamma narsani biladigan, hamma narsani tushunadigan, hamma narsaga qarshi chiqa oladigan va hamma narsada aldash va soxtalik borligini ko'radigan kishilardek tuyulardi. U jimgina tikilib, ularning gapiga quloq solib o'tirardi. Fomaga ularning dadilligi yoqar, biroq unga nisbatan o'zlarini allanechuk mag'rur tutishlari Fomani qisib qo'yar va ko'nglini sovitar edi. Bundan tashqari, yana bir narsa – Yejovning uyida to'planadigan odamlar ko'chada va mehmonxonalarda uchraydigan odamlarga qaraganda ancha aqlliroq va yaxshiroq ekanligi unga yaqqol ko'rinib turardi. Ularning uyda gaplashadigan maxsus so'zlari, boshqacharoq qiliqlari bor edi, biroq uydan tashqarida esa, hammasi o'zgarib oddiy til bilan so'zlashga o'tib olishardi. Goho ular uyda xuddi kattakon gulxanga o'xshab tutaqib ketishar, Yejov esa, lovullab yonayotgan tarashaga o'xshardi, ammo bu gulxan shu'lasi Foma Gordeyevning dilidagi qorong'ilikni unchalik yorita olmas edi.

Bir kuni Yejov unga shunday dedi:

– Bugun aysh qilamiz! Bizning naborchilarimiz artel tuzishdi va noshirdan hamma yumushni ishbay usulida qilishyapti... Bugun shuning ziyofati bo'ladi, men ham taklif etilganman... buni men maslahat bergandim... Boramizmi? Ularni boplab bir ziyofat qilasan...

– Mayli... – dedi Foma. Yuragi siqilganidan vaqtini kim bilan o'tkazish uning uchun baribir edi.

O'sha kuni kechqurun Foma bilan Yejov shahardan tashqarida, o'rmon chetida rangpar odamlar bilan ulfatchilik qilishdi. Naborchilar o'n ikki kishi edi, tuzukkina kiyingan bu odamlar o'zlarini Yejov bilan do'stona va sodda tutishardi, bu esa Fomani biroz ajablantirdi va o'ng'aysizlantirib qo'ydi, chunki u, Yejov bu odamlarning xo'jayini yoki kattasi, ular esa, uning xizmatkorlari, deb yurardi. Yejov Fomani ular bilan tanishtirganda hammasi ham Foma bilan qo'l siqib ko'rishib, u bilan tanishganlari uchun xursand bo'lganlarini izhor qilishsa ham, go'yo Gordeyevga uncha e'tibor bermagandek tuyuldi... Foma chetroqqa chiqib, bir tup yong'oq tagiga borib yot-

di. Bu ulfatlar orasida o'zini yot his qildi, go'yo Yejov ham undan ataylab o'zini olib qochganday va unga parvo qilmaganday tuyuldi. Foma ularning hammasini kuzatib yotdi. U kichkina felyetonchining naborchilarga jo'rttaga taqlid qilib, ular bilan birga gulxan yonida ivirsib yurganini, pivo shishalarini ochganini, so'kinganini, xaxolab kulganini, ularga o'xshamoq uchun qo'lidan kelgan hamma narsani qilishga urinayotganini ko'rdi. Yejov boshqa vaqtdagiga qaraganda, soddaroq kiyingan edi.

– Eh, og'aynilar! – deya qichqirdi Yejov mardonavor ohangda. – Sizlar bilan bo'lish biram yaxshiki! Men ham kazo-kazolardan emasman... Kimsan sud qorovuli, unter-ofitser Matvey Yejovning o'g'li bo'laman.

«Nega u bunday deydi? – deb o'yladi Foma, – kim kimning o'g'li bo'lsa nima qipti... Otaga qarab emas, aqliga qarab hurmat qiladilar-ku...»

Quyosh botmoqda, ko'kda ham kattakon gulxan yonib, bulutlarni qon tusiga bo'yamoqda edi. O'rmon ichi jimjit, rutubat hidi kelar, odamlar qorasi o'rmon yoqasida ivirsib yurar edi. Keng poxol shlapa kiygan, past bo'yli, ozg'in bir kishi garmon chalar, kartuzini orqaroq surib kiygan qora mo'ylovli ishchi unga jo'r bo'lib, xirgoyi qilar edi. Yana ikkitasi kuch sinashib, tayoq tortishardi. Bir necha kishi oziq-ovqat va pivo solingan savatlar yonida o'ralashardi. Soqolining yarmi oqargan novcha bir odam, quyuq va oqish tutun chulg'ab olgan gulxanga shox-shabba tashlab o'tirardi. Ho'l shoxlar olovga tushishi bilan vishillab, chirsillab yonardi, garmon esa avjiga minib, sho'x kuyni chalar, ashulachining ingichka ovozi garmonchiga g'ayrat bag'ishlab, dalda berar edi.

Hammadan bir chetda, toshqin suvlar yuvib ketgan jar yoqasida uch yigit yotardi. Yejov ularning oldida turib, jaranglagan ovoz bilan gap sotardi:

– Sizlar muqaddas mehnat bayrog'ini ko'tarib borasizlar... Men ham sizlarga o'xshash, o'sha armiyaning oddiy soldatiman, biz hammamiz ham matbuot janob oliylariga xizmat qilamiz, shuning uchun ham biz qattiq va mustahkam do'st bo'lib yashashimiz lozim...

Foma o'rtog'ining so'zlariga quloq solmay qo'ydi, chunki uning diqqatini boshqa gap tortgan edi. Ikki odam o'zaro gaplashib

o‘tirardi, ulardan biri novcha, sil bashara, yomon kiyingan bo‘lib, o‘qrayib qarar, ikkinchisi esa yoshgina, sariq sochli, cho‘qqi soqol bir yigit edi.

Novchasi xo‘mrayib, yo‘tala-yo‘tala gapirardi:

– Menimcha, ahmoqlik bu! Bizga o‘xshagan odamlar uylansa bo‘ladimi? Bola ko‘rasan, ularni qandoq qilib boqasan? Xotinni kiyintirish kerak... Bundan tashqari, qanaqasi uchraydi hali...

Sariq sochli yigit sekingina:

– O‘zi juda yaxshi qiz... – deb qo‘ydi.

– Albatta, hozir yaxshi... Qalliqligida shunaqa bo‘ladi, olganingdan keyin ko‘rasan... Gap bunda emas... Lekin mablag‘ing yetmaydi-da... Ishlayverib tamom bo‘lasan, uni ham xarob qilasan... Biz uchun uylanish mutlaqo mumkin bo‘lmagan narsa... Axir biz shu oylik bilan oila boqa olamizmi? Mana, ko‘rib turibsan – uylanganning bittasi men... Uylanganimga to‘rt yil bo‘ldi... Hademay tamom bo‘laman!

U yo‘tala boshladi, uzoq yo‘taldi, yo‘taldan to‘xtagandan keyin nafasi bo‘g‘ilib o‘rtog‘iga:

– Qo‘ysang-chi... hech narsa chiqmaydi... – dedi.

O‘rtog‘i esa boshini g‘amgin egdi, Foma esa:

«O‘rinli gap qilyapti...» deb qo‘ydi ichida.

Ularning parvo qilmaganliklari Fomani biroz xafa qilar va ayni zamonda, mana shu yuzlari qoraygan, qo‘rg‘oshin changi o‘tirib qolgan odamlarga nisbatan unda hurmat tuyg‘usi uyg‘otar edi. Ularning hammasi ham jiddiy gaplashardi, gaplarida allaqanday ajoyib so‘zlar yalt etib ketardi. Ularning hech qaysisi Fomaga laganbardorlik qilmas, mayxonalardagi tanishlariga, birga kayfi safo qilgan o‘rtoqlariga o‘xshab shilqimlik ham qilmas edi. Bu esa Fomaga yoqar edi...

«Bularni qara-ya... – deb o‘yladi u ichida kulib, – o‘zlariga yarasha g‘ururlari bor...»

Allakimning ta’na qilib:

– Siz Nikolay Matveich, kitobga qarab xulosa qilmang, aksincha, jonli hayotga qarab hukm chiqaring... – degan ovozi eshitildi.

– Sabr qilinglar, do‘stlarim! Og‘a-inilaringizning tajribasi sizlarni nimaga o‘rgatadi?..

yuzlariga ko‘z yugurtirib chiqqach, ular ham xuddi notiqqa savol berayotganday, hayron bo‘lib qarab turganlarini ko‘rdi.

– Kelajak sizlarniki, do‘stlarim! – dedi Yejov bo‘shashib va go‘yo kelajak to‘g‘risida qayg‘urgandek va kelajak ustidan hukmronlik qilish huquqini o‘z ixtiyoriga qarshi mana shu odamlarga berib qo‘ygani uchun achingandek g‘amgin bosh chayqab qo‘ydi.

– Kelajak halol mehnat qiluvchilarniki... Sizlarning oldingizda buyuk ishlar turibdi! Sizlar yangi madaniyat yaratishingiz kerak... Men, jon-u tanim bilan sizlarnikiman, soldat o‘g‘liman, kelajagingiz uchun ichishni taklif etaman! Ur-ra-a!

Yejov o‘z stakanini ichdi-da, gurs etib yerga o‘tirdi. Naborchilar uning bo‘g‘ilgan ovoziga qo‘shilishdi, havoda daraxt yaproqlarini titratib kuchli hayqiriq yangradi.

Semiz yigit:

– Endi qo‘shiq aytaylik! – deb yana taklif qildi.

– Bo‘pti, – deb bir-ikki odam uning taklifini quvvatladi. Nimani aytish to‘g‘risida bahslashib qolishdi. Yejov shov-shuvga quloq solib, boshini u yoq-bu yoqqa aylantirib, hammani kuzatib chiqdi.

– Og‘aynilar! – deya birdan yana baqirdi u. – Menga javob beringlar... Mening tabrigimga bir-ikki so‘z bilan javob beringlar...

Yana birin-ketin hamma jimib qoldi, ba’zilari unga qiziqsinib, ba’zilari kulgilarini yashirib, ba’zilari esa ochiqdan ochiq norozi bo‘lib qarab qo‘yishdi. U esa yana o‘rnidan turdi-da, hayajon bilan:

– Biz bu yerda... hayot tomonidan chetga surilgan odamlardan ikkitamiz – men va bu... Biz ikkovimiz ham... bir narsani... odamga e’tibor berilishini istaymiz... Odamlarga kerak bo‘lishni istaymiz... O‘rtoqlar! Manavi kap-katta va ahmoq odam ham...

Allakimning yo‘g‘on va norozi ovozi eshitildi:

– Siz, Nikolay Matveich, mehmonni ranjitmang! – dedi.

– Ha, bu endi ortiqcha! – deb tasdiqladi Fomani gulxanga taklif etgan semiz yigit. – Xafa qiladigan gapning nima keragi bor?

Uchinchi ovoz aniq qilib, qattiq dedi:

– Biz xursandchilik qilish... dam olish uchun yig‘ildik...

Yejov zaifgina kuldi:

– Tentaklar! Ko‘ngli ochiq tentaklar!.. Bunga achinyapsizlarmi? Xo‘sh, buning kimligini bilasizlarmi? Bu sizlarning qoningizni so‘ruvchilardan biri...

– Bas, Nikolay Matveich! – deb qichqirishdi Yejovga. Unga endi e'tibor qilmay, hamma shov-shuv ko'tardi. Foma o'rtog'iga shu qadar achindiki, hatto undan xafa ham bo'lmadi. U o'zini Yejovning hujumlaridan himoya qilayotgan bu odamlarning endi felyetonchiga ataylab e'tibor bermayotganlarini ko'rdi va buni Yejov payqab qolsa, unga alam qilishini tushundi. U yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizlikdan o'rtog'ining diqqatini chalg'itish uchun uning biqiniga turtib, muloyim kulib turib:

– Xo'sh, so'kag'on, ichamizmi, a? Yo uyga ketamizmi? – dedi.

– Uyga? Odamlar orasida o'rni bo'lmagan odamda uy nima qilsin? – deb so'radi Yejov yana baqirdi: – O'rtoqlar!

Uning ovozi olag'ovur ichida javobsiz g'oyib bo'ldi. Shundan keyin u boshini xam qilib, Fomaga:

– Ketaylik bu yerdan! – dedi.

– Xo'p, ketaylik... Men yana biroz o'tirardim... qiziq... O'zlarini yaxshi tutishadi, olijanob odamlar ekan, xudo haqqi!

– Men ortiq o'tirolmayman, sovqotdim...

Foma o'rnidan turdi, kartuzini olib, naborchilarga bosh egib, xushchaqchaq baqirib dedi:

– Ziyofatingiz uchun rahmat, janoblar! Xayr! Uni shu ondayoq qurshab olishdi, har tomondan:

– Shoshmang hali! Qayoqqa borasiz? Birga ashula aytardik, a?

– Yo'q, ketish kerak... O'rtog'imning bir o'zini ketkizib bo'lmaydi... Kuzatib qo'yaman... ziyofatni xursandchilik bilan o'tkazinglar!

– Eh, biroz shoshmasangiz bo'lardi! – dedi semiz yigit va sekingina shipshib qo'ydi: – Uning o'zini kuzatib qo'ysak ham bo'ladi...

Sil bashara odam ham ohista:

– Siz qoling... Biz uni o'zimiz shahargacha kuzatib qo'yamizda, u yerdan izvoshga o'tqazib yuboramiz, tamom! – dedi.

Fomaning qolgisi bor edi-yu, biroq shu bilan birga, allanimadan qo'rqardi. Yejov esa o'rnidan turib, uning paltosining yengiga yopishib:

– Ket-dik... jin ursin ularni! – deb g'udranardi. Foma:

– Xayr, janoblar! Boray! – dedi-da, ulardan uzoqlashdi, ular esa nazokat bilan, uning ketganiga achinayotganlarini bildirib qolishdi.

Yejov gulxan yonidan yigirma qadamcha nari ketgach:

– Xa-xa-xa! – deb kulib yubordi. – Ketganimizga xuddi xafa bo'lishgandek kuzatib qolishdi, ammo mening ketganimga hammasi xursand... Men ularning hayvonga aylanishlariga xalaqit berayotgan edim...

– To'g'ri, xalaqit berayotgan eding... – dedi Foma. – Bekordan bekor nega nutq so'zlaysan? Odamlar o'zlarini xursand qilish uchun yig'ilgan, sen bo'lsa hadeb tilanasan... Ularni diqqat qilasan...

Yejov jerkib tashladi.

– Jim bo'l! Sen hech narsaga tushunmaysan! Sen meni mast deb o'ylayapsanmi? Tanim mast, xolos, ruhim hushyor... u doim hushyor va hamma narsani sezib turadi... O, dunyoda qabihlik, farosatsizlik, bechoralik naqadar ko'p! Bu odamlar ham ahmoq va baxtsizdirlar...

Yejov to'xtadi, boshini qo'llari bilan ushlagan holda chayqalib, bir daqiqacha turdi.

– Shun-day! – dedi Foma cho'zib. – Ular boshqa odamlarga sira o'xshamaydilar... Odobli... olijanob... mulohazalari ham to'g'ri... Gaplarida ma'no bor. O'zlari esa oddiy ishchilar!..

Ularning orqasida, qorong'ida, hammalari qo'shiq ayta boshladilar. Dastlab palapartish eshitilgan bu qo'shiq, borgan sari kuchayib, bo'm-bo'sh dala ustidagi tungi toza havoda to'lqinlanib keng quloch otdi.

– E, tavba! – dedi Yejov g'amgin xo'rsinib, sekingina. – Ko'nglim istagan narsani qayerdan topaman? Uning do'stlikka, birodarlikka, muhabbatga, toza va muqaddas ishga bo'lgan tashnaligini kim qondiradi?..

Foma o'z o'ylariga cho'mib, o'rtog'ining so'zlariga quloq solmay, ohistagina dedi:

– Bu oddiy odamlar, agar sinchiklab qarasang, chakki odamlar emas! Hattoki... diqqatga sazovor... mujiklar... ishchilar... ularga shunday qaralsa, ular xuddi otga o'xshaydi... Harsillab bo'lsa ham tortaverishadi...

– Ular bizning butun hayotimizni o'z yelkalarida ko'tarib yurishadi! – dedi Yejov zarda bilan. – Xuddi otga o'xshab... Jimgina... Bizning baxtsizligimizga, sho'rliligimizga shularning itoatkorligi sabab...

U gandiraklab anchagacha indamay bordi va qo'qqisdan, xuddi qornidan chiqayotganday, allaqanday bo'g'iq ovoz bilan entikib, qo'llarini to'lg'ab o'qiy boshladi:

Men hayotdan qattiq aldandim,
Ne-ne balolar kechdi boshimdan...

– Bu, og'ayni, o'zimning she'rim, – dedi u to'xtab va ma'yus bosh chayqab. – U yog'i nimaydi? Esimdan chiqibdi... Eh-ha!

Ko'ksimda hech qachon alanga olmas,
Unga ko'mib qo'yilgan zo'r umidlarim...

– Og'ayni! Sen menga qaraganda baxtlisan, chunki ahmoqsan...
Fomaning jahli chiqib:
– Ko'p g'ingshima! Sen ularning qo'shig'iga quloq sol... – dedi.
Yejov, yo'q degandek, bosh chayqab:
– Birovlarning qo'shig'ini eshitgim kelmaydi. Mening o'z qo'shig'im bor... – dedi-da, yovvoyi ovoz bilan davom ettirdi:

Ko'nglimda hech qachon alanga olmas,
Unda ko'milgan zo'r umidlarim...
Ular juda ko'p un-da!

Yejov xuddi xotin kishiday, hiqillab yig'lab yubordi. Foma unga ham achinar, ham undan xunob bo'lar edi... Chidolmay uning yelkasidan turtib:
– Bo'ldi! Ketdik... Eh, og'ayni, rosa zaif ekansan-ku... – dedi.
Yejov boshini qo'llari bilan changallab, bukchaygan gavdasini rostladi-da, zo'r berib, yana mungli, yovvoyi ovoz bilan kuylab yubordi:

Ular juda ko'p un-da,
U yerda dahma ular uchun tor! —
Ularga qofiyani qildim men kafan!
Ular uchun men juda ko'p
G'amli hasrat qo'shiqlarini kuyladim!

– E xudoyim! – deb qo‘ydi Foma ma’yusgina. Olisdan, qorong‘ilik va jimlik qo‘ynidan, baravariga aytilayotgan qo‘shiq jaranglab eshitilardi. Allakim, qo‘shiqning naqarotiga jo‘r bo‘lib hushtak chalardi va bu quloqlarni bitirayotgan hushtak ovozi kuchli ovozlar to‘lqinini quvib o‘tardi. Foma o‘sha tomonga qaradi va o‘sha yoqda o‘rmonning baland va qop-qora devorini, shu devorda tovlanayotgan gulxan shu’lasini va gulxan atrofida yurgan odamlarning qoralarini ko‘rdi. O‘rmon devori, go‘yo ko‘krak edi-yu, gulxan esa shu ko‘krakdagi qonli yaraga o‘xshar edi. Har tomondan qop-qora zulmat chulg‘ab olgan odamlar o‘rmon fonida bolalar singari kichkina bo‘lib ko‘rinardi. Ustlariga gulxan yolqini tushganidan xuddi yonayotganga o‘xshab ko‘ringan odamlar ham, qo‘llarini qimirlatib, baqirib qo‘shiq aytishardi:

Kuylasam ham – endi buzmayman
Ularning jimjit uyqusin...
Tangrim! Orom ber mening jonimga!
U tuzalmas dardga chalingan!
Tangrim! Orom ber mening jonimga...

Foma bu mungli ovozni eshitib, seskanib ketdi, kichkina felyetonchi esa, shaytonlab, chiyillab, o‘zini mukkasiga yerga otdi va xuddi kasal bolalarday zorlanib, sekin-sekin ho‘ngrab yig‘lay boshladi...

Foma uning yelkasidan turtib turg‘azmoqchi bo‘lib:

– Nikolay! Bas endi, bu nimasi? Bas... Uyatmasmi! – dedi.

Biroq Yejov uyalmasdi: u go‘yo suvdan olib tashlangan baliqday, yerda tipirchilardi, Foma uni o‘rnidan turg‘izganda, u ingichka qo‘llari bilan uning belidan quchoqlab, bag‘riga mahkam yopishib, to‘xtamay yig‘ladi...

– Bas endi! – dedi Foma mahkam qisilgan tishlari orasidan. – Bas, azizim...

Hayot iskanjasida butunlay xarob bo‘lgan shu odamning azob chekishi Fomani g‘azablantirdi, unga nihoyatda achinib, yuragida o‘t olgan alamdan betoqat bo‘lib, qorong‘ida shahar chiroqlari mil-

tillab turgan tomonga qarab do‘rillagan, yo‘g‘on ovoz bilan, qattiq bo‘kirdi:

– O, shaytonlar... ming la’nat sizlarga!

XI

Mayakin bir kuni birjadan uyga qaytib kelgach:

– Lyubavka! Bugun kechga hozirligingni ko‘rib qo‘y, – dedi, – kuyov olib kelaman! Bizga yaxshilab ovqat tayyorla, qadimiy kumush idishlardan stolga ko‘proq tizib qo‘y, meva soladigan vazalarni ham ol... Dasturxonimiz ko‘zga tashlanib tursin! Bizning har bir buyumimiz nodir ekanini ko‘rsin! – dedi qiziga.

Lyubov deraza yonida, boshini egib, otasining paypog‘ini yamab o‘tirardi.

U ranjib, norozilik bilan:

– Bularning hammasi nimaga kerak, otajon? – deb so‘radi.

– Sous uchun, ta’m uchun!.. Qoida uchun ham kerak!.. Chunki qiz bola ot emas, uni egar-jabduqsiz sotib bo‘lmaydi...

Lyubov jahl bilan boshini ko‘tardi, qo‘lidagi ishini bir chetga uloqtirib tashladi-da, alam qilganidan qip-qizarib otasiga qaradi... Keyin yana paypoqni qo‘liga olib, boshini tag‘in ham pastroq egdi. Chol tashvishlangan holda, soqolini chimdib, xona ichida u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Uning ko‘zlari allaqayoqqa, olislarga tikilgan va aftidan, u nihoyatda chigal, katta bir o‘yga cho‘mganday ko‘rinardi. Qiz otasi uning so‘zlariga quloq solmasligini va u o‘z so‘zlari bilan qizini naqadar xo‘rlaganini tushunishni istamasligini bildi. Otasining uni Smolinga berishga qat’iy qaror qilgani esa Lyubaning romanlardagi kabi, o‘zi bilan birga oqilona kitoblar o‘qiydigan va uning nomuayyan orzularini tushunishga yordam beradigan, o‘qimishli do‘st – er haqidagi orzularini barbod etdi va qizning yuragiga achchiq dog‘ bo‘lib o‘rnashdi. Lyuba esa faqat zeb-ziynat to‘g‘risida o‘ylaydigan va ko‘pincha, kuyovga ham o‘z ixtiyorlari bilan emas, balki, ota-onalarining ixtiyorlari bilan chiqadigan savdogarlar toifasidagi oddiy qizlardan ko‘ra o‘zini yaxshiroq va balandroq qo‘yishga o‘rganib qolgan edi. Mana endi o‘zi ham kuyovga chiqish vaqti kelgani va bundan tashqari, otasining ishini da-

vom ettirishga kuyov kerak bo'lgani uchun kuyovga chiqishi kerak. Otasi esa, qizim o'zi erkaklarning e'tiborini tortolmasa kerak, deb o'ylab qizini kumush bilan bezamoqchi. Mana shularga achchig'langan Lyubov barmoqlariga igna sanchib olar, ignani sindirar edi-yu, biroq hozir nima desa ham otasiga ta'sir etmasligini bilgani uchun indamas edi.

Chol esa, ichida pichirlab oyatlar o'qir, goho qiziga bo'lajak kuyov oldida o'zini qandoq tutish kerakligini o'rgatib, tinmay u yoqdan bu yoqqa yurardi. Lekin o'zi, shu choq allanarsalarni barmoqlari bilan sanab, goh xo'mrayib, goh iljayib qo'yar edi...

– Shu-n-dog'!.. «O'z panohingga topshirdim, tangrim... Osiy va badkirdor bandalaringdan o'zing asra meni...» Ha... Onangdan qolgan zumradlarni taqib ol, Lyubov...

Lyubov dili siyoh bo'lib, qichqirdi:

– Bas, otajon! Qo'ysangiz-chi, axir...

– Sen ko'p jilpanglama! Aytganimni qil...

U ko'm-ko'k ko'zlarini qisib, barmoqlarini yuzi oldida o'ynatib, yana o'zicha hisob qilishga kirishdi.

– O'ttiz besh foiz chiqyapti... muttaham yigit!.. Nuringdan va haqiqatingdan darig' tutma...

Lyubov qo'rquv aralash mungli ovoz bilan:

– Otajon! – deb qichqirdi.

– Xo'sh?

– Siz... sizga yoqadimi u?

– Kim?

– Smolin...

– Smolinmi? Ha-da... U muttaham... ishchan bola... Xo'p men ketdim... Sen haligi – esingdan chiqarma, hushyor bo'l!..

Lyubov bir o'zi qolgach, ishini tashlab, ko'zlarini qattiq yumganicha stul orqasiga suyandi. U qo'llarini tizzasiga biram qisdiki, barmoqlari qirsillab ketdi. Qiz bu qadar xo'rlanganidan alam qilib, kelajagidan nihoyatda qo'rqib, ichida ibodat qila boshladi.

«Yo rabbim! Yo parvardigor!.. Agar u insofli odam bo'lsa edi!.. Uni o'zing insofga keltir, dilini yumshat... E tangrim! Allaqanday bir erkak kelib seni ko'radi-yu... uzoq yillarga o'zi bilan olib ketadi... Bu naqadar xo'rlik, naqadar dahshat... Xudoyim, egam!.. Biron-

tasi bilan maslahat qilish kerak edi... Yolg'izman... Qani endi Taras bo'lsa...»

U akasini eslarkan, alami beshbattar ortib, nihoyatda xo'rligi kelib ketdi. U zo'r quvonch bilan Tarasga bir xat yozgan edi, u xatda o'zining akasiga bo'lgan muhabbati to'g'risida, undan kutgan umidlari to'g'risida uzundan uzun yozgan, otasi bilan ko'rishish uchun tezroq kelishini o'tinib so'rab, u bilan birga turish haqidagi rejalarini hikoya qilgan, otasining hamma narsaga aqli yetadigan dono odam ekanini unga uqtirib, otasining yolg'izligidan shikoyat qilgan, uning yashashga qobiliyati zo'rligini zavqlanish bilan birga unga nisbatan munosabatidan zorlanib yozgan edi.

U ikki haftagacha orziqib javob kutdi va nihoyat javob kelib, uni o'qigach, quvonganidan va hafsalasi pir bo'lganidan ho'ngrab yig'ladi. Javob qisqa va quruqqina qilib yozilgan edi. Xatda Taras biron oydan keyin ish bilan Volgaga borishini va chol bunga chindan qarshi bo'lmasa, otasining yoniga, albatta, kirajagini xabar qilgan edi. Xat sovuqqina edi, yig'lab turib xatni bir necha bor qayta-qayta o'qidi, uni g'ijimladi, ezdi, biroq xat bu bilan iliqroq bo'lmadi, faqat ho'l bo'ldi xolos. Yirik-yirik harflar bilan aji-buji qilib, bosib yozilgan qalin pochta qog'ozidan, odamga ishonmaganday xo'mrayib turgan va otasining yuziga o'xshab tirishgan, ozg'in bir bashara unga qarab turgandek edi.

O'g'lining xati otasiga boshqacha ta'sir etdi. Tarasdan xat kelganini bilib, cholning vujudi seskanib ketdi va unga jon kirib, allaqanday g'alati jilmayish bilan shoshib qiziga qarab gapirdi:

– Qani, bu yoqqa ber-chi! Ko'rsat-chi! He! Mahmadona odamlar qanday yozarkin, o'qib ko'raylik-chi... Ko'zoynagim qani?.. «Qimmatli singlim!» Shundog'...

Chol jim bo'lib qoldi, o'g'lining xatini ichida o'qib stolga qo'ydida, qoshlarini baland ko'tarib, taajjublangandek indamay xona bo'ylab yurib chiqdi. Shundan keyin xatni yana bir marta o'qidi-da, o'yga botgan holda barmoqlari bilan stolni chertarkan, dedi:

– Chakki emas, xati tuzuk yozilgan... Ortiqcha so'zlar ham yo'q... Kim bilsin? Balki, sovuqda chindan ham pishib qolgandir... U yerda sovuq juda qattiq bo'ladi... Mayli, kelsin... Ko'raylik... Qiziq... Shunday... Dovud alayhissalom zaburda: «Bir kunmas bir

kun dushman qaytib kelar...» degan, u yog'ini unutdim... «Nihoyat, dushmanning quroli ozayar... va uning xotirasi shov-shuv orasida halok bo'lar...» Lekin biz u bilan shov-shuvsiz gaplashamiz...

Chol beparvo, iltifotsiz iljayib gapirishga tirishar, biroq uning iljayishi kelishmas, yuzidagi ajinlari hayajon bilan titradi, ko'zlari esa, o'zgacha yiltillab chaqnar edi.

– Sen unga yana xat yoz, Lyubavka... ayt, mayli qo'rqmay kelaversin!

Lyubov Tarasga yana xat yozdi, lekin bu gal xati osoyishta va qisqaroq yozildi, endi undan kun sayin javob kutar va bu sirli akasining qanaqa ekanini ko'z oldiga keltirishga urinar edi. Taqvodor odamlar din yo'lida riyozat chekib, ezgular to'g'risida naqadar zo'r ehtirom bilan o'ylasalar, Lyubov ham ilgari akasi to'g'risida xuddi ana shunday zo'r ehtirom bilan o'ylar edi. Endi esa, Lyubov undan qo'rqa boshladi, chunki u chekkan og'ir azoblari va surgunda xarob bo'lgan yoshligi evaziga, hayot va odamlar ustidan hukm chiqarish huquqiga ega bo'lgan edi... Mana, u qaytib kelgach, undan: «Xo'sh, o'z ixtiyoring bilan yaxshi ko'rib kuyovga chiqyapsanmi?» – deb so'rar.

Qizda birin-ketin mana shunday g'amgin o'ylar paydo bo'lar, uni xijil qilar, azoblardi. U nihoyatda asabiylashgan bir holatda hamma narsadan umidini uzib, ko'z yoshlarini arang tiyib goh xud, goh bexud bo'lsa ham, har nechuk, otasi aytgan ishlarning hammasini to'la-to'kis bajardi. Stol ustini qadimiy kumush idish-tovoqlar bilan bezadi, kulrang shohi ko'ylagini kiydi va oyna oldida o'tirib, qulog'iga katta zumrad ko'zli ziraklarni taqa boshladi. Bu ziraklar knyaz Gruzinskiylarning avloddan avlodga o'tib kelgan qimmatbaho buyumi bo'lib, garovga qo'yilgan boshqa ko'pgina nodir buyumlar bilan birga Mayakinning qo'liga tushib qolgan edi.

Oynada o'zining hayajonlangan yuzini va oppoq yonoqlari yonida yanada chiroyliroq ko'ringan qalin va qip-qizil lablarini ko'rib, shohi ko'ylagi tarang tortgan, lorsillagan ko'ksiga ko'z yugurtirib chiqqandan so'ng, Lyubov har qanday erkakni ham shaydo qiladigan darajada chiroyli ekanini sezdi. Qulog'ida yaltirab turgan zangori toshlar ortiqcha va tahqirli bo'lib tuyuldi, buning ustiga, jilvalanib turgan bu toshlardan yonoqlariga bilinar-bilinmas sarg'ish

shu'la tushib turganday bo'ldi. Zumrad ko'zli ziragini qulog'idan oldi-da: «Shu Smolin qanaqa odam ekan?» deb o'ylab, yoqut ko'zli ziragini taqdi.

Shundan keyin u ko'zlarining ostida paydo bo'lgan qora dog'larni yoqtirmay, zo'r berib upa surtdi, o'zi esa hamon xotin bo'lishning baxtsizligi to'g'risida o'ylar, o'zini irodasizligi uchun koyir edi. Ko'zlarining ostidagi dog'lar upa-elik bilan qoplanib g'oyib bo'lgach, nazarida ko'zlarining yiltillashi yo'qolganday tuyuldi-da, upasini artib tashladi... Oynaga so'nggi marta qaraganda o'zining nihoyatda go'zal ekanini, yelimli qarag'aynikiga o'xshash chiroyga, ajoyib husn-jamolga ega ekanini ko'rib ko'ngli to'ldi va bu narsa biroz hayajonini va asabiyligini bosdi: u o'z qadrini biladigan boy kelinlardek salobat bilan qadam tashlab, yemakxonaga chiqib ketdi.

Otasi bilan Smolin allaqachon kelishgan edi.

Lyubov ko'zlarini chiroyli qilib suzib, lablarini mag'rur qimtib, bir daqiqa eshik oldida to'xtab qoldi. Smolin stuldan turib, unga tomon bir qadam tashlab, hurmat bilan bosh egib ta'zim qildi. Qizga uning ta'zim qilishi yoqdi. Smolinning nozik gavdasiga yarashgan surtugi ham ma'qul bo'ldi... U nihoyatda kam o'zgargan – hali ham o'sha sariq sochlari qisqa qilib kestirilgan, yuzini sepkil bosgan, ko'zlari esa kattaroq bo'lib qolgandek edi.

Mayakin kuyovni qiziga ko'rsatib:

– Buni qara, qanaqa bo'lib ketibdi? – deb qichqirdi.

Smolin esa, qizning qo'lini qisib, jilmayib, jaranglagan ovoz bilan:

– Eski o'rtog'ingizni unutmagan bo'lsangiz kerak, deb umid qilaman? – dedi.

Chol qiziga sinchiklab nazar tashlab:

– Sizlar keyin gaplashasizlar. Sen, Lyubava, hozircha uyga qarab tur, biz bu bilan gapimizni tugatib olaylik. Qani, Afrikan Mitrich, tushuntir-chi... – dedi.

Smolin muloyimgina qilib:

– Siz meni kechirasizmi, Lyubov Yakovlevna? – deb so'radi.

– Marhamat, hech tortinmang, – dedi Lyubov.

Lyubov ichida «Odobi joyida!» deb qo'ydi-da, stol bilan bufet o'rtasida yurib turib, Smolinning so'zlariga diqqat bilan quloq sola boshladi. U o'ziga ishonch bilan, muloyim so'zlardi.

– Shunday qilib, men rus charmining chet el bozorlaridagi ahvolini to‘rt yil chamasi yaxshilab tekshirdim... Bundan o‘ttiz yil burun bizning charmimiz u yerda namunali hisoblanardi, endi esa borgan sari xaridori kamaymoqda, shu bilan birga albatta, narxi ham. Bu tabiiy bir hol, chunki kapitallari, bilimlari bo‘lmagan bu mayda ko‘nchilarning ishlab chiqarishni tegishli darajada yuqori ko‘tarishga va ayni zamonda narxini pasaytirishga imkoniyatlari ham yo‘q... Ularning mollari nihoyatda yomon va qimmat... Eng yaxshi ko‘n ishlab chiqaradigan Rossiyaning obro‘yini to‘kishda o‘shalar aybdor. Umuman, texnika bilimidan va kapitaldan mahrum bo‘lgan, binobarin, ishlab chiqarishni texnika taraqqiyotiga moslab olib borolmaydigan mayda hunarmandlar – mamlakat uchun bir ofat, uning savdo-sotig‘iga tushgan bir qurt, xolos...

Smolin bu qadar sodda qilib so‘zlaganidan Lyubov, otamni yuzxotiri uchungina shunday deyapti deb o‘yladi, bu esa uning g‘ashiga tegdi.

Chol bir ko‘zi bilan mehmonga qararkan, ikkinchi ko‘zi bilan qizini kuzatib turib ping‘illab qo‘ydi:

– Hmm... Shunday, demak, sening niyating, boshqalarning hammasini chippakka chiqarib, katta fabrika qurish ekan-da?

Smolin cholning so‘zini rad etganday ohista qo‘l siltab:

– O, yo‘q! – deb qichqirdi. – Mening niyatim chet ellarda rus charmining ahamiyatini va bahosini ko‘tarish xolos, mana men, ishlab chiqarish bilimi bilan namunali fabrika quraman va bozorlarga yuqori sifatli mol chiqaraman... Mamlakat savdo-sotig‘ining sharafi...

– Ko‘p mablag‘ talab qilinadi deb o‘ylaysanmi? – deb so‘radi Mayakin xomushlik bilan.

– Uch yuz ming chamasi...

Lyubov: «Otam men uchun shuncha bermaydi», deb o‘ylab qo‘ydi.

– Mening fabrikam rosmana charm, chamadon, oyoq kiyimi, egar-jabduq, qayish kabi buyumlarni ishlab chiqaradi...

Chol undan so‘radi:

– Qancha foiz olishni o‘ylaysan?

Smolin ishonch bilan javob berdi:

– Men o‘ylaymanki, men rus sharoitining barcha imkoniyatlarini aniq hisobga olib aytyapman. Ishlab chiqaruv kishisi mashina yaratuvchi mexanikka o‘xshab, nihoyatda hushyor bo‘lishi kerak... Agar jiddiy ishni jiddiy amalga oshirishni o‘ylar ekansan, har bir eng kichkina vintning ham yeyilishini hisobga olishing lozim. Men Rossiyadagi chorvachilik va unda go‘sht iste’mol qilishni o‘rganib, shu asosda shaxsan o‘zim yozgan xotiralarimni o‘qish uchun sizga bersam bo‘ladi... Mayakin kulimsiradi.

– Obbo sen-e! Qani, yozuvingni bir olib kel-chi, qiziq! – dedi. – Demak, sen Yevropalarda vaqtingni bekorga o‘tkazmabsan... Qani endi o‘zimizning rus odati bo‘yicha biron narsa yeb olaylik...

Smolin qo‘liga vilka bilan pichoqni olarkan:

– Qalaysiz, Lyubov Yakovlevna? – deb so‘radi.

– Yaxshi emas, zerikadi... – deb javob berdi Mayakin qizi uchun. – Uy xo‘jasi, hamma xo‘jalik uning zimmasida, ko‘ngil ochishga qo‘li ham tegmaydi...

– Ko‘ngil ochadigan yer ham yo‘q deb qo‘ying, – dedi Lyuba. – Savdogarlarning bali bilan kechalarini yoqtirmayman.

– Teatrni-chi? – deb so‘radi Smolin.

– Teatrga ham kamdan kam boraman... birga boradigan odam yo‘q.

– Teatr! – deya qichqirdi chol. – Ana xolos, nima uchun u yerda savdogarlarni johil, ahmoq qilib ko‘rsatishni moda qilib olishgan? Bu juda kulgili, biroq tushunib bo‘lmaydi, negaki, noto‘g‘ri. Axir, men dumada xo‘jayin bo‘lsam, savdo-sotiqqa xo‘jayin bo‘lsam, bundan tashqari, teatr ham meniki bo‘lsa-yu, nega men ahmoq bo‘larkanman?.. Teatrdagi savdogarni ko‘rib, hayotdagi savdogarlarga mutlaqo o‘xshamaganini darrov payqaysan. Agar tarixiy narsalarni ko‘rsatishsa, masalan: musiqasi ham bor, o‘yini ham bor bo‘lgan «Podsho uchun jon sadaqa» yoki «Gamlet», yo bo‘lmasa «Charodeyka», «Vasilisa»ni ko‘rsatishsa, bu boshqa gap – bunda haqiqat talab qilinmaydi, chunki, o‘tmishda bo‘lib o‘tgan ishlar, bizga aloqasi yo‘q... To‘g‘rimi, yo noto‘g‘rimi, yaxshilab o‘ynashsa bas... Lekin hozirgi zamonni ko‘rsatmoqchi ekansan, yolg‘oningni qo‘y! Odamni ro‘yirost ko‘rsat...

Smolin cholning so'zlarini lablarida odobli jilmayish bilan tinglab o'tirdi va Lyubov otasiga qarshi uni gapirishga undayotganday unga sekin qarab qo'ydi. Qiz biroz uyalibroq:

– Otajon, har qalay, savdogar toifasining ko'pchiligi nodon, johil... – deb qo'ydi.

Smolin uning so'zini tasdiqlab, boshini qimirlatib qo'ygandan keyin, so'zga kirishdi...

– Shunday. Afsuski, bu achchiq bir haqiqat... Siz hali hech bir jamiyatga qatnashmaysizmi? Bu yerda har xil jamiyatlar juda ko'pku...

Lyubov xo'rsinib javob berdi...

– Ha. Lekin men bularning hammasidan bir chetda yashayman.

Bu orada otasi gap qistirdi:

– Uy ishi ko'p! Ana, bir talay har xil buyumlar bor... Bularning ham hisobini olib, tozalab, saranjomlab qo'yish lozim...

Chol o'zidan mamnun bo'lib, kumush idishlar bilan bezatilgan stolga, ustidagi buyumlarning ko'pligidan javonlari sinay-sinay deb turgan va do'kon oynalaridagi ko'rgazmani esga soladigan shkaf tomon bosh irg'ab qo'ydi. Smolin bularning hammasiga ko'z yugurtirib chiqdi-da, uning lablarida allaqanday masxaraomuz iljayish lip etib ko'rindi. Keyin u Lyubovning yuziga qaradi, qiz uning bu qarashida allanechuk do'stlik va hamdardlik borligini payqadi. Qizning yonoqlariga biroz qizillik yugurdi va u qo'rqa-pisa quvonib, dilida:

«Xudoga shukur!..» deb qo'ydi.

Katta bronza lampaning yorug'i billur vazalarning qirralarida yana ham ravshanroq yarqirar, xona ichi ham yorishib ketganday bo'lardi.

– Menga o'zimizning ko'hna, ajoyib shahrimiz juda yoqadi! – dedi Smolin, qizga muloyimgina jilmayib boqib, – u juda chiroyli, gavjum... unda odamni mehnatga undaydigan allaqanday ko'tarinki ruh bor... Manzarasining o'ziyoq odamning bahrini ochadi... Unda bamaylixotir yashaging keladi... Juda ko'p ishlaging va jiddiy ishlarni qilging keladi. Bundan tashqari, madaniy shahar... Qarang, naqadar ajoyib gazeta chiqadi bu yerda-ya... Aytgandek, biz shu gazetani sotib olmoqchimiz...

– Biz deganingiz kim? – deb so'radi Mayakin.

– Men o‘zim... Urvansov, Shukin.

– Bu yaxshi gap! – dedi chol stolni urib. – Ularning damini o‘chirishga vaqt kelgan – ko‘pdan kelgan! Ayniqsa, u yerda Yejov degani bor... tishi arraga o‘xshaydi. Ana o‘shaning jilovini tortib qo‘yinglar! Yaxshilab tortib qo‘yinglar!..

Smolin tag‘in Lyubovga iljayib qaragan edi, uning yuragi quvonch bilan seskanib qo‘ydi. U yuzlari qip-qizargan holda, kuyovning ko‘nglini olish uchun jo‘rttaga otasiga:

– Mening tushunishimcha, Afrikan Dmitriyevichning gazetani sotib olishdan maqsadi, siz aytgandek, uning ovozini o‘chirish bo‘lmasa kerak... – dedi.

Chol yelkalarini qisib:

– Bo‘lmasa nima uchun? – deb so‘radi. – Unda safsatabozlik bilan fitnadan boshqa gap bo‘lmasa... Agar unga ishchan odamlar, masalan, savdogarlarning o‘zlari yozsa edi, boshqa gap bo‘lardi...

Smolin cholning so‘zini bo‘lib, unga nasihatomuz gap qotdi:

– Gazeta chiqarish ham, agar kommersiya nuqtayi nazaridan qaralsa, juda foydali ish bo‘lishi mumkin. Lekin gazetaning bundan boshqa ikkinchi bir maqsadi borki, u ham bo‘lsa, shaxsning huquqini hamda sanoat va savdoning manfaatlarini himoya qilishdir.

– Men shuni aytayapman-da, agar o‘sha gazetaga savdogarning o‘zi rahbarlik qilsa, unda gazeta kerak...

– Shoshmang hali, otajon, – dedi Lyubov.

Qiz o‘z fikrini Smolin oldida yorilib gapirgisi kelganini sezdi. Smolin aytgan barcha so‘zlarning ma’nosini tushunganini unga bildirmoqchi, o‘yin-kulgi va latta-puttadan bo‘lak hech narsani bilmaydigan oddiy savdogar qizlardan emasligiga uni ishontirmoqchi edi. Smolin unga yoqib qolgandi. Chunki qiz, uzoq vaqtlar chet elda yurib qaytgan, gaplari ham bama’ni, odobi ham joyida, kiyinishi ham bashang va uning otasi bilan – shaharda eng aqlli odam hisoblangan otasi bilan xuddi go‘dak bolaga yon berib gaplashgan kattalarday, iltifot bilan so‘zlashadigan bunaqa savdogarni birinchi marta ko‘rishi edi.

«To‘ydan keyin meni chet elga oborib kel, deb iltimos qilaman...» deb o‘yladi qiz birdan va bu o‘ydan xijolat tortib, otasiga aytmoqchi bo‘lgan so‘zini ham unutdi. U qip-qizarib, bir necha soniya

indamay turdi va bu indamay turganini Smolin aybga yo'yishini o'ylab, nihoyatda qo'rqib ketdi. Shu holatda bir necha soniya azob chekib indamay turgandan keyin, nihoyat, gap topib:

– Siz gap bilan bo'lib, mehmonga vino quyib berishni ham unutdingiz... – dedi otasiga.

– Bu sening ishing: uy bekasi sensan... – dedi chol.

– O, hech ham tashvishlanmang, – dedi Smolin o'sha ondayoq. – Men ichmayman desam ham bo'ladi.

– Chindanmi? – deb so'radi Mayakin.

– Ishoning! Charchagan yoki tobim qochgan vaqtlarda bir-ikki ryumka ichib qo'yaman... Kayf qilish uchun ichishni tushunmayman. Madaniy odam uchun bundan boshqa kayf qiladigan narsalar ham bor...

Chol ko'zini qisib qo'yib:

– Barinyalarmi? – deb so'radi.

Smolin Lyubovga qarab qo'ygach, cholga quruqqina qilib javob berdi:

– Teatr, kitob, musiqa...

Lyubov uning bu so'zlarini eshitib, butunlay ochilib ketdi.

Chol esa, hurmatli yosh yigitga yer ostidan xo'mrayib qarab, zaharxanda qilib dangal aytdi qo'ydi:

– Eh, hayot ilgari bormoqda! Avvallari itlar qoq non yerdi, endi esa kuchuk ham qaymoqni suyuq deydi... Nordon so'zim uchun meni kechirasizlar, hurmatli janoblar... So'zning juda o'rni kelib qoldi! Lekin bu, siz to'g'ringizda emas, umuman...

Lyubovning rangi o'chdi, u quti o'chib, Smolinga qaradi. U esa, emal bilan naqshlangan, cho'mich shaklida ishlangan qadimiy tuzdonni ko'zdan kechirib, mo'ylovini burab va go'yo cholning so'zini eshitmaganday, parvoyi falak o'tirardi... Biroq uning ko'zlari qoraygan, lablari mahkam qimtilganidan, soqoli qirilgan jag'i birato'la turtib chiqqan edi.

Mayakin go'yo hech narsa bo'lmaganday gap boshladi:

– Demak, shunday, bo'lajak fabrikant janoblari, uch yuz ming so'lkavoy bo'lsa, ishim gurullab ketadi, degin?

Smolin o'ziga zo'r ishonch bilan:

– Bir yarim yildan keyin men birinchi partiya mol chiqaraman va o‘sha zahotiyoq, bu molni qo‘limdan yulib olib ketishadi... – dedi va cholning ko‘ziga astoydil sovuqqina tikildi.

– Unday bo‘lsa, Smolin bilan Mayakinning savdo uyi bo‘larkanda, shundaymi? Shunday... Nazarimda men yangi ish boshlashga kechikib qolganga o‘xshayman-a? Ammo shuni ham aytish kerakki, menga atalgan tobut allaqachon tayyor bo‘lgan, xo‘sh, sen bu haqda nima deb o‘ylaysan?

Smolin javob o‘rniga bir necha daqiqa xaxolab, lekin beparvo ohangda xunuk qilib kuldi-da:

– E, qo‘ysangiz-chi, hali... – deb qo‘ydi.

Chol uning kulgisidan seskanib ketdi-da, qo‘rqib, sal-pal sezilarli qilib, butun gavdasi bilan biroz orqaga tisarildi. Smolinning so‘zidan keyin uchovlari ham bir daqiqacha indamay qolishdi.

– Shunday... – dedi Mayakin pastga egilib boshini ko‘tarmay. – Buni o‘ylab ko‘rish kerak... buni o‘ylab ko‘rish kerak... – boshini ko‘tarib, kuyov bilan qizini boshdan oyoq razm solib chiqqach, stuldan turdi-da, qovog‘ini solib: – Men bir daqiqaga sizlarning oldingizdan o‘z xonamga chiqaman... – dedi.

Keyin u qaddini bukib, boshini xam qilib, oyoqlarini sudrab bosib chiqib ketdi.

Yoshlar ikkovi qolgandan keyin, bir-biriga bir necha og‘iz anchayin gap qotishdi-yu, qaytaga oralari uzoqlashib borayotganini payqab, o‘ng‘aysizlanib, allanarsani kutayotganday ikkovi ham jim bo‘lib qoldi. Lyubov apelsin olib, uni haddan ortiq e’tibor bilan tozalay boshladi, Smolin esa, ko‘zlarini pastga qilib, mo‘yloviga qaradida, chap qo‘li bilan yaxshilab silab qo‘ydi, so‘ngra pichoqni o‘ynab o‘tirib, birdan ovozini pasaytirib qizdan:

– A... Meni odobsizligim uchun kechiring! – deb iltimos qildi. – Sizga otangiz bilan turish chindan ham qiyin bo‘lsa kerak, Lyubov Yakovlevna... almisoqdan qolgan odam, kechiring – bag‘ritosh!

Lyubov seskanib tushdi-da, sariq odamga minnatdor ko‘zlari bilan qarab:

– Oson emas, lekin men ko‘nikib qolganman... Uning o‘ziga xos yaxshi tomonlari ham bor... – dedi.

– O, bu shubhasiz! Lekin sizga, sizdek yosh, chiroyli va o‘qimishli, o‘z tushunchasiga ega bo‘lgan qizga...

Smolin qizga rahmi kelib, muloyimgina jilmayar, ovozi nihoyatda mayin edi... Xonada qalbni ilituvchi iliq shabada esganday bo‘ldi... Qizning yuragida baxt sari intilgan zaif umidi borgan sari yashnab, ulg‘aya boshladi.

XII

Foma Yejovnikida o‘tirib, o‘rtog‘i aytayotgan yangiliklarga quloq solar edi. Yejov ustiga gazetalar uyib qo‘yilgan stol yonida o‘tirib, oyoqlarini qimirlatib hikoya qilardi:

– Saylov kampaniyasi boshlandi, savdogarlar shahar boshlig‘i qilib o‘sha keksa iblisni, sening otaxoningni ko‘rsatishyapti! Ajal ham olmaydi uni... yoshi ham yuz ellikdan oshgan bo‘lsa kerak-a? Qizini Smolinga berarmish, esingizdadir – sariq sochli yigit! Uni juda vijdonli odam deyishadi... Hozirgi zamonda aqlli muttahamlarni ham vijdonli deb atashadi, chunki odam yo‘q! Afrikashka o‘zini ma’rifatli odam qilib ko‘rsatmoqda, hatto intelligentlar orasiga kirishga ham ulgurgan va darrov ko‘zga tashlana qolgan. Aftidan, birinchi darajali muttaham, lekin ancha ish ko‘rsatadiganga o‘xshaydi, negaki, bilib ish tutadi. Shunaqa, og‘ayni. Afrikashka – liberal... Liberal savdogar bo‘ri bilan cho‘chqaning chatishmasi.

– Jin ursin hammasini! Ular bilam mening nima ishim bor? Xo‘sh, hamon ichyapsanmi? – dedi.

– Nega endi ichmas ekanman?

Chala kiyingan va sochlari hurpaygan Yejov hozirgina urishib, hali achchig‘idan tushmagan, patlari to‘zigan parrandaga o‘xshar edi.

– Men vaqti-vaqti bilan yuragimning alangasini bosib turish uchun ichaman... Sen – ho‘l to‘nka, asta-sekin tutayapsanmi?

– Men cholning oldiga borishim kerak, – dedi Foma aftini burushtirib.

– Dadil boraver!

– Borgim kelmayapti...

– Unday bo‘lsa borma!..

– Kerak-da...

– Unday bo‘lsa bor!

– Muncha masxarabozlik qilasan? – dedi Foma xafa bo‘lib, – go‘yo kayfi chog‘ odamdek.

– Xudo haqqi, kayfim chog‘! – deb qichqirdi Yejov, stol ustidan sakrab tushib. – Kecha men bir afandini gazetada rosa bopladim! Bundan tashqari, hikmatli bir latifa eshitdim: bir to‘da ulfatlar dengiz bo‘yida o‘tirib, hayot to‘g‘risida falsafa sotishayotgan ekan. Bir yahudiy ularga: «Janoblar! Bekog‘dan bekog‘ shuncha so‘z nima keg‘agi bog‘? Men sizlag‘ga hammasini big‘dan aytib beg‘aman: hayotimiz, mana shu qutug‘gan dengizga o‘xshab, big‘ tiyinga ag‘zimaydi!..» debdi.

– E, qo‘ysang-chi, – dedi Foma. – Xayr!

– Bor! Bugun mening kayfim taraq, sen bilan birga ingray olmayman... Bundan tashqari, sen ingramaysan, faqat xo‘rtillaysan...

Foma chiqib ketdi, Yejov esa ovozining boricha baqirib kuylab qoldi:

Chal nog‘orangni, mutlaqo qo‘rqma...

Foma jahli chiqib:

– O‘zing nog‘ora... – deb qo‘ydi ichida.

Mayakinlarnikida uni Lyuba kutib oldi. Allanarsadan hayajonlangan quvnoq Lyuba, darhol uning oldida paydo bo‘ldi-da:

– Senmisan? E, tavba! Naqadar ranging o‘chgan... biram ozibsanki... Aftingdan, yaxshi yashayotganga o‘xshaysan! – dedi.

Keyin uning yuzi tashvishdan o‘zgarib ketdi va u pichirlagan ovoz bilan:

– Ah, Foma! Sen bilmaysan, axir... ana! Eshityapsanmi? Taqillatishyapti! Balki udir... – dedi.

Qiz shunday dedi-yu, shohi ko‘ylagini shitirlatib va hayron bo‘lgan Fomani yolg‘iz qoldirib, yugurganicha xonadan chiqib ketdi, Foma undan: «Otang qayerda?» deb so‘rashga ham ulgurolmadi. Yakov Tarasovich uyda edi. Chol yasanib, uzun surtugining ko‘kragiga medallarini taqib, qulochini yozib, eshik kesakilarini ushlagan holda, bo‘sag‘ada turar edi. Uning ko‘m-ko‘k ko‘zlari Fomani boshdan oyoq tekshirib ko‘rmoqda edi. Foma uning nazarini payqab, boshini ko‘tardi, ko‘zi uning ko‘zlari bilan to‘qnashdi.

Chol ta'na bilan boshini chayqab:

– Salom, yaxshi janob! Qayerdan kelyaptilar? Xo'sh, jiringizni kim bu qadar so'rib oldi? Yo cho'chqa balchiqni izlagandek, Foma botqoqni izlab yuribdimi? – dedi.

Foma cholga tik qarab, xo'mrayib:

– Menga bundan boshqa so'zingiz yo'qmi? – deb so'radi.

U birdan otaxonining seskanib ketganmi, uning oyoqlari qaltiraganini, ko'zlari tez-tez pirpiraganini, qo'llari esa kesakilarga mahkam yopishib qolganini ko'rdi... Foma, cholning ko'ngli ozib qoldi shekilli, deb o'ylab, unga qarab yurgan edi, biroq Yakov Tarasovich bo'g'iq, zardali ovoz bilan:

– Qoch... nari tur! – deya uni to'xtatdi.

Foma orqasiga tislandi va yonida o'rta bo'yli, yumaloq bir odamni ko'rdi, u Mayakinga ta'zim qilib, xirillagan ovoz bilan:

– Salom, otajon! – dedi.

Chol qo'llarini eshik kesakisidan olmay, oyoqlari qaltiragan holda boshini egib, og'zini qiyshaytirib iljayarkan:

– Salom, Taras Yakovlich, salomatmisan... – dedi. Foma bir chetga chiqdi va qiziqqanidan toshday qotib, o'tirib qoldi.

Mayakin hamon qo'llari bilan eshik kesakisiga tiranib, zaif gavdasini chayqab, boshini bir yoqqa qiyshaytirganicha, indamay o'g'liga qarab turardi. O'g'li esa uning oldida boshini baland ko'tarib, katta qop-qora ko'zlari ustidagi qoshlarini chimirib tek turardi. Uning qop-qora cho'qqi soqoli va kichkina mo'ylovi, otasining burniga o'xshagan, kemirchak burunli yuzida titrab turardi. Uning yelkasi orqasidan Foma Lyubaning oppoq oqargan, quvnoq yuzini ko'rdi, u otasiga yolvorgansimon qarab turar va hozir baqirib yuboradiganday ko'rinardi. Bir necha soniya hammasi ham o'z hissiyotlari ostida ruhlari ezilgandek qimir etmay, indamay turishdi. Nihoyat bu jimlikni Yakov Mayakinning g'alati bo'g'iq, ohista ovozi buzdi:

– Qaribsan, Taras...

O'g'li jimgina kulimsirab, otasini boshdan oyoq kuzatib chiqdi.

Chol qo'lini kesakidan olib, o'g'liga qarab qadam tashladi-yu, lekin birdan qovog'ini solib, to'xtab qoldi. Shunda Taras Mayakin katta bir qadam tashlab otasining oldiga bordi-da, unga qo'lini cho'zdi.

– Qani.. o‘pishaylik!.. – deya taklif qildi otasi.

Ular bir-birini mahkam quchoqlab, qattiq o‘pib ko‘rishib, yana darhol o‘zlarini orqaga olishdi. Cholning ajinlari titrab ketdi, o‘g‘lining ozg‘in yuzi qotib qolgan, xo‘mraygan edi. Lyubov quvonganidan piqillab yig‘lab yubordi. Foma o‘zining nafasi bo‘g‘ilganini sezib, o‘tirgan oromkursisida o‘ng‘aysizlanib tipirchilab qoldi.

Yakov Tarasovich jaranglagan ovoz bilan:

– Eh, bolalar! Sizlar yurak quvonchi emas, yurak jarohatisizlar! – deb zorlanib qo‘ydi va bu so‘zlar bilan u yuragidagi butun dardini bo‘shatdi shekilli, shundan keyin chehrasi ochilib, tetiklashib, qiziga qarab shaxdam-shaxdam gapira boshladi:

– Sen, quvonganingdan butunlay shalpayib qolding! Qani, bizga biron narsa tayyorla... Darbadar o‘g‘ilni mehmon qilaylik! Sen mazasi qochgan chol otang qanaqa ekanini ham unutib yuborgandirsan hali?

Taras Mayakin otasiga o‘ychan nazar tashlarkan, jimgina kulib qo‘ydi. U butunlay qora kiyingan va shuning uchun ham uning soch va soqolining oqlari juda aniq ko‘zga tashlanib turardi...

– Qani, o‘tir! Gapir, qanday yashading, nima qilding?.. Qayoqqa qarayapsan? Bu mening tutingan o‘g‘lim, Ignat Gordeyevning o‘g‘li, Foma. Ignat esingdami?

– Hammasi esimda, – dedi Taras.

– O! Bu durust... agar maqtanayotgan bo‘lmasang!.. Xo‘sh, uylandingmi?

– Hozir bo‘ydoqman...

– Bolalaring bormi?

– O‘lib ketdi... ikkita edi...

– At-tang... nevaralik bo‘lardim-a...

– Cheksam maylimi? – deb so‘radi Taras otasidan.

– Chekaver!.. Obbo sen-e, sigara chekarkansan-da...

– Siz sigarani yoqtirmaysizmi?

– Menmi? Menga baribir... Sigara nazarimda oliftalik uchun chekiladi shekilli... Shunchaki, aytdim qo‘ydim, kulgim keladi... Shunday ulug‘sifat keksa, soqolini chet elchasiga qo‘yib, og‘ziga sigara qistirib... Kim u desang? Mening o‘g‘lim, xe-xe-xe! – chol Tarasning yelkasidan turtib qo‘ydi-da, hali quvonishga erta bo‘lmasin,

sochining yarmiga oq tushgan bu odamga shunday munosabat qilib bo‘larmikin, degan xayolda cho‘chib ortga tislandi. Shundan keyin o‘g‘lining chetlari sarg‘ish bo‘lib salqigan katta ko‘zlariga shubha bilan sinchiklab tikildi.

Taras otasiga qarab, yoqimli va iliqqina jilmayib qo‘ydi-da, o‘ylanibroq dedi:

– Men sizni xuddi mana shunday – xushchaqchaq, tetik ekaningizni eslayman... Go‘yo shuncha yillar mobaynida sira o‘zgarmagandaysiz!..

Chol, mag‘rur gavdasini rostlab, mushti bilan ko‘kragiga urib:

– Men hech qachon o‘zgarmayman!.. Chunki o‘z qadrini bilgan odamni hayot yenga olmaydi!.. – dedi.

– O‘ho‘! Juda mag‘rursiz...

Chol ziyraklik bilan aftini burushtirib:

– Ehtimol, o‘g‘limga o‘xshagandirman! Mening o‘g‘lim, inim, mag‘rurligidan o‘n yetti yil unini chiqarmadi... – dedi.

– Chunki, unga otasi quloq solishni istamadi... – dedi Taras...

– Bas endi! Kim kimning oldida aybdor, buni xudoning o‘zi biladi... O‘zi odil, shoshma hali, senga ko‘rsatadi! Hozir sen bilan bu haqda gaplashishning vaqti emas... Shu yillar mobaynida nima ish qilding? Menga sen shuni ayt. Qanday qilib, soda zavodiga borib qolding? Qanday qilib odam qatoriga kirding?

– Buning tarixi uzun! – dedi Taras xo‘rsinib va og‘zidan pag‘a-pag‘a tutun chiqarib, shoshmay gap boshladi: – Menga erkin yashashga imkoniyat tug‘ilgach, Remezovlarning oltin konlari boshqaruvchisining kontorasiga ishga kirdim...

– Taniyman! Uch og‘a-ini, hammasini taniyman! Bittasi mayib, ikkinchisi ahmoq, uchinchisi esa xasis...

– Ikki yil uning qo‘lida ishladim, keyin qiziga uylandim... – dedi Mayakin xirillagan ovoz bilan hikoya qilib.

– Shunday. Chakki emas...

Taras o‘ylanib jim bo‘lib qoldi. Chol uning g‘amgin yuziga qarab qo‘ydi.

– Demak, xotining bilan yaxshi turgan ekansan-da... – dedi u. – Nima ham deymiz? O‘lganlarning joni jannatda-yu, tiriklarning

joni rohatda bo‘lsin!.. Hali sen yoshsan... Beva qolganingga ko‘p bo‘ldimi?

– Uchinchi yil...

– Soda zavodiga qanday kirib qolding?

– Bu zavod qaynatamniki...

– Aha! Qancha olasan?

– Besh mingga yaqin...

– Bu chakki emas! Ha-da! Obbo katorjnik-e!

Taras otasiga qattiq tikilib qarab qo‘ygandan keyin undan so‘radi:

– Aytmoqchi, siz meni katorgada bo‘ldi deb qayerdan eshitdingiz?

Chol o‘g‘liga hayron bo‘lib qaradi va uning bu hayrati hademay quvonch bilan almashdi:

– Qayerdan deysan? Bo‘lmadingmi? O, bolasi tushkurlar-e! Demak, bu qandoq bo‘ldi, a? Sen xafa bo‘lma! Kim farqiga boradi deysan? Sibir degandan keyin, u yer katorga deb o‘ylaymiz-da!

Taras, tizzasiga urib, jiddiy va ta’sirli qilib:

– Bu so‘zni mutlaqo tilga olmaslik uchun, men sizga nima bo‘lganini ochiq aytib beraman. Men Sibirga olti yilga surgun qilingan edim va shu surgundaligimda Lena tog‘ okrugida yashadim... Moskvada to‘qqiz oycha turmada o‘tirdim, bo‘lgani shu! – dedi.

Yakov Tarasovich o‘ng‘aysizlanib va xursand bo‘lib:

– Shunday degin! Bu qanaqasi bo‘ldi endi?

– Bu yerda esa ahmoqona gap tarqatishibdi...

– Chinakam ahmoqona! – dedi chol achinib.

– Bir vaqt buning menga katta zarari tegdi...

– Rostdanmi? Nahotki?

– Rost... Men o‘shanda endigina o‘z ishimni boshlagan edim...

Foma Mayakinlarning suhbatiga diqqat bilan quloq solib burchakda o‘tirarkan, Tarasni sinchiklab ko‘zdan kechirar va hayron bo‘lib ko‘zlarini pirpiratar edi. U Lyubovning akasiga bo‘lgan munosabatini eslarkan, uning Taras haqida aytgan so‘zlariga ma’lum darajada berilib, Foma uning siymosida oddiy kishilarga o‘xshagan, allaqanday, odatdan tashqari, g‘alati bir odamni ko‘raman, deb o‘ylagan edi. Tarasning gap-so‘zlari ham boshqacha, kiyinishi ham o‘ziga xos, oddiy kishilarga o‘xshamasa kerak, deb o‘ylardi. Uning

oldida esa, yuzi xuddi otasinikiga o‘xshagan va undan faqat sigarasi bilan ajralib turgan, tuzukkina kiyingan. ulug‘sifat bir odam o‘tirardi. Axir, shunday oddiy narsalar haqida soddagina va qisqa qilib so‘zlagandan keyin uning nima ortiqcha yeri bor? Mana, u otasiga soda ishlab chiqarishning foydasi to‘g‘risida gapira boshladi... U katorgada bo‘lmagan ekan. Lyubov yolg‘on aytibdi!

Lyubov ora-chora xonaga kirib turardi. Uning chehrasi baxtiyorlikdan chaqnar va ikki yonida cho‘ntagi bor, katta tugmalar qadalgan allaqanday g‘alati, qalin surtuk kiygan Tarasning qop-qora gavdasidan quvonch to‘la ko‘zlarini uzolmas edi. U oyoq uchida bosib yurar va akasi o‘tirgan tomonga bo‘ynini cho‘zib qarab-qarab qo‘yar edi. Foma unga savol nazari bilan boqar, lekin qiz qo‘lida likopcha va shishalar bilan eshik yonidan o‘tib ketarkan, buni payqamas edi.

Bir safar qiz xuddi akasi otasiga katorga haqida so‘zlayotgan paytda bu xonaga qaradi. Qaradi-yu, qo‘lida patnis bilan, turgan joyida qotib qoldi, akasining qanday jazo tortgani to‘g‘risida aytgan so‘zlarining hammasini eshitdi. Eshitib bo‘lgandan keyin, Fomaning hayrat bilan mazax qilib qarab turganini sezmay, ohista chiqib ketdi. Taras haqida o‘z o‘ylariga cho‘mgan, hech kim unga e’tibor bermagani uchun biroz xafa bo‘lgan Foma, bir lahzagina Mayakinlarning suhbatiga quloq solishdan to‘xtagan chog‘ida, birdan kimdir uning yelkasidan ushlaganini sezdi. U cho‘chib, sakrab o‘rnidan turdi va otaxonini yiqitib yuborayozdi.

– Mana, ko‘r! Bu Mayakin! Uni yetti qozonga solib qaynatgan bo‘lsalar ham, baribir tirik! Boy ham! Uqdingmi? Birovning yordamisiz, bir o‘zi o‘z o‘rnini topgan! Bu demak, Mayakin! Mayakin taqdirni o‘z qo‘liga olgan odam... Uqdingmi? O‘rgan! Bundaylar yuzlab odam orasida bo‘lmaydi, minglar orasidan qidirsang topasan... Bilib qo‘y: Mayakin – odam, uni na shayton va na farishtaga aylantirish mumkin...

Cholning shiddatli hujumidan esankirab qolgan Foma nima qilishini va cholning og‘iz ko‘pirtirib maqtanganiga nima deb javob berishini bilmay dovdirab qoldi. U Tarasning jimgina o‘z sigarasini chekib, labining bir cheti bilan jilmayib otasiga qarab turganini ko‘rdi. Uning yuzida seriltifot mamnunlik va butun vujudida boy-

vachchalarga xos mag'rurlik aks etib turardi. U go'yo cholning quvonchidan rohatlanayotgandek edi...

Yakov Tarasovich bo'lsa Fomaning ko'kragiga barmog'i bilan niqtab:

– Men uni, o'z o'g'limni bilmayman – u menga o'z yuragini ochgan emas... Ehtimol, bizning oramizda shunday bir tog' paydo bo'lgandirki, undan burgut tugul shayton ham o'tolmas... Ehtimol, uning qoni qaynayverib, unda otasining hidi ham qolmagandir... Lekin, Mayakin u! Men buni bir ko'rishdayoq sezib turibman... Sezib turib: «O'z qulingni o'zing kechir, egam!..» deyman.

Chol quvonganidan bezgak tutganday titrab-qaltirab, Foma oldida turib, xuddi o'yinga tushayotganday edi.

Taras ohista o'rnidan turib, otasining oldiga bordi-da:

– Tinchlaning otajon! – dedi. – O'tiraylik...

Keyin, Fomaga qarab mensimagandek kulib qo'ydi-da, otasining qo'ltig'idan ushlab, stol yoniga olib ketdi...

– Men qonga ishonaman! – dedi Yakov Tarasovich. – Butun kuch o'shanda! Otam menga: «Yashka! Sen xuddi mening qonimsan!» degan edi. Mayakinlarning qoni quyuq, hech qanday xotin hech qachon suyultirolmaydi... Bir shampanskiy ichaylik! Ichamizmi? Gapir menga... O'z to'g'ringda gapir... U yerda, Sibirda qalay?

Xayoliga kelgan allaqanday fikrdan cho'chib hushiga kelgan chol yana o'g'liga sinovchan ko'zlari bilan tikilib qoldi. Ammo bir necha daqiqadan keyin Tarasning mufassal, biroq qisqa qilib bergan javoblari uning ko'nglini quvonch bilan to'ldirib yubordi. Foma bir burchakda hamon quloq solib, jimgina kuzatib o'tirardi.

– Oltin sinoati, shubhasiz, katta ish, – dedi Taras xotirjam va sipolik bilan, lekin har qalay, qaltis va katta sarmoya talab qiladigan ish... O'sha yerlik odamlar bilan ish ko'rish juda foydali... Ular bilan savdo qilish, hatto yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lmasa ham, juda katta foiz beradi. Bu hech zarar ko'rmaydigan ish... Biroq zerikarli... Unga ko'p aql kerakmas, katta ish tutib o'rgangan odam uchun u torlik qiladi...

Lyubov kirib hammani dasturxonga taklif qildi. Mayakinlar chiqib ketishganda Foma ohistagina Lyubovning yengidan tortdi, qiz uning yonida qoldi-da:

– Nima deysan? – deb so‘radi shoshib.

– Hech nima!.. – dedi Foma iljayib. – Men sendan so‘ramoqchiman, xursandmisan?

– Bo‘lmasam-chi! – dedi Lyubov.

– Nimaga?

Lyubov, unga taajjub bilan qarab qo‘yib:

– G‘alati ekansan-ku! Nahotki ko‘rmasang? – dedi.

Foma nafratomuz achinib:

– Eh, sen! – dedi cho‘zib. – Axir, sening otangdan axir bizning savdogar toifasidan biron yaxshi narsa vujudga keladimi? Sen menga: Taras unaqa, Taras bunaqa, deb yolg‘on gapirding! Uning boshqa savdogarlardan nimasi ortiq... Hatto qorni ham savdogarlarnikiga o‘xshaydi-ku...

Foma bu so‘zlardan Lyubovning jahli chiqqanini, goh qizarib, goh oqarib, lablarini tishlayotganini ko‘rib, xursand bo‘ldi.

Lyubov entikib:

– Sen... sen, Foma! – deb gap boshladi-yu, keyin birdan yer tepib, – sen men bilan gaplashma! – deb baqirdi.

Ostonada Fomaga g‘azabli yuzini o‘girib, past ovoz bilan:

– Hu, ichi qora!.. – deb qo‘ydi.

Foma kulib qo‘ydi. Uning uchala baxtli odamlar o‘tirgan stol yoniga kirgisi kelmadi. Ularning quvnoq ovozlarini, xushchaqchaq kulgilarini, idish-tovoqlarning jaranglashini eshitdi va o‘zining yuragi g‘ash bo‘lib turgan bir paytda ular yonida o‘tirish o‘rinsiz ekanini tushundi. Uning uchun hozir hech yerda o‘rin yo‘q edi. Uyning o‘rtasida biroz yolg‘iz turgach, Foma kishilar xursandchilik qilayotgan bu uydan chiqib ketishga ahd qildi.

Ko‘chaga chiqqach, u Mayakinlardan ranjiganini sezdi, har qalay, uning dunyoda bulardan boshqa yaqin odami yo‘q edi-da. Uning ko‘z oldida otaxonining hayajondan ajinlari titragani, ko‘m-ko‘k ko‘zlarining quvnoq chaqin bilan yorishib turgan yuzi paydo bo‘ldi.

«Qorong‘ida axlat ham yiltillaydi», deb o‘yladi u g‘azab bilan. Keyin Tarasning xotirjam, jiddiy yuzi bilan uning yonida akasiga tomon talpinib turgan Lyubaning timsoli uning yodiga keldi. Bu esa uning dilida hasad va alam uyg‘otdi.

«Menga ham kim shunday qararkin?..»

Foma daryo bo'yiga, pristanga yetgach, mehnat shovqinidan o'ziga keldi. Hamma yoqda arava-yu, odamlar toy-toy mollarni va har xil narsalarni tashirdilar. Odamlar tashvishlanib shoshib-pishib yurishar, zarda qilib otlarni haydashar, biri-biriga o'shqirishar, ko'chalarni to's-to'polon va shovqin-suron bilan to'ldirishar edi. Bir tomoni baland uylar bilan to'silgan, ikkinchi tomoni daryo yoqasidagi tik jarga borib taqalgan, tosh to'shalgan tor yerda odamlar g'ujg'uj bo'lib ivirsishardi. Fomaning nazarida, ularning bu qadar shoshib-pishishi, go'yo hammasi ham mana shu shovqin-suronli ishdan allaqayoqqa qochish uchun iflos va tor yerga yig'ilishgandek, biroq ularni ushlab turgan ish hali bitmagani uchun qanday bo'lmasin, tezroq tugatishga oshiqishayotgandek tuyuldi. Ularni qirg'oq bo'yida, mo'rilardan tutun buruqsatib katta paroxodlar kutib turardi. Paroxodlarning ko'pligidan to'lib-toshgan daryoning loyqa suvi, go'yo menga ham bir daqiqa dam beringlar, deyotganday ohista qirg'oqqa urilib, zorlanib shaloplardi...

Pristanlarning birida allaqachondan beri sho'x «Dubinushka» qo'shig'i jaranglab eshitilardi. Changakchilar tez harakat talab qilgan allaqanday ishni bajarishar va ular qo'shiqning har bir bandini va naqarotini ishning ritmiga moslab yangratishardi. Qo'shiqni boshlab beruvchi o'tkir ovoz bilan xuddi gapirganday qilib:

Qovoqxonalarda katta boylar,
Quyuq musallasni icharlar. –

deb boshlab bersa, qolganlari birdan:

Oy, dubinushka, ha bo'l! –

deb jo'r bo'lishardi.

Keyin yo'g'on ovozlar yangrardi:

Ketdi, ketdi...

Ingichka ovozlar esa:

Ketdi, ketdi... –

deb takrorlardi.

Foma qo'shiqqa quloq solib turdi-da, keyin o'sha tomonga qarab jo'nadi. U yerga borgach, changakchilarning ikki qator bo'lib tizilishib, paroxodning tryumidan arqon bilan katta bochkalarni tortib chiqarayotganlarini ko'rdi. Ustlariga yoqasi yechiq, yenglari bilaklarigacha shimarilgan qizil ko'ylak kiygan, engil-boshi iflos bu odamlar tryum tepasida turib olib, hazil-mutoyiba va o'yin-kulgi bilan qo'shiq ohangiga moslab arqonni tortardilar. Tryum ichidan, o'zi ko'rinmagan qo'shiq boshlovchining kuchli, quvnoq ovozi eshitilardi:

Biz mujiklarning jig'ildoniga,
Yetishmaydi hattoki aroq...

Qolganlar esa, xuddi kattakon bitta ko'krakdan chiqqanday qilib, ovozlari boricha:

E -eh, dubinushka, ha, tort! —

deya baravar hayqirishardi.

Foma bu qadar ajoyib musiqadek ohangdor ish jarayoniga havasi kelib qarab turdi. Changakchilarning qop-qora yuzlari kulgidan porlar, ish esa yengil, oson borar edi, qo'shiq boshlovchi nihoyatda zavq bilan aytardi. Mana shunday ajoyib og'aynilar bilan birga qo'shiq aytib ish qilish, charchagandan keyin bir stakan aroqni simirish va orqasidan artelning semiz, abjir onaxoni pishirgan yog'liq karam sho'rvani ichish naqadar yaxshi, deb o'yladi Foma.

Bu orada uning yaqinida:

– Chaqqonroq, yigitlar, chaqqonroq! – degan xirillagan xunuk ovoz eshitilib qoldi. Foma o'girilib qaradi. Qo'lidagi tayog'i bilan palubani taqirlatib, kichkina ko'zlari bilan changakchilarga qarab turgan qorni katta bir odamni ko'rdi. Uning yuzi bilan bo'ynini jiqqa ter bosgan, u daqiqa sayin chap qo'li bilan terini artar va xuddi toqqa chiqib ketayotganday og'ir nafas olar edi.

Foma bu odamga g'ashi kelib qarab:

«Odamlar ishlayapti-yu, bu terlayapti... Men esa bundan ham battar...» deb o'yladi.

Har bir taassurotdan darhol Fomada, men yashashga layoqatsiz bo'lsam kerak, degan achchiq fikr paydo bo'lardi. U nimaga e'tibor qilmasin, hammasida jo'ngliga ozor beruvchi allaqanday narsa borligini sezar va bu narsa yuragiga borib toshdek o'rnashib qolar edi.

Kechqurun u yana Mayakinlarnikiga bordi. Chol uyda yo'q, Lyubov akasi bilan yemakxonada choy ichib o'tirardi. Eshikka yaqinlashgach, Foma Tarasning xirillagan ovozini eshitdi:

– U bilan ovora bo'lishga otamni nima majbur qiladi?

U Fomani ko'rib qolib, uning yuziga sinchiklab, jiddiy tikilib, jim bo'lib qoldi. Lyubovning o'ng'aysizlangani yuzidan ma'lum, ravshan edi. U xuddi uzr so'raganday, Fomaga:

– A! Senmisan... – deb qo'ydi.

«Mening haqimda gaplashayotgan ekanlar!..» deb o'yladi Foma stol yoniga o'tirarkan.

Taras undan ko'zini obqochib, oromkursiga chuqurroq joylashib oldi. Bir daqiqacha o'ng'aysiz jimlik hukm surdi va bu Fomani quvontirdi.

Nihoyat Lyubov:

– Sen ziyofatga borasanmi? – deb so'radi.

– Qanaqa ziyofat?..

– Hali xabaring yo'qmi? Kononov yangi paroxodiga xudoyi qilyapti... Oldin duoyi fotiha bo'ladi, keyin Volganing yuqorisiga sayr qilishadi...

– Meni chaqirishmagan, – dedi Foma.

– Hech kimni chaqirishgan emas... U birjada, meni hurmat qilgan odamlar kelaversin, marhamat, degan!

– Menga o'ng'aysiz...

– Shunaqami? Hushyor bo'l, u yerda ichkilik juda katta bo'ladi, – dedi Lyubov, unga ko'z qiri bilan qarab.

– Agar istasam, o'z pulimga ichaman...

– Bilaman! – dedi Lyubov, ma'noli bosh irg'ab. Taras ularga zimdan nazar tashlab, choy qoshiqni barmoqlari orasida aylantirib o'ynardi.

– Otaxonim Qayerda? – deb so'radi Foma.

– Bankka ketdi... Bugun pravleniye majlisi bor... Saylov bo'ladi...

– Yana uni saylashadimi?..

– Albatta...

Yana gap uzilib qoldi. Taras oshiqmay, katta-katta ho'plab choyini ichdi-da, stakanni indamay singlisi tomon surib unga jilmayib qo'ydi. Singlisi ham baxtiyor jilmayib, stakanni oldi-yu, uni tozalab yuvishga tutindi. Keyin yuziga jiddiy tus berib, nihoyatda ehtiyotkorlik va zo'r hurmat bilan akasidan ohista so'radi:

– So'zimizni boshidan boshlasak maylimi?

– Marhamat, – dedi Taras kalta qilib.

– Sen aytding-u, lekin, men tushunmadim, nima edi? Men: «Seningcha, agar bularning hammasi utopiya bo'lsa, agar bu mumkin bo'lmasa... xayol bo'lsa... hayotdan qanoatlanmagan odam nima qilishi kerak?» deb so'radim.

Uning ko'zlari javob kutib, akasining sokin chehrasiga tikildi. Taras unga bir qarab qo'ydi-da, oromkursida bir qimirlab olgandan keyin, boshini egib, xotirjamlik bilan salmoqli qilib gap boshladi:

– Hayotdan qanoatlanmaslik degan narsaning qaysi manbadan kelib chiqishini o'ylash kerak... Balki bu mehnatga layoqatsizlikdan... mehnatni hurmat qilmaslikdandir? Yoki o'z kuchi to'g'risida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishdandir... Ko'p odamlarning baxtsizligi ham shundaki, ular qo'lidan kelmaydigan ishga qurbim yetadi, deb o'ylaydilar... Holbuki, odamdan ko'p narsa talab qilinmaydi, u o'z qurbiga yarasha ish tanlashi lozim va bu ishni mumkin qadar puxta qilishi kerak. Bajarayotgan ishingni sevishing kerak, ana o'shanda mehnat – eng qo'pol mehnat ham – ijod darajasiga ko'tariladi... Ixlos bilan qilingan stul hamma vaqt yaxshi, chiroyli va puxta bo'ladi... Hamma ishda ham shunday... Sen Smaylsni o'qib ko'r, o'qimaganmisan?

Juda yaxshi kitob... Sog'lom kitob... Lebbokning «Hayot quvonchlari» degan kitobini o'qi... Umuman, esingda bo'lsin, inglizlar mehnatga eng qobiliyatli millat, ularning sanoat va savdo sohasidagi ajoyib muvaffaqiyatlarining boisi ham shunda... Ular deyarli mehnatga topinadilar... Madaniyatning yuqoriligi ham har qachon mehnatga bo'lgan muhabbatga bog'liq... Madaniyat qanchalik yuqori bo'lsa, kishilarning ehtiyoji shunchalik yaxshi ta'min qilinadi va kishilar ehtiyojining bundan keyingi o'sishiga to'sqinliklar ham

kamroq bo‘ladi... Baxt – ehtiyojning mumkin qadar to‘la ta’min etilishi degan so‘z... Shunday... Mana, ko‘ryapsanki, odamning baxti uning o‘z mehnatiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq...

Taras Mayakin shu qadar sekin va cho‘zib gapirardiki, go‘yo gapirishi uning o‘ziga malol kelayotganday, zerikayotganday tuyulardi, Lyubov esa qoshlarini chimirib, unga tomon cho‘zilar, zo‘r diqqat bilan ko‘zini akasiga tikib, uning hamma so‘zlariga jon-jahdi bilan quloq solar va diliga singdirib olishga urinar edi.

Bu orada Foma gap boshlab:

– Bordi-yu, odamga hech narsa yoqmasa-chi?.. – dedi. Mayakin Fomaga qaramasdan bafurja so‘radi:

– Masalan, nima yoqmaydi?

Foma boshini egib, qo‘llarini stolga tiragan holda qaysarlik bilan tushuntira boshladi:

– Hamma narsa ko‘ngilga sig‘maydi... Ishlar... mehnat... odamlar... Masalan, aytaylik, men hammasi faqat aldashdan iboratligini ko‘rib tursam... Ish deganimiz ish emas, ko‘ngil bo‘shligini xaspo‘shlaydigan anchayin bir narsa bo‘lsa-chi... Birovlar ishlaydilar, birovlar buyruq qiladilar-u, rosa terlaydilar... Lekin buning uchun ko‘proq haq oladilar... Xo‘sh, nega shunday? A?

Foma, Lyubovning mensimasdan achchig‘i chiqib qarab turganini payqab, so‘zidan to‘xtashi bilan Taras:

– Sizning fikringizga tushunmayapman!.. – deb qo‘ydi.

– Tushunmayapsizmi? – deb so‘radi Foma Tarasga masxaraomuz kulib qarab. – Masalan... aytaylik, bir odam qayiqqa tushib daryoda ketyapti, deylik... Ehtimol, qayiq yaxshidir, lekin ostidagi suv chuqur... Qayiq puxta bo‘lsin... Agar odam ostida shunday qorong‘i chuqur borligini sezsa bormi... uni hech qanday qayiq ham qutqara olmaydi...

Taras Fomaga beparvo va xotirjamlik bilan qarab qo‘ydi. Qarab qo‘ydi-yu, indamay barmoqlari bilan stol chetini chertib o‘tirdi. Lyubov besaranjom bo‘lib, stul ustida aylanardi. Soat millari xo‘rsinganday, bo‘g‘iq tovush chiqarib chiqillardi. Fomaning yuragi ham bu yerda uning dardiga qo‘shiladigan, iliq so‘z bilan hamdamlashadigan bironta odam yo‘qligini sezib, sekin va og‘ir ura boshladi.

Bu odamlardan ko‘ra o‘ziga gapirgandek:

U sekingina yemakxona yonidagi ikkinchi bir xonaga kirib oldi. Bu xona qorong'i va faqat qiya ochiq eshikdan tushgan shu'lagina qorong'i polga uzun tasma singari cho'zilib tushgan edi. Foma yuragini hovuchlab, sekingina eshik yoniga kelib turdi...

– Badhazm yigit... – dedi Taras.

Lyubov ovozini pastlatib, shosha-pisha gapira boshladi.

– Bu yerda u doim aysh qilib, ichib yurdi... Axloqsizlik qildi! Bu qiliq unda qo'qqisdan paydo bo'ldi... Dastlab u klubda vitse-gubernatorning kuyovini do'pposladi... Otam bu janjalni bosti-bosti qilib yuborish uchun ne-ne harakatlar qildi... Yaxshiki, kaltak yegan odamning o'zi ham badnom ekan... Shunga qaramay, otamga bu ikki ming so'mdan oshiqqa tushdi... Otam bir janjalni bostirguncha, Foma bir to'da odamlarni oz bo'lmasa, Volgada g'arq qilib yuborayozdi.

– Obbo ablah-e! Tag'in u hayotning ma'nosini tekshirmoqchi-ya...

– Yana bir safar o'ziga o'xshagan odamlar bilan birga paroxodda sayr qilib yurganda, birdan ularga: «Xudoga yolvoringlar! Hozir hammangizni suvga ag'darib yuboraman!» degan. O'zi nihoyatda kuchli... Haligilar dod solishgan... U bo'lsa: «Vatanga xizmat qilishni istayman, yer yuzini iflos odamlardan tozalashni istayman...» degan.

– Bunisi o'tkir gap!..

– Dahshatli odam! Shu yillar ichida u ne-ne vahshiyona qiliqlar qildi... Qanchadan qancha pulni sovurdi!

– Qani, ayt-chi, otam uning ishlarini qanday shart bilan olib boradi, bilmaysanmi?

– Bilmayman! Unda to'liq ishonch vakolati bor... Nimaga edi?

– O'zim... Katta ish! Biroq ruschasiga yo'lga qo'yilgan, butunlay rasvo... Lekin shunga qaramay, yaxshi ish! Agar u bilan astoydil shug'ullanilsa...

– Foma hech bir ish qilmaydi... Hammasi otamning qo'lida...

– Shundaymi?

– Bilasanmi, goho Fomaning bunday... o'ychan yurishi, so'zlari menga samimiy tuyuladi va men, ajabtovur odam bo'lishi ham

mumkin, degan xayolga boraman. Lekin bu qadar serg'alva hayotini uning so'zlari va mulohazalari bilan hech kelishtirolmayman...

– Bu haqda g'am yeb o'tirishning hojati ham yo'q... U bir g'o'r va dangasa odam, o'zining dangasaligiga bahona qidiradi...

– Yo'q, bilasanmi, goho u xuddi go'dak bolaga o'xshaydi.

– Men g'o'r dedim-ku. O'zi yovvoyi va nodon bo'lishni istagan nodon va yovvoyi odam haqida gapirib o'tirishga arziydimi! Ko'rib turibsan-ku, u xuddi masaldagi arava shotisini sindirgan ayiqqa o'xshab mulohaza yuritadi...

– Sening qahring qattiq...

– Ha, qahrim qattiq! Odamlar shuni talab qiladi. Biz ruslar hammamiz ham nihoyatda shalviragan odamlarmiz... Xayriyat, hayot o'zi shunday boryaptiki, biz istasak ham, istamasak ham asta-sekin olg'a bosamiz... Xayollar yigitlar bilan qizlarga yarashadi, jiddiy odamlarga – jiddiy ish...

– Goho Fomaga juda achinaman... Unga nima bo'larkin-a?

– Hech narsa bo'lmaydi – yaxshi ham, yomon ham bo'lmaydi... Pulini sovurib tamomlagach, sinadi... E, qo'ysang-chi o'shani! Unga o'xshagan odamlar endi kam. Endigi savdogar ilmning qadrini biladi... Sening tutingan akang esa, halok bo'ladi...

– To'g'ri aytasan, barin! – dedi Foma, ostonada paydo bo'lib. U rangi o'chgan holda, qoshlarini chimirib, lablarini qiyshaytirib, Tarasga tik qarab, bo'g'iq ovoz bilan gapirdi: – To'g'ri! Men halok bo'laman, omin! Qani endi tezroq bo'lsa!

Lyubov yuzida vahima bilan sapchib stuldan turdi-da, qo'llarini cho'ntagiga tiqib xonaning o'rtasida pinagini buzmay turgan Tarasning yoniga chopib bordi.

– Foma! O! Uyat emasmi? Bildirmay quloq solib turganmiding hali, ah, Foma! – dedi u o'zini yo'qotib.

– Jim! Sovliq!

– Ha-da, eshik oldida poylab turish yaxshi emas! – dedi Taras sekin-asta Fomaga nafrat bilan tikilib.

– Yaxshi bo'lmasa, yaxshi bo'lmas! – dedi Foma qo'l siltab. – Haqiqatni faqat bildirmay quloq solib eshitish mumkinligiga men aybdormi?

– Ket, Foma! O'tinaman! – dedi Lyubov, akasiga yopishib.

– Balki, siz menga biron narsa aytmoqchidirsiz? – deb so‘radi Taras pinagini buzmay.

– Menmi? – deya qichqirdi Foma. – Men nima ham derdim?! Hech narsa aytolmayman!.. Mana, faqat sizgina hamma narsani ayta olasiz...

– Demak, men bilan gaplashadigan gapingiz yo‘q? – deb yana so‘radi Taras.

– Yo‘q!

– Unday bo‘lsa xursandman...

U Fomaga yonboshi bilan o‘girilib, Lyubovdan:

– Nima deb o‘ylaysan, otam tez qaytarmikin? – deya so‘radi.

Foma unga qarab qo‘ydi va bu odamga nisbatan o‘zida hurmatga o‘xshash bir narsa paydo bo‘lganini sezib, indamay ohista uydan chiqib ketdi. U o‘z uyiga, har bir qadami aks sado berib gumburlaydigan bo‘m-bo‘sh xonaga borgisi kelmadi-da, kech kuzakning mungli surrang g‘ira-shirasi qoplab olgan ko‘cha bo‘ylab ketdi. U Taras Mayakin to‘g‘risida o‘ylardi.

«Pishiq... otasiga o‘xshaydi, lekin shoshqaloq emas... Balki, bu ham qallobdir... Lyubka bo‘lsa – uni qariyb avliyo deb yurardi, ahmoq! U meni rosa bopladi-da! Sudya... Lyubov menga rahmdil!»

Biroq bu o‘ylar Tarasga nisbatan na kek va na Lyubaga nisbatan muhabbat uyg‘otdi.

Mana, uning yonidan otaxonining yo‘rg‘asi o‘tib ketdi. Foma Yakov Mayakinning kichkina gavdasini ko‘rdi, biroq bu ham Fomaga hech qanday ta’sir qilmadi. Fonarchi chopib, undan o‘tib ketdi-da, fonarga shotisini qo‘yib chiqa boshladi. Lekin shotisi uni ko‘tarolmay birdan surilib ketdi-yu, u fonar ustunini quchoqlab qolib, jahl bilan qattiq so‘kindi. Allaqanday bir qiz tuguni bilan Fomaning biqiniga turtib yubordi-da:

– Ah, kechirasiz... – deb qo‘ydi.

U qizga qarab qo‘ydi-yu, lekin hech narsa demadi. Keyin osmondan qirov tusha boshladi, ko‘zga arang ilashayotgan mayda-mayda ho‘l zarralar fonar shu’lasini va magazinlarning derazalarini kulrang chang kabi to‘sib oldi. Bu changdan nafas olish qiyinlashdi.

«Yejovnikiga borib yotsammikin? U bilan ichsam...» deb o‘yladi Foma felyetonchini ko‘rishni ham, ichishni ham istamaganiga qaramay, Yejovnikiga qarab ketdi...

Yejovnikida, divanda egniga bluza, surrang shim kiygan, sochlari hurpaygan bir odam o'tirardi. Uning yuzi xuddi dudlangandek qop-qora, ko'zlari harakatsiz va g'azabnok, qalin lablari ustida esa, soldatlarnikiga o'xshagan tikanakdek mo'ylovi dikkaygan edi. U divanga oyog'ini bemalol qo'yib, so'laqmonday qo'llari bilan oyoqlarini quchoqlab, jag'ini tizzasiga tirab o'tirardi. Yejov esa, oyoqlarini oromkursining suyanchiqlari orasidan o'tkazib, yoni bilan o'tirardi. Stoldagi kitob va qog'ozlar o'rtasida bir shisha aroq ko'rinar, xonadan dudlangan baliqning hidi kelardi.

– Nega daydib yuribsan? – deb so'radi Yejov Fomadan va boshi bilan imo qilib, divanda o'tirgan odamga: – Gordeyev! – deb qo'ydi.

Haligi odam Fomaga qarab qo'ydi-da, dag'al va xirillagan ovoz bilan:

– Krasnoshekov... – dedi.

Foma divanning bir chetiga o'tirarkan:

– Tunagani keldim... – dedi.

Haligi odam Fomaga ko'z qiri bilan qarab qo'yib, xirillagan ovozda gapga tushib ketdi:

– Menimcha, siz o'sha ahmoq odamlarga bekorga osilasiz – Mazanello ahmoq bo'lsa ham, lekin o'z ishini juda puxta qilib bajargan. Allaqanday Vinkelrid ham ehtimol ahmoq bo'lgandir... Holbuki, agar u imperiya nayzasiga o'zini ro'para qilmaganda balki, shvetsariyaliklarning adabini bergan bo'lardi. O'shanga o'xshagan ahmoqlar ozmi! Holbuki, ular qahramon... bilarmon, aqllilar esa qo'rqoq! G'ovlarni yanchish payti kelganda, aqlli janob o'ylashga tushadi: «Bundan nima chiqadi? Yana bekorga halok bo'lib ketmayin?» deb bosh qotiradi. Ish oldida qoziqday qotib, o'lguncha qaqqayib turaveradi. Ahmoq – botir bo'ladi! Peshanasi bilan devorni tikka kelib uradi! Boshi yorilsa nima qipti! Buzoqning boshi qimmat emas... U devorni teshib qo'ygandan keyin, aqllilar uni kengaytib, darvoza ochib, kirishadi-da, shuhratni o'zlariniki qilib oladilar! Yo'q, Nikolay Matveich, qahramonlik, garchi aql aralashmasa hamki, yaxshi narsa...

– Vasiliy, sen ahmoqona gap qilyapsan! – dedi Yejov unga qo'lini cho'zib.

– Albatta! – dedi Vasiliy rozi bo‘lib. – Chipta kavush bilan karam sho‘rva ichishni menga kim qo‘yibdi... Har holda men ko‘r emasman... Mana, ko‘rib turibman, aql ko‘p-u, foydasi yo‘q.

– Shoshma hali! – dedi Yejov.

– Bo‘lmaydi! Bugun men navbatchiman... Hali ham kech qoldim shekilli... Ertaga kelaman, maylimi?

– Mayli! Titig‘ingni chiqaraman!

– Senlarning ishlaring shu-da...

Vasiliy sekin qaddini rostlab divandan turdi-da, katta qora qo‘li bilan Yejovning sariq, ozg‘in qo‘lini qisdi.

– Xayr bo‘lmasa!

Keyin Fomaga bosh irg‘ab qo‘yib, eshikdan yonboshi bilan chiqib ketdi.

Yejov uning oyoq tovushi eshitilgan eshik tomonni qo‘li bilan Fomaga ko‘rsatib:

– Ko‘rdingmi? – deb so‘radi.

– Qanaqa odam?

– Mashinistning yordamchisi, Vaska Krasnoshekov... Mana shundan o‘rnak ol. O‘n besh yoshida o‘qish-yozishni o‘rgangan, yigirma sakkizga kirguncha kim biladi, qanchadan qancha yaxshi kitoblarni o‘qib tashlagan, ikkita tilni mukammal biladi... Chet elga ketyapti...

– Nega? – deb so‘radi Foma.

– O‘qigani, u yerdagi odamlarning qanday yashashini ko‘rgani... Sen bo‘lsang, bijib yotibsan...

– Ahmoqlar haqida juda to‘g‘ri gapirdi! – dedi Foma o‘ylanqirab.

– Bilmadim, chunki men ahmoqmasman...

– To‘g‘ri gap! Befahm odam birdan harakat qilishi kerak... Yopishdingmi, ag‘darib tashla...

– Jag‘ing ochilib ketdi! – deb qichqirdi Yejov. – Yaxshisi, sen menga shuni ayt: Mayakinning o‘g‘li qaytgani rostmi?

– Rost... nima edi?

– Hech narsa!

– Aftingdan, biron gap borga o‘xshaydi...

– Uni biz yaxshi bilamiz – uning to‘g‘risida eshitganmiz... Otasiga o‘xshaydimi?

– Yumaloq... jiddiyroq... Lekin o'lgudek sovuq!

– Sen og'ayni, hushyor bo'l! Ular yana seni g'ajib qo'yishmasin... Bu Taras Yekaterinburgda o'z qaynatasining nonini tuya qilyapti.

– Agar istasa, mayli, menikini ham tuya qilsin... Buning uchun men unga rahmatdan boshqa hech narsa demayman...

– Sen hamon o'sha eski gapni gapirib yuribsanmi? Ozod bo'lishni istaysanmi? Bo'lmagan gap! Senga ozodlikning nima keragi bor? Sen uni nima qilasan? Axir, qo'lingdan hech narsa kelmaydi, savodsizsan... Agar men aroq ichish va non yeyish zaruratidan qutulolsam edi!

Yejov sapchib o'rnidan turdi-da, Fomaning ro'parasiga kelib, xuddi deklamatsiya o'qiganday baland ovoz bilan gapira ketdi.

– Men qiynalib ado bo'lgan jonimning qolgan-qutganini yig'ardim-u, yuragimning qoni bilan birga qo'shib intelligensiyamizning basharasiga tupurardim, la'nat o'shalarga! Men ularga aytardim. «Siz, qo'ng'izlar, mamlakatning eng yaxshi sharbatisiz! Sizlarning bunyodga kelishlaringiz uchun rus xalqining o'nlab avlodi qon-yosh to'kkan! O! Sirkalar! Mamlakatingizga naqadar qimmatga tushgansiz! Siz unga nima ish ko'rsatyapsiz ? O'tmishda oqqan ko'z yoshlarini injuga aylantirdingizmi? Siz hayotga nima berdingiz? Nima qildingiz? Yengilib oyoq osti bo'lishingizga yo'l qo'ydingizmi? Nima qilyapsiz? O'zingizni masxara qildirib, indamay qarab turibsiz...» derdim.

U g'azab ichida oyoqlari bilan yer tepdi-da, tishlarini qisib, quturgan yirtqichning ko'zlari kabi chaqnab turgan dahshatli ko'zlarini Fomaga tikdi.

– Men ularga: «Siz! Sizlar haddan ziyoda safsata sotasiz-u, ammo aqlingiz kam va butunlay ojizsiz – hammangiz qo'rqoqsiz! Sizlarning qalbingiz nasihat va yaxshi niyatlar bilan liq to'la-yu, biroq momiqday yumshoq va iliq, ijod ruhi unda tinchgina, qotib uxlab yotibdi, sizlarning qalbingiz tepmaydi, aksincha, xuddi beshikday sekingina tebranib turadi», derdim. Men barmog'imni yuragimning qoniga botirib olib, ularning peshanasiga ta'nalarim tamg'asini bosardim, ana undan keyin, mahan qashshoq va o'zlaridan mamnun bo'lgan o'sha baxtsizlar azob chekardilar... O, o'shanda ular naqadar azob chekardilar! Mening qamchim ingichka, ammo qo'lim qattiq!

Men ayamayman, chunki nihoyatda sevaman! Endi ular azob chekmaydilar, chunki chekkan azoblari to'g'risida juda ko'p va tez-tez og'iz ko'pirtirib, baqirib gapiradilar: Yolg'on aytadilar! Haqiqiy azob unsiz bo'ladi, haqiqiy ehtiros to'siqni bilmaydi!.. Ehtiros, ehtiros! Odamlar qalbida bu ehtiros qachon paydo bo'larkin? Hammamiz shu ehtirossizligimiz orqasida baxtsizmiz...

U nafasi bo'g'ilib yo'tala boshladi va xona ichida xuddi telba odamday, qo'llarini o'ynatib yurarkan, uzoq yo'taldi. So'ngra rangi o'chgan va ko'zlariga qon to'lgan holda yana Fomaning oldiga kelib to'xtadi. U og'ir nafas olar, lablari titrab, mayda va o'tkir tishlari ko'rinib ketar edi. Ust-boshi to'zigan, sochlari kalta bu odam xuddi suvdan chiqarib tashlangan yorsh balig'iga o'xshardi. Foma Yejovni bunday ahvolda birinchi marta ko'rayotgani yo'q, uning hayajoni har safargidek, bu gal ham unga yuqdi Foma bu kichkina odamning otashin so'zlariga jimgina quloq solar, ularning ma'nosini tushunishga ham urinmas, kimga qarshi aytilayotganini ham bilishni istamas, faqat uning kuchini hazm qilardi. Yejovning so'zlari xuddi qaynoq suvdek uning ustiga sachrar va ko'nglini isitar edi.

– Men o'z kuchimning me'yorini bilaman, bilaman-u menga: «Ovozingni o'chir!» deb qichqiradilar. «Jim!» deydilar. Yotig'i bilan aytadilar, ohistagina aytadilar, meni masxara qilib, o'zlarini katta olib aytadilar... Men bilaman – men bir kichkina qushchaman, lekin bulbul emas! Ularga nisbatan men nodon, odamlarning ko'nglini ko'taradigan bir felyetonchiman, xolos... Mayli, baqiraversinlar, mayli, mening og'zimga ursinlar, mayli! Yuzimga tarsaki tushsa ham, har holda, yuragim urib turadi-ku! O'shanda men ularga derdim: «Ha, men nodon! Ammo sizlardan birinchi ustunligim shuki, men uchun odamdan ko'ra qadrli bo'lgan bironta ham kitobiy haqiqatni bilmayman! Inson koinotdir, yashasin, olamning mujassami bo'lgan inson abadiy! Sizlar esa, ba'zan o'zlaringiz ma'nosini tushunib yetmagan biron so'z uchun goho bir-birlaringizning dilingizni og'ritasizlar, yaralaysizlar, shu so'z tufayli bir-biringizga zahringizni sochasizlar, qalblarga jabr qilasizlar... Buning uchun sizlarni hayot hali xo'p jazolar, ishoninglar, bo'ron turar, sizlarni yer yuzidan daraxtdagi changlarni yomg'ir va shamol yuvib yuborganidek, supurib tashlar!.. Odamlar tilida, ma'nosi hammaga ravshan va qadr-

li bo'lgan, birgina so'z bor va bu so'z aytilgan chog'da mana shunday jaranglaydi: ozodlik!»

Foma divandan irg'ib turib, Yejovning yelkasidan ushlab:

– Gapir-a! – deb bo'kirdi. Foma Yejovga egilib, chaqnab turgan ko'zlari bilan uning yuziga qarar, ma'yus, qariyb alam bilan ingrardi: – Eh-h, Nikolka... Azizim, senga o'lgudek achinaman! Shu qadar achinamanki, aytishga so'z topolmayman!

– Nima gap? Nima bo'ldi senga? – deya qichqirdi Yejov uni nari itarib. Yejov Fomaning qo'qqisdan bu qadar hayajonlanganiga va uning g'alati so'zlariga dong qotdi.

– Eh, og'ayni! – dedi Foma ovozini pastlatib va shu tufayli uning so'zlari ishonchli va shirali bo'lib chiqa boshladi: – Tirik jonsan-u, nima uchun halok bo'lasan?

– Kim? Menmi? Halok bo'lyapman? Yolg'on!

– Azizim! Sen hech kimga hech narsa aytmaysan! Hech kimga! Kim senga quloq soladi? Faqat mengina...

Yejov undan xuddi olovdan qochganday chetlab:

– Yo'qol nari! – deb baqirdi.

Foma esa ishonarli qilib, chuqur qayg'u ichida gapirardi:

– Sen gapir! Menga gapir! Men sening so'zlaringni tegishli yerga yetkazaman... Men seni tushunaman... Eh, odamlarni shunday kuydirayki! Faqat shoshmay tur!.. Payti kelib qoladi menga!..

– Ket! – deb baqirdi Yejov asabiy holda orqasi bilan devorga suyanarkan. U parishon, ruhi ezilgan, g'azablangan holda Fomaning unga tomon cho'zib turgan qo'llarini nari itarar edi. Shu vaqt xonaning eshigi ochilib, bo'sag'ada allaqanday qop-qora bir xotin ko'rindi. Uning yuzi badjahl, g'azabli, jag'ini ro'moli bilan bog'lab olgan edi. U boshini ko'tarib, Yejovga qo'l cho'zarkan, bijirlab va hushtak chalib gapira boshladi.

– Nikolay Matveich! Kechirasiz, bu nimasi, axir! Vahshiyona baqirish, bo'kirish!.. Har kuni mehmon... Politsiya yuribdi... Yo'q, men ortiq chidolmayman! Mening asablarim... Marhamat qilib, ertaga uyni bo'shatib qo'ying... Axir sahroda turmaysiz-ku, atrofingiz odam!.. Hammaga tinchlik kerak... Mening tishim og'riyapti... Ertagayoq bo'shating, o'tinaman...

Ayol tez-tez gapirar, so'zlarining ko'p qismi vishillagan va chiyillagan ovozlar orasida yo'q bo'lib ketardi. U chinqirib, jahl bilan aytgan so'zlargina aniq eshitilardi. Rõ'molining uchi, xuddi kichkina shoxga o'xshab, boshi ustida dikkayib turar va jag'i qimirlagan sari silkinar edi. Foma uning hayajonlangan va kulgili gavdasini ko'rishi bilanoq, divanga o'tirdi. Yejov peshanasini ishqab, uning so'zlariga diqqat bilan quloq solib tik turardi...

– Bilib qo'ying! – deb qichqirdi xotin va eshik orqasidan yana bir karra dedi, – ertagayoq! Bu qanday bemazagarchilik...

– Shayton! – deya pichirladi Yejov, eshikka ag'rayib qarab.

– Uni qara-ya! Jahli yomon! – dedi Foma unga hayron bo'lib tikilib.

Yejov yelkalarini dikkaytirib, stol yoniga keldi, yarim stakan aroq quydi-da, uni ichib bo'lgach, stol yoniga o'tirib, boshini quyi soldi. Bir muddat indamay o'tirdilar. Keyin Foma hadiksirab ohistagina:

– Bu qandoq bo'ldi, a?.. Ko'z ochib yumishga ulgurmay turib, qo'qqisdan bunaqa ish... a? – dedi.

Yejov boshini ko'tarib, jahli chiqib, Fomaga g'ijinib qaradi-da:

– Sen! Ovozingni o'chir! Jin ursin seni... Yot, uxla! Yovuz... Dahshat... huv! – dedi.

U Fomaga musht do'laytirib qo'ydi. Shundan keyin yana aroq quyib ichdi...

Bir necha daqiqadan keyin Foma yechinib, divanga yotdi-da, chala yumuq ko'zlari bilan Yejovni kuzata boshladi. Yejov esa stol yonida, ikki bukilib, qimir etmay o'tirardi. Uning ko'zlari polga qadalgan, lablari esa ohista pichirlar edi... Foma hayron bo'ldi: Yejovning nima uchun achchig'i kelganini tushunmas edi. Kvartiradan haydayotganlari uchun emasdir, axir? Axir o'zi baqirdi-ku...

– O, iblis! – deb pichirladi Yejov va tishlarini g'ijirlatib qo'ydi.

Foma sekingina boshini yostiqdan ko'tardi. Yejov chuqur xo'rsinib, yana qo'lini shishaga cho'zdi... Shu choq Foma sekingina:

– Yaxshisi, biron musofirxonaga boraylik... Hali kech emas, – dedi.

Yejov unga qarab qo'ydi-da, boshini qo'llari bilan ishqab, g'alati qilib kulib yubordi. Keyin stuldan turdi-da, Fomaga kaltagina qilib:

– Kiyin! – dedi.

Fomaning divanda beso'naqay va sekin qimirlayotganini ko'rib, toqatsizlik bilan jahl aralash:

– Qani, bo'l tezroq!.. – deb qichqirdi.

– Sen qichqirma! – dedi Foma muloyimgina kulimsirab. – Xotin kishining vaqillagani xafa bo'lishga arziydimi?

Yejov unga qarab qo'ydi-da, yerga tupurib, qattiq xaxolab kulib yubordi...

XIII

– Hamma shu yerdami? – deb so'radi Ilya Yefimovich Kononov. U o'zining yangi paroxodining tumshug'ida turar va ko'zlarini chaqnatib, bir to'da mehmonlarga nazar tashlar edi. – Hamma shekilli! – deb qo'ydi.

U qip-qizil va baxtiyor baqaloq yuzini osmonga qaratib, ko'prikchadagi rupor yonida turgan kapitanga qichqirdi:

– Hayda, Petruxa!

– Xo'p bo'ladi!

Kapitan yarg'oq boshini yalang'ochlab, osmonga tikilib, astoydil cho'qindi, qo'li bilan qop-qora patak soqolini silab, tomoq qirib qo'ygach, komanda berdi:

– Orqaga! Sekinroq!!

Mehmonlar ham kapitanga ergashib cho'qina boshladilar, ularning kartuzlari va silindrlari, xuddi bir gala qora qush singari havoda lipilladi.

Kononovning ko'ngli erib:

– O'zingga topshirdim, xudoyim! – deb qichqirdi.

– Tumshug'ini langardan bo'shat! Olg'a! – deb komanda berdi kapitan.

Katta «Ilya Muromes» paroxodi haybat bilan xo'rsinib, pristanga bug' purkadi-da, keyin xuddi oqqushga o'xshab, oqimga qarshi ohista suzib ketdi.

Uzun bo'yli, ozg'in va xushbichim savdo maslahatchisi Lup Reznikov esa zavq bilan:

– Ketishini qara! Qilt etmaydi-ya! Xuddi o‘yinga tushgan barinyaday, – deb qo‘ydi.

Shaharda birinchi sudxo‘r hisoblangan sobor oqsoqoli, cho‘tir yuzli bukri Trofim Zubov esa taqvodorlik bilan xo‘rsinib:

– Baayni Leviafan![1] – dedi.

Havo aynigan edi. Hamma yog‘ini kuzgi bulutlar qoplab olgan osmon daryo suvida aks etib, unga qo‘rg‘oshin tusini berardi. Yangi bo‘yoqlari yarqirab turgan paroxod bir tusdagi daryo betida katta, yaltiroq dog‘ga o‘xshab suzib borar va u nafas olganda chiqargan qop-qora tutum esa havoda og‘ir qora bulutday muallaq turar edi. Gavdasi oppoq, turli mexanizm g‘iloflari pushti, g‘ildiraklari qip-qizil bo‘lgan bu paroxod, tumshug‘i bilan muzdek suvni yengilgina yorib va uni ikkala qirg‘oqqa haydab borar, bortlaridagi yumaloq derazalarning, hamda rubkalardagi derazalarning oynalari xuddi mag‘rur va g‘olibona kulimsiraganday, ko‘zlarni qamashtirib yaltillar edi.

– Hurmatli janoblar! – dedi Kononov boshidan shlapasini olib, mehmonlarga bukilib ta’zim qilarkan, – hozir biz, men sizga aytsam, xudoning hurmatini bajo keltirdik, endi ijozat bersangizlar, musiqachilar podsho hazratlarining hurmatini bajo keltirsalar!

Shunday dedi-yu, mehmonlarning ruxsatini ham kutmasdan, og‘ziga mushtini qo‘yib qichqirdi:

– Musiqa! «Slavsya»ni chal!

Mashina bo‘limining orqasida turgan harbiy orkestr, gumburlatib marsh chalib yubordi.

Savdo-tijorat bankining direktori Makar Bobrov, musiqa ohangiga moslab yo‘g‘on qornini chertib, shirali ovoz bilan kuylay boshladi:

– Shuhrating yoyilsin, shuhrating yoyilsin, bizning rus podshosi, tra-ra-ta! Bum!

– Stolga marhamat qilinglar, janoblar! Marhamat! Xudoyim yuborgan nasiba... o‘tinib so‘rayman!.. – deya taklif etdi Kononov, g‘uj bo‘lib turgan mehmonlar orasida turtinib-surtinib yurarkan.

Mahalliy savdogarning guli bo‘lgan bu salobatli odamlarning hammasi o‘ttiz chog‘li edi. Keksalar – yarg‘oq boshli mo‘ysafidlar

---

[1] L e v i a f a n – diniy afsonalardagi nihoyatda katta va kuchli vahshiy hayvon.

eski modada tikilgan surtuk, kartuz va butilkasimon etik kiygan edilar. Biroq bundaylar oz edi, ko'pchilik silindr, shtiblet va modaga muvofiq tikilgan vizitka kiygan. Bularning hammasi ham paroxodning tumshuq tomonida to'planib turardi. Kononovning taklifiga bo'ysunib, ular asta-sekin paroxodning orqa tomoniga, usti parusina bilan yopib qo'yilgan, ovqatlar bilan yasatilgan stollar turgan tomonga o'ta boshladilar. Lup Reznikov Yakov Mayakinni qo'ltiqlab olib, uning qulog'iga engashib allanimani pichirlar, Mayakin esa kulib kelar edi. Otaxonining uzoq nasihatidan so'ng Foma bu ziyofatga arang kelgandi. Bu odamlarni u yomon ko'rar va ular orasida o'ziga o'rtoq topolmay, qovog'ini solib, rangi o'chib, yolg'iz o'zi bir chetda turardi. U so'nggi ikki kun ichida Yejov bilan birga juda ko'p ichgan va karaxtlikdan boshi tars yorilay deb og'rir edi. Foma bu sersavlat janoblar orasida o'zini o'ng'aysiz sezar, odamlarning olag'ovuri, musiqaning gumburlashi va paroxodning shov-shuvi – hammasi uning g'ashiga tegar edi.

U bosh og'rig'i uchun juda ichgisi kelib turganini sezar va bir fikr unga hech tinchlik bermasdi: «Nega otaxoni bugun unga bu qadar mehribonlik qildi? Nega uni shaharda nomi chiqqan kazo-kazo savdogar kampaniyasiga birga olib keldi? Nega Kononov uyushtirgan ibodat bilan ziyofatga borishga ko'ndirish uchun unga bunchalik yalinib-yolvordi?»

Paroxodda ayni ibodat ketayotgan mahalda yetib kelgan Foma, to ibodat tugaguncha bir chetga chiqib, savdogarlarni kuzatib turdi.

Ular zo'r hurmat bilan sukut saqlab turardilar va yuzlarida ixlosmandlik ifodasi bilan chuqur xo'rsinib, ko'zlarini ko'kka tikib, ta'zim-la bukilib, astoydil ibodat qilardilar. Foma bo'lsa, goh unisiga, goh bunisiga qarar, ular to'g'risida bilganlarining hammasini eslardi.

Mana, Lup Reznikov, u o'z ishini fohishaxonaga xo'jayin bo'lishdan boshladi va hademay birdaniga boy bo'lib ketdi. Aytishlariga qaraganda, u o'zining mehmonlaridan birini, sibiriyalik bir boyni bo'g'ib o'ldirgan emish... Zubov yoshligida dehqonlardan ip sotib olarkan. Ikki bor singan ekan... Kononov bundan yigirma yil burun, o't qo'ygani uchun sudga tushgan ekan, mana, hozir ham norasida qizni bulg'ab qo'ygani uchun ishi tergovda. Bu ishda u bilan

birga Zaxar Kirillov Robustov ham ayblanib javobgarlikka tortilgan. Yuzi yumaloq, ko'zlari quvnoq, ko'k ko'z, xo'ppa semiz, pakana bo'yli bu savdogar bunday jinoyat bilan ikkinchi marta ayblanmoqda... Mana shu odamlar ichida, ishqilib, biron jinoyati Fomaga ma'lum bo'lmagan bironta ham odam deyarli yo'q edi.

Bularning hammasi ham yildan yilga paroxodlari ko'payib borayotgan Kononovning muvaffaqiyatlariga hasad qilishlarini Foma yaxshi bilardi. Ko'pchiligi bir-biridan araz edi, jangovar savdo masalasida biri birini ayamasdi, hammasi ham biri birining yaramas va qalbaki ishlarini bilar edi... Lekin hozir ular shod-u xurram va baxtiyor Kononovning atrofiga to'planishib, qora bir guruh tashkil etib, jiddiy qiyofada jimgina turishar, go'yo bitta odamdek hamnafas edilar. Ular allaqanday ko'zga ko'rinmaydigan, lekin qattiq bir narsa bilan qurshab olinganday tuyular va bu narsa Fomani ulardan nari itarar va cho'chitar edi.

«Yolg'onchilar...» deb o'yladi u o'ziga dalda berib.

Ular esa soxta yo'talishar, xo'rsinishar, cho'qinishar, ta'zim qilishar va ruhoniylarni devorday o'rab olishib, kattakon qora toshlardek, qimir etmay qotib turishar edi.

«Mug'ambirlik qilishadi!» deb qo'ydi Foma ichida. Uning yonida turgan bukri, bir ko'zi ko'r, yaqinda o'z telba ukasining bolalarini och-yalang'och haydab yuborgan Pavlin Gushin esa, sog' ko'zi bilan ko'kka tikilib:

«E xudoyim! G'azabingga giriftor qilma, o'zing bandam degin...» deb astoydil pichirlardi.

Foma bu odamning xudoga zo'r e'tiqod va chuqur ishonch bilan rahm-shafqat tilab yolvorayotganini sezdi.

Pop ko'zlarini ko'kka tikib, qo'llarini yuqori ko'tarib, yo'g'on, bo'g'iq ovoz bilan duo o'qirdi:

«E xudovandi karim, olamni qutqarish uchun quling Nuhga puxta kema yasashni o'zing buyurgansan... Ushbu kemani ham o'zing omon qil va unga yaxshilik, tinchlik farishtasini yubor... bunga tushgan bandalaringni o'z panohingda asra...»

Savdogarlar hammasi birdan qo'llarini kerib, ko'kraklariga nuqib cho'qinishar va hammasining yuzida bir his – duoning kuchiga ishonch hissi aks etardi.

Bularning hammasi Fomaning xotirasiga qattiq o'rnashib qoldi va xudoning shafqatiga bu qadar ishonadigan odamlarning odamga nisbatan naqadar rahmsiz ekanliklari uni juda taajjublantirdi.

Ularning ulug'vor salobati, bardamlik bilan o'zlariga ishonishlari, kibrli yuzlari, qattiq ovozlari, kulgilari Fomaning jahlini chiqarardi. Ular endi xilma-xil taomlar qo'yilgan stollar yoniga o'tirishib, og'izlaridan so'laklarini oqizishib, xushbo'y ko'katlar va yirik qisqichbaqalar bilan bezatilgan kattakon osyotr balig'iga ochko'zlik bilan tikilib o'tirishardi. Trofim Zubov bo'yniga salfetka bog'larkan, baxtiyor ko'zlarini zavq bilan suzib, bahaybat baliqqa qarab, yonidagi tegirmonchi Iona Yushkovga:

– Iona Nikiforich! Mana bu kitga qara! Sening gavdangga bemalol g'ilof bo'lishi mumkin... A? Etikka kirgan oyoq singari ichiga butunlay kirib ketarsan, a? Xe-xe! – deb qo'ydi.

Kichkina va yum-yumaloq Iona kalta qo'lini qo'shquloq kumush idishda turgan yangi ikraga ohista cho'zar ekan, ochko'zlik bilan lablarini chapillatar, oldida turgan shishalarga ko'z qiri bilangina qarab qo'yar, ag'darib yuborishdan qo'rqar edi.

Kononovning ro'parasidagi chorpoya ustida Polshadan keltirilgan kichkina bir bochka aroq turardi. Kumush qoplangan kattakon chig'anoqda esa ustritsalar yotardi va xuddi minora shaklida pishirilgan allaqanday rang-barang pashtet hamma noz-ne'matlardan balandda ko'rinib turar edi.

– Janoblar! Marhamat! Kim nimani xohlaydi! – deb qichqirdi Kononov. – Men hamma narsani stol ustiga tizdirib qo'ya qoldim, kim nima yoqtirsa... o'zimizning jonajon rus taomlari ham, chet elniki ham – hammasi... muhayyo! Shunday qilgan ma'qul... Kim nimani istaydi! Mana, shilliqqurt va chig'anoqlarni kim xohlaydi-a? Hindistondan keltirilgan deydilar...

Zubov esa yonida o'tirgan Mayakinga shunday dedi:

– «Kema qurish uchun» degan duo daryo paroxodlari bilan shatak paroxodlarga nisbatan muvofiq emas, ya'ni muvofiq kelmaydi emas, bir o'zi kamlik qiladi!.. Daryo paroxodi komandaning doimiy turar joyi bo'lgani uchun uni uy deb hisoblash lozim... Demak, shuning uchun ham, «Kema qurish uchun» degan duoning ustiga uy

solganda o‘qiladigan duoni ham o‘qish kerak bo‘ladi... Aytmoqchi, sen nima ichasan?

– Men sharobni yoqtirmayman, aroqdan quysang yo‘q demayman, – deb javob berdi Yakov Tarasovich.

Foma stolning bir chetida allaqanday tortinchoq va kamtar odamlar orasida o‘tirarkan, unga tez-tez qarab turgan cholning o‘tkir nigohini his qilardi.

«Janjal ko‘taradi, deb qo‘rqadi...» deya o‘yladi Foma.

– Og‘aynilar! – deya qichqirdi juda xunuk semirgan paroxodchi Yashurov. – Men selyodkasiz turolmayman! Men albatta selyodkadan boshlayman... Mening tabiatim shunaqa!

– Musiqa! «Eroncha marsh»ni chal...

– To‘xta! Yaxshisi, «Kol slaven»ni...

– Mayli, «Kol slaven»ni chala qol...

Mashinaning xo‘rsinishi va paroxod g‘ildiraklarining shov-shuvi musiqa ovoziga qo‘shilib, qishda quturgan bo‘ronga o‘xshash allaqanday ovozlar havoda yangrab ketdi. Fleytalarning hushtagi, klarnetlarning chiyillashi, baslarning xunuk irillashi, barabanlarning taqir-tuquri va do‘lning urgan sayin gumburlashi – bu tovushlarning hammasi, suvni yorib borayotgan g‘ildiraklarning bir maromdagi bo‘g‘iq ovozi bilan qo‘shilib, havoda isyonkor yangrar, odamlarning shov-shuvini eshittirmay, ularni qattiq-qattiq baqirib gapirishga majbur etar va paroxod ortidan bo‘ronday ergashib kelar edi. Goho mashinaning bug‘i zarda bilan pishqirib chiqar, shov-shuv, olag‘ovur va to‘s-to‘polon ichida birdan eshitilib qolgan bu ovozda allaqanday g‘azab va nafrat bordek edi...

Kimdir chiyillab qichqirdi:

– Nega vekselimni hisobga olishdan bosh tortding, men buni o‘lgunimcha unutmayman.

Bobrovning:

– Ba-as! Bu yer hisob to‘g‘risida gaplashadigan joymi?! – degan yo‘g‘on ovozi eshitildi.

– Og‘aynilar! Nutq so‘zlash kerak!

– Musiqa, jim!

– Sen oldimga, bankka kel, nega hisobga olmaganimni senga tushuntirib beraman...

– Nutq! Jim...
– Musiqa, to‘x-ta-at!
– Vo luzyax!..
– Madam Angu!..
– Musiqa kerakmas! Yakov Tarasovich, so‘raymiz!
– Bu Strasburg pirogi deb ataladi...
– So‘raymiz! So‘raymiz!
– Pirog? O‘xshamaydi-ku... Har holda, yeb ko‘ray-chi!
– Tarasich! Qani boshla...
– Og‘aynilar! Xursandman! Xudo haqqi...
– «Go‘zal Yelena»da u butunlay yap-yalang‘och chiqardi...

Birdan shov-shuv orasidan Robustovning ingichka va muloyim tovushi eshitildi:

– Sabr qil! Iakov Isava, bopladingmi? Ah-a!
– Tarasich! Noz qilma!
– Jim! Janoblar! Yakov Tarasovich so‘z aytadi!

Xuddi shov-shuv to‘xtagan paytda, allakimning g‘azab bilan qattiq shivirlagani eshitildi:

– Birdan chimdib olsa bo‘ladimi, manjalaqi...

Shu choq Bobrov yo‘g‘on ovoz bilan:

– Qay... qayeringni? – deb so‘radi.

Birdan qahqaha ko‘tarildi, lekin darhol tindi, chunki Yakov Tarasovich Mayakin tik turib, tomog‘ini qirib, yarg‘oq boshini silar, jiddiy nazar bilan savdogarlarni kuzatib, kutib turardi.

– Qani, og‘aynilar, quloqlaringni ding qilinglar! – deb qichqirdi Kononov mamnun bo‘lib.

– Janob savdogarlar! – deb so‘z boshladi Mayakin ishshayib. – O‘qigan va ilmli odamlarning tilida «madaniyat» degan bir ajnabiy so‘z bor. Men soddaligim tufayli mana shu so‘z ustida sizlar bilan suhbatlashmoqchiman...

– Diqqat!..

– Hurmatli janoblar! – dedi Mayakin, ovozini balandlatib. – Gazetalarda biz savdogarlar to‘g‘risida tez-tez shunday gaplarni yozib turadilarki, ya’ni biz shu madaniyat bilan tanish emas ekanmiz, biz go‘yo uni xohlamas ekanmiz va tushunmas ekanmiz. Shunday qilib, bizni vahshiy odamlar deb ataydilar... Xo‘sh, ana shu ma-

daniyat deganlari o'zi nima? Men keksa bo'lganim uchun bunday so'zlarni eshitish alam qildi va bir vaqt: «Bu o'zi nima?» deb shu so'zning ma'nosini qidirishga tushdim.

Mayakin jim bo'lib qoldi, xaloyiqqa ko'z yugurtirib chiqqach, g'olibona kulib qo'yib, dona-dona qilib so'zini davom ettirdi:

– Qidirib qarasam, bu so'zning ma'nosi ishga va hayot tartibiga muhabbat, zo'r muhabbat degani ekan. «Shunday! – deb o'yladim men, – shunday! Demak, ishni va tartibni sevgan... umuman, hayot qurishni sevgan, yashashni sevgan, o'zining va hayotning qadrini bilgan odam madaniy kishi bo'ladi...» Yaxshi! – Yakov Tarasovich seskanib qo'ydi. Uning ajinlari kulib turgan ko'zlaridan lablari tomon nurdek yuziga yoyildi va uning katta yarg'oq boshi allaqanday qop-qora yulduzga o'xshab ketdi.

Savdogarlar diqqat bilan jimgina uning og'ziga qarab o'tirishar va hammaning yuzida zo'r hayajon bor edi. Odamlar Mayakin so'z boshlaganda qanday holatda o'tirgan bo'lsalar, xuddi o'sha holatda qotib qolgan edilar.

– Bas, shunday ekan, bu so'zni xuddi shunday tushunish kerak, demak, shunday ekan, bizni madaniyatsiz, vahshiy deb atovchi kishilar bizga bo'hton qiladilar! Chunki ular bu so'zning ma'nosini emas, balki bu so'zning o'zini sevadilar, biz esa, uning asl tomirini sevamiz, uning asosiy mag'zini sevamiz, biz ishni sevamiz! Biz hayotni haqiqatan muqaddas deb bilamiz, ya'ni hayotni biz sevamiz, lekin ular emas! Ular mulohaza yuritishni sevadilar, biz esa harakat qilishni... Shunday qilib, janob savdogarlar, bizning madaniyatimizning, mehnatga muhabbatimizning timsoli Volgadir! Mana, bizning jonajon onamiz! U o'zining har bir tomchi suvi bilan bizning nomusimizni himoya qilib, bizga ortilgan bo'htonlarni chilparchin qila oladi... Imperator Ulug' Pyotrning bu daryoga yelkanli yuk kemalari tushirilganiga faqat yuz yil bo'ldi janoblar, endi esa bu daryoda yuzlab bug' kemalari yuribdi... Bularni kim qurdi? Hech o'qimagan – savodsiz rus mujigi! Mana, shu zo'r paroxodlar, barjalar kimniki? Bizniki! Kim o'ylab chiqargan? Biz! Bu yerdagi hamma narsa bizniki, hammasi – bizning aqlimiz, bizning rus mahoratimiz va mehnatga bo'lgan buyuk muhabbatimiz mevasi! Bizga hech kim hech narsa bilan yordam bergan emas! Volgani biz o'zimiz qaroqchilardan

tozaladik, o‘zimiz o‘z pullarimizga drujinalar yollab, qaroqchilikni tugatib, uzunligi ming chaqirimlarga cho‘zilgan Volgaga minglarcha paroxodlar va boshqa har xil kemalar tushirdik. Volgada eng yaxshi shahar qaysi? Qaysisida savdogarlar ko‘p bo‘lsa, o‘sha shahar yaxshi... Shahardagi eng yaxshi uylar kimniki? Savdogarniki! Kambag‘allar haqida kim ko‘proq g‘amxo‘rlik qiladi? Savdogar! Ikki pullab-tiyinlab yig‘adi-yu, yuz minglab hadya qiladi. Cherkovlarni kim qurgan? Biz! Davlatga kim ko‘proq pul beradi? Savdogarlar!.. Janoblar! Biz uchun, ish – faqat ishning o‘zi uchun, bizning hayot qurishga bo‘lgan muhabbatimiz uchun aziz, faqat biz tartibni va hayotni sevamiz! Kimki biz to‘g‘rimizda gapirarkan, o‘sha odam... – shu o‘rinda u boplab shaloq bir so‘z aytdi, – boshqa narsa emas! Mayli! Shamol tursa, tol shovullaydi, shamol tinsa, tol ham tinadi... Tol na aravaga shoti bo‘ladi va na supurgi, foydasi yo‘q daraxt! Foydasi yo‘qligi uchun ham shovullaydi! Xo‘sh, bizni qoralovchi o‘sha sudyalarning o‘zlari nima qildilar, hayotni nima bilan bezadilar? Bunisi bizga noma’lum... Bizning ishimiz esa ko‘rinib turibdi! Janob savdogarlar! Sizlar hayotning oldingi odamlari bo‘lganingiz uchun, eng mehnatkash va o‘z mehnatini sevadigan odamlar bo‘lganingiz uchun ko‘p ishlar qilgan va yana ko‘p ishlar qo‘lidan keladigan odamlar bo‘lganingiz uchun, chin yurakdan, sizlarga zo‘r hurmat va zo‘r muhabbat bilan, dong‘i ketgan, ruhi tetik, ishchan rus savdogarlarining sog‘lig‘i uchun mana shu may to‘la qadahimni ko‘taraman... Uzoq yashangiz! Onamiz Rossiya baxti uchun omon bo‘lingiz! Ura-a!

Mayakinning qaltirab chiqqan chinqirig‘i ortidan savdogarlar, quloqlarni bitirib, hayajon bilan bo‘kirdilar. Cholning nutqi bilan qizishgan bu basavlat go‘shtdor gavdalar, bir qur tebranib qo‘yib, ko‘kraklaridan baravariga shunday hayqiriq chiqardilarki, atrofdagi hamma narsa larzaga kelib, titrab ketganday bo‘ldi.

– Yakov! Sen tangrining jarchisisan! – deb baqirdi Zubov, o‘z qadahini Mayakinga cho‘zarkan.

Savdogarlar qo‘llarida qadahlar bilan, nihoyatda ta’sirlangan va ba’zilarining esa ko‘zlaridan yosh chiqqan holda, stullarni ag‘darib, stolni turtib, idish va shishalarni sharaqlatib ag‘darishib, Mayakinga tomon intildilar.

– A? Bu nima degani, bildingmi? – deb so‘radi Kononov. Robustovning yelkasidan ushlab siltarkan. – Sen ma’nisini tushun! Ulug‘ bir nutq bo‘ldi bu!

– Yakov! Ke, bir o‘pay!

– Mayakinni ko‘tar-ko‘tar qilish kerak!

– Musiqa chal...

– Tush! Marsh... Eroncha marsh!..

– Musiqa kerakmas! Padariga la’nat!

– Mana bu musiqa! Eh, Mayakin!

– O‘zi kichkina bo‘lsa ham og‘aynimning aqli zo‘r...

– Yolg‘on aytasan, Trofim!

– Yakov! Hademay o‘lib ketasan, shunga achinaman. Juda achinaman... nimasini aytay!

– E, ko‘mish marosimi ham boshqacha bo‘ladi-da!

– Janoblar! Mayakin nomida kapital uyushtiraylik! Men mingni qo‘yaman!

– Jim! Shoshmanglar!

– Janoblar! – butun vujudi bilan titrab, Mayakin yana gapira boshladi. – Biz shuning uchun ham hayotning oldingi odamlari va o‘z vatanimizning haqiqiy xo‘jayinlarimizki, biz – mujiklarmiz!

– To‘g‘-ri!

– Shunday! Turgan gap! Obbo, chol-e!

– Gapirgani qo‘y...

– Biz asl rus odamlarimiz va bizdan chiqqan hamma narsa – asl rusniki! Demak, eng haqiqiy, eng foydali narsa ham shu...

– Xuddi ikki karra ikki singari!

– Tushunarli!

– Donolikda baayni ilon!

– Yuvoshlikda... baayni...

– Lochin! Ha-ha!

Savdogarlar o‘z notiqlarini tor doiraga o‘rab olishgan, ko‘zlarini yiltillatib unga tikilishar edi. Azbaroyi hayajonlanganlaridan, uning so‘zlarini xotirjam eshita olmasdilar. G‘uvullagan tovushlar yangrar, ular mashinaning shov-shuvi va g‘ildiraklarning suvni yorib shaloplashi bilan qo‘shilib, ovozlar quyuniga aylanar, cholning tovushini eshittirmasdi. Allakim quvonch bilan chinqirdi:

– Kamarinskiyni chalinglar! Russkayani!

– Bularning hammasini biz qilganmiz! – deb qichqirdi Yakov Tarasovich daryoni ko'rsatib. – Hammasi bizniki! Hayotni biz qurganmiz!

Bunda birdan hamma ovozlarni bosib ketgan bir hayqiriq eshitildi:

– A! Sizmi hali? Ah, siz...

Buning orqasidan aniq qilib aytilgan yomon so'kish eshitildi. Buni hamma baravar eshitdi va o'zlarini haqorat qilgan odamni ko'zlari bilan qidirib, bir lahzagina jim bo'lib qolishdi. Mana shu lahzada faqat mashinaning og'ir xo'rsinishi bilan rul zanjirlarining sharaqlagani eshitildi, xolos.

– Bu hurayotgan kim? – deb so'radi Kononov, qoshlarini chimirib..

– Eh! Doim biron janjal qo'zg'amasak turolmaymiz! – dedi Reznikov, qayg'uli xo'rsinib.

Savdogarlarning yuzlarida tashvish, qiziqsinish, g'azab, ta'na alomati paydo bo'ldi va hammasi dovdirab qoldi. Faqat Yakov Tarasovichgina pinagini buzmadi va, hatto, yuz bergan voqeaga xursand bo'lgandek edi. U oyoq uchiga bosib, bo'ynini cho'zib allaqayoqqa, stolning oxiriga qarab qo'ydi va ko'zlari xuddi u yerda o'ziga yoqimli bir narsani ko'rgandek, g'alati bo'lib yiltillab ketdi.

– Gordeyev!.. – dedi Iona Yushkov sekingina. Hammaning boshi Yakov Mayakin qarab turgan tomonga o'girildi. U yerda qo'llari bilan stolga tiralib, Foma turardi. U tishlarini irjaytirib, yonib turgan ko'zlarini katta ochib, indamay savdogarlarga qarardi. Uning pastki jag'i titrar, kiftlari uchar va stol chetini mahkam ushlagan qo'llarining barmoqlari titrab-qaqshab dasturxonni tirnar edi. Uning bo'ridek dahshatli yuzini na g'azabli qiyofasini ko'rgan savdogarlar yana bir daqiqagina jim bo'lib qolishdi.

– Nega ko'zlaringizni o'qraytirasizlar! – deb so'radi Foma va yana qattiq so'kindi.

– Mast bo'pti! – deb qo'ydi Bobrov boshini chayqab.

– Nega uni chaqirishibdi? – dedi Reznikov pichirlab.

– Foma Ignatich! – dedi Kononov vazminlik bilan. – Janjal qilish kerak emas... Agar... haligidek... boshing aylansa, bor inim, sekingina, tinchgina kayutaga kir-da, yot! Yot, azizim va...

– Ovozingni o‘chir, sen! – deb hayqirdi Foma unga ko‘zini olaytirib. – Menga gapirma! Men mast emasman, bu yerdagilarning hammasidan hushyorman! Uqdingmi?.

– Bo‘lmasa, shoshma hali, jonim, seni o‘zi bu yerga kim chaqirdi? – deb so‘radi Kononov, jahli chiqqanidan qip-qizarib.

– Uni men olib keldim! – degan Mayakinning ovozi eshitildi.

– A! Unday bo‘lsa, albatta!.. Kechirasiz... Foma Ignatich... Uni sen olib kelgan bo‘lsang, Yakov... Endi uni o‘zing jilovlashing kerak... Bo‘lmasa, ish chakki bo‘ladi...

Foma jimgina iljayar, savdogarlar ham unga qarab indamay turardilar.

– Eh, Fomka! – dedi Mayakin. – Qariganimda meni yana sharmanda qiladigan bo‘lding-ku...

– Otaxon! – dedi Foma, tishlarini irjaytirib. – Men hali hech narsa qilganim yo‘q-ku, demak, menga nasihat qilishga hali erta... Men mast emasman, men ichganim yo‘q, lekin hammasini eshitib o‘tirdim... Janob savdogarlar! Menga ham nutq so‘zlashga ruxsat etinglar! Sizlar uchun hurmatli bo‘lgan mening otaxonim gapirdi... Endi tutingan o‘g‘lining gaplariga quloq solinglar...

– Qanaqa nutq? – dedi Reznikov. Gapning nima keragi bor? Axir xursandchilik qilish uchun yig‘ilganmiz...

– Bas endi, qo‘y, Foma Ignatich...

– Yaxshisi, biron narsa ich...

– Ke, ichaylik! Ah, Foma... sen yaxshi otaning o‘g‘lisan...

Foma birdan stoldan orqaga tislanib, qaddini rostladi-da, hamon jilmaygan holda, yoqimli, nasihatomuz so‘zlarga quloq solib turdi. Bu salobatli odamlar orasida u eng yoshi va eng chiroylisi edi. Uning surtugi gavdasiga yaxshi o‘tirgan bo‘lib, uning kelishgan qomati, bu qorni katta semiz gavdalar orasida chiroyli bo‘lib ajralib turardi. Uning katta-katta ko‘zlari, qoracha yuzi, salqigan qip-qizil basharalarga nisbatan chiroyliroq va yoshroq edi. U ko‘kragini kerib, tishlarini qisib, surtugining etaklarini ochib tashladi-da, qo‘llarini cho‘ntagiga suqdi...

– Endi xushomadgo‘ylik va muloyim so‘zlar bilan mening og‘zimni to‘solmaysizlar! – dedi Foma qat’iy qilib do‘q bilan. –

Tinglaysizlarmi yo yo‘qmi, men gapiraveraman... Meni bu yerdan quvib chiqarishga joy yo‘q...

U boshini chayqab, yelkalarini ko‘tarib qo‘yib, pinagini buzmay dedi:

– Agar biron kishi qo‘l tegizsa, o‘ldiraman! Xudo ursin, kuchim yetganicha o‘ldiraveraman!

Uning qarshisida turgan olomon, xuddi shamolda silkingan butalardek, silkinib ketdi. Hayajonli shivir-shivir eshitildi. Fomaning yuzi qoraydi, ko‘zlari esa yumaloqlashdi...

– Hozir bu yerda, hayotni biz qurganmiz... eng yaxshi va eng haqqoniy ishlarni biz qilganmiz, deyildi...

Foma chuqur nafas oldi va quloq solib turganlarning go‘yo puflanganday, birdan g‘alati bo‘lib shishib ketgan basharalariga zo‘r nafrat bilan tikildi... Savdogarlar qo‘nishib, borgan sari bir-birining pinjiga kirib, jim turishardi. Orqa qatordan allakim:

– Nima deyapti u? A? Kitobiy gapmi yo o‘z aqlidan chiqarib gapiryaptimi? – deb g‘udrandi.

– O, la’natilar! – deb qichqirdi Gordeyev, boshini chayqab. – Xo‘sh, sizlar nima qildingiz? Sizlar hayot emas – turmalar qurdingiz... Tartib emas – odamlar uchun zanjirlar yasadingiz... Hamma yoq dim, tor, tirikjon uchun qimirlashga yer yo‘q... Odam halok bo‘lmoqda! Sizlar qotilsizlar... Sizlar faqat odamlarning sabr-toqati tufayligina tiriksiz, tushundingizmi?

– Bu nimasi? – deb qichqirdi Reznikov, g‘azab bilan qars urib. – Bunaqa so‘zni eshitishga toqatim yo‘q!..

– Gordeyev! – deb baqirdi Bobrov. – Hushyor bo‘l, yaxshi gap qilmayapsan...

– Bunaqa gap uchun bay-bay-bay! – dedi Zubov salobat bilan.

– Jim! – deb bo‘kirdi Foma va uning ko‘zlariga qon to‘ldi. – Xo‘rtillab bo‘ldinglarmi?..

– Janoblar! – Mayakinning xuddi temirni egovlaganday qirtillagan, sokin, mudhish ovozi eshitildi. – O‘tinib so‘rayman, xalaqit bermanglar! Mayli hurib ko‘rsin, mayli biroz hovuridan tushsin... Uning so‘zlaridan bir narsa bo‘lib qolmaysiz...

– Yo‘q, bo‘lmaydi, katta tashakkur! – deb qichqirdi Yushkov.

Smolin Fomaning yonida turar va uning qulog‘iga shivirlar edi:

– Qo‘y, azizim! Senga nima bo‘ldi, jinni bo‘ldingmi?

– Yo‘qol nari! – dedi Foma qattiq, unga g‘azabli ko‘zlarini chaqnatib. – Huv Mayakin oldiga bor, uni yala, balki biron narsalik bo‘lib qolarsan!

Smolin tishlari orasidan hushtak chalib bir chetga chiqib ketdi. Savdogarlar ham birin-ketin paroxodga tarqala boshladilar. Bu esa Fomaning jig‘iga tegardi. U o‘z so‘zlari bilan ularni turgan joyiga qoziq qilib qoqib qo‘yishni istar va lekin buning uchun o‘zida kuchli so‘zlarni topolmas edi.

– Hayotni sizlar qurdingizlarmi? – deb qichqirdi u. – O‘zlaring kimsizlar? Qalloblar, o‘g‘rilar...

Bir necha odam, xuddi Foma ularni chaqirganday, unga o‘girildi.

– Kononov! Seni qiz uchun qachon sud qilishadi? Katorgaga hukm qilishadi, xayr, Ilya! Bekorga paroxodlar qurib yuribsan... Sibirga hukumat paroxodida olib ketishadi...

Kononov stulga o‘tirib qoldi, uning yuzlariga qon tepdi va indamay mushtini do‘laytib qo‘ydi. Keyin xirillab:

– Xo‘p... yaxshi... men buni unutmayman, – dedi.

Foma uning lablari titraganini, yuzi tirishganini ko‘rib, bu odamlarga qanday qurol bilan qattiqroq zarba bera olishini endi tushundi.

– Hayot quruvchilarmish! Gushin, jiyanlaringga xayr qilyapsanmi? Hech bo‘lmasa kuniga bir tiyindan berib tur... axir, ularning ozmuncha narsasini o‘g‘irlaganing yo‘q... Bobrov! Nega o‘ynashingni, pulimni o‘g‘irladi, deb tuhmat qilib turmaga qamatding? Ko‘nglingga tekkan bo‘lsa, o‘g‘lingga bersang bo‘lardi... baribir, hali ham u boshqa o‘ynashing bilan yuribdi... Sen bilmasmiding? Ah, semiz cho‘chqa... Hoy sen, Lup, yana fohishaxona och-da, mehmonlaringni qip-yalang‘och qilib shilib olaver!.. Keyin sening teringni jinlar shiladi, ha-ha!.. Mana shunday xudojo‘y bashara bilan qallob bo‘lish qandoq yaxshi!.. O‘shanda sen kimni o‘ldirgan eding, Lup?

Foma so‘zini bo‘lib xaxolab kular va o‘z so‘zlari bu odamlarga qattiq kor qilayotganini ko‘rardi. Boshda u o‘z nutqini hammaga qaratib so‘zlaganida, ular undan yuz o‘girib, nari ketishdi va u yerda to‘p-to‘p bo‘lib yig‘ilishib, ularni fosh qilayotgan odamga nafrat

va g'azab to'la ko'zlari bilan olisdan tikilib turishdi. Foma ularning jilmaygan yuzlarini ko'rdi, ularning har bir harakatida allaqanday mensimaslik borligini sezdi va o'z so'zlari ularning jahlini chiqarsa ham, lekin u istagandek qattiq ta'sir etmasligini tushundi. Bu esa uni g'azabdan tushirar va o'z hujumining muvaffaqiyatli chiqishiga bo'lgan ishonchini yo'qotar edi. Biroq ularning har biri to'g'risida alohida-alohida so'zlay boshlashi bilanoq, tinglovchilarning unga bo'lgan munosabati birdan keskin o'zgardi.

Kononov Fomaning achchiq so'zlariga chidolmay, o'zini gup etib stulga tashlashi bilanoq, Foma ba'zi savdogarlarning yuzida achchiq zaharxanda paydo bo'lganini ko'rdi. Uning so'zini tasdiqlab, allakimning taajjub bilan:

– Rosa bop-ladi! – deb shivirlaganini eshitib qoldi.

Bu shivirlash Fomaga dalda berdi va u endi o'ziga ishonch bilan ko'ziga ko'ringan har bir odam ustiga masxaraomuz va haqoratli so'zlar yog'dira boshladi. U o'z so'zlarining naqadar ta'sir etayotganini ko'rib, quvonch bilan hayqirar edi. Uning so'zlariga diqqat bilan jimgina quloq solib turdilar, hatto bir necha odam unga yaqinroq keldi.

Norozi ovozlar ham eshitildi, biroq ular qisqa va sekin eshitilardi. Foma har gal birontasining ismini aytib baqirganda hammalari jim bo'lib, fosh etilayotgan o'rtoqlariga badxohlik bilan ko'z qirlarini tashlab, quloq solib turishardi.

Bobrov xijolat bo'lib kular, lekin uning kichkinagina ko'zlari Fomani xuddi parmadek parmalar edi. Lup Reznikov bo'lsa, qo'llarini siltab, beso'naqay irg'ishlab qo'ydi-da, entika-entika:

– Guvoh bo'linglar... Men buni kechirmayman! Men uni mirovoy sudga... Bu nimasi? – deb birdan ingichka ovoz bilan chiyillab, Fomaga qo'l cho'zdi. – Bog'langlar buni!..

Foma xaxolab kuldi:

– Haqiqatni bog'lolmaysan, yolg'on aytasan!

– Yax-shi! – dedi Kononov xirillab qolgan bo'g'iq ovoz bilan.

– Mana, janob savdogarlar! – deb baqirdi Mayakin jaranglagan ovoz bilan. – Uning qanaqa ekanini bir ko'ringlar!

Savdogarlar birin-ketin unga tomon siljishdi, Foma ularning yuzlarida g'azab, taajjub, badxohlik quvonchi, qo'rquv hissini

ko‘rdi. Foma bilan birga o‘tirgan kamtarroq odamlardan biri unga pichirlab:

– Bopla!.. Rasvosini chiqar! Bu hisobga olinadi... – deb qo‘ydi.

– Robustov! – deb qichqirdi Foma. – Nega kulasan? Nega quvonasan? Sen ham katorgaga ketasan...

Rabustov sapchib o‘rnidan turib:

– Uni qirg‘oqqa tushirib yuborish kerak! – deb baqirdi.

Kononov esa kapitanga:

– Orqaga qaytar! Shaharga! Gubernatorga... – deb qichqirdi. Allakim hayajondan titragan vahima bilan:

– Bu ataylab qilingan... Jo‘rttaga... Unga o‘rgatib qo‘yishgan... dadil bo‘lsin uchun ichirishgan... – deb baqirdi.

– Yo‘q, bu isyon!..

– Bog‘la uni! Tutib bog‘lash kerak!

Foma shampanskiy shishasini qo‘liga olib, havoda silkib qo‘ydi.

– Qani, yaqinlashib ko‘ringlar-chi! Yo‘q, endi mening so‘zlarimga quloq solasizlar...

Uning so‘zlaridan tomirlari tortishib bezovta bo‘lgan bu odamlarni ko‘rib quvonganidan telbalangan Foma yana ham xushchaqchaq g‘azab bilan odamlarni nomma-nom aytib qichqirib, behayo so‘zlar bilan so‘ka boshlagach, g‘azablangan shov-shuv yana pasaydi. Foma tanimagan odamlar uning so‘zlarini ma’qullab, ba’zilari esa quvonchli taajjub bilan unga qarab turardilar. Bulardan biri sichqon ko‘zli, qizil yuzli, oq sochli kichkina bir chol birdan Foma xafa qilgan savdogarlarga qarab, muloyim ovoz bilan bidirladi:

– Bu vijdoniy so‘zlar! Buning hechqisi yo‘q! Chidash kerak... Payg‘ambarona fosh etish... Axir, o‘zimiz gunohkormiz! Axir, to‘g‘risini aytish kerak, biz juda...

Unga o‘shqirib berdilar, Zubov esa hatto uning yelkasidan turtib yubordi. U ta’zim qilib olomon ichida g‘oyib bo‘ldi...

– Zubov! – deb qichqirdi Foma. – Sen qancha odamni gado qilding? Sening kasofatingga o‘zini osib o‘ldirgan Ivan Petrovich Myakinnikov tushingga kirmadimi? Har bir tushki ibodatdan keyin cherkov sandig‘idan o‘n so‘lkavoy o‘g‘irlashing to‘g‘rimi?

Zubov o‘ziga bunday hujum bo‘lishini kutmagan edi, u qo‘lini yuqori ko‘targan holda, turgan joyida qotib qoldi. Lekin birozdan

keyin, turgan joyida g'alati qilib, bir sakrab qo'yib, ingichka ovoz bilan chiyilladi:

– A! Endi men qoldimmi? Meni ham-a?

U birdan lunjlarini shishirib, g'azab bilan Fomaga musht o'qtaldi, chiyillagan ovoz bilan:

– Telba achchiqlansa dilidan xudo ko'tariladi! – dedi. – Arxiyeriyga boraman! Ablah! Bebosh! Seni katorgaga jo'natish kerak.

Paroxodda to's-to'polon kuchaydi va Foma bu g'azablangan, dovdirab qolgan va ranjigan odamlarni ko'rib, o'zini ajdaholarni o'ldirgan afsonaviy pahlavondek his qildi. Bu odamlarning ba'zilari g'azabdan qizarib, ba'zilari bo'zarib, qo'llarini paxsa qilib, u yoqdan bu yoqqa chopishar va bir-biriga allanima deb chuldirashar, lekin Fomaning ular ustiga yog'dirayotgan haqoratlar oqimini to'xtatishga hammasi ham baribir, ojizlik qilar edi.

– Matroslarni chaqir! – dedi Reznikov Kononovning yelkasidan tortib. – Bu nimasi Ilya? Bizni masxara qilish uchun chorlaganmiding?

– Bitta kuchukvachchaga qarshi... – deya baqirdi Zubov.

Yakov Tarasovich Mayakinning oldiga to'plangan olomon uning so'zlariga alamzadalik bilan bosh irg'ab, tasdiqlab, quloq solib turardi.

– Shunday qil, Yakov! – dedi Robustov qattiq. – Biz hammamiz guvoh – boshla!

Umumiy olag'ovur ichida Fomaning baqirgan ovozi yangradi:

– Sizlar hayot qurmadingizlar – bir axlatxona qurdingizlar! O'z ishlaringiz bilan ifloslik urchitdingizlar, havoni bulg'atdingizlar! Sizlarda vijdon bormi? Xudoni eslaysizlarmi? Bir mirilik chaqa – sizlarning xudoyingiz! Vijdonlaringizni haydagansizlar... Uni qayoqqa haydadingizlar! Qonxo'rlar! Birovning kuchi bilan yashaysizlar... birovlarning qo'llari bilan ishlaysizlar! Sizlarning ulug' ishlaringiz orqasida ne-ne odamlar qonli yosh to'kkan? Bu qilmishlaringiz uchun siz la'natilarga do'zaxda ham joy yo'q... Sizlar o'tda emas, qaynab turgan axlat ichida kuyasizlar. Asrlar bo'yi bu azobdan qutulolmaysizlar...

Foma xaxolab kuldi va qo'llari bilan ikki biqinini ushlab, boshini baland ko'tarib, chayqalib turdi.

Shu choq bir necha odam, bir-birlariga tezgina ko'z qisib olib, birdan Fomaga tashlandi va uni o'z gavdalari bilan mahkam siqib olishdi. To'polon boshlandi...

– Qo'lga tushdi! – dedi allakim entikkan ovoz bilan.

– A-a? Hali shunaqamisizlar? – deb qichqirdi Foma xirillab.

Yarim daqiqacha bir to'da qora gavdalar bir yerda og'ir depsinib turdi va to'da ichidan bo'g'iq ovozlar eshitildi:

– Yerga yiqit uni!

– Qo'lini ushlanglar... Qo'lini! Voy!..

– Saqolga yopishasanmi?

– Urma! Urib ko'r-chi...

– Bo'ldi!..

– Baquvvatligini qara!..

Fomani sudrashib, paroxod chetiga olib borib, kapitan kayutasining devori ostiga yotqizib qo'ydilar, o'zlari kostumlarini tekislab, terlab ketgan yuzlarini artib, uning yonidan nari ketdilar. Olishib charchagan va yengilib alam qilganidan holsizlangan Foma, ustboshi yirtilgan, allanarsa tegib iflos bo'lgan va oyoq-qo'li sochiqlar bilan chirmab bog'langan holda indamay yotardi.

Endi uni masxara qilish navbati keldi. Zubov boshlab berdi. U Fomaga yaqin kelib, oyog'i bilan uning biqiniga turtdi, o'ch olish zavqidan butun vujudi titragan holda, muloyimgina ovoz bilan so'radi:

– Xo'sh, gulduraksimon payg'ambar, qalaysan? Endi Vavilon asoratining ta'mini bir tatib ko'r-chi, xe-xe-xe!

– Shoshma hali... – dedi Foma xirillagan ovoz bilan, unga qaramay. – Shoshma... dam olib bo'lay... Tilimni bog'lab qo'yganlaringiz yo'q-ku... – Biroq Foma endi hech narsa qilolmasligini ham va hech narsa demasligini ham tushundi. Buning sababi uni bog'lab qo'yganlari emas, balki uning ichida allanarsa yonib tamom bo'lgani va dilini zulmat va bo'shliq chulg'ab olgani edi...

Reznikov Zubovning yoniga keldi. Shundan keyin birin-ketin boshqalar ham yaqinlasha boshladilar... Bobrov, Kononov va yana bir necha kishi oldilariga tushgan Yakov Mayakin bilan birga, allanarsa to'g'risida sekin-asta gaplashib, rubkaga kirib ketdilar.

Paroxod jadallik bilan shaharga qarab borardi. Uning korpusi qaltiragan sayin stoldagi shishalar titrab jiringlar va bu zorlanib dirillagan tovush, Fomaga hamma narsadan ko'ra aniqroq eshitilardi. Uning tepasida bir to'da odam turar, uni achchiq so'zlar bilan masxara qilib, haqorat qilar edi.

Biroq Foma bu odamlarning yuzlarini go'yo tuman orasida ko'rayotganday bo'lar, lekin ularning so'zlari yuragiga ta'sir etmas edi. Chunki, yuragining eng chuqur yerida, allaqanday katta va achchiq bir tuyg'u zo'rayib kelar va bu tuyg'uning zo'rayishini o'zi kuzatib turar, hali uning nimaligini tushunmasa ham, qandaydir xo'rlik keltiradigan, g'amgin narsa ekanini sezar edi...

– O'ylab ko'r, muttaham! O'zingni nima qilib qo'yding? – dedi Reznikov. – Endi qanday qilib kun ko'rasan? Endi savdogarlardan birontasi hatto senga tupurishni ham istamaydi!

Foma «men nima qilib qo'ydim?» deya tushunishga urindi. Savdogarlar uning atrofini qalin qora devor singari o'rab olishgandi...

– Xo'sh, – dedi Yashurov, – endi, Fomka, ishing tamom...

– Biz seni... – deya sekingina to'ng'illab qo'ydi Zubov.

– Yechib qo'yinglar! – dedi Foma.

– Yo'q, endi! Katta rahmat!

– Otaxonimni chaqiringlar...

Biroq shu on Yakov Mayakinning o'zi kelib qoldi. Keldi-yu, Fomaning yonida to'xtab, qovog'ini solib uning yerda cho'zilib yotgan gavdasini sinchiklab ko'zdan kechirib chiqqandan keyin, og'ir xo'rsinib qo'ydi.

– Xo'sh! Foma...

– Ayting, meni yechib qo'yishsin! – dedi Foma mungli ovoz bilan.

– Yana janjal qilasanmi? Bo'lmaydi, yotib tura tur... – deb javob berdi otaxoni.

– Men boshqa bir og'iz so'z aytmayman... Xudo ursin! Yechvoring, uyat menga! Axir men mast emasman...

– Janjal qilmayman, deb qasam ichasanmi? – deb so'radi Mayakin.

– E xudoyim! Qilmayman... – deya ingradi Foma. Uning oyoqlarini yechib qo'yishdi, lekin qo'llari bog'liq holda qoldi. U o'rnidan

turgach, hammani bir qur ko'zdan kechirib chiqib, ayanchli jilmayib sekingina:

– Sizlar zo'r keldinglar... – deb qo'ydi.

– Hamma vaqt shunday bo'ladi! – deb javob qildi unga otaxoni qahr bilan iljayib.

Qo'llari orqasiga bog'langan Foma hech kimga qaramay, engashib, jimgina stolga qarab yurdi. U bukchayib va oriqlab qolganday edi. To'zg'in sochlari peshana va chakkalariga tushgan, ko'ylagining yirtilgan va g'ijimlangan ko'kragi jiletining ostidan chiqib qolgan, yoqasi esa uning lablarini to'sib turar edi. U yoqasini iyagi ostiga tushirish uchun boshini to'lg'ar va buni uddalolmas edi. Shu choq oq sochli chol uning oldiga kelib, ko'ylagini tuzatib qo'ydi-da, uning ko'zlariga kulimsirab qararkan:

– Sabr qilish kerak... – deb qo'ydi.

Fomani masxara qilgan odamlar endi Mayakin oldida, cholga savolomuz va taajjub bilan qarab, undan allanarsani kutganday, jim turishardi. U xotirjam edi-yu, biroq ko'zlari bu voqeaga sira mos kelmagan bir qiyofada ravshanroq yaltirar edi...

Foma stol yonida o'tirib, ko'kragini stol chetiga tirarkan:

– Menga aroq beringlar! – deb so'radi. Uning bukchaygan gavdasi achinarli va bemajol edi. Uning atrofida pichirlab gaplashishar va xavfsiraganday yurishar edi. Hammalari dam unga, dam uning yonida o'tirgan Mayakinga qarab qo'yardilar. Chol Fomaga darrov aroq bermadi. U avvalo Fomaga sinchiklab qaradi, shundan keyin, shoshmasdan bir ryumka aroq quydi va nihoyat, uni jimgina Fomaning lablariga olib bordi. Foma aroqni simirib ichib bo'lgandan keyin yana so'radi:

– Tag'in!

– Bas!.. – dedi Mayakin.

Mana shundan keyin oraga, hamma uchun nihoyatda og'ir bo'lgan jimlik cho'kdi. Odamlar ohista stol yoniga borib Fomani ko'rish uchun unga yaqin kelib, bo'yinlarini cho'zib qarashar edi.

– Xo'sh, Fomka, nima qilib qo'yganingni endi tushundingmi? – deb so'radi Mayakin. U ohista gapirsa ham lekin hamma eshitdi.

Foma boshini chayqab indamadi.

– Senga kechirim yo‘q! – deb so‘zini davom ettirdi Mayakin ovozini baland qilib. – Biz hammamiz xristianlar bo‘lsak ham, biroq biz seni kechirolmaymiz. Shuni bir bilib qo‘y...

Foma boshini ko‘tarib va o‘ylanqirab dedi:

– Men sizni unutibman, otaxon... Mendan siz hech narsa eshitmadingiz...

Mayakin qo‘li bilan Fomani ko‘rsatib:

– Ana! – deb qichqirdi alam bilan. – Ko‘rdinglarmi?

Norozi bo‘g‘iq ovozlar do‘rillab eshitildi.

– Endi baribir! – deya davom etdi Foma xo‘rsinib. – Baribir... hech narsa... Hech foyda chiqmadi!..

U yana stol ustiga engashdi.

– Nima istagan eding? – deb so‘radi otaxoni tumtayib.

– Nima? – deb Foma boshini ko‘tardi va savdogarlarga qarab iljayib qo‘ydi. – Istagan edimki...

– Piyonista! Ablah!

– Men mast emasman! – dedi Foma ma’yus. – Men hammasi bo‘lib ikki ryumka ichdim... Men batamom hushyor edim...

– Demak, – dedi Bobrov, – to‘g‘ri aytibsan Yakov Tarasovich, bu aqldan ozib qolibdi...

– Men-a? – deb baqirdi Foma.

Lekin unga e’tibor ham qilishmadi. Reznikov, Zubov va Bobrov Mayakinga engashib, allanarsa to‘g‘risida sekingina gaplasha boshladilar.

Foma «vasiylik»... degan so‘zni eshitib qoldi.

– Aqlim joyida! – dedi u stulning orqa suyanchig‘iga o‘zini tashlab va savdogarlarga xira ko‘zlari bilan tikilib: – Men nima istaganimni tushunaman. Haqiqatni aytmoqchi edim... Sizlarni fosh qilmoqchi edim...

U yana hayajonlana boshladi va bo‘shatishga urinib, birdan qo‘llarini siltadi.

– E-e! Shoshma! – deb qichqirdi Bobrov, uning yelkasidan ushlab. – Qani, ushlab turinglar-chi.

– Qani, ushlanglar! – dedi Foma alam va g‘am bilan. – Ushlanglar...

– Tek o‘tir! – dedi otaxoni qat’iy qilib.

Foma jim bo'lib qoldi. U qilgan ishlarning hammasidan ham hech narsa chiqmadi, uning so'zlari savdogarlarga putur yetkazmadi. Mana, ular qalin doira olib uni qurshab olishdi, bular tufayli Fomaga hech narsa ko'rinmas edi. Ular xotirjam, qat'iy va unga, janjalkashga qaragandek qarab turishibdi, unga qarshi allanarsa qilishmoqchi. Foma o'zini mana shu ruhi mustahkam, aqli raso odamlar qora guruhi tomonidan ezib tashlangandek his etdi... Endi u o'ziga o'zi begonaday, bu odamlarga nima qilganini va nima uchun qilganini tushunmay qolgan edi. U hatto, o'zidan xijolat bo'lganga o'xshash allaqanday bir hissiyotdan ko'ngli og'rirdi. Uning tomog'i qichishdi va ko'ksida allaqanday chang yog'ilib yuragini qoplab oldi-da, yuragi og'ir-og'ir ura boshladi. U hech kimga qaramasdan, xomushlik bilan ohista takrorladi:

– Haqiqatni aytmoqchi edim...

– Ahmoq! – dedi Mayakin nafrat bilan. – Sen qanday qilib haqiqatni ayta olasan? Sen nimani tushunasan?

– Mening yuragim ezilib ado bo'ldi... Yo'q, men haqiqatni sezar edim!..

Allakim:

– Gaplaridan u chinakam aqldan ozganga o'xshaydi... – dedi.

Yakov Tarasovich qo'lini yuqori ko'tarib, nasihat qilganday, qahr bilan gapira boshladi:

– Haqiqatni aytish har kimga ham nasib bo'lmaydi! Agar sen sezgan bo'lsang, behuda gap! Sigir ham dumini qayirishsa sezadi. Sen tushun! Hammasini tushun! Dushmanning tushida nimalarni o'ylayotganini fahmlab ol, ana o'shandan keyin boshla!

Odati bo'yicha Mayakin falsafa sotishga tushgan edi-yu, biroq yengilgan odamga jang qilishni o'rgatishdan naf yo'qligini o'z vaqtida anglab, so'zlashdan to'xtadi. Foma unga o'qrayib qarab, g'alati qilib boshini chayqab qo'ydi...

– Ket oldimdan! – dedi Foma g'ingshib. – Hammasi sizniki! Sizga yana nima kerak?

Hamma uning so'zlariga e'tibor berib quloq solib turdi va ularning bu e'tiborida qandaydir bir mash'um, dahshatli narsa bor edi...

– Men yashadim, – dedi Foma bo'g'iq ovoz bilan. – Ko'rdim... Yuragim zardobga to'ldi. Nihoyat, u teshildi... Endi mening darmonim quridi. Go'yo butun qonim oqib ketganday...

U bir ohangda, poyma-poy so'zlardi va uning so'zlari alahsirashga o'xshardi...

Yakov Tarasovich kulib yubordi.

– Xo'sh, tilim bilan tog'ni yalab bitiraman, deb o'ylovdingmi? Qandalaga o'chakishib, ayiqqa qarshi chiqdingmi? Shundaymi? Telba... Otang ko'rsa edi seni hozir. Eh!

– Har qalay, – dedi Foma birdan o'ziga ishongan holda baland ovoz bilan, uning ko'zlari chaqnab ketdi, – har qalay, hammasiga sizlar aybdor! Hayotni sizlar buzdingizlar! Hamma yoqni qisib qo'ygan sizlar... Diqqinafaslikning sababi sizlar... Sizlar!.. Sizlarga qarshi mening haqiqatim hali zaif bo'lsa ham, har holda – haqiqat! Sizlar – mal'unsizlar! Hammangizga ham la'nat!

U qo'llarini bo'shatishga urinib, stulda tipirchiladi va ko'zlarini g'azab bilan chaqnatib baqirdi:

– Qo'limni yechib qo'yinglar!

Uni yana ham tig'izroq o'rab olishdi. Savdogarlarning yuzlari jiddiy tus oldi. Reznikov salmoq bilan dedi:

– Baqirma, janjal qilma! Hademay shaharga kelamiz... O'zingni ham, bizlarni ham sharmanda qilma... Seni pristandan to'g'ri jinnixonaga yubormaymiz-ku, axir?

– Shundaymi? – deb qichqirdi Foma. – Hali meni jinnixonaga yubormoqchimisiz?

Unga javob bermadilar. Foma ularning yuzlariga qarab qo'yib, boshini xam qildi.

– O'zingni yaxshi tutsang, yechib qo'yamiz! – dedi allakim.

– Kerak emas! – dedi Foma sekingina. – Baribir... Uning so'zlari yana alahsirash tusini oldi.

– Men xarob bo'ldim... bilaman! Lekin sizlarning kuchingizdan emas... o'zimning zaifligimdan... Ha! Xudo oldida sizlar ham bir chuvalchangsizlar... Hali shoshmay turinglar! Bo'g'ilib o'lasizlar... Men o'zimning ko'rligim orqasida halok bo'ldim... Men ko'p narsani ko'rib, ko'r bo'lib qoldim... Xuddi boyo'g'lidek... bolaligimda, esimda bor... jarlikda boyo'g'lini quvgan edim... U uchib ketayotib biron narsaga o'zini urib olardi... Uni quyosh ko'r qilgan... Urilib shikastlangandan keyin g'oyib bo'ldi. O'shanda otam menga aytgandi: «Odam ham xuddi shunga o'xshaydi, ba'zilar urinib-surinib

nihoyatda azob chekib, holdan toygandan keyin, dam olish uchun o'zini qayerga to'g'ri kelsa o'sha yerga tashlaydi...» degandi. Hoy! Qo'limni yechib qo'yinglar...

Uning yuzi oppoq oqarib ketdi, ko'zlari yumildi, yelkalari esa dir-dir titray boshladi. Ust-boshi yirtilgan va g'ijimlangan Foma ko'kragi bilan stolga urilib, stulni tebratarkan, allanarsalar deb pichirladi.

Savdogarlar o'zaro ma'noli qarab qo'yishdi. Ba'zilari, bir-birining biqiniga turtib, indamay, boshlari bilan Fomaga imo qilib qo'yishdi. Yakov Mayakinning yuzi, xuddi toshdan yasalgandek qotib, qorayib ketdi.

– Yo, yechib qo'yaylikmi? – deb shipshidi Bobrov.

– Yo'q, kerakmas... – dedi Mayakin past ovoz bilan. – Uni shu yerda qoldiramiz. Birontasi izvosh uchun odam yuborsin... To'g'ri kasalxonaga...

U sekin gapirib, rubka tomonga qarab jo'nadi.

– Ehtiyot bo'linglar... Yana falokat bosib, o'zini suvga tashlab yubormasin tag'in...

– Esiz yigit-a!.. – deb qo'ydi Bobrov uning orqasidan qarab turib.

– Uning ahmoqligiga hech kim aybdormas! – deb javob berdi Reznikov qovog'ini solib.

– Yakovni aytaman... – dedi pichirlab Zubov Mayakinning orqasidan boshi bilan imo qilib.

– Nima Yakov? U yutqizgani yo'q...

– Shuni aytaman-da... U endi... vasiylik qiladi!

Ularning pichirlab so'zlashlari va ohista kulishlari, mashinaning xo'rsinishi bilan qo'shilib ketib, Fomaning qulog'iga eshitilmadi. U xiralashgan ko'zlari bilan to'g'risiga qarab qimirlamay o'tirardi, faqat lablarigina bilinar- bilinmas titrar edi...

– O'g'li qaytib kelibdi... – dedi Bobrov

– Men o'g'lini bilaman, – dedi Yashurov. – Permda uchratgan edim...

– Qanaqa odam o'zi?

– Ishchan... Usoleda katta ish olib boradi...

– Demak, Yakovga bunisi kerak emas ekan-da... E... hali shunaqa degin!..

– Qara, yig'layapti!

– O!

Foma stulning orqasiga suyanib, bo'yni kifti tomon egilgan holda o'tirar edi. Uning ko'zlari yumuq va kipriklari orasidan birinketin ko'z yoshlari tirqirab chiqar, yuzlaridan mo'ylovlari tomon oqib tushardi... Lablari titrab-qaqshab qaltirar, ko'z yoshlari esa mo'ylovlaridan ko'kragiga oqib tushar edi. U indamas, qimir etmas, faqat ko'kragigina og'ir va notekis ko'tarilib nafas olardi. Savdogarlar uning azob-uqubatdan salqigan, oppoq oqargan va ko'z yoshlari bilan yuvilgan yuziga, chetlari osilinqirab qolgan lablariga qarab qo'ydilar-da, keyin asta-sekin undan nari ketdilar...

Mana, qo'llari orqasiga bog'langan Foma iflos idishlar va ovqat sarqitlari bilan to'la stol yonida o'zi yolg'iz qoldi. Ora-chora u shishinqiragan og'ir kipriklarini ohista ko'tarib, yoshga to'lgan xira ko'zlari bilan stolga g'amgin qarab qo'yar, stol ustidagi hamma narsa ag'darilgan, sochilgan edi.

Oradan uch yil o'tdi.

Bundan bir yil burun Yakov Tarasovich Mayakin o'ldi. U eshushini yo'qotmadi, ko'z yumayotgan paytida ham o'z e'tiqodiga sodiqligicha qoldi. O'lishidan bir necha soat avval o'g'lini, qizini va kuyovini chaqirib shunday dedi:

– Xo'sh, bolalar, boylikda yashanglar! Yakov oshini oshab, yoshini yashab bo'ldi, endi uning dunyodan ketish vaqti keldi... Mana, o'lyapman, lekin nolimayman... Buni albatta, xudo o'zi hisobga oladi... Men shafqatli egamni, faqat hazil-mutoyiba so'zlarim bilangina ranjitdim, lekin oh-voh, zor-u nolalar bilan ranjitganim yo'q. Yo rabbiy! Sening rahm-shafqating soyasida huzur-halovat bilan kun kechirdim, buning uchun benihoya xursandman. Xayr, bolalarim... Inoq bo'lib yashanglar... unchalik donishmandlik qilmanglar... Shuni bilinglarki, gunohdan qochib tinchgina yotgan odam aziz emas... Qo'rqoqlik yo'li bilan gunohdan qutulib bo'lmaydi – talantlar to'g'risidagi rivoyatda xuddi shunday deyilgan... Hayotdan manfaat ko'rmoqchi bo'lgan odam, gunohdan qo'rqmaydi... Xatosini xudoning o'zi kechiradi... Xudo odamni hayotni qurish uchun yaratgan...

biroq aqlni unchalik ko'p bermagan, shuning uchun boqimandasini u qadar qattiq talab qilmaydi!.. Chunki U zoti pok va shafqatlidir...

Chol bir lahzalik, lekin qattiq jon talvasasidan keyin ko'z yumdi...

Yejovni paroxodda bo'lgan voqeadan keyin nima uchundir shahardan surib chiqardilar.

Shaharda «Taras Mayakin va Afrikan Smolin» firmasi degan katta yangi savdo shirkati ochildi...

Shu uch yil mobaynida Foma haqida hech gap eshitilmadi. Aytishlariga qaraganda, kasalxonadan chiqqandan keyin Mayakin uni allaqayoqqa, onasining Uraldagi qarindoshlarinikiga jo'natgan edi.

Yaqinda Foma shahar ko'chalarida paydo bo'lib qoldi. U juda ham achinarli holatda, telbanamo bo'lib qolgan. U doim ichib olib, goh xo'mrayib, qoshlarini chimirib, goh devonadek muloyim iljayib, boshini xam qilgan holda yuradi. Goho u quturib janjalkashlik qiladi, biroq bu hol kamdan kam ro'y beradi... U opasining hovlisidagi hujrachada yashaydi.

Uni taniydigan savdogarlar va shahar xalqi ko'pincha uni ermak qilib kulishadi. Foma ko'chada ketayotganda qo'qqisdan birontasi chaqirib qoladi:

– Hoy, avliyo! Bu yoqqa kel-chi!

Foma chaqirgan odamning oldiga kamdan kam boradi, ko'pincha odamlardan qochadi, ular bilan gaplashishni yomon ko'radi. Lekin u borgudek bo'lsa:

– Qani, qiyomat to'g'risida bir narsa demaysanmi, a? Xe-xe-xe! Avliyo! – deb masxara qilishadi...

24691,65 сум.

14

M. Gorkiy

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7331-3-8
9 789943 733138